



**Бугунги кун  
ижстимоий-психологик  
муаммоларининг ўзига хос  
хусусиятлари**



ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАР ИТТИФОҚИ

ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК  
ХИЗМАТ КҮРСАТИШ МАРКАЗИ

«БУГУНГИ КУН ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК  
МУАММОЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ»  
МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ

Мақолалар тўплами  
1-қисм

Тошкент-2021

Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2021. – 262 бет.

Мазкур тўплам “Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари” мавзусига бағишилаб ўтказилган Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларниң ижтимоий-психологик, ҳукуқий муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларниң хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларниң ёшлар рухиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларниң долзарб йўналишлари, бу борада йигилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, психология бўйича илмий изланишлар олиб борувчи тадқиқотчилар, психологияга қизиқувчи турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган.

**Таҳрир кенгаши  
аъзолари:**

Ўзбекистон халқаро ислом академияси “Дин психологияси ва педагогика” кафедраси мудири, пед.ф.н., доцент З.Х.КАСИМОВА

Ўзбекистон халқаро ислом академияси доценти, психол.ф.н.,  
Х.М.АЛИМОВ

Ўзбекистон халқаро ислом академияси катта ўқитувчиси,  
Психология фанлари бўйича PhD  
М.Р.АКРАМОВ

Ўзбекистон халқаро ислом академияси ўқитувчиси  
А.С.НАЗАРОВ

Ўзбекистон халқаро ислом академияси таянч докторанти,  
С.С.ҚАҲХОРОВ

«Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ўзбекистон ёшлар иттифоқи муассислигидаги Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2021 йил 31 марта 2021-2022 соли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг холислиги ва ишончлилигига муаллифлар масъулдирлар.

## **ЁШЛАРНИ ЯРАТУВЧИ ШАХС СИФАТИДА ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ**

*Mирқосимова Марғуба  
ЎзХИА “Дин психологияси ва педагогика”  
кафедраси профессори, пед.ф.д.*

Педагог олимларнинг кузатишларидан маънавий инқирознинг бош сабаби тарбияга келиб тақалиши асосланди. Тарбия бола туғилгандан бошлаб оилада, таълим масканларида амалга оширилади. Шахснинг шаклланиши ҳам оиладан бошланади. Боланинг хаёли чексиз, туйғулари нозик ва беғубор. Улар катталардан, ўз дунёсига яқин кишилардан, меҳрини қозонган одамлардан ибрат олишади. Фарзандларимизнинг жамиятда фаол, яратувчи шахс сифатида шаклланишларида қандай психологик омиллар аҳамиятли?

Биринчи галда таълим-тарбия жараёнига ёшларнинг онгли, ижтимоий фаол муносабатларга киришуви муҳим аҳамиятга эга. Ўқувчиларда шахслик сифатлари ҳамда юксак инсоний туйғуларни шаклланишида таълим жараёни ташкилотчиси – ўқитувчининг роли бекиёс. Зотан, миллий тарбияшунослигимиз ўзига хос такрорланмас хусусиятларга эга. Ҳар бир халқнинг ўзига хос тарбия усуллари, урф - одатлари, анъаналари мавжуд бўлиб, шу халқ тарбияшунослигининг асоси ҳисобланади ва улар бир-биридан маълум хусусиятлари билан фарқ қиласди. Миллий педагогикамиздаги бошқа халқлар тарбияшунослигидан фарқли бўлган асосий жиҳатлар миллий тарбиямизнинг қатор теран илдизларидан озуқа олишда кўринади. Улар қўйидагилар:

1. Халқ педагогикаси: ўзбек халқнининг қадимий урф-одат ва удумлари; миллий тарбиянинг ўзига хос жиҳатларини ўзлаштириш.
2. Ислом динининг бола тарбияси борасидаги қарашлари; «Қуръони Карим» ва «Ҳадиси Шариф»даги бебаҳо фалсафий қарашлар моҳиятини бугунги таълим ва тарбия мазмунига сингдириш.
3. Тасаввуф таълимотининг комил инсон ҳақидаги қарашлари .
4. Дунё олимларининг ҳар жиҳатдан етук шахсни шакллантиришга доир қарашлари.
5. Хорижий мамлакатлар педагогикасидаги илғор тажрибалар.
6. Миллий истиқлол ғояси ва миллий мағкурунинг етакчи тамойиллари бугунги таълим жараёнини ташкил этишда етакчи асослар бўлиб хизмат қиласди.

Миллий педагогикамизнинг мазкур манбалари миллат ва жамият маданий-маънавий юксалишида, ёшларда юксак инсоний туйгулар ҳамда шахслик сифатларини шакллантиришда қудратли омил бўлиб хизмат қиласди.

«Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури»да: «Халқнинг бой, маънавий, интеллектуал мероси ва умумбашарий қадриятлар асосида таълимнинг инсонпарварлик йўналишини таъминлаш» – педагог-кадрларни тайёрлаш ишининг муҳим жиҳати эканлиги таъкидланган. (8.27.)

Ўрта Осиёning қадимги мактаб ва қориҳоналарида одатда имом, сўфи, домла, мулла, отинбувилар машғулот олиб боришган. Улар асосий эътиборни тарбияланувчининг тарбияланганлик даражасини оширишга қаратганлар. Чунки ўша давр учун ёзишни билишдан, турли дунёвий билимларни ўзлаштиришдан ҳам шогирдларни **маънавий фазилатли** инсонлар сифатида шакллантириш муҳим ҳисобланган. Шу сабабли устозлар ота-она каби табаррук зот сифатида қадрланган. Ўзбек халқи илм аҳлига, устоз шахсига ҳурмат ва эътибор билан ёндашган, уларни мўътабар зот сифатида эъзозлаган. Бу ҳол халқнинг бир қатор урф-одатларида ўз аксини топган. Бўладиган катта-кичик йиғинларда устоз энг юқори ўринларга ўтқазилган. Дастребки сўзни албатта устоз бошлаб берган. Кураш давраларида полvonлар ўз устозларидан фотиҳа олишган; уларнинг ёқасини ушлашни уят деб билишган. Бу одатларнинг барчаси устозга бўлган ҳурматнинг ифодасидир. Аждодларимиз устоз шогирд учун ҳар томонлама намуна бўла оладиган етук шахслар бўлиши шартлигини таъкидлаб, муаллим ота-она каби улуғ зот деб ҳисоблаган. «Устоз – отангдай улуғ» мақоли бу фикрнинг исботидир. «Доно устоздан аъло шогирд чиқади», «Устози қандай – шогирди шундай», «Дараҳтига қараб меваси, устозга қараб шогирди», «Дараҳтнинг ҳусни – барги билан, меваси – илдизи тани билан», «Устоз меҳри, она меҳри эгизак» каби халқ мақолларида олам-олам маънолар мужассам. (4.21.)

Ат-Термизий тўплаган ҳадисларида таъкидланишича, бошқаларга ўrnak бўла оладиган инсонда қуидаги сифатлар бўлмоғи жойиз: «Ҳар бир кас ва нокасдан илм олинмасин. Дини йўқ инсонга эргашмак ҳалокатнинг ўзидир. Ҳадис, тафсир, фикх, тавҳид, ахлоқ ва бошқа тамоми диний илмлар... воситалари ила инсон ўз динидан таълим олур. Диндорлик аҳкомини ўрганур, анинг учун дин оламида, диндор тақволик устозни билиб, топиб, андин илм касб этиш лозимдур. Устознинг шогирд ва муридга асари буюк бўлур». Ҳадисларда таъкидланганидек: «Кўнгилларнинг бир-бирига яқинлигидек нарсани биз кўрмадик». (5.92.)

Қачонки, устоз ва шогирднинг муносабати диллар омуҳталиги билан боғланса, бир-бирига инсоний муносабат мавжуд бўлса, шундагина бола қалбida **эзгулик** гуллайди.

Тарбия иши муваффақияти устоз ва шогирдлараро инсоний меҳр-муҳаббат замирига яширганлиги таъкидланади: «Ким меҳрибонлик қилмас экан, меҳрибонлик кўрмайдир». Таълим-тарбия жараёнининг асосий тавсифи ушбу ҳадисда ўз ифодасини топган, дейиш мумкин: «Шошмағил хушмуомала бўлғил. Сенга қўполлик, бадхулқлик ярашмайди», – деб уқдирилади. (5.102.) Инсоний муносабат тарбия ишининг, маънавий камолотнинг самарали омили деб қаралади. Ҳадисларда таъкидланишича, ҳар қандай ишнинг мажбурий бўлиши салбий оқибатларга олиб келади. Таълим ва тарбия бериш ҳам бундан мустасно эмас. «Мажбур қилмоқ – жабр қилмоқдир», – деган ҳадис бу фикрнинг тасдифидир.

Фаробий фикрича, бошқаларга ўrnak бўла оладиган шахс баҳт-саодатга олиб борадиган воситаларни билиб олиб, бу ишларни шахсан бажаришга киришмоғи лозим. Ўзидан бошқаларга раҳбарлик ва раҳнамолик қилиш, уларни баҳт-саодатга эришув даражасига кўтариш ҳар кимнинг ҳам қўлидан келавермайди. Шунинг учун ҳам бошқаларга ўrnak бўла оладиган, ўзгаларни ўз ортидан эргаштира оладиган инсон шахсида «ўткир зеҳн-идрок, эзгу фазилат бўлсин.” У ўзининг қобилияти ва идрокини эзгу ишларга сарфласин, ёмон ишлардан ўзини сақласин. Инсон ақл ва тажрибага таянса, донолик донишмандликка эришмоғи мумкин.

Ибн Сино эса : «...яхши ҳислатлар ичидаги болага эътибор ва ғамхўрлик билан муносабатда бўлиш» аҳамиятли деб ҳисоблайди. Бошқа одамларни тарбияламоқчи ва унинг ахлоқини тузатмоқчи бўлган тарбиячи, аввало, шогирдини яхши билиши, севиши зарур. « Устозлар юмшоқ кўнгил бўлиши, болалар қандай бўлса, шундайлигича яхши кўриши керак.» Акс ҳолда, тарбиячи ўз олдига қўйган мақсадини амалга ошира олмайди. Болани севиб, унинг ҳар бир хатти-харакатини қадрлаб ёндашилсагина, «улардаги ҳар бир нарса, ҳар бир ҳаракат роҳат бағишлидай», – деб таъкидлайди Беруний. Алломанинг уқдиришича, фидойи инсонларни тайёрлаш ва уларнинг муҳаббатига сазовор бўлиш учун «Ўзни фидо этиш» – жоиз. «Ўзгаларга ғамхўр ва мушфиқ бўлиш, ҳар бир ишни ўз ўрнида ва ўз вақтида адо этиш»га даъват этиш зарур. (3.36.)

Миллий тарбияда, педагогикамиз тарихида **болаларни севиши** устоз учун муҳим фазилат ҳисобланган. Навоий ўзининг «Маҳбуб ул-кулуб» асарида устозларнинг шогирдларига муҳаббати, меҳрибонлиги ва самимий муносабатини тарбия ишидаги самарали психологик омил ҳисоблайди. «Жоҳил, ёш болаларни азоблаш ва калтаклашга ўрганган, раҳмсиз кўнгли тош», – домлаларни қаттиқ танқид қилди. Навоий айтишича: «Кичиклар меҳрини улуғлар кўнглига солади ва у муҳаббат кўнгилда абадий қолади... улар ораси-да бўладиган ҳурматсизлик эшигини бекитади, боғлайди ва кишини ҳазил-мазаҳдан ва камситишдан сақлайди, бола табиатини инсонлик йўлига солади, одамгарчилик манзилида ором беради». (2.81.)

**Хушмуомалалик** – устоз шахсининг муҳим сифатларидан ҳисобланиб, мутафаккирлар фикрича, бошқаларнинг муҳаббатига сазовор бўлишнинг зарур шарти. Устознинг хушмуомалалиги натижасида шогирднинг «дўстлиги, уларнинг бир-бирига меҳр-муҳаббати борган сари ривож топади». Навоий бу сифатни таърифлаб, «мулойим табиатлилик (хушмуомалалик) инсон вужудининг хушманзара мевалик боғидир ва одамийлик оламининг жавоҳирга бой тоғидир, деб ёзган.

Хусни жамолсиз киши ширин калом эса,

Сайд айлар элни нўкта фасоҳат билан деса.

Яъни: Хусн-жамоли йўқ одам ширини сўз бўлса, гўзал ва ширин сўзи билан барчанинг кўнглини овлайди». (2.68.)

Психологларнинг фикрича, ўқувчи ё талабанинг рухияти дарсни ўзлаштириш ва машғулотда фаол иштирок этиши учун энг муҳим жиҳат ҳисобланади. Педагогнинг муомаласи, мулойимлиги ўқувчидағи ҳар қандай руҳий ҳолатни ўзгартира олиши мумкин..

Агар педагог ўз машғулотларида таъсирчан, равон, тушунарли, жозибали нутқи билан фикр билдиrsa, тингловчиларни бефарқ қолдирмайди. Айни сифатлар шахс сифатларига айланиши учун замин яратилади. Шахслик сифатларининг таркиб топишида фидойиликка ундаш, бу борада намуна кўрсатиш алоҳида педагогик ва психологик омил ҳисобланади.

**Фидойилик** ўзгалар зарурияти учун ўзида бор нарсани аямасликдир. Шахс сифатида шаклланиб борар экан, ҳар бир ёш даврининг ўз хусусиятлари эътиборга олинниши керак. Ўз буюмлари, нарсаларини ўртоқларидан қизғанмайдиган бола келажақда ўзгалар зарурати учун олижаноблик кўрсатишга интилади, ҳамиша ёрдам қўлини чўзади. Бу хусусиятни ривожлантириш натижасида ўзлигини эл-юрт манфаатлари учун фидо қилишга қодир шахслар шаклланади. Демак, устоз ва шогирдлар ўртасидаги маънавий ҳамжиҳатлик ёшларни фаол, яратувчи шахс сифатида шаклланишларидағи психологик омил ҳисобланади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ал Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. Т., «Ўзбекистон», 1990. 102-б.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб. Т., F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – 1993. 98-б.
3. Алметов Н.Ш. Ўқув тарбия жараёнида халқ педагогикаси тарбиявий имкониятларидан фойдаланиш. Чимкент, 1992. 36-бет.
4. Донолар бисотидан. Т., «Ёш гвардия» нашриёти, 1976. 42-48-бетлар.
5. Ат-Термизий. Шамойили Муҳаммадийя. Т., «Чўлпон», 1993. 92-бет. Барча кўчирмалар ушбу нашрдан олинди.

## **ҚОБИЛИЯТ ВА ЭТИКА РАҲБАР ШАХСИНИНГ КОМПЕТЕНЦИЯСИ СИФАТИДА. ТАҲЛИЛ ВА ТАЛҚИН.**

Зебо Касимова,  
Ўзбекистон ҳалқаро ислом академияси  
“Дин психологияси ва педагогика”  
кафедраси мудири, пед.фналар номзоди, доцент.

Шоҳруҳ Шодибоев,  
Ўзбекистон ҳалқаро ислом академияси  
Дин психологияси мутахассислиги 1-курс магистранти

Классик профессионаллик ҳар доим юқори ривожланган қобилияларга боғлиқ бўлади. Менежер учун интеллектуал қобилият муҳим аҳамиятга эга. Бунда когнитив фазилатларнинг ажралмас тўплами ва унинг юқори чўққиси тафаккур ҳисобланади. Менежер ақлли шахс бўлиши талаб этилади. Унинг ақл-идроқи кенглиги (тизимли, панорамик, кенг қамровли, ўта вазиятли) ва ижтимоий ҳамда бозор ҳақиқатини, унинг ичидаги фаолияти, амалийлиги, аналитик ва синтетик характери ("ҳамма нарсани жой-жойига қўйиш" қобилияти) билан фарқ қилиши керак. Тасаввур, равшанлик, мантиқлилик, танқидийлик, башорат, тезлик, ҳаракатчанлик, жасорат (фикрларни тан олиш ва бошқалар учун имконсиз бўлиб кўринадиган нарсани жиддий қўриб чиқиш қобилияти), ноаниқликка қаршилик кўрсата билиш.

Интелектнинг ижодий намоён бўлиши (ижодий қобилият) менежер томонидан қўйидагича ифодаланади:

- a) янгиликни доимий қидириш ҳисси;
- b) ўз фаолият соҳаси билан боғлиқ сўнгги илмий ва амалий ишланмаларни кузатиш;
- c) ижодий иштиёқ билан бошқаларни руҳлантириш қобилияти;
- d) илмий ва технологик тараққиётнинг энг яхши ютуқларидан самарали фойдаланиш қобилияти;
- e) тезкорлик, зукколик, ижодкорлик (бу сифатнинг асосий қўрсаткичи, мумкин бўлган ҳамма нарса амалга оширилганда, умидсиз бўлиб туюлган вазиятлардан чиқиш йўлларини топиш қобилиятидир);
- f) демократик тафаккур - бўйсунувчиларнинг фикрлари ва хатти-ҳаракатларига тўсқинлик қиласлиқ, бошқаларнинг таклифларини тинглашга ва уларни дикқат билан қўриб чиқишга тайёрлик. Лекин бошқаларнинг таъсирига ҳаддан ташқари мойиллик шарт эмас ва муҳокама қилинган, қабул қилинган қарорларни бажаришда қатъийлик кўрсатиш;

g) янги маҳсулотлар ва таклифларни малакали баҳолаш, фойдали, бизнесни проекцион, саргузаштлардан ажратиш қобилияти;

h) ишнинг манфаати учун бошқаларнинг таклифларидан, гарчи улар ўзларининг позицияларига зид бўлса ҳам, фойдалана олиш, лекин ундан ўзининг устуналигини намоён қилиш.

Менежер ўзининг ихтиёрий фазилатлари билан боғлик бўлган асосий иш қобилиятига: фаоллик, қатъиятлилик, ташаббускорлик, мустақиллик, ташкилотчилик, аниқлик, интизом, мулоиймлик, қатъийлик, чидамлилик, жасорат кабиларга эга бўлиши мақсадга мувофиқдир. Жавобгарликни ҳис қилиш, жавобгарлик юкининг оғирлигини ва жавобгарликни ўз зиммасига олиш жуда муҳимдир.

Ишбилармонлик қобилиятининг маҳсус грухи бу ташкилий қобилиятдир. Л.И.Уманский томонидан ишлаб чиқилган тузилмага қуйидагилар киритилади:

- жамоатчилик шижаоти - одамларга ҳиссий-ихтиёрий таъсир этиш, мисол орқали таъсир қилиш, тушунтиришларнинг ишонарлилиги, таклиф кучи, ишонч, ўзига ва бошқаларга нисбатан қатъийлик;

- тадбирларни ташкил этишга мойиллик - ташкилий ишларга ташаббускорларни жалб қилиш, ташкилотчининг вазифалари ва масъулиятини, ташкилий фаолиятда номувофиқлик, ташкилий иш пайтида соғликнинг ҳиссий-ижобий ҳолати;

- психологик танловчанлик - психологик кузатиш, тез, аниқ ва қўпинча онгсиз равиша бошқа одамларнинг психологик хусусиятлари ва шароитларини англаш; бошқа одамлар дуч келадиган нарсаларга ҳамдардлик; одамларнинг психологик аҳамиятли хусусиятларини тавсифлашда юқори сезувчанлик ва хис-туйғулар, уларнинг ҳамда бошқа одамларнинг хулқ-авторини психологик таҳлил қилиш ва психологик изоҳлашга мойиллик;

- амалий психологик онг - одамларнинг шахсий хусусиятларини яхши ҳисобга олган ҳолда вазифалар ва мажбуриятларни моҳирона тақсимлаш; одамларни тушуниш қобилиятини талаб қиласиган вазиятларда тезкор йўналиш; шахсий ёқтириш ва ёқтирасликларни, вазифаларни бажариш учун груухларни ёллашда одамлар ўртасидаги муносабатларни ҳисобга олиш; одамларни рағбатлантириш қобилияти;

- *психологик тактика* - одамларга етарлича таъсир кўрсатиш даражасини танлаш; сухбатдошнинг индивидуал хусусиятларига мос равиша нутқни мослаштириш; алоқа мазмунини индивидуаллаштириш; одамлар билан муносабатларда эҳтиёткорлик, ҳамдардлик; алоқада соддалик ва табиийлик, турли одамларга мурожаат қилишда адолат ва холислик ҳисси.

Менежер учун экстремал қобилияйт - бозор хусусиятларига қўра қутилмаган, қийин, хавфли вазиятларда ўзини тутиши ва ҳаракатлари талабларига жавоб берадиган индивидуал хусусиятларининг юқори даражаси алоҳида аҳамиятга эга. Улар орасида: экстремал психологик барқарорлик, хавфга қаршилик, ҳаддан ташқари стрессга берилиш, шовқин иммунитети, узоқ муддатли барқарорлик, асабий жараёнларнинг кучи ва бошқалар алоҳида ўрин тутади. Экстремал барқарорлик ва форс-мажор ҳолатларида самарали ҳаракат қилиш қобилияти, шунингдек, маҳсус экстремал тайёргарликка ҳам боғлиқ: экстремал хабардорлик, экстремал машғулотлар, шахсий хавфсизликни таъминлашга тайёрик.

Менежердан нафақат потенциал қобилиятларга эга бўлиш, балки мавжуд фазилатларни намоён қилиш ва яхшилаш имкониятига эга бўлиш ҳам талаб этилади. Бунда энг муҳими профессионал ривожланган психологик фазилатларда ифодаланган касбий ривожланган қобилиятлардир. Улардан энг муҳимлари орасида:

- бозор ва иқтисодий фикрлаш;
- бошқарув фикрлаши;
- қузатув;
- хотира;
- алоқа;
- ташкилийлик, аниқлик ва мажбурият;

Хушёрлик, касбий психологик барқарорлик ва ўзини ўзи бошқариш қобилиятлари ва одамлар билан ишлашга тайёрик.

Одамлар билан ишлаш қобилияти ўзаро тушуниш ва ишонч, садоқат, умумий қарашлар ва ахлоқий қадриятларни баҳам қўришни, бир-бирларини қўллаб-қувватлашни талаб қиласди. Бу муносабатлар корхонанинг ичида ҳам, ундан ташқарида ҳам ташқи шерикларнинг, умумий ва алоҳида шахсларнинг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда қурилган ва улар учун фойдали бўлиши керак.

Менежернинг одамлар билан ишлаши қўшимча равишда унинг касбий (касбий-педагогик ва касбий-психологик) тайёргарлигига боғлиқ. Илмий бошқарув фақат одамлар билан илмий асосланган иш олиб борилганда иш беради, бу эса ушбу икки турдаги тайёрикни шакллантиришни тақозо этади. Биринчидан, психология фанининг тавсияларига асосланган психологик баркамол етакчиликка тайёрик, иккинчидан, педагогика тавсиялари асосида одамларни ўқитиш ва ривожлантиришга тайёрик. Иккала фан ҳам менежернинг маҳсус психологик ва педагогик маҳорат, қобилият, одатлар, ички нуқтаи назар ва технологиялар билан ишлашнинг психологик ва педагогик масалалари бўйича аниқ билимларга эга бўлиши учун хизмат қиласди.

Рахбар этикавий хатти-харакатларининг аҳамияти унинг қуи бўғинлар билан муносабатида намоён бўлади. Бу барча хорижий нашрларда қайд этилган ва менежерлардан амалий ишларда талаб қилинади. Хориж матнларида ҳам «ахлоқ» сўзининг маъноси ўзбек тилидаги «ахлоқ» ва «ахлоқий» сўзларига тўғри келади. Биз бошқарувнинг ижтимоий масъулияти ҳақида гапирганимизда унинг марказида бу масъулиятни ва унга мувофиқ хатти-харакатни тушуниш, таъкиқланган ва мажбурий қадриятларга қатъий риоя қилиш,adolat, меҳрибонлик, шараф, садоқат, сўз ва хатти-харакатларга содиқлик ва бошқалар ётади.

Жаҳон амалиётида корхоналар ўzlари менежерлар ва оддий ишчиларнинг ахлоқий хатти-харакатларини, айниқса, мижозлар билан ишлашда ошириш учун турли хил чоралар кўради.

Ахлоқий стандартлар ишлаб чиқилган ва ташкилотнинг фикрига кўра, умумий қадриятлар ва ахлоқий қоидалар тизимини тавсифлайди. Баъзи ташкилотларда ахлоқий одатларни ҳар куни баҳолаш учун доимий равишда ахлоқий меъёрлар ишлаб чиқиши билан шуғулланадиган қўмиталар тузилади. Бундай қўмиталарнинг деярли барча аъзолари юқори даражадаги менежерлардир. Баъзи ташкилотлар бундай қўмиталарни шакллантирмайдилар, лекин иш этикаси бўйича мутахассисни ёллайдилар. Унинг вазифаси ташкилотнинг хатти-харакатлари билан боғлиқ ахлоқий масалалар бўйича қарорларни ишлаб чиқиши, шунингдек, ташкилотнинг "ижтимоий виждон" функцияларини бажаришdir.

Ахлоқий хулқ-атворга ўргатиш ҳамда менежерлар ва бошқа ходимларнинг ахлоқий хатти-харакатларини ташки мажбурлаш чораларидан ички мажбурлаш эҳтиёжига айлантириш учун касбий ва ахлоқий ривожланиш жуда муҳимдир. Менежерлар меҳнат фаолияти ахлоқи билан яхши таниш бўлиши керак, бу уларнинг ахлоқий муаммоларга мойиллигини оширади, натижада ахлоқий меъёрларга риоя қилиш одат тусига киради ва кейинчалик эҳтиёжга айланади. Шунинг учун бу иш менежерлар касбий тайёргарлигининг ажralmas қисми бўлиши керак.

Албатта, рақобат, максимал фойда олиш истаги ва бозор ҳаётининг бошқа ҳолатлари кўпинча, менежерни фойда олиш учун ахлоқий меъёрларни, виждонни, шахсий қадр-қимматни менсимасликка ундейди. Аммо ўқитувчилар, шифокорлар, ҳисобчилар, судьялар ва бошқа касб вакиллари, шу жумладан, оддий ходим ҳам худди шундай ниятларга эга. Аксарият ҳолларда ахлоқий тарбиялаш, одоб-ахлоқ, виждонлилик, ўзига хурматни йўқотишни истамаслик кўринишидаги ички «тормозлар» ғалаба қозонади. Бозор фаолияти субъектлари учун ўзларининг асослилиги бундан мустасно, улар ўз ҳаракатларининг "охирги натижа воситаларини оқлайди" формуласига биноан ўзларининг хатти-харакатларини

оқладиган асослар мавжуд эмас. Адолатсиз воситалар орқали мақсадга эришиш менежернинг ахлоқий принциплариға зиддир.

**АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. - Т.: 2007.
2. Назаров А. Менежмент ва маркетинг психологияси.-Т.: 2020.
3. Старобинский Э.Е. Как управлять персоналом. М.: 1995.
4. Хараш А. У. Руководитель, его личность и деятельность. — М.: 1981.

---

**KREATIVLIK IMKONIYATI IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO  
SIFATIDA**

*Muxamedova Dilbar Gafurjanovna  
O'zbekiston Milliy universiteti professori, P.f.d,*

*Nuriddinov Bunyod Xurshid o'g'li  
O'ZMU Psixologiya yo`nalishi 2-kurs magistri*

O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasini isloh qilishdagi sa`y harakatlarining biri – bu bo`lajak kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko`nikma, malaka va madaniyatga hamda psixologik jihatdan mukammal xarakterga ega bo`lishlarini talab etmoqda. Bu esa o`z-o`zidan ta`lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o`rganuvchi pedagogika va psixologiya sohasiga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta`siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o`rganishni talab etmoqda. Kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi ilmiy maqolamizning ahamiyatlilagini ijtimoiy nuqtai nazardan bir ko`rinishi hisoblanadi.

Kreativlik muammosi bugungi kunga qadar ko`plab G`arb mamlakatlarida hamda Rossiya davlatlarida turlicha tahlil etilgan va o`rganilgan. Masalan, N.N. Nechaev, Ya.A. Ponomarev, B.M. Teplov, D.V.Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiylarida o`rgangan bo`lsalar, N.A. Berdyayev, V.S. Bibler, V.N. Drujinin, P.A. Florenskiylar kreativlikning ma`naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan. E.Yu.Artemeva, E.P.Torrens, A.N.Leontevlarning ilmiy ishlarida kreativlik shaxsning ijtimoiy-psixologik jihatdan muhokama etilib, kreativlikni tashxis qilish masalalari tahlil etilgan. Ayniqsa kreativlikni tashxis qilish metodlarini ishlab chiqish ilm-fan sohasidagi asosiy muammolarning biri hisoblanadi.

XXI asrga kelib O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasida ham ushbu termin ishlatala boshladi. Ayniqsa pedagogika fanining alohida va yosh tarmog`i sifatida shakllanib boshlagan Innovatsion pedagogikada Ushbu terminga takror duch kelmoqdamiz. J.G.Yo`ldoshev, R.A.Mavlanova singari ko`plab pedagog olimlarimizning ilmiy ishlarida kreativlik – bu innovatsion faoliyatning alohida ko`rsatkichi sifatida tahlil etilgan. R.A.Mavlanova o`zining «Boshlang`ich ta`limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» nomli o`quv qo`llanmasida kreativlikning o`zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to`xtab o`tgan. Qo`llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jixatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob`ekti sifatida tatqiq etilmagan.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o`sha jamiyat fuqarolarining ma`naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog`liq. Shunday ekan, ma`naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to`laqonli shakllanmagan shaxsda o`z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg`usi sayoz bo`ladi. Bu holat O`zbekistonning bozor munosabatlariga xos shart-sharoitlarida yaqqol ko`zga tashlanmoqda. Bu borada birinchi Prezident I.A.Karimov “Ma`naviyat tarbiyaning eng ta`sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo`ylik, xaqsevarlikka o`rgatish kerak bo`ladi. Aslini olganda, axloq ma`naviyatning o`zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomilaligidagin iborat emas. Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg`usi, imon, halollik...” ekanligini alohida uqtirib o`tgan. Ushbu metodologik fikrdan kelib chiqib, shuni aytish lozimki, agar shaxs o`quv - bilish va tarbiyaviy faoliyatning maqsadini bilmasa, tarbiyachi - o`qituvchi tomonidan qo`yilgan vazifalarni tushunmaydi hamda qabul qilolmaydi. Shaxsning majburiyati qiziqish asosida bo`lmay, balki majburiy, sun`iy va lozim bo`lsa tazyiq ostida sodir bo`ladi. Bu esa undagi kreativlik xususiyatini yuzaga chiqaruvchi nerv-fiziologik tizimidagi maxsus nuqtalar ishini susaytiradi. Shu o`rinda kreativlik fiziologik asoslari xususida to`xtalsak. Kreativlik qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi nuqtalar asosan miyaning o`ng yarimsharida joylashgan bo`ladi. Uzoq vaqt davomida olimlar ijodkorlik uchun qaysi yarim sharning javobgarligi haqida bahslashishgan. Biror narsani tasavvur qilishning o`zi etarli emas, uni ramzlar va belgilar orqali haqiqatda qayta yaratish zarur. Hech kimga sir emaski, bizning fikrlash qobiliyatimiz miyamizga yuklatilgan. Bundan tashqari, miyaning funksiyalari quyidagilarni o`z ichiga oladi: harakatni muvofiqlashtirish, nutqni yaratish va dekodlash, atrofdagi va ichki dunyo haqida ma'lumotni qayta ishlash, rejalashtirish, e'tibor, qaror qabul qilish, xotira, hissiyotlar. Miya asab tizimining asosiy qismidir va asab hujayralarining murakkab tizimidir. Biz uchun shaxsning oliy nerv faoliyatiga doir ko`plab ma'lumotlar ma'lum. Avvaliga shuni ta'kidlash kerakki, miya beshta bo'limdan iborat: medulla oblongata, orqa miya (ko'priq, serebellum), o'rta miya, diensefalon va old

miya (miya yarim sharlari). Hukmron chap yarim sharda va juda zaif o'ngda, iqtidorli olim matematik formulalar tarmog'iga yangi hajmlarni kiritish orqali kashfiyotlardan ilhom ololmaydi. Faqatgina PL va PPning muvofiqlashtirilgan ishigina muvaffaqiyatli va uyg'un shaxsni shakllantiradi. Shuningdek, miyaning o'ng yarim sharini rivojlantirish uchun ma'lum mashqlar mavjud, ammo eng yaxshi usul - bu san'at va musiqa bilan bog'lanish, ulardagi tasvirlarni tushunish istagini mavjudligi hisoblanadi.

Bolalar qarib ulg'aygan sari, chap yarim shar ustunlik qila boshlaydi, ayniqsa maktabda stressning kuchayishi bilan. Kamdan kam hollarda LPning tug'ma dominanti bo'lgan bolalar mavjud. Ular matematik muammolarni osongina yechishadi, ular erta yoshdanoq pedantriya va tirishqoqlik bilan ajralib turishadi: turli xil to'plamlarni yig'ib olishadi, tarkibiy qismlarni rangi va o'lchamlari bo'yicha ajratib olishadi. Bunda, albatta, ideal holda, ikkala yarim shar ham teng ravishda rivojlanishi va muammosiz ishlashi yuzaga keladi. Shunday qilib, o'ng yarim shar yetarlicha rivojlanmagan deb hisoblansa, musiqa, raqs, rasm, fotosurat va shunga o'xshash predmetlar bilan ko'proq shug'ullanish tavsiya etiladi. Aksincha, mantiqiy jumboqlarni hal qilish borasida, chet tilini o'rganish yaxshi samara beradi. Bu esa umumi shaxsda kreativlik qobiliyatini yuzaga keltiradi va rivojlaniradi.

Psixologiya sohasida kreativlik aktning tuzilishi ishlab chiqilgan va bunda kreativlikni tashkil etuvchi elementlar: transtsendentsiya va signifikatsiya sifatida tahlil etilgan. Kreativlik aktning ma`naviy-axloqiy yo`naltirilganligi masalasi uning strukturasiga nisbatan apellyatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o'rghanishdan iborat. Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo`nalishi ustida g`arb olimlari: J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan. Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R.Xameni yozadi: «Kreativlik o`zida yangicha yo`sinda amalga oshirilgan o`zlashtirish to`lqinini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodgers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e`tirozlariga sabab bo`luvchi faoliyatidir». Ko`pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o`ziga xosligi va xususiyatlariga e`tibor qaratadilar. J.Gilfordning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta`sir etuvchi omillar yig`indisi sifatida namoyon bo`ladi.

E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo`lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshidagi indentifikasiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi. (E.Torrens, 1996-y.). Kreativlik ijodiy tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda. Boshqa izlanishlarda ijodkorlikning yangilik

yaratishdagi yetakchiligi ta`kidlanadi. V.Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo`lgan ob`ektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg`unligi». Ko`rinib turganidek, kreativlik masalasi ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida tahlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog`liq ekanligi e`tirof etilgan. Agarda til va nutq inson psixikasining mahsuli sifatida namoyon bo`ladigan bo`lsa, uning shakllanishi va rivojlanishi pedagogik muammo sifatida ham tahlil etishni taqozo etadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch - T.: Ma`naviyat. 2008.
- 2.G`oziev.E.Psixologiya.–T.:O`qituvchi,1994.
3. Azizzxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. 2003
4. Karimova V. Akramova F. Psixologiya. – T.: 2000
5. R.A.Mavlanova .«Boshlang`ich ta`limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» O`quv qo`llanma. T.: 2013 y

---

## **ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИ ВА АМАЛИЁТИ БЎЙИЧА ОЛИБ БОРИЛГАН ЗАМОНАВИЙ ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАҲЛИЛИ**

*Алимов Хўжагелди Мустафоевич  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
“Дин психологияси ва педагогика” кафедраси  
доценти, психол.ф.н.*

“Тасаввуф психологияси”да фан сифатида маҳсус тадқиқотлар кейинги йилларда, аниқроғи тасаввуф психологияси тараққиётининг учинчи босқичига бориб олиб борила бошланди. “Сўфизм психологияси” номи билан Франциядаги Сарбонна университетининг профессори Жовад Нурбахшнинг китоби чоп этилди. У бир қанча тилларга таржима қилинди. Жумладан, рус тилига ҳам таржима қилинди [1]. Шуни таъкидлаш жоизки, мазкур асарнинг номи фан номи билан аталгани билан унда фан тўғрисида гап кетмайди. У тасаввуф таълимотининг муҳим масалалари, жумладан тасаввуф таълимотида ақл билан қалб муносабатлари, нафснинг тарбияси муаммолари ва х.к. сингари классик масалалар тўғрисида ёзади.

Жумладан, Ж.Нурбахш ўзининг “Сўфизм психологияси” асарида сўфий психикаси инсоннинг моддий табиатидан (нафс) яширин онгига қараб ҳаракат

қила туриб, қуидаги босқичлардан ўтишлиги таъкидланади (бу билан муаллиф нафснинг психологик табиатини очиб берган):

Нафс ичкарида бўлар экан, Аллоҳ инсондан яширин ҳолатда бўлади;

Ишончизликтининг асосида нафс истакларининг ижроси ётади;

Нафс тузилмасининг асосида хулқ-атвор қоидаларининг бузилиши ётади;

Нафс доимо таъкидланган нарсани истайди;

Нафс – худбин, алдоқчи ва санамга сифинувчан;

Нафснинг алдовларининг адоги йўқ;

Нафс кибрли ва ўзини ўйлайдиган;

Нафс қизғанчиқ;

Нафс дангаса [1].

Бироқ китобда фаннинг предмети, психологик фанлар тизимида туттан ўрни ва ҳ.к.лар ҳақида фикр юритилмайди.

Очиини айтиш лозимки, биз изланишларимиз жараёнида “Тасаввуф психологияси” фани тўғрисида фан сифатида бирорта ҳам қўлланмага дуч келмадик. Мазкур фан бўйича асосий психологик масалалар алоҳида тадқиқотлар даражасида амалга оширилган. Биз қуида шулардан айримларига қисқача тўхталиб ўтамиш.

Турк Миллий ассоциациясининг президенти Мустафо Мертелнинг тасаввуфнинг транспersonal психология билан алоқалари тўғрисидаги тадқиқотларини кўрсатишимиш мумкин. Олим терапиянинг методларини ўргана туриб, шахснинг руҳий саломатлигига олиб борадиган йўллардан бири муроқаба (медитация) амалиёти эканлигини таъкидлайди. Унинг фикрига кўра, охирги пайтларда одамларда депрессия ҳолатининг миқдори кундан кунга ошиб бормоқда. Айниқса, бу жараён Ғарбда кескин кучайган. Муаллиф бундай ҳолатни руҳий тарбиянинг заифлиги билан тушунтиради. Инсон нафси аммора таъсири ҳолатида депрессиядан қутилиб кета олмайди. Шунинг учун даволаш шахс ҳаётининг руҳий соҳаси билан боғлиқ кечади. Бунинг учун шахс турмуш тарзини ва фикрлар образини ўзгартириши лозим. Тадқиқотчининг фикрича, Қуръон одамларга содда қилиб буни тушунтириб беради. Инсон ўзини ўзи таҳлил билан шуғилланиши, тасаввудаги ўзини ўзи танқидга, муроқабага, нафсни поклашга ўтиши лозим. Назоратга олинмаган ва тарбия қилинмаган ҳар қандай нафс ҳақиқатни ёпиб турадиган парда ҳисобланади. Агар инсон, дейди Мустафо Мертел, истакларнинг қаршилигига қарамасдан нафс билан қашқатқич кураш олиб борадиган бўлса, қалбини тозаласа, нафсни тарбияласа, у фаришталардан ҳам юқори мартабага эга бўлади. Бошқача айтганда, тасаввуф таклиф этган турмуш тарзи инсонни депрессиялардан озод қиласиган муҳим амалиётдир, деган фикри илгари суради олим [3].

Яна бир психотерапевт Хуман Кешаварзий (Nooman Keshavarzi, США) шунга яқин фикрларни илгари суради. Маълумки, Хуман Кешаварзий ислом психологияси асосида ишлайдиган руҳий-психологик, клиник ва таълимий муассаса ҳисобланган Халил Марказда ишлайди. Бу Марказнинг филиаллари дунёнинг кўплаб давлатларида мавжуд. Тадқиқотчининг фикрича, психотерапевтик жараёнда маънавиятдан фойдаланмоқ керак. Айниқса, маънавиятнинг бир бўлаги ҳисобланган тасаввуф даволаш жараёнига ижобий таъсир кўрсатишилиги аниқланган. Бу таълимот инсон психологиясини билишга ёрдам беради. Муаллиф, шунингдек, инсон руҳиятини тушуниш учун ислом психологларига тасаввуфни чуқурроқ билиш талаб этилишини айтади.

Инсонни чуқур тушуниш учун ислом олимлари ғайб илми ҳисобланган “Ботин фиқҳи”га асосий эътиборларини қаратишади. “Ботин фиқҳи” – бу инсон борлигининг новербал соҳаси бўлиб, инсоннинг руҳий ҳолатлари ва табиати тўғрисидаги билимлар тўпламидан иборат. Тасаввуфдаги субъектив диний тажриба академик билимлар томонидан таҳлил қилинмоғи зарурлигини таъкиллайди муаллиф [6].

Англиялик олим, машҳур ислом клиник психологи Рашид Скиннер (Rasjid Skinner, Буюк Британия) асарлари ҳам Куръондан олинган ислом психологияси манбаларига бағищланади. У киши ҳам асосий эътиборини тасаввуф тажрибасига қаратади. Унинг фикрига кўра, инсонларни даволашда қалб, ақл, руҳ ва нафснинг учта даражасидан (нафси аммора, нафси лаввома ва нафси мутмаинна) фойдаланиш клиник амалиётда катта самара беради. Скиннер ўз тажрибасида Куръон ва ҳадислардан олган билимларини, тасаввуф амалиётидан ўрганган малакани қўллаганини айтади ва уларнинг яхши самара берганлигини таъкиллайди. Шунингдек, у қўрқув билан боғлиқ кечадиган касалликларда бу йўналишнинг кўпроқ натижа берганлигини айтади.

Скиннернинг фикрига кўра, инсоннинг ўз нафси билан кечадиган кураши турли хил амалга оширилиши мумкин. Масалан, нафс бу юрган ишнинг аксини қилиш орқали инсон уни тарбиялайди. Амалда бу машҳур исломий, тасаввуфий усулини қўллаш орқали амалга оширилади. Тасаввуф аҳли “киллати таом”, “киллати калом” ва “киллати менам” дейди. Бу кам емок, кам демоқ ва кам ухламоқ дегани. Нафсга қарши бундай курашда нафс инкор этилмаяпти, балки у назоратга олинаяпти. Мақсад ҳам нафсни тарбиялаш, поклаш ва Аллоҳ рози бўладиган ишларни қилдиришдан иборатdir [9].

Эътибор берилса, юқоридаги тасаввуфнинг психологик жиҳатлари тўғрисида тадқиқот олиб борган олимлар асосан психотерапия ва клиник психология соҳаси вакиллари ҳисобланади.

Маълумки, Туркияда “Сўфизм ва психология” деб номланган радио эшиттириш олиб борилади. Шу радио эшиттиришни олиб борадиган киши Сулаймон Дерим (Suleiman Derim) ҳисобланади. У киши ҳам тасаввуф психологияси бўйича бир қанча тадқиқотлар ўтказганлиги маълум. Унинг фикрига кўра, тасаввуфий матнлар психологик билимлар хазинаси ҳисобланади. Тасаввуф ва унга асосланган позитив психология инсон руҳини ривожлантириш калити ҳисобланади. Муаллиф Фаззолий, Румий ва бошқаларнинг асарларини психологик жиҳатдан таҳлил қилишга чақиради ва улар томонидан илгари сурилган ғояларни психология нуқтаи назаридан туриб тизимлаштириш лозимлигини ёzáди. Унинг фикрича, инсонда жисмоний, психик ва руҳий асослар яхлитликда мавжуд бўлади. Мазкур яхлитликни тушунган дин психологи инсоннинг ҳаётига ўзгартиришлар киритиши ва психологик муаммоларини ҳал этиб бериши мумкин бўлади [2].

О.С.Павлова ҳам “Тасаввуф психологияси”нинг бир қанча муҳим масалаларига тўхталиб ўтади ва қуидагиларни ёzáди: “Сўфий психологиясининг муҳим жиҳати – эзгулик ва ёвузлик тўғрисидаги тасаввур, шунингдек Шайтон (Иблис) образининг талқини. Бир қанча сўфийлар учун Шайтон – фожиали фигура: йўқ бўлган, умидсиз ва ёлғиз; Одамга хос бўлган илоҳий муҳаббатдан маҳрум бўлган бир кўзли интеллектуализмнинг тақлиди. Эзгулик ва ёвузлик муаммоси Шайтон мавзуси, шунингдек тақдир ва ирода эркинлиги ҳамда ўз қилган ишлари учун масъулият мавзуси билан боғлиқ” [3]. Таъкидлаш жоизки, олима “Тасаввуф психологияси” фани учун ўта муҳим бўлган масалаларни кўтаради.

Тасаввуф психологиясининг моҳиятини тадқиқ қиласар экан, Д.З.Хайретдинов уни инсоннинг ўз эго (“Мен”) си билан қиласиган жиҳоди деб баҳолайди. Муаллиф Аллоҳ розилигига яқинлашиш мақсадида амалга ошириладиган шахснинг ўзини ўзи такомиллаштиришини, ўз нафси билан кечадиган курашни тасаввуф эришиши лозим бўлган асосий мақсад, деб ҳисблайди. “Соғлом танада моддий ва руҳий аспектлар мувозанат ҳолатида бўллади ва улар ўзаро бир бирига таъсир кўрсатади. Бу иккита аспект бир бири билан чуқур чатишиб кетган; Бизнинг барча фикрларимиз ва ҳаракатларимиз ҳам моддий, ҳам руҳий асосга эга. Руҳсиз тана – бу мурда, танасиз руҳ эса шарпа. Афсуски, бизнинг жамиятимиз фақат моддиятга интилмоқда, бу кўплаб кишиларда юқорида айтилган мувозанатнинг бузилишига олиб келмоқда. Ислом психологияси мувозанатнинг сақланиши зарурлигига эътиборни қаратаяпти” [5].

Р.И.Суннатова ўзининг “Сўфийлар таълимотида шахс ва руҳият тараққиётининг психологик концепциясига шарҳ” мақоласида сўфий ҳол ва мақомларни бошидан кечираётгандаги эмоционал оламининг ўзига хослиги ҳақида ёzáди: “Тасаввуф концепцияси нуқтаи назаридан руҳий тараққиётнинг йўлларини таъминлашга хизмат қиласиган ўзга ва муҳим бўлган компонент инсоннинг

эмоционал олами, унинг кечинмалари ва ўз ҳиссиётларини жиловлаш қобилияти ва уларнинг қарама қаршилиги ҳисобланади. Иккилиқдан озод бўлиш ва кутилмалардан озод бўлиш инсон томонидан нафақат когнитив ва хулқ-автор даражаларида, балки аффектив даражада ҳам ҳис этилади” [4]. Сўфийдаги бундай аффектив ҳолат унинг бошқа одамларга, предметларга ва воқеа ҳамда ҳодисаларга нисбатан муносабатининг ўзгаришига сабаб бўлади, деган фикрни илгари суради олима.

Э. Фозиев тасаввуф таълимоти ва амалиёти тўғрисида бир қанча тадқиқотлар ўтказган. Олим тасаввуфнинг комил инсон масаласига эътибор қаратиб, комил инсон шаклланишининг психологик мезонларини тадқиқ қилган. Комил инсон масаласи тасаввуф таълимотининг марказий масалаларидан бири бўлиб, унинг шаклланишининг тизими пиру пиронларимиз томонидан мукаммал ҳолда ишлаб чиқилган. Э.Фозиев комил инсон ғояси билан баркамол авлодни шакллантириш ғояси ўртасидаги муштарак жиҳатларга эътибор қаратади ва шу муштараклиги асносида бир қанча психологик фикрларни илгари суради. Муаллиф шундай деб ёзади: “Инсон камолоти жисмоний, ахлоқий ва ақлий босқичлардан иборат бўлиб, бу ўринда мустақил фикрлаш етакчи, устивор ўрин эгаллайди. Ҳозирги замон одамлари жисмоний, ахлоқий жиҳатдан комиллик даражасига енгиллик билан эришсада, лекин ақлий камолотга етишиш эса асаб тизимининг таранглашуви, ақлий зўриқиши, ҳиссий жиддийлашув, барқарор иродавий хатти-ҳаракатлар, узлуксиз фаоллик, фидоийлик нимуналари эвазига босқичма-босқич, аста-секинлик билан амалга ошади” [8].

М.Х.Холназарова “Нақшбандия таълимотида комил инсон муаммосининг психологик хусусиятлари” мавзусида илмий тадқиқот ишларини олиб борган. Мазкур тадқиқот “Тасаввуф психологияси” муаммоларидан энг муҳими, яъни комил инсон масаласига бағишлиданади. Маълумки, тасаввуф таълимотидаги барча тариқатларда комил инсонни тарбиялаш масаласи илгари сурилади. Олима бу масаланинг айнан нақшбандия тариқатида қандай йўлга қўйилганлигини ёритади [7].

Тасаввуф психологияси бўйича алоҳида илмий ишлар мавжуд бўлса-да, тизимли ишлар йўлга қўйилмаган. Тасаввуф психологияси фан сифатида ўз тадқиқот предмети, обьекти ва вазифаларига эга бўлиши керак. Бу эса келажакнинг иши ҳисобланади.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

1. Нурбахш Д. Психология суфизма / Д. Нурбахш ; пер. с англ. Л.М. Тираспольского. М. 1992.
2. Павлова О.С. Психология: исламский дискурс: Монография / О.С. Павлова. – М.: Ассоциация психологической помощи мусульманам, АНО НПЦ «Аль-Васатыя – умеренность», 2020. – 208 с.

3. Павлова О.С., Бариева Н.Ю., Баирова З.М. Исламская психология за рубежом: состояние и перспективы развития. *Minbar. Islamic Studies.* 2018;11(4):850-865.
4. Суннатова Р.И. Комментарии к психологической концепции развития личности и духовности в учении суфиеев. *International Journal of Developmental and Educational Psychology INFAD Revista de Psicología*, №1-Vol.2, 2013. ISSN: 0214-9877. pp:105-112.
5. Хайретдинов Д. З. Суфизм и исламская психология. Доступ: <http://www.islamrf.ru/news/faith/teology/13019>
6. Халил Центр / Khalil Center [Электронный ресурс]. URL: <https://khalilcenter.com/> (дата обращения: 21.01.2020)
7. Холназарова М.Х. Нақшбандия таълимотида комил инсон муаммосининг психологик хусусиятлари. –Т.:”Фан ва технология”, 2014. -156 бет.
8. Фозиев Э., Маматқұлов Р., Абдурашидов К. Комил инсонни тарбиялаш муаммолари. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент, 2001, 72 бет.
9. Skinner, R. Traditions, Paradigms and Basic Concepts in Islamic Psychology / R. Skinner // Journal of Religion and Health. – 2018. – P. 1–8. URL: <https://doi.org/10.1007/s10943-018-0595-1>

---

## **ЭКОЛОГИК ОНГ ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ИНСОН - ТАБИАТ МУНОСАБАТЛАРИДАГИ ИФОДАСИ**

*Акрамов Мирмухсин Рустамович  
ЎзХИА “Дин психологияси ва педагогика” кафедраси ўқитувчиси*

Бугунги кунда шуни эътироф этиш керакки, илм фан шиори остида табиат билан инсон ўртасида жиддий “бегоналашув” кузатилмоқда. Ушбу жараёндаги асосий ролни XVII асрда вужудга келган картезианлик ижро этган. Унга кўра одам-субъект ва олам-объектдир. XVII-XVIII асрларда ҳукмронлик қилган классицизм маданиятида (картезиан таълимоти унинг асосини ташкил этади) табиат оламнинг бир четига сурилиб қўйилади. Яъни христианлик дини табиий объекtlарни жондан маҳрум қилган бўлса, классицизм уни ўз табиий ҳолатида, ўзлигини сақлаб қолиш ҳуқуқини ҳам тортиб олди. Картизианлик шарофати билан янги замон экологик онгига одам ва олам ўртасидаги психологик қарама-қаршилик максимал даражага етди. Картизианлик инсон ақлини мутлоқ қадрият сифатида эътироф этар экан

инсондан ташқари бўлган табиат унга нисбатан анчагина қўйидаражададир (Декарт фикрига кўра, ҳайвонлар ва ўсимликлар ички оламидан маҳрум машиналардир). Демак, жонзотлар устида турли хил жарроҳлик тажрибаларини ўтказиш соат механизмларини парчалаб йиғишдан фарқ қилмайди – бундай амалларни бажариш мумкинлиги тўғрисидаги ахлоқий шубҳалар буткул олиб ташланган. Натижада янги замон экологик онгидаги табиатни обьект сифатида идрок этиш ҳам ўзининг максимал даражасига етган. Агар христианлик табиатдан прагматик нуқтаи-назардан фойдаланишга рухсат берган бўлса, картезианлик учун у шиор бўлган. Оқибатда янги замон экологик онгидаги табиат билан ўзаро таъсирга киришиш мутлоқ прагматик кўринишга эга бўлди.

“Фарбона” цивилизациянинг тарихий ривожланиши, унинг теварак-олам билан бўлган муносабатлари тараққиётининг мантиқи ижтимоий онгда “инсониятнинг ўзига хослиги парадигма”си (Human Exceptionalism Paradigm), деб номланган ўзига хос қараш маҳкам ўрнашгани боис унинг дунёқарашини турли жиҳатларини ҳам белгилаб қўйган. Мазкур ижтимоий онгга антропоцентризм, антиэкологизм ва ижтимоий оптимизм хосдир. Мазкур қоидалар қўйидагиларда ўз ифодасини топади:

- 1) Одамлар генетик ирсийликдан ташқари маданий ирсийликка ҳам эга бўлганлиги боис, инсон ер юзидағи у ҳукмронлик қиласидан бошқа барча жонзотлардан сифатий фарқланади.
- 2) Инсон фаолиятини биофизик эмас, айнан ижтимоий ва маданий омиллар белгилайди: инсон табиат контекстида эмас, ижтимоий контекстда яшайди.
- 3) Технологик ва ижтимоий прогресс чексиз давом этади ва барча ижтимоий муаммолар у ёки бу даражада ўз ечимиға эга бўлади.

“Инсониятнинг ўзига хослиги парадигма”си доирасидаги экологик онг “буткул халос бўлган инсоният парадигмаси”га айланади (Human Exemptionalism Paradigm). Яъни инсон обьектив экологик қонуниятларга тобеликдан буткул озод бўлади. Унга асосланган ғарбона экологик онг бир сўз билан айтганда антропоцентрикдир, чунки унга қўйидаги жиҳатлар хос.

1) Инсон олий қадриятдир. Биргина у қадр-қийматга эга бўлган, табиатдаги барча нарсаларнинг қадр-қиймати инсониятга фойда келтириши билан белгиланади. Табиат инсониятнинг мулки.

2) Оламнинг шажаравий манзараси. Шажаранинг энг юқори қисмида инсон туради, бироз пастроқда – инсон томонидан ва инсон учун яратилган нарсалар, янада қуириқда турли табиат обьектлари ўрин олган. Уларнинг шажарадаги ўрни инсонга фойда келтириши билан белгиланади.

3) Табиат билан ўзаро таъсирга киришиш мақсади у ёки бу прагматик эҳтиёжларни қондиришдан иборат: ишлаб чиқариш, илмий ва ҳ.к. Унинг моҳияти “фойдаланиш” сўзида ўз ифодасини топади.

4) Табиат билан ўзаро таъсирга киришиш ўзига хос прагматик “буйруқ” (императив) шиори билан белгиланади: инсонга ва инсониятга фойда берувчи барча нарса тўғридир.

5) Табиат фақат обьект сифатида идрок этилади.

6) Ахлоқий меъёрлар ва қоидалар фақатгина одамлар оламида мавжуд бўлиб табиат олами билан ўзаро таъсирга киришишда уларнинг ҳукми ўтмайди.

7) Табиатнинг кейинги тараққиёти инсон тараққиётига тобе бўлган жараён сифатида тафаккур қилинади.

8) Табиатни муҳофаза қилишга доир фаолият истиқболдаги прагматизм билан белгиланади: табиатни келажак авлод ундан фойдаланиши мумкинлиги учунгина асраш лозим.

Шундай қилиб, экологик онгнинг замонавий антропоцентрик кўриниши бу олам тўғрисидаги қуидаги жиҳатлар хос бўлган тасаввурлар тизимиdir: 1) табиат ва инсон ўртасидаги зиддият олий қадрият билан унинг мулки ўртасидаги муносабатларда ўз аксини топади (инсон олий қадрият табиат унинг мулкидир); 2) табиатни инсон томонидан бир томонлама таъсир кўрсатиш обьекти сифатида идрок этилиши, 3) табиат билан ўзаро таъсирга киришиш мотивлар ва мақсадларини прагматик кўриниши.

ХХ асрнинг 20-30-йилларида АҚШда рўй берган “буюк депрессия” дан кейин янги “экологик дефицит” деб ном олган муаммо инсоният цивилизацияси тараққиётида юзага келди.

Экологик социология мутахассислари инсоният келажаги тўғрисидаги тасаввурлар воқелиқдан анча четлашиши мумкинлигини прогноз қилмоқдалар. Глобал миқёсида рўй берадиган экологик дефицит одамларни “ҳар ким ўзи учун” ёки “имконияти борлар ўзини қутқарсин” тамойилларига биноан ҳаракат қилишга ундейди. Ҳаётий зарур манбаалар учун кураш ижтимоий алоқаларни узилишига, ахлоқий қадриятлар девальвациясига (қадрсизланишига) олиб келиши мумкин. Бундай вазиятнинг юзага келиши инсоният ва табиат ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг янги тизимини шакллантириш заруриятини пайдо қилди. Бу хол “янги инвайронментал” парадигмасини вужудга келтирди (New Environmental Paradigm).

Инвайронментализмнинг асосий хусусияти шуки, нафақат назария, балки жамиятнинг экологик йўналишдаги “яшаш сиёсатини” шакллантириш ва инсон фаолиятининг когнитив ва праксеологик соҳаларини кенгайтиришга йўналтирилган маълум коммуникатив амалиёт эканлигидир.

“Янги инвайронментал” парадигмага асосланган экологик онг экоцентрик деб номланган, чунки унга қуйидаги хусусиятлар хосdir:

- 1) Табиат билан инсоният ўртасидаги уйғун тараққиёт олий қадриятдир. Инсон табиат мулкдори эмас, табиий ҳамжамиятнинг бир аъзосидир.
- 2) Оламнинг шажаравий манзарасидан воз кечиши. Инсон ақли борлиги учун алоҳида эътиборга молик деб эътироф этилмайди, аксинча, унинг ақли борлиги уни куршаб турган табиатга бўлган муносабатларига қўшимча мажбурият киритади. Одамлар олами билан табиат олами бир тизимнинг халқалари бўлганлиги учун бир-бирига қарши қўйилмайди.
- 3) Табиат билан ўзаро таъсирга киришиш мақсади нафақат инсон эҳтиёжларини максимал даражада қондиришдир, балки, бутун табиий ҳамжамиятларнинг эҳтиёларини инобатта олишдан ҳам иборат.

4) Табиат билан ўзаро таъсирга киришиш “экологик императив” шиори билан белгиланади: табиатдаги экологик мувозанатни бузмайдиган нарсалар ва ҳатти-харакатлар тўғри ва маъқуллангандир.

5) Табиат ва барча табиий нарсалар инсон билан ўзаро таъсирга киришиш бўйича тенг хуқуқли субъект сифатида идрок этилади.

б) Ахлоқий меъёрлар ва қоидалар нафақат одамлар ўртасидаги ўзаро таъсирга, балки табиат олами билан бўлган ўзаро таъсирга ҳам тааллуклидир.

Хулоса қилиб қуидагиларни келтириш мумкин:

- Экологик онгнинг социогенез жараёнидаги тараққиёти қуидаги ўлчамларда ўз ифодасини топади: а) психологик қарама-қаршилик – уюшув, б) табиатни обьект-субъект сифатида идрок этилиши, в) табиат билан ўзаро муносабатга киришишнинг прагматик-нопрагматик кўриниши.

- Ижтимоий экологик онг социогенезида антропоцентрик ва экоцентрик тенденциялар кузатилади.

- Антропоцентрик тенденция қуидагиларда ўз ифодасини топади: ибтидоий онг - антик онг - христианлик - картезианлик.

- Экоцентрик тенденция қуидагиларда ўз ифодасини топади: инвайронментал консервационизм – экологизм – универсал ахлоқ.

- Шарқ маданиятларига хос бўлган экологик онг тараққиётига қуидаги тенденциялар тўғри келади: шарқона диний-фалсафий тизимлар, ибтидоий экологик онг кўринишини сақлаб қолиши билан табиатни маънавий қадрият сифатида идрок этишни қучайтирган.

### Адабиётлар рўйхати

1. Дерябо, С. Д., Ясвин, В. А. Экологическая педагогика и психология. – Ростов – на – Дону: Издательство «Феникс», 1996.
2. Фаустова Э.Н. Экологическое сознание студентов: дефицит знаний (на основе социологического материала) // Вестн. МГУ. Сер. 12. Социология. 1991. № 4. С. 72 - 78.
3. Akramov M.R. The ethical awareness behavior of students during higher education (in the condition of Uzbekistan) // European journal of research and reflection in

educational sciences Volume 4 number 10, 2016 ISSN 2056-5852. – Р. 30-33.(19.00.00; №2)

4. Акрамов М.Р. Проблемы изучения психологических особенностей развития экологического сознания по В.А.Ясвину // Наука и мир Международный научный журнал. Волгоград, 2015 № 5 (21), - С. 117-118. (Global Impact Faktor 0.325)
5. Акрамов, М. Р. (2020). Психологические аспекты формирования экологического сознания личности. *Science and world*, 80.
6. Акрамов, М. Р. (2014). Психологические свойства формирования экологического сознания студентов. *Наука и Мир*, (1), 365-367.
7. Акрамов, М. Р. (2015). Шахс ички зиддиятларининг табиатга бўлган муносабатидаги ифодаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (10).
8. Акрамов, М. Р. (2013). Психологические аспекты формирования экологического сознания личности. *Science and world*, 80.

---

## **РАҲБАРНИНГ ШАХСИЙ КОМПЕТЕНТЛИ ОМИЛИНИНГ БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШГА ТАЪСИРИНИНГ ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ**

Азамат Назаров  
Ўзбекитсон ҳалқаро ислом академияси, “Дин  
психологияси ва педагогика” кафедраси катта  
ўқитувчиси

Қарор қабул қилишнинг тўртта даражаси фарқланиб, уларнинг ҳар бири доирасида ҳаракат қилиш учун маълум малакалар талаб этилади. Қарор қабул қилишнинг биринчи даражаси *одатий, кундалик* даража ҳисобланади. Бунда йўриқнома ва қоидаларга сўзсиз амал қилинади, вазият тўғри баҳоланади ҳамда назорат ташкил этилади. Пайдо бўлган муаммо мавжуд ечимлар мажмуаси билан қиёсланади, улар ичida мақбули қабул қилинади ва амалга оширилади. Одатда “бундай вазиятларда бундай қилиш керак” қабилида иш юритилади. Бундай вазиятларда қийинчиликлар қарор қабул қилувчининг малакасизлиги, мавжуд йўриқномаларни яхши билмаслиги, вазиятни нотўғри баҳолаши ёки журъатсизлиги

асосида келиб чиқиши мумкин. Қарор қабул қилишнинг бу даражасида ижодий ёндашув талаб этилмайди, чунки вазият ечимлари аввалдан белгилангандир.

Қарор қабул қилишнинг иккинчи даражаси *танловга асосланган* даражада ҳисобланиб, бунда мақсадлар ўрганилади, режалаштирилади ва маълумотлар таҳлил қилинади. Бунда мавжуд муаммо бўйича қатор имкониятларни таққослаб кўради ва улар ичидан айнан шу муаммо ечимига энг мос келувчи самарали ва тежамлиси устида тўхталади.

Қарор қабул қилишнинг учинчи даражаси *мослашувчан* даражада деб аталади ва бунда муаммо идентификацияланади, тизимли тарзда ечилади. Ишчи гурухлар ташкил этилади, мавжуд хавфлар таҳлил этилади. Мослашувчан даражадаги қарор қабул қилиш бир мунча мураккаб бўлиб, бунда раҳбар таниш муаммога эскича ёндашишдан воз кечиши ва ижодий қарорга келиши лозим. Айни шароитда қарор қабул қилувчи киши муваффакияти унинг шахсий ташабbusи, номаълумликка шахдам қадам қўя олиши билан асосланади.

Қарор қабул қилишнинг тўртинчи даражаси *инновацион* даражада деб аталади ва бунда янгиликларни жорий этиш билан боғлиқ қарорлар анча мураккаб ҳисобланади. Ноаниқ вазиятда одамнинг янгича ёндашув услубидан, бошқа мутахассисларнинг ижодий ғояларидан фойдалана олиши талаб этилади.

Қарор қабул қилувчи киши муаммоли вазият билан тўқнаш келиб, маълум қарорни қабул қилиш заруратида бўлар экан, ушбу вазият ва ундан кутилаётган ечимни юқорида санаб ўтилган қарорлар гуруҳига таққослаши ва қайси тоифага киришини аниқлаб олиши зарур. Бундай ҳаракат унга айни муаммо ечими нимада ифодалнишини, қай шаклда намоён бўлишини қисман бўлсада олдиндан тасаввур этиш имконини беради. Бу эса танланган йўл қанчалик тўғри ёки нотўғри эканлиги ҳақидаги маълумот билан бирга зарур бўлган тақдирда ҳаракат услубини ўзгартиришга асос яратади. Ҳар қалай қарорнинг ўйлаб қабул қилинганлиги уни бирон бир тоифага киритишдан ва натижани қисман бўлса ҳам олдиндан тасаввур этган ҳолда талабдаги намуна билан таққослашдан иборат.

Бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёнида кўп омиллилик тамойили кучга киради. Шундай омиллардан бири шахсий компетентли омил ҳисобланади.

Мазкур омилни қарор қабул қилиш жараёнидаги ўрнини кўрсатиш учун “Rinги” усулидан фойдаланиш мумкин. “Rinги” усули япон бизнесида кенг қўлланиладиган усулдир. Бу усулга кўра мажлисларда эмас, балки сўраб чиқиши йўли билан розилик олиш воситасида ҳал этилади, бир неча босқичда амалга оширилади (8-расм).

## “Ринги” усулини қўллаш босқичлари

8-расм

Т/Р	Босқичлар	Изоҳ
1.	Биринчи босқич	Бу босқичда ташкилот раҳбарияти қандай муаммо юзасидан қарор қабул қилиниши лозим бўлса, шу муаммо (масалан, янги маҳсулот турини ишлаб чиқариш)га доир умумий мулоҳазаларни жалб этилган мутахассислар билан биргаликда ўртага ташлайди.
2.	Иккинчи босқич	Муаммо «пастга», яъни лойиҳа устида иш ташкил этиладиган поғонага узатилади.
3.	Учинчи босқич	Бу босқичда тайёрланаётган лойиҳанинг барча жиҳатлари бўйича ижрочилар билан батафсил келишиб олинади. Аслида бу ихтилофларни, қарама-қарши нуқтаи назарларни бартараф этиш босқичидир.
4.	Тўртинчи босқич	Муаммони ҳал қилиш учун маҳсус кенгаш ва конференциялар ўtkазилади.
5.	Бешинчи босқич	Бу босқичда хужжат ижрочилар томонидан имзоланади, ҳар ким ўз муҳрини босади ва хужжат ташкилот раҳбарияти томонидан тасдиқланади.

Японияда “Ринги” усулини эҳтиёткорлик, авайлаш, жамоат масъулиягини олдинга сурувчи бошқарув фалсафасининг қўринишларидан бири деб ҳисоблаш одат тусига кирган. Гарчи бу усулнинг ҳаддан ташқари сермашаққат бўлгани учун япон матбуотида унинг шаънига айтилган танқидни учратиш мумкин бўлса-да, уни қўллашдан воз кечиши тўғрисида ҳеч нарса дейилмайди.

Қайд қилинган қарорлар, одатда тезкор бошқарувни амалга ошириш мақсадида қабул қилинади. Стратегик ва тактик бошқарув мақсадида эса иқтисодий таҳлилга, оптималлаштиришга асосланган оқилона қарорлар қабул қилинади.

Бошқариш жараёнида доимо бирон-бир масалани ҳал қилишга тўғри келади. Чунки турли сабаблар туфайли белгиланган параметрлардан оғиш содир бўлади, янги жараёнларга зарурият туғилади, натижада ишлаб чиқариш олдида пайдо бўлган муаммони билиш, уни таҳлил қилиш ва ҳал этиш зарурияти юзага келади.

Қарор қабул қилиш зарурати ва таҳлил қилинаётган обьектдаги аниқ вазият аниқлангач, турли йўллар билан эришиладиган қарор мақсади шакллантирилади ва унинг ечими бўйича вазифалар белгиланади. Қарорнинг мақсади юқори орган томонидан кўрсатиб берилиши мумкин. Масалан, ғалла етиштиришни кескин қўпайтириш ва ғалла мустақиллигига эришиш мақсад қилиб қўйилди. Бир қатор мулоҳазалар асосида донни етиштиришга энг яхши мослашадиган туманлар

аниқланади. Вазирлик уларнинг ихтисослашувини ўзгартириш тўғрисида қарор қабул қиласди ва бунинг учун у туманларни дон етиштиришга кўчириш режасини ишлаб чиқади. Туман раҳбарлари топшириқ олгач, қарорни ишлаб чиқаришга тадбик этиш учун ҳар томонлама тайёргарлик кўради.

Бу ерда асосий мақсад ва вазифа республика учун зарур бўлган дон маҳсулотини етиштиришdir. Шундай қилиб, муаммони аниқлаш, вазиятни ва муаммони келиб чиқиш сабабларини аниқлашдан бошланади. Вазиятни аниқлаш деганда муаммонинг келиб чиқиш сабабларини таҳлил қилиш тушунилади.

Қарор қабул қилиш жараёнида вақт омили икки хил нуқтаи назардан тушунтирилади: биринчидан, қарор қабул қилишда вақтнинг чекланганлиги ёки чекланмаганлиги, иккинчидан, қарор қабул қилишда ижронинг бажарилишига кетадиган вақт. Вақт омили иккала ҳолда ҳам қарор ижросининг сифатига таъсир кўрсатади. Вақт омилини биз қўйида биринчи маънода қўллаймиз.

Маълумки, вақтнинг оқими вазиятларни ўзгартириши мумкин. Агар вақт жиҳатдан чиқарилган қарор эскириб қоладиган бўлса, чиқарилган қарор ҳам ўз кучини йўқотиши мумкин. Чегараланган вақт бирлигига қарор қабул қилиш эса инсондан бирмунча қийинчиликларга сабаб бўлиши табиий. Шундай инсонлар борки, улар вақтнинг чегараланганлигига ўзларини йўқотиб қўйишилари мумкин. Натижада ё сифатсиз қарор қибул қилинади, ёки хато қарор қабул қилинади. Айниқса, ноаниқ вазиятларда чегараланган вақт бирлигига қарор қабул қилиш вазиятни янада мушкуллаштиради. Шунинг учун раҳбар қарор қабул қилаётганда, албатта, вақт омилини режалаштирган ҳолда инобатга олмоқлиги даркор.

Шунингдек, қарор қабул қилишда қарорнинг ижроси учун ажратилган вақт бирлигини ҳам эътиборга олиш талаб этилади. Қарорни узоқ муддат қабул қилиб, ижрога оз муддат қолдирилиши ҳам қарор қабул қилишнинг эътибор беришимиз лозим бўлган жиҳати ҳисобланади.

Информация – конкрет вазиятлардан чиқиш учун тўплланган тўплами маълумотлар ҳисобланади. У муаммони ҳал этиш учун зарур. Баъзида оптималь қарор чиқариш учун маълумотлар етишмайди ёки ноаниқ маълумотларга эга бўлинади. Ўзгариб турадиган маълумотлар мавжуд. Улар ҳам оптималь қарор қабул қилиш учун бир қадар хавф туғдиради. Шунинг учун раҳбарлар қўшимча информациялар олишга ҳаракат қиласди.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Анфилатов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.
2. Назаров А. Башқарув психологияси. -Т.: 2021.
3. Назаров А. Менежмент ва маркетинг психологияси. - Т.: 2020.

4. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.

5. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.

---

## **КОГНИТИВ ЁНДАШУВДА ДИНИЙ МАЪЛУМОТЛАРНИ ТУШУНИШ ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ**

*Жаббор Алишер Мусирмон ўғли  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
таянч докторанти*

Жамият ривожланиб борган сари инсон дунёқараши, тафаккури, идроки ва нутқи ҳам тадрижий равишда ўзгариб боради. Кишиларнинг когнитив имкониятлари ва номинатив хусусиятларини кузатишда инсоннинг диний маълумотларни тушунишга хос хусусиятларини ўрганиш ўзига хос аҳамият касб этади. Бунда асосан диний маълумотлар орқали матннинг ички қонуниятларини шахс тушуниши ва идрок этишини кузатиш мумкин. Бу борада диний маълумотларни тушуниш ва идрок этиш масалаларини дин психологиясида таҳлил этиш нуқтаи-назаридан тўхталиб ўтамиз.

Диний мавзудаги маълумотлар-динларнинг мулоҳаза майдонига кирувчи ва диний талқин учун қўлланувчи маълумотлар ҳисобланади. Диний маълумотларни тушуниш даражасига қараб, уларни шартли равишда учта типологияга ажратиш мумкин. 1) тушуниш учун шахс маълумотни ўзи қидиради ва қайта-қайта ўқииди; 2) маълумотни тушуниш учун бошқаларга мурожаат қилади; 3) маълумотни тушуниш учун бошқа шу турдаги қўшимча маълумотларга ҳам суюнади. Шу билан бир қаторда диний турдаги маълумотни қай тарзда тушуняди яъни бирёқламаликка йўл қўймоқдами ёки кенгроқ маънода тушуняпдими деган мулоҳазаларни шахснинг когнитив соҳаси билан қамраган ҳолда кўриб чиқиш лозим саналади.

Бу борада диний маълумотларни тушуниш муаммоси бўйича психологик жиҳатдан таҳлил қилинган бир қатор тадқиқот ва амалий ишларни кўриш мумкин. Шундай ишлардан бири Ф.Е. Василюкнинг тадқиқотларида келтирилган. У 1995 йилларда Москва университетида “Христианлик психологияси” ва

антропологиясининг методологик муаммолари” мавзусида бўлиб ўтган семинарда христиан динига оид манбалардаги матнларни қайтадан психологик таҳлилини амалга ошириш, проблематик жиҳатларини қайта кўриб чиқиш масаласи кенг муҳокамага қўйилади. [1; 82–164] Диний маълумотлардаги тушунчалар даражаларининг таҳлили масаласи Б. Ахмадулинанинг мақоласида тадқиқ этилган. У 22 ёшдаги ўспиринларнинг хулқ-авторини ўрганиб, диний ахборотлар орқали таъсир қилиб, улардаги шизофреник хасталикларнинг тузалиш даражаси қай тарзда кечиши ва уни дифференциал диагностик жиҳатдан баҳолашга харакат қиласи. [2; 54]

Турли ҳил динлар ва уларнинг муқаддас манбалари орқали шахснинг қалб ва руҳига доир қарашлар узоқ вақтлардан бери муҳокама қилиб келинади. Бу христианлик нуқтаи-назаридан кўриб чиқилса, христианлик динининг муқаддас манбаларини психологик жиҳатдан таҳлил қилинганда психологиянинг фалсафа ва табиий фанлар доирасидаги образи кўзга ташланишини кўриш мумкин. Бу матнларни соф лаборатория шароитида ўрганиш ноаниқлик ва хатоликларни келтириб чиқаради. Шунинг учун бу турдаги матнларни психологиянинг объектив методлари орқали ўрганиш мақсадга мувофиқ саналади. [3; 118–138] Рус психологи В.И. Слободчикованинг таъкидлашича, диний ахборотларни қабул қилишда шахснинг тана ва қалби психиканинг марказини ташкил этиши, бир жойда ва биргаликда ривожланиши лозимдир. Бу механизмларга шахснинг тафаккури, хотираси, идроки, эмоциялари ва ҳиссиётлари ёрдам беради деб талқин қиласи. Бундан ташқари, диний маълумотларнинг мазмунини идрок этишида шахс кўпроқ диққатни матн бутунига эмас, балки маълум бир қисмига эътибор қаратиши керак, бунда унга интуитив қобилиятлар ҳам ёрдам бера олиши мумкин. Матнни кўпроқ биз фалсафий томондан таҳлил қиласи ва умумпсихологик ҳодиса сифатида психологиянинг маълум бир қисмини кўра оламиз деб Б.С. Братусь таъкидлаган. [4; 18–24]

Диний маълумотларни фалсафий ва диалектик нуқтаи-назардан тадқиқ этган олимлардан бири Б.Ю. Балабушевич саналади. Унинг ишлари асосан диний маълумотларни диалектик жиҳатдан талқини масалаларига бағишлиланган. Балабушевич диний маълумотларни шартли равиша уч қисмга ажратади. Булар: 1) замонавий жамиятда диннинг инсонларга таъсир даражаси, диннинг функционал жиҳатларини тўғри тушунтира олиш, диний матнларни ва улардаги гояларни бошқа концепциялар билан феноменал тарзда боғлаш ва бошқа матнлар билан солиширган ҳолда аниқлаш; 2) диний маълумот ва матнлар жамиятдаги маънавий ҳаётни тартибга солиб турувчи механизм, инсониятнинг маданий-маънавий ажralmas компонентлари ва диний матнлар маданий эволюция факторидир; 3)

диний матнлар диний мухитни ҳаракатга келтирувчи тенденция, дунё динлари ва конфессиялар ўртасидаги фарқларни аниқлаб берувчи жараён саналади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, диний маълумотларни тушунишда асосан шахснинг диний билим ва малака-қўйноклари диний мазмундаги ахборотларни тўғри тушуна олиши ва идрок этишини таъминловчи асосий мезон саналиши, диний маълумотларни соф диний манбалар орқали ўрганиш ва бошқаларга ўргатиши шахсни ҳар томонлама психологик жиҳатдан соғлом қилиб шаклланишига замин яратиб беради.

### **Адабиётлар рўйхати**

1. Зенько М.Ю. Трехвековой диалог психологии и религии // Христианское чтение. 2000. № 19. С. 82–164.
2. Консонанс: Альманах психологии и духовной жизни. М., 1995. № 1. С. 54-68.
3. Братусь Б.С. Исследование выполнено при поддержке Российского гуманитарного научного фонда, проект № 13-06-00590 «Вера как общепсихологическая категория». Первая публикация в журнале «Консультативная психология и психиатрия». 2014, № 5. С. 118–138.
4. Братусь Б.С. Общая психология: метафизический и прагматический смыслы // Психологический журнал. 2003. Т. 24. № 2. С. 18–24.

---

## **ОСВЕДОМЛЁННОСТЬ ОБЩЕСТВА ОБ ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ФАКТОР РАННЕЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ**

*Расулова Феруза Файзуллаевна  
PhD Старший преподаватель кафедры «Психология  
религия и педагогика» Международная исламская академия,*

*Эшонхужаева Висола  
Студентка 3 курса*

Дети с нарушениями интеллекта – одно из направлений специальной психологии, рассматривающее динамику познавательной деятельности и личности умственно отсталых детей дошкольного и школьного возрастов.

Дети с нарушениями интеллекта отечественные специалисты понимают стойкие нарушения психического развития определенной качественной

структуре. При дети с нарушениями интеллекта имеет место ведущая недостаточность познавательной деятельности и, в первую очередь, недоразвитие абстрактного мышления, процессов обобщения и отвлечения в сочетании с малой подвижностью и инертностью психических процессов.

Выделяют две основные формы умственной отсталости: олигофрению и деменцию.

В соответствии с основными направлениями реформы общеобразовательной и профессиональной школы проведено совершенствование структуры и учебного плана специальной общеобразовательной школы для дети с нарушениями интеллекта (вспомогательная школа).

Базовая учебная помощь глубоко нарушения интеллекта не является делом какой-либо определенной дисциплины, а представляет собой общую задачу, решаемую определенными усилиями различных специалистов.

Обсуждая проблему инклюзии, специалисты приходят к выводу, что инклюзивное образование ставит своей основной целью обеспечение равного доступа к получению образования и создание необходимых условий для достижения успеха в образовании всеми без исключения детьми независимо от их индивидуальных особенностей, прежних учебных достижений, родного языка, культуры, социального и экономического статуса родителей, психических и физических возможностей. В этом смысле инклюзивное обучение может быть эффективным для части детей, уровень психофизического развития которых соответствует возрасту.

К основным элементам инклюзии можно отнести:

1. Включение всех детей с различными возможностями в такую школу, которую они могли бы посещать по месту их проживания;
2. Количество детей с различными возможностями, обучающихся в школе, находится в естественной пропорции в отношении своих сверстников;
3. Дети с особенностями находятся в классах, соответствующих их возрасту;
4. Ситуационно обусловленное взаимодействие и координация ресурсов и методов обучения;
5. Эффективность как стиль работы школы, дифференцированные модели обучения.

Мировое сообщество считает, что люди с инвалидностью имеют такие же права, как и все остальные граждане, и они должны иметь равные возможности в реализации этих прав. Сегодня задача государства и общества – сделать так, чтобы любой гражданин общества мог получить образование и жить максимально полноценно, вне зависимости от возможностей его здоровья. Система инклюзивного образования позволяет в полной мере реализовать

образовательные права молодежи с ограниченными возможностями здоровья (Кузьмичевой Т. В.).

Внедрение инклюзивного образования в Узбекистане также сталкивается с рядом проблем. Одним из которых является повышения уровня толерантности, самосознания и осведомленности общества об инклюзивном образовании и готовности общества к инклюзивному обучению и воспитанию (Дмитриев А. А.)

Чтобы выяснить осведомленность учителей- дефектологов об инклюзивном обучении, мы провели опрос в вспомогательных школах для детей с нарушениями интеллекта №25, 52, 57 города Ташкента.

Целью опросника являлась выявление мнений учителей об инклюзивном образование, о возможности совместного обучения умственно отсталых учеников с здоровыми сверстниками.

В опросе приняли участие 13 учителя вспомогательных школ.

Результаты опроса:

На вопрос “Имеете ли вы понимание об инклюзивном обучении?” все 100% учителей ответили, что “Да, имеем”. На вопрос “Участвовали ли вы на семинарах, посвященных инклюзивному обучению?” 55% педагогов ответили: “Нет, не участвовали”, 45% из них ответили: “Да, участвовали”.

Фразу “Инклюзивное обучение-это...” педагоги должны были сами дополнить, в результате если 15% учителей об инклюзивном обучении ничего не смогли сказать, то 77% педагогов ответили: “Это обучение умственно отсталых детей со здоровыми детьми” и ещё 8% педагогов ответили, что это “Дружеское отношение к умственно отсталым детям, приобщение их к обществу”.

На вопрос “Есть ли в вашем классе ученики, привлекаемые в общеобразовательные школы?”, если 46% педагогов ответили “Да, есть, но с ними необходима индивидуальная работа”, то 54% педагогов ответили: “в нашем классе таких учеников нет”. На вопрос “Как вы смотрите на то, чтобы умственно отсталые дети лёгкой формы учились вместе со здоровыми сверстниками” 46% педагогов высказали “отрицательное” мнение, отметив, что наше общество ещё не готово к совместному обучению с детьми-инвалидами, а 54% педагогов, наоборот, показали “положительное” отношение, и отметили, что было бы хорошо, если ребёнок-инвалид смог бы получать образование совместно со здоровым сверстником, если бы общество смогло бы их правильно принять, и эти педагоги высказали готовность помочь ученикам-инвалидам в нахождении своего места в жизни.

На вопрос “Есть ли у вас в классе ученики из общеобразовательных школ?”, 23% педагогов ответили, что у них в классе нет учеников, пришедших из общеобразовательных школ, а 77% отметили, что у них в классе есть ученики не

усвоившие программу общеобразовательной школы и после года обучения пришедшие в вспомогательную школу.

На вопрос “Хотите ли вы знать об инклюзивном обучении? Участвовать в семинарах, тренингах?” 8% педагогов заявили, что не хотели бы, и что они против внедрения инклюзивного обучения, остальные 92% педагогов высказались о намерении узнать больше информации об инклюзивном обучении, и что с удовольствием бы поучаствовали бы на семинарах и тренингах по инклюзивному обучению.

Таким образом, аргументы в поддержку инклюзии бесспорны. Аргументы против инклюзивного образования, в основном, сводятся к тому, что дети с особыми образовательными потребностями получают при таком обучении более низкий уровень знаний, или при их обучении возникают некоторые социальные сложности.

Таким образом, можно сделать вывод, что современная общеобразовательная программа должна включать изменения и условия, необходимые для успешной реализации инклюзивного образования, а именно - принятие индивидуальности каждого отдельного учащегося и удовлетворение особых образовательных потребностей каждого ребенка.


### **Список литературы**

- 1.Дмитриев А. А. О некоторых проблемах интегрированного обучения детей с особыми образовательными потребностями / А. А. Дмитриев // Дефектология. - 2005. - №4. - С.4-8.
  - 2.Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей / Ф.Л.Ратнер, А.Ю.Юсупов. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2006.
  3. Ярская-Смирнова Е.Р., Лошакова И.И. Инклюзивное образование детей-инвалидов // Социологические исследования.- 2003.- № 5.- С. 100-106
  - 4.<http://www.un.org/russian/documents/declarations/salamanka.pdf>. // Саламанская декларация и рамки действий по образованию лиц с особыми потребностями, принятые Всемирной конференцией по образованию лиц с особыми потребностями: доступ и качество, Саламанка, Испания, 7-10 июня 1994 года.
  5. Инклюзивное образование - равные возможности для всех учащихся.[http://nashiosobiedeti.ucoz.ru/news/inkluzivnoe\\_obrazovanie\\_ravnye\\_vozmozhnosti\\_dlja\\_vsekh\\_uchashchikhsja/2010-09-04-246](http://nashiosobiedeti.ucoz.ru/news/inkluzivnoe_obrazovanie_ravnye_vozmozhnosti_dlja_vsekh_uchashchikhsja/2010-09-04-246)
- [http://www.dislife.ru/flow/theme/4696/.](http://www.dislife.ru/flow/theme/4696/)

## **TALABALARDA DIN OMILINING KOPING-STRATEGIYANI AMALGA OSHIRISHDAGI TA‘SIRI**

*Diyora Abdug‘aniyeva  
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi 1-bosqich magistranti*

Tadqiqot empirik qismining asosiy yakunlovchi bosqichida stressni yengib o‘tishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan anketa respondentlarga taqdim etildi. Unga ko‘ra respondent keltirilgan turli faktorlarni shaxsan o‘zi qo‘llashiga ko‘ra ranglashtirib chiqishi lozim bo‘ladi. Tadqiqot mavzuimizdan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan anketa ishlab chiqildi [1]. U ruhiy zo‘riqish paydo bo‘lganda coping-strategiya sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan diniy faktorlar bayoniga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra har bir shaxsda qaysi omil coping-strategiya sifatida vaziyatlarda foydalanishining ustuvorligi aniqlanadi.




**1.1-rasm. Ruhiy zo‘riqish paytida foydalaniladigan diniy faktorlar ko‘rsatkichi (TTA)**

TTA ta’lim yo‘nalishidagi tadqiqot sinaluvchilarining empirik ko‘rsatkichlariga ko‘raruhiy zo‘riqish paydo bo‘lganda coping-strategiya sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan diniy faktorlarni quyidagicha izohlash o‘rinlidir.

Eng yuqori o‘rin – tahorat qilish;

Eng quyi o‘rin – mushkambardan foydalanish;

Ularning tibbiy ta’lim bilan aloqadorligidan kelib chiqqan holda, suvning shaxs tanasiga tinchlantiruvchi vosita sifatida ta’sir etishiga mutaxassisliklari bo‘yicha yondashganlarini kuzatish mumkin. Mushkambardan foydalanishning quyi o‘ringa qo‘yilishi esa uning talabalar orasida u qadar ommalashmagani bilan izohlanadi.



### **1.2-rasm. Ruhiy zo'riqish paytida foydalaniladigan diniy faktorlar ko'rsatkichi (O'zXIA)**

O'zXIA ta'lif yo'nalishidagi tadqiqot sinaluvchilarining empirik ko'rsatkichlariga ko'ra ruhiy zo'riqish paydo bo'lganda coping-strategiya sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan diniy faktorlarni quyidagicha izohlash o'rnlidir.

Eng yuqori o'rin – tahorat qilish;

Eng quyi o'rin – mushkambardan foydalanish;

Ularning diniy ta'lif bilan aloqadorligidan kelib chiqqan holda, ruhiy zo'riqish paytida tahorat qilish sunnat amal hisoblanadi. Bu to'g'rida Muhammad (s.a.v.)dan hadis ham keladi. Shu sababdan ularda bu faktor yuqori o'rinni egalladi. Mushkambardan foydalanishning quyi o'ringa qo'yilishi esa uning talabalar orasida u qadar ommalashmagani bilan izohlanadi [2].

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va takliflarni keltirishni o'rinali deb bildik:

1. Koping-strategiyalarni amalga oshirishda din omilining namoyon bo'lish xususiyatlari muammosini o'rganishning psixologiyadagi konseptual yondashuvlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, psixologiya fanida uning mohiyati va o'ziga xosligini anglash uchun turli xil yondashuvlar mayjud. Biroq bu bo'yicha tizimiylardan tadqiqotlar yetarli emasligi aniqlandi. Psixologlar ta'kidlaganidek, dindorlikning namoyon bo'lish darajasini o'tish davri shakllarining davomiyligi sifatida aniqlash, uning ozmi-ko'pmi maqbul tipologiyasini yaratish, psixologiyada tobora dolzarb bo'lib qolmoqda [4].

2. TTA va O'zXIA talabalarining psixik (ruhiy) holatlari aniqlandi va shu asosda tadqiqotning kelgusi qismini davom ettirish uchun metodika va dastur taklif qilindi, diagnostikaning metodik kompleksi ishlab chiqildi, bunda barchaga ma'lum va modifikatsiya qilingan metodikalar, mualliflik ishlanmalari (anketa) dan foydalanildi. Taklif etilayotgan diagnostika vositalari oliy o'quv yurtlarining psixologik xizmati amaliyotida o'z dasturini topishi mumkin.

3. Tadqiqotimiz davomida din omili shaxsning coping strategiyalarni amalga oshirishiga yetarli darajada ta'sir etishi aniqlandi. Bunda OTMlararo tasnidfa quyidagi holat ko'zga tashlanadi. Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining stressni yengib o'tishda dinga murojaat qilish darajasi ahamiyatlik nuqtai nazaridan natija bermagan holatda, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabalarining stressni yengib o'tishda ijobiy yondashuvga e'tibor qaratishlari dinga murojaat qilishning kuchayishiga olib kelishi kuzatildi.
4. OTMlararo tadqiqot natijalari tahlilida Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining stressni yengib o'tishda turli tinchlantiruvchi vositalar qabuliga murojaat qilish holati kuzatildi. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabalarining tadqiqot natijalari tahlilida bu shkala savollarini hech kim tanlamaganligi uchun uni hisoblash mumkin emas. Bu holat diniy ilmning regulyatorlik vazifasini o'tayotganining misoli bo'la oladi.
5. Empirik tadqiq etish natijasida stressga moyil shaxslarning coping-strategiyalarni amalga oshirishda ijtimoiy omillarga murojaat qilishi yuqori bo'lishi kuzatildi. Bunda ularda muammoni hal qilish oshgan sari ijtimoiy ko'mak izlash ham oshib borishi aniqlandi.
6. Diniy fanlardan tahsil oluvchi talabalarning boshqa OTM talabalariga qaraganda stressni yengib o'tishida din omili tanlovi baland ko'rsatkichga ega bo'lishi ham yana bir karra o'z isbotini topdi. Ya'ni diniy fanlardan ta'lim oluvchi talabalarda ma'lum darajada diniy bilim yuqoriligi sababli ularning stressni yengib o'tishda dinga murojaat qilish ko'rsatkichlari yuqoriligi kuzatildi.

Koping-strategiyalarni amalga oshirishida din omilining rolini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar [3]:

- 1) stressli holatlarning oldini e'tiqod orqali olish: din omilidan motivatsiya sifatida foydalanish;
- 2) uni psixoterapevtik amaliyotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qo'llash;
- 3) diniy madaniyatning estetik tarkibiy qismini, masalan, diniy turizm orqali amalga oshirish;
- 4) uzuksiz o'z-o'zini tarbiyalashni diniy o'ziga xoslikning "intellektual" modeli doirasida amalga oshirish;
- 5) oliy ta'lim muassasalari talabalarida diniy bilimlarni oshirishga e'tibor qaratish. Bunda turli davra suhbatlari, tadbirlar tashkillashtirishga nazarda tutiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amirkhan J. H. A factor analytically derived measure of coping. The coping strategy indicator. N. Y.: N.Y, 1988. – 96–112p.
2. Василюк Ф.Е. Переживание и молитва: Опыт общепсихологического исследования. М.: Смысл, 2005. – 191 с.

3. Крюкова Т.Л., Куфтяк Е.В. Опросник способов совладания (адаптация методики WCQ) // Психологическая диагностика. 2005. М.: Независимый психиатрический журнал, 2012. – 57–76с.
4. Полищук Ю.И. Значение религиозной веры как лечебного и реабилитационного фактора при психических расстройствах непсихотического уровня. М.: Независимый психиатрический журнал, 2004. — 63-67с.

---

## **SHAXSDA DINIY ONG SHAKLLANISHIDA DINIY E'TIQODNING O'RNI**

*Yuldasheva Gavhar*

*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
Din psixologiyasi yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Din insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida doimo yonma-yon bo'ladigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Dinning psixologik ildizlariga hissiy-emotsional holat va kayfiyat kirib, ular shart-sharoitlarga, imkoniyatlarga bog'liq bo'ladi. Dinga bo'lgan munosabat kishilarda ruhiyat, psixologik jarayonlar bilan bog'liq. U ijtimoiy va individual emotsional asosda paydo bo'lib shakllanib boradi. Dinning shakllanib borishini inson ruhiyatisiz tasavvur qilish juda mushkul.. Diniy va psixologik yondashuv ong kesimida ison qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash, e'tiqod asoslarini mustahkamlashga zamin yaratadi. Din psixologiyasida diniy e'tiqod mazmuniga Xudo, diniy ong, ruh va qalb, savob va gunoh, jannat va do'zax, qadar va oxirat kabi diniy kategoriyalarni, shuningdek, ibodat tavba-tazarru vaqtida turli diniy amallarni bajarish jarayonida dindor kechiradigan hissiy holatlar kiritilgan. Din psixologiyasi va diniy e'tiqodlarni nazariy jihatdan tahlil etishga katta hissa qo'shgan psixologlardan biri mashhur Garvard universitetining professori Gordon Ollport o'zining "Individ va uning dini" asarida diniy ong va e'tiqodning shaxs shakllanishi tizimidagi rolini ko'rsatib bergen. Shuningdek, u har bir shaxsning diniy e'tiqodi, unga amal qilishining o'ziga xos kechishi, har bir shaxsda bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlar bilan birga, ular uchun umumiy jabhalar bo'lishligini ko'rsatib o'tgan. Duniy e'tiqod uchun asos – individning qalbidir, deydi G.Ollport<sup>1</sup>. E'tiqoddagi individualizm – subyektivizm esa, Yaratuvchi bilan bog'liq holda bo'ladi. Darhaqiqat, jamiyat diniy e'tiqodlarga amal qilish uchun sharoit yaratib berishi mumkin, lekin dinga e'tiqod qilmasligi loqayd bo'lishi ham mumkin. Aksincha, jamiyat yoki ma'lum bir mafkura, sobiq Sho'rolar davridagiga

<sup>1</sup> Din psixologiyasi (o'quv qo'llanmasi.) T.:TIU.-2014.-80-b

o‘xshab, diniy e’tiqodlarga qarshi bo‘lishi, diniy amallar bajarishni ta’qiqlashi, hatto jazolashi ham mumkin. Lekin qalbida iymoni bo‘lgan shaxs diniy e’tiqod va amallardan voz kechmaydi

“Diniy ong diniy tasavvurlar, g‘oyalar, his-tuyg‘u va kayfiyatlarni ifodalaydigan qarashlar tizimidir<sup>2</sup>”. Dinni tarkibiy qismlari qatorida diniy ong ustuvor ahamiyatga ega, chunki diniy marosim va diniy tashkilot kishilar ongida va jamiyatda diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va saqlanib qolishiga ko‘maklashadi. Diniy ong insonning ijtimoiy-psixologik jarayonlari bilan bog‘liq murakkab hodisa hisoblanadi. Diniy ongning paydo bo‘lishi insonda yuz beruvchi psixik jarayonlar, psixik holatlar bilan borliqqa bo‘lgan ichki, subyektiv qarashlari asosida yuz beradi. Shu jihatdan din insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida faoliyati davomida orttirilgan madaniyatdir. Diniy ongning umumiy belgisi mezoni diniy e’tiqoddir. Din tarkibida e’tiqod ham muhim o‘rin egallaydi. “E’tiqod – kishining muayyan hodisa, uning xossa va xususiyatlari haqqoniy ekanligiga ishonchidir.<sup>3</sup>” Ishonch e’tiqodning asosini tashkil etadi. Biroq har qanday ishonch ham e’tiqodga aylanavermaydi. Garchi ishonch va e’tiqod bir-biriga juda yaqin va o‘xshash bo‘lsa-da, biroq ular o‘rtasida farq ham mavjud. Odatda, e’tiqod deganda diniy e’tiqod tushuniladi. Aslida, e’tiqod diniy ham, dunyoviy ham bo‘lishi mumkin. Diniy e’tiqod g‘ayritabiiy kuchlar va hodisalarga ishonish, sig‘inish orqali shakllanadi. E’tiqodning dunyoviy ko‘rinishi esa insonni o‘rab turuvchi obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni hissiy tajriba va ilmiy bilish asosida shakllanadi.

Diniy e’tiqod u diniy g‘oyalar tasavvurlar tushunchalari afsonalarni haqiqat sifatida qabul qilish hamda ilohiy kuchning mavjudligiga ishonishni o‘z ichiga oladi. Diniy e’tiqodda hissiyotlari qo‘rqish, zavqlanish quvonch umid va boshqalar diniy tasavvurlar bilan qo‘silib ketib, tegishli yo‘nalish ma‘no kasb etishi mumkin. Diniy e’tiqod - diniy ongning tarkibiy va funksional jihatlarini birlashtiradi.. Individda dinga munosabat va diniy e’tiqodlarning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi ruhiy holatlar va ijtimoiy omillar rolining o‘zaro munosabatiga e’tibor qilish kerak. Buni tushuntirishda 3 xil qarash mavjud:

1. Individning diniy e’tiqodi immanent (ichki sabab), xususiyat bilan uning ruhida mavjud bo‘ladi, ya’ni ilohiy yo‘l bilan berilgan bo‘ladi.

2. Diniy e’tiqodga individuallik ayrim shaxslardagi dinga nisbatan ichki ruhiy, ya’ni biologik ehtiyoj bilan belgilanadi. Bu xil qarash chet eldag‘i din psixologiyasini o‘rganuvchilar va freydizm yo‘nalishida uchraydi.

3. Marksizm nazariyasi. Unga ko‘ra, individ ruhiyati o‘z-o‘zidan diniy e’tiqodni tug‘dirmaydi, balki ma’lum hayotiy sharoitlar ta’sirida tashqi muhitda individga diniy e’tiqodlarni o‘zlashtirib olishi uchun qulay vaziyat yaratiladi<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanmasi.) T.-2007.- 12-b

<sup>3</sup> Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanmasi.) T.-2007.-15-b

<sup>4</sup> Din psixologiyasi (o‘quv qo‘llanmasi.) T.:TIU.-2014.-76-b

Diniy e'tiqod o'ziga xos muayyan dunyoqarash sifatida umuminsoniy tabiatga ega. Din inson zotiga xos bo'lgan ruhiyat, ma'naviy holatdir. Dinning asosiy mohiyatini belgilovchi g'oya bu, ilohiy zot-yaratuvchiga ishonish va unga sig'inishdir. Turli diniy an'ana va qadriyatlarga rioya qilish, shu yo'l bilan narigi dunyoda jannatga tushish, do'zax azobidan xalos bo'lish maqsadidir. Din Yaratganga, taqdirga, oxiratga Xudo belgilab bergan andozalardan chiqmasdan ishonishdir. Bu ma'naviy andozalar – mehnatsevarlik, insonparvarlik, adolatlilik, iymonlilik, insofllilik, odamlarning bir-biriga ishonchi va hurmati kabi me'yorlardan iborat. Din – inson ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Qur'on, Hadislar asosida shakllangan musulmonlarning burch va vazifalari deb tan olingan shariat ahkomlari kishilarni iymon - e'tiqod, vijdon orqali hayot tarzini hal etishga chorlagan. Buning uchun har bir musulmon o'zi vijdonan pok, iymonli va halol bo'lishi kerak, degan da'vat islom ta'limotida katta o'rinn olgan.

Diniy tafakkur inson ongingin ilk shakllaridan hisoblanadi. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, diniy ong bundan 40-50 ming yil avval paydo bo'lgan. Diniy va psixologik yondashuv ong kesimida inson qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlashga zamin yaratadi. Diniy ong shakllanganligi kishilarni bir-biriga mehr-muhabbatli qilish, jamiyatda tinchlik-totuvlik yaratish kuchiga ega. Shaxs ongida diniylik diniy tafakkur bilan shakllanadi. Chunki diniy tafakkur diniy ongning strukturasini tashkil qilgan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish quroolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelish shartidir<sup>5</sup>. Aristotel o'zining "Metafizika" asarida u "Ong va tafakkurni bilishning muhim atributlari," - deb e'tirof qilgan<sup>6</sup>.

Bizning jamiyat a'zolari faoliyatida ham diniy tafakkur muhim ahamiyatga ega. Ayniqla, yoshlarning axloqiy tarbiyasida jamiyat hayotida uchrayotgan har xil salbiy illatlarga qarshi kurashishda uning o'rni bor. Bilamizki, har bir din ezgulikka chorlab yovuzlikni qoralaydi. Shu bilan birga, hozirgi sharoitda yoshlarimizdagi diniy tafakkur Qur'on, Hadis, sunnat va islom olamining obro'-e'tiborli ulamo va olimlari: Mazhabboshi Imomi A'zam, Imom Buxoriy, Imom al-Moturudiy, Hakim Termizi, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Xo'ja Ahror Valiy kabilarning asarlariga tayangan holda shakllanib rivojlansa u ijtimoiy hayotda ijobjiy natija beradi. Yoshlarda diniy tafakkurni mustahkamlash uchun biz ta'lim jarayonida Qur'on, Hadis islomiy olimlar asarlaridan ko'proq foydalanishimiz, o'tiladigan mavzuga xos bo'lgan oyat va hikmatli so'zlarni qo'llashimiz kerak. Insonga so'z orqali, misol keltirish bilan uning ongiga, tafakkuriga, tarbiyasiga ta'sir o'tkazish mumkin.

Tafakkur qilish xususiyatlarda dindor va diniy e'tiqodi bo'limgan shaxslar o'rtasida tafovutlarni ko'rish mumkin. Dindorlarda, masalan, musulmonlardagi Husn-

<sup>5</sup> Ivanov P.I, Zufarova M.E "Umumiy psixologiya" T. :O'zFMJ.-2018.-186-b

<sup>6</sup> Din sotsiologiyasi (o'quv qo'llanmasi.) Farfiyev B.A. T.:TIU-2018.-108-b

i-zan, ya’ni bir hodisaning yaxshiligi haqida ezgu fikrda bo‘lish, yaxshi bo‘lajagi haqida o‘ylash bor. Shuning uchun ham islomda doimo har bir narsaning yaxshi tomonlarini ko‘rish, shukr qilish, musibatlar kelganda sabr qilib, buni Allohning sinovi, deb qabul etishga buyuriladi. Natijada har qanday qiyinchiliklar yengillik bilan o‘tkaziladi. Allohga isyon qilinmaydi. Boshqacharoq aytganda, ularda nekbinlik (optimizm) ustun bo‘ladi. Shu bois dindor odamning ruhiy olami, asab tizimi nisbatan barqaror, sog‘lomroq bo‘lishi kuzatiladi. Zero, dindor kishi o‘z xulq-atvori, xatti-harakatlarini doimo muqaddas kitoblarda bitilgan va diniy aqidalarda bildirilgan hamda buyurilgan amallarga moslashtirib taqqoslab boradi. Bu amallardan salgina og‘ishi bo‘lishi bilan Yaratganga tavba-tazarru qilib, o‘zini haq yo‘ldan adashtirmaslikni iltijo qiladi. Unga o‘zini topshiradi. Bilib bilmay qilgan gunohlarining avf etilishiga, Parvardigor uni hibzu-himoyasiga olishiga ishonadi. Bu ishonch va e’tiqod ostida o‘zini erkin, xotirjam va dadil tutadi. Asab tizimi ham ortiqcha zo‘riqishlar va tarangliklardan xoli bo‘ladi. Agarda fuqarolar, ayniqsa yoshlarning diniy tafakkuriga dindan g‘arazli siyosiy maqsadlarda foydalanayotgan, aslida islomga faqat dog‘ tushirayotgan ekstremistik niyatdag‘i turli oqimlarning mafkurasi faol ta’sir ko‘rsatsa, unda jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va taraqqiyotiga jiddiy tahdid vujudga keladi.

Insonning fitratida diniylik bor bo‘lib, lekin u tashqi ta’sirlar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Insoniyat dinga qiziqib keladi uni bilishga o‘rganishga harakat qiladi. Shunda uning tafakkurida tog‘ri bilimlar shakllantirsa, unda haqiqiy diniy e’tiqod va diniy ong namoyon bo‘ladi.

### **ЭГИЗАКЛАРНИ МАКТАБ ҲАЁТИГА ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
“Дин психологияси ва педагогика”  
кафедраси катта ўқитувчиси Л.И.Тойирова*

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
Дин соционсихология йўналиши  
2-босқич талабаси Соҳида Шукурова*

Мактаб дунё иморатларининг энг муқаддаси ва қадрлисидир. Мактабнинг чин ва ҳақиқий маъносини билган, Миллатлар жонлари, моллари билан ҳиммат ва ғайратларини сарф этиб, Миллатнинг тараққий ривожига ижтиход қилурлар. (Махмудхўжа Бехбудий)

**Аннотация:** Мактаб ҳаётида ўқитишининг ўзига хослиги ва ўқитувчи томонидан эгизак шахсларнинг мослашиш жараёнини ўрганишга қаратилди. Мақоланинг долзарблиги шундаги эгизакларнинг ижтимоий психологик хусусиятда ген ва муҳитнинг роли, олимлар томонидан ўрганилганлик даражаси ҳамда эгизакларда индивидуал-психологик хусусиятларининг ўқиши жараёнида намоён бўлишига эътибор қаратилди.

**Таянч сўзлар:** Эгизаклар, ген, муҳит, монозигота, дизигота, оила, адаптация, ўқиши, таълим ва хоказо.

Мактаб ҳаётининг бошланиши ҳар бир боланинг ривожланишидаги муҳим босқичдир. Кўпгина болалар учун бу онадан узоқ вақт ажралиш ва мустақил ҳаётнинг биринчи тажрибасини англатади. Эгизаклар бу маънода аниқ устунликка эга: иккаласи ҳам оналаридан ажралишга мажбур бўлишса-да, улар барибир бир-бирларининг шериклари бўлишади. Эҳтимол, бу эгизаклар кўпинча ёлғиз туғилган болаларга қараганда мактабга кўпроқ боришининг сабабларидан биридир. Яна бир сабаб шундаки, улар ҳеч қачон дўстларга эга эмаслар - бу уларнинг мулојимлиги ёки дўстона муносабати туфайли эмас, балки эгизаклар сингари тенгдошлари учун ёқимли бўлганидадир.

"Алоҳида ўқитиши ўқитувчиларга ҳар бир эгизакни яхшироқ билиб олишга ёрдам беради." Ушбу баёнот яна жуда оқилона кўринади, аммо уни тескари талқин қилиш мумкин. Бола мактабда чекланган вақтини ўтказади ва унинг ҳаётидаги кўплаб воқеалар ундан ташқарида содир бўлади. Агар ўқитувчиси мактабдан ташқарида жуда қўп вақтини ўтказадиган ҳамроҳи билан таниш бўлмаса, ўқитувчини болани тушуниш деярли мумкин емас.

"Агар ўқитувчи уларни чалкаштириб юборса, эгизаклар хафа бўлиши мумкин." Албатта, бу монозиготик эгизакларга кўпроқ тегишли. Бироқ, эгизаклар доимо бир-бирлари учун хато қилишларига одатланиб қолишади. Асосийси, иккинчи эгизакни биринчисининг муваффақиятлари учун мақтамаслик керак, биринчисини эса иккинчисининг хатолари учун айбламаслик керак.

Қарорлар бир марта ва умуман қабул қилинмайди

Эгизакларни биргаликда ёки алоҳида-алоҳида тарбиялаш болаларнинг мактабга киришидан анча олдин қабул қилиниши керак бўлган қарор емас ва келажакда уларга қатъий риоя қилиш керак. Австралияда ўтказилган тадқиқотда тўртта эгизакларнинг учтаси биринчи йил давомида бирга ўқишиган ва мактабда янги муҳитга яхши мослашиш учун кетмаслик тўғрисида маслаҳат берилган. Ўқишининг иккинчи йилида эгизакларнинг ажралиши одатий ҳолга айланди ва учинчи йил бошида эгизакларнинг таҳминан ярми турли синфларда таҳсил

олишди. Шуни эсда тутиш керакки, эгизаклар, айниқса биринчи синфда фарқ қиласи:

“Менинг синфимда ўқиши бошлаган эгизаклар бир-бирига жуда боғлиқ, аммо улар бошқа болалар олдида хавфсизлик ҳиссини ривожлантириб, ўз йўлларини топиб, мустақил талаба бўлишади. Кийин пайтларда улар бир-бирларини ҳимоя қиласидилар ва қўллаб-қувватлайдилар. Шу лаҳзаларда мен бошқа барча ўқувчиларга омад тилаб қолишини истардим! ”дейди ўқитувчилардан бири. Мухими, келгуси йил бўлинган эгизакларнинг тўртта жуфтлигидан бири яна бирга ўрганишни бошладилар. Кўп сабабларга кўра, ушбу босқичда ажралиш уларга фойда келтирмади. Эгизакларнинг хусусиятларини тушунадиган мактаблар уларнинг эҳтиёжларига мослашувчан тарзда жавоб беришади. Ўқитувчилар, ота-оналар ва эгизакларнинг ўзлари таълимнинг тараққиётини мутахассислар томонидан доимий равишда назорат қилинишини ва агар керак бўлса, вазиятни ўзгартириш мумкинлигини кўришлари керак.

Мактабда фақат битта синф бўлса-чи?

Кўпгина чекка қишлоқ мактабларида эгизакларни ажратиш масаласи ҳатто кўтарилимайди, чунки у ерда битта синф мавжуд. Шунга қарамай, бу ерда бир нечта муҳим жиҳатлар мавжуд, чунки айтилганидек, эгизакларнинг ажралиши барча муаммоларни ҳал қилишнинг ягона йўли эмас. Қандай бўлмасин, синфдошларнинг эгизакларга нисбатан қандай муносабатда бўлишларига эътибор беришингиз керак. Бундан ташқари, ота-оналар, ўқитувчилар ва бошқа катталар ўзларининг хатти-ҳаракатлари эгизак муаммоларининг манбай ёки йўқлигини ўйлаб кўришлари керак.

Доим ўз ҳамроҳи билан нималар бўлаётганидан хабардор бўлишни истаган болалар учун битта синфнинг бўш жойини ажратиш турли синфларда ўрганишдан кўра яхшироқ ечим бўлиши мумкин. Шунинг учун қишлоқ мактабларидан кўркишнинг ҳожати йўқ, чунки у ерда турли синфларда ўқиши мумкин емас.

Мен ҳатто алоҳида машғулотлар ҳақида ўйлашим керакми?

Баъзи ота-оналар, ўз фарзандлари учун битта синфда ўқиши бошлашлари яхшироқ, деб ҳисоблашади ва кейин ўзларига бўлган ишонч бироз кучайганда, бошқаларига ўтиш яхшироқдир. Кейин 8 ёшга келиб, кўп эгизаклар алоҳида алоҳида ўқийдилар. Аммо, агар алоҳида таълимга ўтиш эгизаклар синфида "бирлашганидан" кейин содир бўлса, улардан бири нафақат сингиллари, балки ўртоқлари билан ажралиб тургани, иккинчиси ўзаро дўстлар сафида хотиржамлиги аён бўлади. Агар эгизаклар ўз вақтида болалар боғчасига, тўгаракка ёки бўлимга юборилса, бу муаммолардан қочиш мумкин. У ерда эгизаклар оналаридан вақтинча ажралишга кўникишлари мумкин ва мактабга боргандарида турли синфларга

қўпроқ ишонишади. Бу уларга мустақил ҳаётнинг бошланишига янада юмшоқ ўтиш имконини беради.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Акрамова Ф.А., Абдуллаева Р.М. Шарқ мутафаккирларининг оила хусусидаги қарашлари. Т.: «Шамс АСА», 2005.
2. Зырянова Н.М. Близнецы. – М., 2006.
3. Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В., Развитие близнецовых и особенности их воспитания, М.: Институт психологии РАН, 2000.

---

**МАКТАБ YOSHIDAGI EGIZAKLARNING O'QISHDAGI  
KAMCHILIKLARNI KORREKTSIYALASH YO'LLARI**

*Toyirova Shaxlo Izatovna  
Buxoro Davlat Universitetining Pedagogika  
instituti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada egizaklar psixologiyasining o'ziga xosligi hamda maktab davrida egizaklarning moslashish jarayonidagi nazariy va amaliy jihatlari psixologlar tomonidan o'rganganlik darajasi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zi:** xulq-atvor, monozygote, dizigote, nutq, diqqat, tortinchoklik, xafagarchilik jaxldorlik hissiyotlar, qobiliyat .

**Annotation.** This article discusses the specificity of the psychology of twins and the degree to which psychologists have studied the theoretical and practical aspects of the adaptation process of twins in school.

**Keywords:** behavior, monozygote, dizygote, speech, attention, shyness, resentment, anger, feelings, ability.

Maktab yoshida egizaklarda ijtimoiy moslashuvning buzilishi bilan bog'liq muammolarga uchraymiz. Maktabda ular nafaqat ota onalariga nisbatan balki bu hamma bolaning muammosi bo'libgina qolmasdan bir birlariga nisbatan ham psixologik va fiziologik mustaqil bo'lislari kerakligini anglatadi. Buning natijasida egizaklar o'qishning bиринчи yilida yomonroq o'qishadi, ammo keyin yaxshi tomonga o'zgaradi. 13 -15 yoshda Dizigota egizaklarda va 16- 18 yoshda monozygotalarda bir xil baho olish tendentsiyasi mavjud. V.V Semenov shuni aytadiki Monozygota egizaklarda bir xil baho olish tendentsiyasi mavjud. Bu paytning o'zida Dizigotalarda bunday tendentsiya yo'q. Bundan tashqari egizaklar juda tez charchashadi , bu diqqatning pasayishi va ishchanlikning pasayishi bilan kuzatiladi. Bu esa keyinchalik o'zlashtirolmaslikka olib

keladi. Bolani o'qishni yaxshi o'qiy olmasligini aniqlash uchun avval o'sha bolani o'qish yoki o'qiy olmasligi aniqlash kerak.<sup>7</sup> Avstraliyada o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki egizak bo'lган o'g'il bolalarning o'qish va yozish qobiliyati yaxshi bo'lмаган yolg'из tug'ilganlardan quyidagilar asosida farq qiladi. Nutq rivojlanishida ortda qolishadi yoki ortga qolishgan. Ularga yozish ham , o'qish ham hisob kitob ham qiyinchilik tug'diradi. O'qish paytida simetrik harflarni adashtiradi o'xshash holat qizlar o'rtasida ham aniqlandi. Muammo ularning biron bir ishni qilolmaslikda emas,balki bu ishni qilishni xoxlamayotganlikda yoki tezda yengilishida. O'qishda ushlanishi bo'lган egizaklar ko'pincha ishga ehtiyyotsiz muomilaga bo'ladi. Ular vaqtlarni soatga qarab xato aytishgan yoki ikkilik sonlarni hisoblay olishmagan. Ularning qobiliyatini rivojlantirishdagi asosiy masala bu ularni savollarga o'ylab turib javob berishga o'rgatishdir. Bu asosiy muammolarni hal qilgandan keyin o'qishni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni uyushtirish mumkin. Ayrimlar hisoblashadiki egizaklarning o'qishni yaxshi bilmaslik bu ularning lateralizatsiyasining yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog'liq ya'ni ikkita qo'lning ishlata olishi faqat bitta qo'lini emas.Egizaklar orasida chapaqaylar yoki bittasi o'ng qo'l ikkinchisi chapaqaylar shuning uchun buni o'qishdagi buzilishga ag'darish oson. Avstraliyada o'tkazilgan natijalar shuni ko'rsatadiki egizaklar orosida chapaqaylik ularning o'qishlari bilan bog'liq emas ekan. Bu shuni anglatmaydiki egizaklar orasidagi lateralizatsiya o'qishdagi o'zgarishlarga ta'sir etmaydi.Avstraliya va B.Britaniya maktablarida egizaklarning o'zlashtirish darajasi haqida so'rovlar o'tkazilgan . Avstraliyada keng so'rovlar o'tkazilgan. 10 yoshli o'g'il bola egizaklar yolg'из tug'ilgan tengqurlaridan o'qish va yozishda jiddiy ortga qolar ekanlar , kamroq ortga qolish esa qiz bola egizaklarda quzatilar ekan. 14 yoshda esa qiz bolalar o'g'il bolalardan tashqari o'z tengqurlarini yolg'из tug'ilganlarga yetib olisharkan. 70% dan ko'proq qizlar o'sha yoshda avstraliya jamiyatida yashab qolish uchun yetarli o'qish va yozish qobiliyatiga ega bo'larkan. O'g'il bolalarda bu ko'rsatgich 40% tashkil qilgan ekan. Alovida uzoq bo'lмаган egizaklar bilan alovida shug'ullanish samaliroq uzoqroq egizaklarning ikkalasi bilan barobar shug'ullanishdan ko'ra.<sup>8</sup> Bu shuni anglatadiki biron bir kishi qolgan bolalar bilan shug'ullanish kerak. Ayrim oilalar bunga yechim topishadi ota ona har bir egizak bilan alovida shug'ullanishadi. Hattoki boshqa qarindoshlarni ham yordamga chaqirishadi. Bunday vaziyatlarda ehtiyyotkor bo'lish kerak.

O'qishni rivojlantirish muammosi egizaklarning o'zlariga baho berishlariga ta'sir qiladi. Boshlang'ich maktabdagagi o'qish egizaklarning atrovdagilar bilan bir birlari bilan musobaqalashiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki , odatda mакtab o'quvchilari uy vazifasi uchun haftasiga 130 soat sarflaydilar lekin

<sup>7</sup> Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В., Развитие близнецов и особенности их воспитания, М.: Институт психологии РАН, 2000.

<sup>8</sup>Зырянова Н.М. Близнецы. – М., 2006.

egizaklar oilasida bu soatlar o'sishi mumkin. Ko'pchilik egizagi bor ota onalar uy vazifalarni bajarish jarayonlarida o'zlaridan nimalarnidir qo'shib bajarishmoqda.O'qishni rivojlantirish muammosi egizaklarning o'zlariga baho berishlariga ta'sir qiladi. Boshlang'ich mактабдаги о'qish egizaklarning atrovdagilar bilan bir birlari bilan musobaqalashiga turtki bo'ladi. Bunda ular bir sinfda o'qiydimi yoqmi ahamiyati yo'q Agar egizaklarning biri yaxshi o'qisa buni hamma ko'radi. Lekin o'qish musobaqaga asos bo'lmasligi kerak. Egizaklar tushunishlari kerakki ular o'qishni o'рганар екан yangi ma'lumotlar olish uchun o'zini egizagiga ko'p o'qish bo'yicha uchib ketish uchun emas. Bolada yaxshi o'qish qobiliyatini rivojlantirish keyin ish 'isoblanadi. O'qishni yaxshi bilmaydigan bolalar oson tushkunlikka tushishadi. Ular o'zlarining o'qish uslubini va rivojlanish tezliklarini baholashnip o'рганишлари kerak. boshqalarni o'zlariga tenglashtirishdan ko'ra.

Egizaklarning psixologik assoslarini bilish zarur, ayniksa , bir tuxumli va xar xil tuxumli egizaklarni ajrata olish kerak. Agar egizaklar paralel sinfda o'qisalar unda o'qituvchilar ularning o'kishiga ketma- ket karashlari kerak.Agar egizaklardan biri boshqa sinfda bo'lsa unda o'qituvchi o'zining diqqatini bir joyga jamlashi kerak. O'kishni endi boshlagan o'quvchi egizaklar tortinchoklik , xafagarchilik jaxldorlik hissiyotlarini xis kilishadi. Ko'p o'qituvchilar bolalarni bir birlariga yordam berishlarini yukori baholashadi. Egizak farzandni dunyoga keltirgan ba'zi ota onalarning kuzatuvlariga ko'ra tushlik kilayotgan paytda egizaklar oshxonada dars qilishsa ularning o'zlarini tutishlarini va uy vazifasiga bo'lgan munosabatlarini shunday izoxlashdi: Bir egizak uy vazifasini bajarsayu ikkinchisi uni ko'chirsa bu ikkalasiga xam foyda keltirmasligi mumkin. Ammo bir biriga yordam berish usuli musobaqalashishni kamaytirishga imkon berishi mumkin .mabodo bir egizak ikkinchi egizakning qo'shish va ko'paytirish vazifasiga yordam bersa ikkinchi egizakning matematikadan olgan yaxshi bahosi uchun xursand bo'lib yuradi .Tajribalar natijalari shuni ko'rsatyaptiki, odatda mактаб o'quvchilari uy vazifasi uchun xافتасига 130 soat sarflasalar , egizaklar oilasida bu soatlar o'sishi mumkin. Chunki egizak farzandi bor ota onalar farzandlari uchun beriladigan uy vazifasi muammosini o'zları bir narsalarni uylab topib xal kilishlari kerak bo'ladi. Egizaklarni biz ko'pincha bir fanga qiziqishadi deb uylaymiz. Birok maktablarda o'tkazilgan so'rovlar natijasida kuyidagi xulosaga keldik yani egizaklardan biri matematika fanidan yaxshi o'zlashtirsa sherigi esa buning aksi. Egizaklar tasviriy sanbatga sheriyatga bazilari esa texnika sohalarda qiziqishadi. Bu ularning tabiatlariga bog'lik. Monozigotali egizaklarning aksariyati bir faoliyat bilan doimiy shug'ullana olmaydilar. Dizigotali egizaklar esa aloxida faoliyatda bo'la turib uzok vakt davom etishini ko'rishimiz mumkin. Egizaklar kurashayotganda oraga ko'shilish vaziyatni chigallashtirishi mumkin. Kupchilik munosabatlarda ikkita tomon bo'ladi biri karor kabul kiladi ikkinchisi unga jon deb rozi bo'ladi va unga ergashadi. Egizaklarda shunday ko'prok biri kuchli va talabchan bo'ladi

ikkinchisi yumshok va xotirjam buladi. Agarda yon bosuvchi egizak o'zining shaxsiy karorlarini kabil kila olsa bu hakida xavotirlanmaslik kerak. O'qituvchilar egizaklarning birini ikkinchi yilga koldirish yoki bir sinfga ko'tarish yo guruh sardori kilish masalasiga juda extiyotkorlik bilan yondashishlari kerak. Bunday xolatlarda egizaklarning ijtimoiy - psixologik bog'liklarini bilish kerak. Egizak o'smirlarda munosabatlari o'rtasida muammolar yuzaga kelishi mumkin chunki xar biri o'zini topish uchun va uni tan olishlari uchun xarakat kiladi. Monozigota va Dizigotali egizaklari o'rtasidagi munosabatlar har xil xuddi bir jinsli va xar xil jinsli egizaklar o'rtasida singari. Ko'pchilik egizaklarga yordam kerak bo'lmasa ham , egizaklar o'rtasida ko'zga ko'rindigan farq bo'lsa , ularga albatta yordam berish kerak. Egizaklar o'z paytida yordam ololmayotganligiga o'qituvchi va ota onalar amin bo'lishlari kerak; Maktabda egizaklarning bir biriga qattiq bog'liqligini hurmat kilishlari kerak va albatta har biriga buyuk kobiliyat rivojlanishi uchun sharoit yaratish kerak.

### **Foydalangan adabiyot ro'yxati**

1. Зырянова Н.М. Близнецы. – М., 2006.
2. Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В., Развитие близнецов и особенности их воспитания, М.: Институт психологии РАН, 2000.
- 3.Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 202-205.
4. Тойирова Ш. Ўзбек оиласарда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.
5. Ismatova D. T. et al. OILADAGI AJRIMLAR PSIXOLOGIK MUAMMOSI SIFATIDA //Oriental Art and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 184-190
6. Тойирова Л. И., Тойирова Ш. И. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДРОСТКОВ-БЛИЗНЕЦОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЕ //негізі атты халықаралық білім беру онлайнконференциясының материалдары. – 2019. – С. 113.
- 7Тойирова Л., Ульмасова Д. НАВЫКИ ТРЕНЕРА И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ КАК ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ // Свет ислама. - 2020. - Т. 2020. - №. 1. - С. 152-158
- 8.Izatovna T. L., Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 98-104.
- 9.Izatovna T. S. THE INFLUENCE OF PSYCHOGENETIC FACTORS ON THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 297-303.

- 9.Izatovna T. L. INFLUENCE OF HUMAN FACTORS ON THE UPBRINGING OF BLIZNETS IN UZBEK FAMILIES IN THE PROCESS OF TRAINING //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 286-292.
- 10.Тойирова Л. Эгизаклар ривожланиш босқичларидағи ўзига хос психологик хусусиятлар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 126-130.
- 11.Izatovna T. S. PSYCHOLOGICAL APPROACHES OF PARENTS IN THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 82-87.
- 12.Izatovna T. L., Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 98-104.
- 13.Тойирова Л., Ульмасова Д. НАВЫКИ ТРЕНЕРА И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ КАК ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ //Свет ислама. – 2020. – Т. 2020. – №. 1. – С. 152-158.
- 14.Тойирова Л. И. и др. ЭГИЗАКЛАРНИНГ ИЖТИМОЙЛАШУВИДА НУТҚ БИЛАН БОҒЛИҚ ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАР //Oriental Art and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 196-200.

---

## **KASBIY STRESSNI YUZAGA KELISHIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLAR**

*J.Yo'ldashev  
Toshkent shahar Olamazor tumani IIO FMB  
xodimi katta leytenant*

Ishlashga qobiliyatatlilik yoki layoqatlilik (**work efficiency**) – inson faoliyatining unumdorligini hamda odamning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sharoitida quvvatini to'g'ri sarf bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Izchil tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, zo'riqib ishlash tufayli paydo bo'lgan toliqish, u xoh ruhiy, xoh jismoniy bo'lishidan qat'iy nazar u xatti-harakatlarning tezligi va aniqligi, kuch va chidamlilik, mehnatning sifatiy hamda miqdoriy natijalari, xatoliklarga ta'sir qiladi. Shu sababli, ishlash qobiliyati, kasbiy yaroqlilikni aniqlash yo'lida olib boriladigan ilmiy izlanishlar inson salomatligi va farovonligi hamda ish bajarilishining samaradorligiga ta'sir etuvchi stress, jismoniy zo'riqish, zerikish va boshqa salbiy asoratlarni kamaytirishga qaratilgandir.

Ishning samarali bajarilishi uchun sharoit yaratish mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, inson omillarining muhandisligi, kasb psixologiyasi yoki ergonomikada asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Mehnatning unumdorlilik masalasi tadqiqotlari, mehnat unumdorligini oshirish va toliqish, baxtsiz hodisalar miqdorini kamaytirish maqsadida, mehnat faoliyatini loyihalashtirish borasidagi yutuqlarga o‘z hissasini qo‘shadi.

Ushbu sohaning asoschisi hisoblangan, yuqorida aytilgan izlanishlarni boshlagan **F.Teylor** ta’kidlashicha, ishlab qobiliyatining unumdorligi va samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishga taalluqli barcha vazifalarni izchillik bilan o‘rganish zarur. Shuningdek Teylor, xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq kelishlari va ushbu ishlarni ilmiy asoslangan yo‘riqnomalarga qat’iy muvofiq ravishda bajarishga o‘rgatilgan bo‘lishlari lozim.


**Frenk va Lilian Gilbretlar** tomonidan, toliqish bo‘yicha olib borilgan boshqa ilk ishlar natijasi sifatida, ish jarayonida zo‘riqishni kamaytirishga imkon beruvchi, turli ishlar uchun maxsus kursilar yaratildi. Undan tashqari, F.Gilbret mehnat samaradorligini oshirish, toliqish muammosini hal qilishda, ishchilarning xatti-harakatlariga alohida e’tibor qaratish zarurligini, o‘z izlanishlari orqali ilmiy asoslab bergen. Chunki, yuqorida keltirilgan “Xatti-harakatlarning psixologik tahlili” mavzuida berilganidek, ishchilarning “tabiiy” harakatlari ichida zarur, aql-idrokka asoslangan harakatlar bilan birga xatti-harakatlar ham uchraydi va aynan mana shu tartibsiz, ortiqcha va mantiqsiz harakatlar toliqish sabablaridan biridir. Izlanish natijalaridan xulosa sifatida **F.Gilbret**, xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish va tejamkorlik g‘oyasini olg‘a surgan edi. Har qanday ishning unumdorligiga, yuqorida ko‘rsatilgan omillardan tashqari:

- ishning davomiyligi;
- mazkur ish bilan mashg‘ul bo‘lgan ishchi, xodimlarning psixofiziologik xususiyatlari;
- ishchi va xodimlar holatlarining bevosita ta’siri borligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Amaliy faoliyat va olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, faoliyatning unumdorligi — ishlab chiqarish faoliyatining davomiyligiga bog‘liq ravishda, vaqt mobaynida o‘zgarar ekan. Vaqt mobaynida unumdorlikning o‘zgarishi: bir ish smenasi, 24 soat, hafta va yil davomida o‘rganilgan.

Ana shu maqsadda ish smenasining vaqt davomida odamda ishchanligining o‘zgarib borishi grafigi tuzilgan. Natijada 8 soatlik smena davomida olingan grafik chizma — mehnat unumdorligining egri chizig‘i olingan.

Pastdagi grafikka qarang:



Ushbu egri chiziqdan ish unumdoorligining o'zgarib borishini ko'rib turibmiz: smena boshida ko'rsatkich o'sib borib, eng yuqori darajasiga yetdi (2-soatda), smena oxiriga kelib esa tusha boshlagan. Ish smenasi tugashidan avval (5-6-soatlarda) esa nisbiy ko'tarilishni ko'rishimiz mumkin. Ammo unumdoorlik darajasining ko'tarilishi yoki pasayishi faoliyat turi va ishchining shaxsiy sifatlariga bog'liq ravishda turli bo'lsada, odatda sanab o'tilgan davrlar, faoliyatning har bir turi va har bir mehnat qiluvchida bo'ladi. Psixologlar va fiziologlar unumdoorlikning ushbu o'zgarishlari xarakterini tushuntirishga intilib, ular asosini tashkil qiluvchi umumiyligini qonuniyatlarni topdilar. **Y.Daniyel (1995)** ta'kidlashicha, mehnatning bir doimiy sharoitlarida ish jarayonida unumdoorlikning o'zgarishi, psixologik va fiziologik faktorlarga, aniqroq aytganda psixologik va fiziologik ishslashga layoqatilik va qobiliyatilik bilan bog'liq ekan.

Yuqoridagi grafikda 1-egri chiziq (uzluksiz chiziq) smena davomida og'ir mehnat bilan mashg'ul ishchining, 2-egri chiziq (punktirli chiziq) esa yengil mehnat bilan shug'ullangan ishchанинг ишchanлиги о'згарishini ko'rsatadi.

Olimlar tomonidan smena давомида unumdoorlik egri chizig'iga ta'sir etuvchi omillarni ajratish harakat qilingan. Bunday ishlar ichida birinchilardan bo'lib, E.Krepelin tomonidan aqliy faoliyat unumdoorligining egri chizig'ini tahlilini ko'rsatish mumkin. 2002 yilda rus psixologi **E.Krepelin** tomonidan mehnat unumdoorligi egri chizig'i bog'liq bo'lgan 5 ta omilni ko'rsatilgan:

- Mahorat.
- Toliqish.
- Ishga ko'nikish.
- Rag'batlantirish (stimullah).
- Irodaviy zo'riqish.

Bunda mahorat ish unumdoorligini oshirsa, toliqish esa pasaytiradi. Rag'batlantirish mehnat faoliyatiga undaydi, irodaviy zo'riqish esa uni tez-lashtiradi. Dam olish ijodiy quvvat quyilib kelishiga va mahsuldarlikni oshiradi.

1990 yilda esa, **E.A.Derevyanko** uchuvchilar faoliyatini parvoz sharoitida va laboratoriya sharoitlarida tadqiq etib, unumdonlik egri chizig‘iga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatgan.

Bular quyidagilardir:

- Tananing mazkur ishga nisbatan maksimal imkoniyatlari.
- Faoliyatning samaradorligi.
- Emotsional-irodaviy zo‘riqish.
- Toliqish.

Bu yerda **ishga nisbatan imkoniyatlari** deganda, ishchining psixofiziologik imkoniyatlari, ya’ni mazkur faoliyat turi bo‘yicha ko‘nikmalari nazarda tutiladi.

Mehnat jarayonida ishchining **emotsional-irodaviy zo‘riqish** holati ishning qanday borishini, ya’ni mehnat dinamikasini belgilaydi.

### Kasbiy stress holati

**Kasbiy stress (occupational stress)** — odamlarning va ular tomonidan bajarilayotgan ish orasidagi o‘zaro ta’sirining natijasi bo‘lib, bunda insonlarga normal faoliyat ko‘rsatishiga halaqit beruvchi ma’lum bir o‘zgarishlar nazarda tutiladi.

Kasbiy stressning juda ko‘p individual asoratlari topilgan. Bunday jismoniy o‘zgarishlardan bir qanchasi quyidagilardir: yurak-qon tomir tizimining kasalliklari, oshqozon-ichak kasalliklari, nafas a’zolari kasalliklari, rak, artrit, bosh og‘riqlari, tana shikastlanishi, teri kasalliklari, jismoniy zo‘riqish yoki toliqish va o‘lim.

Kasbiy stressga nisbatan ruhiy ta’sirlanishga: xavotirlanish, depressiya, qoniqmaslik, zerikish, somatik darmonsizlik, ruhiy charchoq, tushkunlik va nochorlik bo‘yicha, o‘z o‘ziga past baho berish, boshqalar bilan aloqaga kirishishdan qochish, psixozlar, qahr-g‘azab, shaxsiy tuyg‘ularini ichida saqlash va diqqatini jamlashga qurbi yetmaslik kabi shikoyatlar ham ichiga kiradi.

Kasbiy stressning xulq, fel-atvorda quyidagi asoratlari kuzatiladi: shifokorlarga murojaat qilish, dori-darmonlarni qabul qilish va ba’zida keragidan ortiq dori iste’mol qilish, qattiq emotsional ta’sirlanish, yoki buning aksi, befarqlilik, imo - ishora va yurish-turishning asabiyligi, xavfli xatti-harakat, tajovuzkorlik, qo‘pollik, o‘g‘rilik qilishga moyillik, odamlar bilan yomon munosabat, suitsidal urinishlar yoki suitsid.

Ammo shuni ham ta’kidlash muhimki, konkret o‘zgarish, ta’sirlanishga taalluqli ma’lumotlar umuman olganda yetarli emasdir. Shuning uchun, quyidagicha xulosa qilish to‘g‘ri bo‘lardi: kasbiy stress odamning farovon hayotiga ziyon yetkazishi mumkin, ammo aynan mana shu salbiy ta’sir o‘zini qanday namoyon qilishi, noma’lum bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, har xil tipdagi odamlar, ta’sir kuchi jihatidan bir xil bo‘lsa ham, ularning kasbiy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan stressorlar, ya’ni stress holatini qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan har xil ta’sirlanadilar.

Kasbiy stresslarning **manbalarini 3 ta asosiy kategoriya, mezonga ajratish mumkin:**

- a) tashkiliy tavsiflar va jarayonlar;
- b) mehnat shart-sharoitlari va shaxslararo munosabatlar;
- v) ish tomonidan qo‘yiladigan talablar va rollar bo‘yicha tavsiflar.

**Tashkiliy tavsiflar** ichida stresslarga taalluqlilariga:

- yuqori darajadagi markazlashuv,
- qog‘ozbozlik va ixtisoslashuv, shuningdek,
- tashkil etishning katta hajmliligi,
- xizmat pog‘onalar bo‘yicha ko‘tarilishning murakkabligi hollari kiradi.

**Shuningdek, stressning manbalari** deb, quyidagi hollar ham hisoblanadi:

- mehnatga haq to‘lashning tengsizligi,
- xodimlarni tez-tez joyini o‘zgartirilishi,
- fikr almashishning juda kamayib ketishi,
- ishlab chiqarish vazifalarining aniqmasligi yoki qarama-qarshiligi,
- smenali ish,
- bajarilgan ishga nisbatan noto‘g‘ri qaror qabul qilish va h.k. vaziyatlar.

**Ishlab chiqarish stressorlari** deb esa, mehnatning quyidagi shart-sharoitlari hisoblanadi:

- tigilinchlik,
- yolg‘iz qolishning imkonsizligi,
- yuqori darajadagi shovqin,
- haroratning pastligi yoki aksincha balandligi,
- yoritilganlikning yetarlicha emasligi,
- ko‘zni qamashtirgudek yoki lipillab turuvchi chiroq,
- havoni ifloslantiruvchi zaharli kimyoviy mahsulotlar yoki boshqa narsalar.

Shuningdek,

- o‘zaro hurmat,
- xayrixohlik va ishonch yo‘qligi,
- raqobat va ziddiyatlar kabi shaxslararo munosabatlar ham stressni yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablar deb hisoblanadi.

**Ish tomonidan qo‘yiladigan talablarga** taalluqli ehtimoliy stressorlarga:

- ishning bir xilligi,
- ishni qisqa muddatda bajarilishi kerakligi,
- malakaga past talablar,
- odamlar uchun javobgarlik,
- xodimlarning to‘liq bo‘lmagan yoki aksincha ortiq darajada ish bilan ta’minlanganligi.

Hozirgi kunga kelib ish faoliyatida xodimlar bajaradigan rollarini o‘rganish natijasida, rolli ziddiyatlar, noaniq yuklamalar va kasb faoliyatiga mos kelmagan talablarning barchasi asosiy stressorlar sifatida tan olinmoqda.

## **SHAXS DINIY IDENTIFIKTASIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TASNIFI**

*Maratov Temur G‘ayrat o‘g‘li  
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
tayanch doktoranti*

Bugungi kunda ijtimoiy-psixologik yondashuvlarning asosiy qismida diniy identifikatsiyani tasniflash muammosi ijtimoiy-madaniy jarayonlar kontekstini hisobga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, ko‘pgina tadqiqotchilar diniy, etnik va milliy identifikatsiyaning shaxs ijtimoiy o‘ziga xosligining ierarxik tuzilishida bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Eng keng tarqalgani diniy identifikatsiyaning konfessiyaviy mansublikka qarab tasnifashi: musulmon, pravoslav, katolik, buddaviy, yaxudiy kabilarni o‘z ichiga oladi[5].

Psixologiyada dinni o‘rganishning ilmiy paradigmaсинing o‘zgarishi munosabati bilan dindorlik tipologiyasi va shaxsning diniy identifikatsiyasi rivojlanishiga oid masalalarga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Jumladan, XX asrning 60-yillarida amerikalik psixolog G.Ollport birinchilardan bo‘lib dindor shaxslarning ijtimoiy-psixologik tipologiyasini taqdim etadi. Tadqiqotchi dindorlikning namoyon bo‘lishidagi rang-baranglikni tahlil qilar ekan, dindorlarning ongi va xulq-atvori xususiyatlarining umumiyligi va o‘xshashligiga qaramay, mazmun-mohiyati, diniy e’tiqodi, dunyoqarashi va diniy ibodatlarni bajarishdagi o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ular o‘rtasida aniq farqlar mavjud ekanligini e’tirof etadi. G.Ollport ularni tushuntirishda turli konfessiyalarga mansublik bilan bog’lash bilan cheklanmaydi. Dindorlik va diniy identifikatsiyaning tasnifini ishlab chiqishda, muallif, insonning dindorlik darjasи va e’tiqodning sofligini hisobga olish zarur deb hisoblaydi. Din sotsiologiyasi nuqtai nazaridan bunday farqlarni baholashga imkon beruvchi mezonlarga quyidagilar kiradi: ibodatxonaga (masjid, cherkov) tashrif buyurish, shaxsning diniy qonun-qoidalar va xatti-harakatlar normalariga rioya qilishga munosabati va boshqalarning e’tiqodi bilan qiziqishi (dindor yoki dinsiz ekanligiga).

G.Ollport dindorlarning ikkita asosiy turini ajratib ko'rsatdi. "Tashqi dindor" deb ataladigan birinchi turdagи shaxslar dindan o`zi uchun tashqi bo'lgan turli maqsadlarga erishish vositasi sifatida foydalanadi, bu muntazam ibodatxonalarga borish, uning marosimlarida ishtirok etish kabilarda ko`rinadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, bu tipdagi ayrim dindorlar ko'ngil tinchligiga erishish uchun dindan foydalanadilar. Biroq, G.Ollportning fikricha, dindorlikning "tashqi" yo'nalishi shaxsning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, nevrozlearning rivojlanishiga sabab bo`lishi mumkin. Ikkinchi turga «ichki dindor» shaxslar kiradi, ular uchun din mustaqil va yakuniy qadriyat bo'lib, diniy e'tiqod va e'tiqodlar tizimi bilan bog'liq bo'lмаган ehtiyoj va manfaatlar ikkinchi darajali ahamiyatga egadir. Dindorlikning sub'ektiv ma'noda "ichki" yo'nalishi shaxsga tashvish, qo'rquv va boshqa salbiy emotsiyalardan xalos bo'lishga yordam beradi, quvonch va erkinlik tuyg'usini olib keladi. Ushbu turdagи shaxslar boshqa odamlarga nisbatan empatiya, alturistik xususiyatlari bilan jaralib turishadi[1].

D. Batson shuningdek, shaxs diniy identifikatsiyasini tasniflashda diniy orientatsiyani hisobga olishni taklif qildi, bu diniy institutlar va jamiyatlardan mustaqil ravishda diniy masalalar bo'yicha o'z pozitsiyasini izlash va individual rivojlanishdan iborat bo'ladi. Muallifning fikricha, bu orientatsiya inson hayotida transsensual, diniy jihatning mavjudligini, jumladan, turli ekzistensial savollarga mazmunli javob berish imkoniyatiga ega bo`lishni nazarda tutadi. O.M.Artemenkoning ta'kidlashicha, bu orientatsiya shaxsdagi sof e'tiqodning yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin[2].

Odamlarning qadriyat yo'nalishlarida dinning o'rnini idrok etishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, V.I.Dobrenkov va A.A.Radugin dindorlarning quyidagi tipologiyasini taklif qiladi:

- din hayotining mazmunini belgilovchi shaxs;
- muhim, ammo aniqlanmagan diniy yo'nalishga ega bo'lgan shaxs;
- itoat va itoatsizlik o'rtasida ikkilanuvchi shaxs

Haqiqiy dindor odamlar uchun hayotning barcha sohalarida xulq-atvor va muloqot motivatsiyasini belgilaydigan, diniy xususiyatlarning barqaror tizimini tashkil etuvchi e'tiqodiy tarbiya shakllanadi[3].

L.M.Drobijeva, G.U.Soldatova, J.Marsiya, M.V.Vereshchagin va boshqalarning ta'kidlashicha, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasining xulq-atvor komponenti uning namoyon bo'lishida hal qiluvchi omil bo'lib, u harakatlarning strukturasi va munosabatlar tizimini aks ettiradi.

J.Marsia, shaxsni o'rganishda “ijtimoiy maqom” yondashuvini taklif qilib, shaxs identifikatsiyasining xulq-atvor komponentiga alohida e'tibor qaratadi va ushbu komponentni tavsiflovchi turli xil o'zgaruvchilar mavjudligini ta'kidlaydi. U o'zgaruvchi sifatida shaxs identifikatsiyasining mavjudligi yoki yo`qligini aks ettiruvchi, shaxsning ma'lum bir jamoaga a'zo yoki a'zo emasligini ko'rsatuvchi, ma'suliyatga

nisbatan munosabatlarning shakllanganligi yoki shakllanmaganligini ifodalovchi xulq-atvor tizimini nazarda tutadi[4].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonning o‘z-o‘zini anglashining tuzilishi identifikatsiyaning ijtimoiy muhit konteksti bilan belgilanadi. Ijtimoiy-madaniy muhit va o‘z-o‘zini anglash o‘rtasidagi bog‘liqlik, shaxs ijtimoiy identifikatsiyasining xulq-atvor komponentining mazmunini belgilaydi. A.G.Spirkinning ta’kidlashicha, o‘z-o‘zini anglash ham individual, ham ijtimoiy xarakterli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, E.Dyurkgeym tadqiqotlarida ham shunga o‘xshash mulohazalarni toppish mumkin. Uning fikricha, shaxsda ikki xil ong mavjud bo`lib, ular: individual va guruhiydir[5].

Shundan kelib chiqib, diniy identifikatsiyani psixologik, ijtimoiy-madaniy identifikatsiya sifatida ko‘rish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Allport G.W., Ross J.M. Personal religious orientation and prejudice. // Journal of Personality and Social Psychology. 1967. – V. 5. – № 4. – P. 432 – 443.
- 2.Артеменко О.М. Религиозная идентичность личности как психологический феномен. Академическое исследование и концептуализация религии в XXI веке: традиции и новые вызовы: сб. материалов Третьего конгр. рос. исследователей религии. В 6 т. Т. 3 / Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г.
- 3.Добреньев В.И. Методологические вопросы исследования религии: учебное пособие. / В.И. Добреньев, А.А. Радугин. –М.: Гаудемаус, 2002. – 438с.
- 4.Marcia J.E. Identity in adolescence // Adelson J. (ed.) Handbook of adolescent psychology. – N.Y.: John Wiley, 1980.
- 5.Соколовская И.Э. Социальная психология религиозной идентичности современной российской молодёжи: диссертация ... д. псих. н: 19.00.05. – М.: Московский педагогический государственный университет, 2015. –315 с.

---

## **BOSHQARUV JARAYONIDA KASBIY MOTIVATSIYA VA UNING TUZILISHI**

*Baxtiyorova Muhlisa Fayzullo qizi  
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*

Shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan kasbiy motivatsiyani, shuningdek shaxsni mehnat predmeti sifatida kasbiylashtirishning turli bosqichlarida motivatsiya xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiyani o‘rganishda olimlar quyidagi asosiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatishadi: ehtiyoj, mehnat motivi, motivning

harakatlantiruvchi kuchi, ishdan qoniqish, mehnatni rag'batlantirish, kasbiy qiziqishlar, mehnat unumdarligi (samaradorlik). Keling, ularning tarkibini batafsil ko'rib chiqaylik. Ehtiyoj - bu insonning hayoti uchun zarur bo'lgan narsaga bo'lgan ehtiyojidir, nisbatan qisqa vaqt ichida qondiriladi, shundan keyin ehtiyoj keskinligi yana kuchayadi va bajarilishini talab qiladi.

Shaxs, ijtimoiy mavjudot sifatida, ijtimoiy hayotning normalari va an'analari bilan shakllanadigan biologik va zaruriy ehtiyojlarga ega bo'ladi. Mehnat motivi - bu ehtiyojning sub'ektiv surati bo'lib, odamni ehtiyojni amalga oshiradigan faoliyat shakli sifatida ishslashga undaydi. Inson mehnati bilan bog'liq motivlarni uch guruhga bo'lismumkin: ish motivlari, kasb tanlash motivlari va kasb tanlash motivlari. Ma'lum bir faoliyat bu motivlar bilan belgilanadi (mehnat faoliyati motivlari kasb tanlash uchun motivlarni shakllantirishga olib keladi, ikkinchisi esa kasb tanlash motivlariga olib keladi). Ish motivlari. Insonni mehnat bilan shug'ullanishga undovchi omildir. Ish motivlari quyidagi sabablarni o'z ichiga oladi sabablarning birinchi guruhi - ommaviy sabablar. Bu jamiyat uchun foyda ko'rish zarurligini anglash, bu boshqa odamlarga yordam berish istagi (bu bolalarning ta'limida, bemorlarni davolashda, o'z vatanini himoya qilishda va hokazolarda namoyon bo'lishi mumkin), bu ham mehnatga bo'lgan ehtiyojga nisbatan jamoatchilik munosabatida ko'rindi.

Ikkinci guruh - bu o'zi va oilasi uchun ma'lum moddiy foyda olish: moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun pul topish. Uchinchi guruh - bu o'zini namoyon qilish, o'zini anglash ehtiyojini qondirish: odam tabiat tomonidan harakatsiz bo'lishi mumkin emas, uning tabiat shunday-ki, u nafaqat iste'molchi, balki ijodkor hamdir. Yaratilish jarayonida u ijodkorlikdan qoniqishni oladi, mavjudligining ma'nosini asoslaydi. Jamiyat tomonidan tan olinish va boshqalarning hurmatiga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq sabablar ham xuddi shu guruhga tegishli.

Kasb tanlash uchun motivlar. Yuqorida muhokama qilingan ishlarning umumiylarani aniq kasblar bo'yicha amalga oshiriladi. Kasbni tanlash juda murakkab va ba'zan uzoq davom etadigan motivatsion jarayondir: inson hayotidan qoniqishi ko'p jihatdan kasbni to'g'ri tanlashga bog'liq. Kasbni ongli ravishda tanlash insonning ijtimoiy qadriyatlariga yo'naltirilganligi bilan yuzaga keladi. Agar inson uchun asosiy narsa ijtimoiy obro' bo'lsa, unda kasb shaxs uchun imdj, kasbning jamiyatdag'i obro'siga qarab tanlanadi. Ko'pchilik kasbni moddiy farovonligini ta'minlaydigan darajaga qarab tanlaydi. Bir qator odamlar o'zlarining qiziqishlari tufayli kasbni tanlaydilar va ko'pincha bu qiziqish adabiyot, film, televizion shoulardan ilhomlangan ishqiy xarakterga ega. Bu yuzaki, toza tashqi taassurotga asoslangan yoki ota-onalar va do'stlarning maslahatlari bilan qo'llab-quvvatlanadigan bunday tanlov muvaffaqiyatli bo'lishiga olib keladi. Ammo ko'pincha kasb romantikasi tezda yo'qoladi, bunda odam aqliy, jismoniy yoki ruhiy holatiga tayyor emas; ish inson uchun qiynoqqa aylanadi va u kasbini o'zgartirishga

majbur bo'ladi. Shunday qilib, kasb ko'p holatlarga qarab tanlanishi mumkin, ammo birinchi navbatda tanlangan faoliyat insonning moyilligi va qobiliyatiga qanday mos kelishini hisobga olish kerak. Asab tizimining o'ziga xos xususiyatlarining namoyon bo'lishidagi o'ziga xos tipologik xususiyatlarning kombinatsiyasi (kuch-quvvat, zaiflik, harakatchanlik, harakatsizlik, nomutanosiblik) odamning muayyan faoliyat turiga tez, ammo qisqa muddatli ishslashga, o'zgaruvchan tabiatga va boshqalarga moyilligini aniqlashi mumkin. Bu tendentsiya va uning sababi (har doim ham farq qilmasa ham) odamni muayyan faoliyat turiga jalb qilishga undovchi sababni shakllantirishga olib keladi, chunki uning nazarida bu faoliyat tabiatning mavjudligi mavjud tendentsianing tabiatiga mos keladi (shuning uchun bu faoliyatning psixologik tuzilishi haqida shaxsni haqiqiy, yetarli darajada tushunishning ahamiyati). Tegishli tipologik xususiyatlarning uyg'unligi bir xil faoliyat turi uchun qobiliyatlarning namoyon bo'lishiga yordam beradi, bu uning yuqori samaradorligiga olib keladi. Ishdan qoniqish hosil qiladi va kasbni doimiy qiziqishga aylantirib, kasb tanlash motivini kuchaytiradi. Ikkinchisi insonning faoliyatiga ta'sir qiladi va uni ushbu kasbda "tuzatadi". Motivning o'zini o'zi mustahkamlashi sodir bo'ladi. Agar biror kishi kasb haqida, unga qo'yiladigan talablar haqida yuzaki va etarli bo'lmasan tasavvurga ega bo'lsa, unda bir tomondan moyillik va qobiliyat, ikkinchi tomondan ishning psixologik tarkibi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud. Natijada, bunday faoliyatning na yuqori samaradorligi, na undan qoniqish hissi bo'lmaydi. Faoliyatning muayyan turiga moyillik turli xil mehnat turlarida (kasblarda) o'zini namoyon qilishi mumkin, ya'ni tor maqsadli kasb tanlashni oldindan belgilab bermaganligini anglatadi. Xuddi shu moyillik va qobiliyat turli kasblarda amalga oshirilishi mumkin. Ish tanlash uchun motivlar. Bu yerda ko'proq "tashqi" va "ichki" omillar (motivatorlar) e'tibor berish kerak, ular qaror qabul qilish jarayonida shaxs tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu asosan tashqi vaziyatni, uning qobiliyati va holatini, tanlangan kasbga qiziqish va moyillikka muvofiqligini baholashga tegishli. Tashqi vaziyatni baholash (ijobiy va salbiy ishlab chiqarish omillari) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

✓ ushbu korxonada ishchilarga beriladigan ish haqi, imtiyozlar miqdori; uyga yaqinlik, transportning qulayligi;

✓ ish joyining estetikasi va zararli ishlab chiqarish mavjudligi, bir, ikki yoki uch smenada, qattiq yoki bepul ish jadvalining mavjudligi, kompaniyaning ishonchliligi va obro'si;

✓ javobgarlik chorasi, jamoadagi psixologik muhit, mukofotlar va jazolar tizimi (jarimalar va boshqalar).

Ularning imkoniyatlarini baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi: sog'liq holati, ushbu ish uchun qobiliyatlarning mavjudligi va kasbiy muhim fazilatlar, ma'lumot darajasi, stresssiz, erkin ritmda ishslash yoki ma'lum bir sur'atda maromda ishslash.

Tadqiqotchilar nuqtai nazaridan mehnat faoliyati polimotivlangan, ya'ni bir nechta ehtiyojlarni va bir nechta sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Mehnat motivatsiyasi - bu o'zini va boshqalarni muayyan natijalarga erishishga qaratilgan faoliyatga undash jarayoni. Motivning harakatlantiruvchi kuchi uning subyektiv ahamiyati yoki sub'ektning boshqa ehtiyojlar tizimidagi ehtiyojga va uning predmetiga nisbati bilan belgilanadi. Masalan, A.N. Leontev bu munosabatni semantik deb atagan va semantik dinamik tizimlarni ajratib ko'rsatgan. Mehnatni rag'batlantirish - ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, qulay vaqt jadvallari va boshqalar. Ular potentsial insonning ehtiyojlari sub'ektiv maqomini olishlari mumkin, ular xodimni ishlashga rag'batlantirish sifatida ongda namoyon bo'ladi. Biroq, bunday bo'lmasligi ham mumkin. Shunday qilib, mehnatni rag'batlantirishning turlari turli darajadagi odamlar uchun samarali bo'lgan turli darajalarga chiqadi .

Ishdan qoniqish - bu xodimning ish bilan bog'liq asosiy ehtiyojlarini muntazam ravishda qondirish uchun imkoniyatdir. Mehnatdan mammun bo'lgan odam odatda bajarilgan ishlarga ijobiy hissiy munosabat bilan ajralib turadi. Kasbiy qiziqishlar - tor ma'noda, bu ibora kasb bilan bog'liq yangi bilim turlarini rivojlantirishda odamning hissiy imtiyozlarini aks ettiradi; keng ma'noda "qiziqishlar" atamasi "motivlar" atamasi bilan bir xil. Mehnat unumдорлигi (samaradorlik) - bu ishdagi muvaffaqiyat ko'rsatkichi, uning yuqori sifati va tezligi belgisi. Kasbiy motivatsiya bu kasbiy faoliyat sub'ektning ichki tuzilishining aksidir, ya'ni: har qanday kasbiy ehtiyojlarni qondirish va maqsadlarga erishish uchun shaxsning muayyan harakatlarni amalga oshirish istagi va tayyorligi.

Kasbiy motivatsiyaning shakllanishi va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar ajratiladi:

- ehtiyojlar;
- taxminlar;
- qiymat o'rnatishlari;
- rag'batlantirish;
- tashqi sharoitlar.

Ushbu omillar ro'yxatini ikki guruhga bo'lish mumkin: ichki yoki subyektiv (ehtiyojlar, kutish, qiymat munosabatlari, rag'batlantirish): shaxs tuzilishining psixofiziologik tarkibiy qismlari, uning qiymat-semantik doirasi xususiyatlari bilan belgilanadi. Atrof-muhit yoki ob'ektiv (tashqi omillar): sub'ektning mehnat faoliyati amalga oshiriladigan tashkilotning tabiatini va o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu omillar guruhining xodimning motivatsion-ehtiyoj sohasiga ta'sirini o'rganish uchun 20-asrning 70-yillarda rus psixologlari insonning kasbiy motivatsiyasi sohasida bir qator yirik tadqiqotlarni o'tkazdilar. Ushbu ilmiy ishlarga ko'ra, xodimning shaxsiy ehtiyoj va yashash manbai sifatida mehnatga munosabatini belgilovchi asosiy omil mehnatning mazmuni ekanligi aniqlandi. Shuningdek, mehnat tarkibi mehnatning ob'ektiv ko'rsatkichlarini (masalan, intensivlik darajasi), shuningdek, xodimlarning o'z ishlaridan

qoniqish darajasini va ish haqi miqdorini belgilaydiganligi aniqlandi. Bundan tashqari, tadqiqotdan kelib chiqadiki, moddiy rag'batlantirish mehnat faoliyati tarkibining o'zi xodim uchun shaxsiy ma'noga ega bo'lgan taqdirdagina shaxsiy ehtiyoj sifatida ishslashga munosabatni shakllantirishning samarali vositasi sifatida ishlaydi. Aks holda, pul bu qiziq bo'lman faoliyat uchun kompensatsiya bo'lib, uning natijasida mehnat faoliyati kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish vositasi sifatida emas, balki asosiy ehtiyojlarni qondirish va uning mavjudligini ta'minlash usuli sifatida ko'rib chiqiladi. Keyinchalik, yana bir tadqiqot mahalliy psixologlar tomonidan olib borildi, unda shaxsning mehnatga bo'lgan munosabatiga qarab, bitta kasbni o'zlashtirish siklida shaxsning kasbiy rivojlanishining yetti bosqichi aniqlandi. Tadqiqotchilar har bir bosqichda professional motivatsiyaning o'ziga xos sifati borligini ko'rsatdi, uni biz quyida batafsil ko'rib chiqamiz. Inson faoliyatidagi professional motivatsiyaning xususiyatlari: ushbu bosqichda professional motivatsiyaga ega emas, chunki birinchi navbatda, ta'limga muassasasini tanlash, shuningdek, o'quv jarayonining o'zi kiradi. Rag'batlantiruvchi va talabchan sohada "kirish imtihonlarini topshirish" kabi istaklar qayd etiladi va hokazo. Kasb noaniq, faqat yo'nalishni tanlash bilan namoyon bo'ladi. Faoliyatga kirishgan shaxsda kasbiy motivatsiyaning xususiyatlari shartli ravishda aytish mumkinki, ushbu bosqichda kasbiy motivatsiya paydo bo'ladi yoki shakllana boshlaydi. Kelajakda mehnat predmeti kasbiy ta'limga muassasasida o'qiydi, kasbiy bilim va ko'nikmalarning asoslarini o'zlashtiradi, shuningdek, ma'lum bir mutaxassislar jamoasiga xos bo'lgan professional qadriyatlar tizimini o'zlashtiradi. Shuningdek, ushbu bosqichda universitet ixtisosligi bo'yicha mutaxassislikni tanlash, kuch sinash va boshlang'ich kasbiy tajribani to'plash, muktabni, texnik muktabni, kollejni tugatgandan so'ng ishga joylashish imkoniyatlari mavjud.

Inson moslashuvdagagi kasbiy motivatsiyaning xususiyatlari: bu bosqichda inson mustaqil kasbiy faoliyatni boshlaydi. Mehnat predmetining markaziy vazifasi - bu muassasaning mehnat jamoaviy va tashkiliy madaniyatiga (ijtimoiy moslashuv), kasbiy vazifalar va vaziyatlarning murakkabligiga (kasbiy moslashuv), uning kasbiy roliga, o'zgarishni talab qilishi mumkin bo'lgan shaxsiy ma'nolari, ehtiyojlari va motivlari tizimiga qo'shilish va o'zingiz, sizning qadriyatlar tizimingiz, "men" (shaxsiy moslashish) imidji shakllanadi. Ushbu turdagagi moslashirish xodimning kasbiy motivatsiyasining xususiyatlarini aniqlaydi. Inson amaliyotida kasbiy motivatsiyaning xususiyatlari: bu bosqich o'rta murakkablikdagi professional vazifalarni bajarish, individual faoliyat uslubini rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Bu davr etarlicha uzoq davom etishi va usta bosqichiga o'tmasligi mumkin, chunki hamma odamlar kundalik qiyin ishlarga moyil emas. Psixologlar rivojlanishning ushbu bosqichida mehnat predmetining funktsional holatini optimallashtirishga yordam beradi deb tavsiflashadi. Ushbu davrda qaramaqarshiliklar, mojarolar, rivojlanish inqirozlari paydo bo'lishi mumkin. Kasb-ustozning

kasbiy motivatsiyasining xususiyatlari: bu bosqichda bo'lgan kishi allaqachon kasbiy mahorat cho'qqilarini egallagan va eng murakkab kasbiy vazifalarni qanday bajarishni biladi. Keyingi bosqichda bo'lgani kabi, ushbu bosqichda ham kasbiy rag'batlantirish pasayishi mumkin bo'lgan yoshga bog'liq inqirozlar tufayli kasbiy rivojlanish muammolari dolzarbdir. Bundan tashqari, agar professional faoliyat jarayonida sub'ektning taxminlari, uning ehtiyojlari qoniqtirmasa, agar inson o'zini o'zi amalgalashirishda qiyinchiliklarga duch kelsa, unda ishtiyoq ham kamayadi. Aksincha, motivatsiyani yanada kuchaytirish va shaxsning professionalligini oshirish kerak. Vakolatli shaxsda professional motivatsiya xususiyatlari: ushbu bosqichga yetgan odam nafaqat murakkab kasbiy muammolarni hal qila olishi, balki norasmiy yetakchilik fazilatlariga ega bo'lishi, o'z hamkasblariga ishonishi va ta'sir ko'rsatishi kerak. Shaxsning motivatsion tuzilishida nafaqat ishslash istagi, balki jamiyatga, odamlarga e'tibori qaratiladi. Murabbiy shaxsida kasbiy motivatsiyaning xususiyatlari: bu bosqichda inson o'zining kasbiy faoliyati doirasida mahorat cho'qqilarini allaqachon o'zlashtirmoqda. Uning motivatsion tuzilishida yangi xodimlarga nisbatan o'qituvchi rolini o'ynab, o'z tajribasini boshqa odamlarga etkazish zarurati paydo bo'ladi. Biroq, mehnat psixologiyasi tadqiqotchilari ta'kidlashicha, kasbiylashtirish bosqichi qanchalik baland bo'lsa, kasbiy ishdan bo'shash xavfi shunchalik yuqori bo'ladi. Yonish - bu ish, jamoa va umuman butun tashkilot bilan bog'liq salbiy tajribalar to'plami. Bu ko'pincha o'z vazifalarini bajarish paytida odamlar bilan yaqin aloqada bo'lishga majbur bo'lgan mutaxassislar orasida o'zini namoyon qiladi. Aslida, professional charchash - bu xafagarchilik yoki umumiy moslashuv sindromining uchinchi bosqichi - charchash bosqichi. Kasbiy charchashning quyidagi belgilari ajralib turadi: befarqlik hissi, hissiy charchoq, charchoq (odam avvalgiday ishslashga o'zini bag'ishlay olmaydi); insonparvarlik (hamkasblar va mijozlarga nisbatan salbiy munosabatni rivojlanish); Salbiy professional o'zini o'zi idrok qilish - bu o'z qobiliyatsizligi, kasbiy mahoratning yo'qligi. Albatta, kasbiy charchash xodimning kasbiy motivatsiyasining xususiyatiga ta'sir qiladi. Masalan, inson qimmatli shaxsiy fazilatlarni yo'qotadi, ilgari erishilgan obro', mavqe uning kasbiy samaradorligi pasayadi va umuman ish va hayotga bo'lgan munosabati inson uchun o'zi uchun salbiy, beparvo, befarq va og'riqli bo'lib qoladi. Xodimda kayfiyatning pasaygan hissiy fonlari, belgilangan tushkunlik va ahamiyatsizlik, ahamiyatsiz voqealarga nisbatan yuqori darajada asabiyashish ustunlik qiladi. Ushbu alomatlar tez-tez asabiy tushkunlikka, qo'zg'aluvchan g'azabning paydo bo'lishiga yoki muloqot qilishni rad etishga, olib keladi. Hayotga va kasbiy istiqbollarga nisbatan umumiy salbiy munosabat mavjud: masalan, xodim qanday ishlamasin, u yuqori natijalarga erishmaydi va martaba o'sishiga erishmaydi. Shunday qilib, biz shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan kasbiy motivatsiyani, shuningdek, shaxsni mehnat predmeti sifatida kasbiylashtirishning turli bosqichlarida motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rjanib chiqdik va u shaxsning

mehnat faoliyatining har bir bosqichida sifat jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega degan xulosaga keldik. Kasbiy motivatsiya kasbiy faoliyat samaradorligiga sezilarli ta'sir qiladi. Kasbiy motivatsiya bilan bog'liq eng muhim omil kasbiy faoliyatning samaradorligi motivatsiya tarkibidagi tegishli motivlarning kuchi hisoblanadi. Shunday qilib, kasbiy motivatsiya kasbiy faoliyat samaradorligining eng muhim omillaridan biri va insonning o'z ishidan qoniqishidir.

---

## **OILADAGI IJTIMOIY-PSIXALOGIK MUHITNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI**

*Sayfullayeva Marjona O'tkir qizi  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlar ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasidagi eng samimiy, yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi hozirgi zamon fantexnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari va vositalarining taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga hos yangicha talablar qo'yemoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomonidan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqot munosabatlari doirasining ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada buzulishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsiyonal zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'moqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Umuman, insoniyat jamiyatni tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriyoq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo'ladi. Har qanday jamiyatning taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomtligi uni tashqil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek va butun organizm o'z

faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o‘rnini bo‘lganidek oila ham davlat, jmiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, unda ijobjiy psixologik iqlimning hukum surishi, manashu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakillanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyotini, ijtimoiy taraqqiyotini taminlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oila bosh mezon hisoblanadi. Shuning uchun jamiyat tarqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to‘sinqinlik qiluvchi, inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog‘lom, noqobil va nizoli oilalarning ko‘payishi, ajrashishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga, bunday nosog‘lom psixologik muhitda nizoli-janjalli, o‘zaro mehr-oqibatsiz sharoitda dunyoga kelgan, shakillangan bola ham keyinchalik nafaqat o‘z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan, balki atrofdagilarga, qolaversa, o‘zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr-oqibatsiz, shavqatsiz, zolim, hudbin, jamiyat, yurt manfaatlariga zid turli salbiy tashqi kuchlar ta’siriga oson beriluvchan shaxs bo‘lib shakillanishi va shu asosda o‘z oilasiga, o‘z xalqi, o‘z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo‘lishi mumkin. Demak, oilaning mustaahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligi, uning ravnaqini, tarqqiyotini belgilovchi, hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun, insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf tug‘dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekalogik, ichki va tashqi omillarning tahtidi ortib borayotgan ayni vaqtda oila mustahkamligini ta’minalash va bu masalani to‘g‘ri hal etishning asosiy yo‘li bo‘lmish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib bo‘lmaydigan, o‘ta jiddiy yondashishlarni talab etuvchi dolzarb masaladir. Buning muvafaqqiyatlari amalga oshishiga jamiyatimizning har bir fuqarosi birdek ma’suldir.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma’lum bir funksiyalarni bajaradi. Ijtimoiy funksiyalar haqida gapirganda, jamiyatning oilaga ta’sirini hamda umumiyligi ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini oilaning hal qiladigan ijtimoiy funksiyalarini hisobga olish lozim. Hozirgi zamon oilasining funksiyalari qatoriga quyidagilarni sanab o‘tish mumkin: Iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy kabilalar. Shular ichidan oilaning eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan funksiyasi tarbiyaviy funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik salohiyatiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo‘yish bilan cheklanmasdan, balki uning so‘nggi g‘ishti qo‘yilgunicha javobgardir. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimizning azaldan saqlab kelayotgan milliy urfadatlari, an’analari bu borada katta ahamiyatga ega. Jamiyatning komil fuqarosini shakillantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining maskur funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali

shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulqiy na'munalar, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", -deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi. Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustqil hayotda, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakillantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqilli, sog'-salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xhash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada odob-axloq normalariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning normativ ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oilada o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalari vanormalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o'rgatilgan bo'ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida ham, keyinchalik mактаб, kollej yoki litseyda o'qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni ma'suliyat bilan vijdonan bajaradigan bo'lib, bolalar jamiyatida hamisha o'z o'rniga ega bo'la oladi. Bunday farzandga turli bid'atlar, bemaza chaqiriqlar, da'vatlar ta'sir etmaydi, mustaqil fikrli, pok vijdonli inson bo'lib yetishadi. Chunki, oila bu kishilik jamiyatni, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo'lsa jamiyat ham mustahkam bo'lishini o'zbek xalqi juda yaxshi biladi. Albatta, bolaning ijtimoiylashuvi jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqa ijtimoiy omillar ham mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohatlar, davlatning yoshlari siyosati, ta'lim muassasalari va u yerdagи ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar, bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi.

Shunday qilib ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan ota-onada dastlabki ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani shaxs sifatida o'zligini anglashi, idrok etishi va shaxsiy fazilatlarini takomillashishiga yordam beradi. Oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni, unda ham otaning, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi (sog'lom, ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi) sog'lom, aqilli, kuchli iroda sohibi bo'lib yetishishiga imkon beradi. Bolaga ham otaning, ham onaning bo'lishining zaruiyati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o'zini tutishiga qarab, o'zini ayollar jinsiga taaluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo'lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo'lgan munosabatlariga qarab, o'zini kelajakda oila

qurganda qanday oila sohibasi bo‘lishi lozimligini bilib borsa, otasi va uning oilada mavqeiga qarab, turmush o‘rtog‘iga qanday munosabatda bo‘lish lozimligi to‘g‘risida bilim va tasavvurlarni orttirib boradi. Shu bois ham bolaning tom ma’noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo‘lishi uchun oila muhiti sog‘lom, barqaror, oila a’zolari bir-birlariga g‘amxo‘r, mehirli va sadoqatli bo‘lishlari o‘ta muhimdir. Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlariga tayyor bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir.

---

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОФИЗИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ УЗБЕКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА СРЕДСТВАМИ ИНДИВИДУАЛЬНО-ИГРОВЫХ ВИДОВ СПОРТА**

*Мухиддинова Феруза Асомиддин кизи  
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта Студент*

Значение образования в современном обществе Узбекистана невозможно недооценивать. Только физически и психически здоровое поколение будет способно противостоять вызовам быстро меняющихся условий современной жизни, справляясь с возрастающим спадом потребности на рынке труда к квалифицированным кадрам. Быстрый рост научно-технического прогресса способствует увеличению количества информации, все это требует от современной молодежи серьезного умственного и психического напряжения, а также дополнительных физических сил, хорошей координации и культуры движения.[1]

Специалисты по индивидуально-игровым видам спорта, а также педагоги физической культуры призваны в первую очередь, формировать привычку здорового образа жизни у школьников, подготавливать, здоровых, физически крепких, спортивно ориентированных учащихся.

Профессиональная психофизическая готовность будущих учителей физической культуры включает в себя сохранение высокой работоспособности, обеспечение физических и функциональных возможностей для адаптации организма к производственным условиям, способность к быстрому восстановлению психических и физических сил, противодействию стрессу.

Психофизическая готовность обеспечивает высоки уровень функционирования интеллектуальных и психофизических возможностей, которые в свою очередь способствует формированию сильной мотивации и оптимизации в достижении поставленных целей в процессе труда. Психофизическая готовность к профессиональной деятельности формируется в процессе профессионального обучения. Она необходима как условие эффективной педагогической деятельности.

Все учебные заведения Узбекистана от детского сада до университета финансируются за счет государства. Все основные занятия по физической культуре проходят на открытом воздухе, это обусловлено высокой температурой и влажностью. Игровые виды спорта в Узбекистане очень популярны, ведущие позиции среди них занимают: футбол, баскетбол, волейбол и гандбол.

Настольный теннис, бадминтон и теннис занимают важное место среди средств физического воспитания молодежи Узбекистана. В Узбекском государственном университете физической культуры и спорта студентки ходят на занятия «Игра с ракеткой», в который входят лекционные и практические занятия по трем видам спорта. А также по указу президента Республики Узбекистан № УП-6099 от 30.10.2020 несколько раз было организовано и проведено при кафедры «Теория и методика тенниса, бадминтона» соревнования по бадминтону для желающих студентов независимо от специализации в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта. Таким образом число желающих заниматься этим видом спортивной деятельности значительно вырос. С 12 до 16 ноября было проведено очередное соревнование по бадминтону. Победители были награждены дипломами и денежными призами.

Занятия индивидуально-игровым видам спорта призваны сформировать у студентов необходимый уровень знаний и навыков, а также психофизической готовности. В результате изучения тенниса, бадминтона и настольного тенниса достигается высокий уровень работоспособности, развиваются физические качества, вырабатывается потребность регулярных занятий физической культурой.

Психофизическая готовность студентов в процессе изучения индивидуально-игровых видов спорта определяется во многом усвоением необходимых ценностей, которые обеспечивают высокий уровень готовности к жизни и деятельности. При наличии высокой психофизической готовности у студентов Узбекского государственного университета физической культуры и спорта повышаются биологические возможности жизнедеятельности организма, что способствует возможности противостоять ухудшению экологических условий, справляться с высокими физическими и психическими нагрузками, работать эффективно в обычных и экстремальных условиях. Для формирования

психофизической готовности к педагогической работе средствами индивидуально-игровых видов спорта следует учитывать интенсивность и объем предполагаемой нагрузки, процесс игровой деятельности должен быть непрерывным.

Специалисты-психологи установили, что при условии работы руководителем у человека возникает физическая и психоэмоциональная усталость в большой мере, чем при исполнении трудовых функций и действий. Занятия индивидуально-игровыми видами спорта позволяют устанавливать коммуникационные связи у студентов, развивать способность к взаимодействию в коллективе, умение принимать решения в условиях ограниченного времени и на фоне физической усталости и психического напряжения. Профессиональная психофизическая готовность студентов Узбекского государственного университета физической культуры и спорта является интегративным образованием личности, поскольку является синтезом тесно связанных между собой следующих компонентов: теоретическая и физическая подготовленность, функциональная устойчивость организма, психическая подготовленность.

**Вывод.** Сформированная психофизическая готовность у студентов Узбекского государственного университета физической культуры и спорта к будущей профессиональной физкультурно-спортивной деятельности будет способствовать высокой дееспособности, приспособляемости к высоким температурным и повышенной влажности климата и стрессоустойчивости, что в результате повысит их конкурентоспособность и профессиональную мобильность.

Таким образом, овладение профессионально-педагогическими знаниями, умениями, навыками в процессе занятий индивидуально-игровыми видами спорта можно создать условия для формирования психофизической готовности к будущей профессиональной физкультурно-спортивной деятельности. Также в реальной педагогической работе это будет способствовать профессиональной и социальной стабильности учительских кадров

### Литература

1. Исмаилов А.И. Готовность как интегральная характеристика экспериментальной деятельности / А.И. Исмаилов, Р.А. Желтов // Детский тренер. – 2013. - №1. – С.39-42.
2. О мерах по широкому внедрению здорового образа жизни и дальнейшему развитию массового спорта. № УП-6099 от 30.10.2020.
3. Губанцева А.А. Психофизическая характеристика учебной деятельности студентов – будущих менеджеров / А.А. Губанцева, А.Г. Мастеров // Научно-методические основы повышения качества подготовки специалистов для сферы физической культуры, спорта и туризма. – Волгоград, 2013.

## **ОИЛАДА ОНА ВА ФАРЗАНД МУНОСАБАТЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ**

*Н.А.Гайибова*

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси*

*Дин психологияси ва педагогика кафедраси  
катта ўқитувчиси, психология фанлари бўйича PhD*

*Зумрад Садирова*

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси*

*Психология йўналиши, 2 босқич талабаси*

Ҳозирда жаҳон миқёсида оила ва оилавий муносабатларни тадқиқ қилиш ҳамда мустаҳкамлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро шахснинг шаклланиши ва келажагини белгилашда унинг оиласидаги мухит, ундаги шахслараро муносабатлар, яъни боланинг ота-онаси, сиблинглари билан алоқалари мухимдир. Оиланинг қадрият сифатида сингиши бевосита ундаги шахслараро муносабатлар, жумладан, дўстона, ишқий ва оилавий муносабатлар доирасига боғлиқдир. Ва ушбу доиранинг марказида - она билан фарзанд муносабатлари туради.

Оналик хулқ-авторининг шаклланиши борасида олиб борилган тадқиқотлар натижасида олимлар онтогенетик тараққиёт даврида яхши она бўлишга сабаб бўлувчи қатор омилларни ўргангандар. Ушбу омиллар қаторида қиз боланинг ўз онаси билан ёшлигидан бошлаб кечирган мулоқот тажрибасини, оиласида онага ва оналикка муносабат хусусиятларини, ўз оиласида кичкина болалар билан мулоқот, муносабат тажрибаси борлигини инобатга оладилар.

Олима Г.Г.Филипова бўйича оналик хулқ-авторининг шаклланиши қўйидаги босқичлардан иборат:

- бўлажак онанинг ўз онаси билан ўзаро муносабати босқичи;
- ўйинли босқич (қўғирчоқ ўйнаш, сюжетли-ролли ўйинлар ва х.з.);
- энагалик қилиш босқичи (кичикларни парвариш қилишда иштирок этиш);
- оналик ва жинсий соҳалар мотивацион асосларининг дифференциялашуви;
- ўз фарзанди билан ўзаро муносабат бошланиши;
- фарзандига шахс сифатида муносабат қилиб, боғлиқлик ва муҳаббатнинг шаклланши

Оналик, она ва фарзанд муаммоларига эътибор, оиланинг шахс шаклланишигига таъсири масаласи доимо олимлар ва тадқиқотчиларни қизиқтириб келган. Жумладан, фарзанд тарбиясини ҳомила шаклланган даврданоқ бошлаш кераклиги ҳақида Абу Райҳон Беруний шундай ёзди: “Боланинг юз

тузилиши она қорнида ато қилинади. Кўринишдаги гўзаллик ва тузилишдаги камол булар иккови ҳам ҳар бир одам учун севимли”. Яъни, бола табиат инъом этадиган ҳуснга эга бўлиши ва соғлом, бақувват туғилиши учун она қорнидаёқ замин тайёрланиши керак. Бунинг учун бўлажак онани хавотирга солмасдан, оила аъзоларининг бир-бирларини ҳурматлашлари орқали эришилса, боланинг ички маънавий гўзаллигига эса у туғилгандан сўнг оиласидаги таълим-тарбия орқали эришиш мумкин.

Швейцариялик олим И.Я.Бахофен ўзининг “Оналик ҳуқуқи” номли асарида она муҳаббатининг нафақат ижобий, балки салбий томонларини ҳам очиб берган. Ижобий жиҳати - онанинг муҳаббати беминнат, шартсиз эканидир, зотан у боласини нима учундир эмас, у - унинг боласи эканлиги учун севади. Улар унинг фарзандлари эканлиги боис, барча фарзандлар онанинг парвариши ва муҳаббатига ҳақлидирлар. Салбий жиҳати шундаки, унинг ўта кучли боғланиши кишининг индивидуаллигини (ўзига хослигини) ривожланишига тўсқинлик қилишидир. Зоро, у - аслида улғайиб қолгани билан ҳам она учун (оқибатда, ўзи учун ҳам) бола бўлиб қолаверади.

Э.Фромм ҳам она муҳаббатининг ҳам ижобий, ҳам салбий томонларини ёритиб берган. Мазкур фарқларни ўрганишда у оналик ва оталикнинг қиёсий таҳлилини ўтказган. Э.Фромм учун она муҳаббати барча нарсадан ҳимоя қилгувчи бўлса, ота муҳаббати тобеълик ёки исён билан боғлиқ бўлган. Онанинг болага боғлиқлиги табиий (шартсиз муҳаббат), отанинг боғлиқлиги- бу ҳокимият ва қонунга асосланган ўзаро муносабатларнинг сунъий тизимиdir.

Аёл ҳомиладор бўлганидан бошлаб туғруққача фарзанд кўришга нафақат физиологик, балки психологик тайёргарликни ҳам бошидан ўтказади. Турмуш ўртоғи билан биргаликда у ўғил ёки қиз туғилажаги устида, бола кимга ўхашни ва ўзининг қандай она бўлажаги хусусида мулоҳазалар юритади. У туғилажак боласини қариндошлари, дугоналари билан муҳокама қилади, кўчада, атрофдаги гўдакларга эътибор беради, ўзини болалигидаги суръатларини томоша қилади, ўзи болалигига қандай бўлганлиги хусусида онасидан сўраб суриштиради, бошқаларнинг болалари ҳақида қизиқади ва ҳоказо. Бирон болакайнинг харакатлари бўлажак онага ёқмаса, менинг болам бундай бўлмайди деган қаътий ишончда бўлади. Шу аснода, бўлажак онанинг онгига фарзандининг жонли образи шаклланади.

Бола ҳали туғилмасидан, унинг психологик лойиҳаси она тасаввурларида тайёр, у ўз муносабати билан болани маълум бир сифатларга ва қобилиятларга эга деб ҳисоблайди. Туғруқдан кейин эса она гоҳи англаб, гоҳи англамаган холда болага ўзининг бирламчи лойиҳасига мос тарзда муносабатда бўла бошлайди.

Албатта, бола-бу фақатгина она унинг суръатини тушираётган “тоза қофоз” эмас. Тараққиёти давомида у ўзининг “автопортрет”ини чизишга интилади. Она томонидан тортилган баъзи бир бўёқларни қолдиради, бошқаларини эса ўзгартиради, баъзи бир чизгиларидан бутқул воз кечади. Бир нарса аниқки, у она чизган ўзининг шахсий психологик портретига монанд бўлади.

Шундай қилиб, бола билан бўлган кундалик мулоқот ва парвариш жараёнида она у ҳали туғилмасдан “бичилган” психологик кўйлакни кийдириш пайида бўлади. Бундай лойиҳа узатуви бевосита ва бавосита амалга оширилади, яъни психологик лойиҳани узатиш ва ўзлаштириш кузатилади.

Лойиҳанинг бевосита узатиш шакли - бу она томонидан ўз боласини ва у қилган ва қилмаган харакатларини баҳолашда ифодалаган сўзлардир. Бавосита шакли эса - бу она нигоҳи, унинг овозини оҳангি, тегинишлари, унинг харакатлари ва хулқ-автори. Кўпинча бевосита узатиш жараёни англанилган бўлади, лойиҳалашнинг бавосита шакли - ғайришуурый тарзда амалга оширилади. Бироқ фаол англаниш, иродавий интилиш, айтилган сўзлар билан кутилмаган хатти-харакат, бехос жаранглаган оҳанг, ғалати нигоҳ ва хатти-харакат ўртасида – она томонидан боласини лойиҳалаштириш усусларининг ниҳоятда нафис, ўзгарувчан чегараси мавжуд.

Бундай лойиҳани ўтказиш бола ривожланаётган, ўсаётган йиллар давомида турли ижобий ва салбий усуслар орқали намоён бўлиши мумкин. Ижобий усул “сен-яхвисан”, “мен сени яхши кўраман”, “сенинг қўлингдан келади” каби иборалар орқали ўз ифодасини топади. Салбий усул эса: “сен мен истагандай эмассан”, “сен яхши бола бўлсанг, мен ҳам сени яхши кўрардим”, “сен мен истаган одам бўлсанг яхши бўлади” кабилар.

Биринчи услубда бола онасидан ўзига нисбатан ижобий муносабатда бўлиш, ўзини, шаксиз, ҳурмат қилиш каби маънавий меросни олади (“мен инсон эканим учун ўзимни ҳурмат қиласман”). Иккинчи услубда у ўзининг инсонийлик моҳиятини инкор этади, ўзини қадр-қийматини билиш мақсадида изтироб чекади. (“мен ҳаммадан ёмонман”, “мен учун ҳурматга лойиқ ҳеч нарса йўқ”).

Юқоридаги фикрларни умулаштирган ҳолда қуйидаги хulosага келиш мумкин. Ҳомиладорлик вактида онанинг эмоционал ҳолатининг қай даражада бўлиши туғилажак фарзанднинг характер хусусиятларида ўз аксини топиши мумкинлигини унутмаслик даркор.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Добрjakov I.V. Перинатальные аспекты психологии и психотерапии семьи // Семейный диагноз и семейная психотерапия. – СПб.: 2003.
2. Каримова В. Оила психологияси: Педагогика олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Т.: 2008 – 152 б.

3. Филиппова Г.Г. Психология материнства: Учебное пособие. – М.: 2002.
4. Файибова Н.А. “Сиблиинг мақоми ва унинг ўсмир шахслараро муносабатларга таъсири”. Монография Т.: -2020. 114 б.

---

## **БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИДА ПЕРСОНАЛ БИЛАН ИШЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ**

*Азамат Назаров, Ўзбекитсон ҳалқаро ислом  
академияси, “Дин психологияси ва педагогика”  
кафедраси катта ўқитувчиси*

*Нодирбек Иброҳимов, Ўзбекитсон ҳалқаро  
ислом академияси, Психология (Дин  
соционпсихология) йўналиши талабаси*

Персонал билан ишлаш - бу ўзаро боғлиқ йўналишларнинг тизими бўлиб, уларнинг ҳар бири ўз муаммосини ҳал қиласди ва маҳсус шакл ва усулларда амалга оширилади. Уларнинг деярли барчаси қўпроқ ёки камроқ психологоик ҳодисалар ва қийинчиликлар билан боғлиқ. Ушбу соҳалардаги муваффақият ходимлар билан ишлаш субъектларининг уларни тушуниш, ҳисобга олиш ва енгиги ўтиш қобилияти билан боғлиқ.

1. Персонал билан ишлаш стратегияси ва сиёсатини ишлаб чиқиш. Бу мақсадлар, вазифалар, иш принциплари, усуллари, ташкил этилиши, ходимлар билан ишлашнинг муваффақият мезонларини аниқ тушуниш, корхона мақсадларига эриша оладиган компанияда юқори ва ўсиб бораётган меҳнат потенциалини яратишни таъминлаш билан боғлиқ ғояларнинг умумий йўналиши. Персонал сиёсати ушбу потенциални яратиш, сақлаш, такомиллаштириш ва амалга ошириш бўйича мақсадли йўналишлар, қарорлар ва ҳаракатлар мажмууда амалга оширилади.

2. Ўрнатилган лавозимларни аттестацияси. Бу штат жадвалида келтирилган ишларда муваффақиятли ишлашга қодир бўлган мутахассисларга иш талабларини аниқлаш муаммосини ҳал қиласди. Иш вазифалари, юзага келиши мумкин бўлган қийинчиликлар, уларни муваффақиятли бажара оладиган ходимнинг қасбий маҳоратининг тавсифи, ушбу иш жойида ишлашнинг контрендикациясини белгилайдиган шахсий хусусиятлари таҳлил қилиниши керак. Сертификатлаштириш иш берувчиларнинг шахсий хусусиятларини талаб

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

қилинадиганлар билан таққослаб, иш жойининг талабларига жавоб берадиган одамларни танлаш масаласини муваффақиятли ҳал қилишга хизмат қилади.

3. Малакали ишчиларни жалб қилиш. Унинг вазифаси - ташкилотда ишлаш учун мурожаат қилган номзодларни саралаш, юқори малакали мутахассисларнинг ишига қизиқиши. Иш таклифномаларида реклама, турли хил одамлар ва ташкилотлар билан алоқаларни ривожлантириш билан меҳнат бозорида фаол қидирув, ўқув муассасаларига ташрифлар ва аспирантлар билан сұхбатлар ўтказиш, уларнинг баъзиларига ўқиши пайтида пул топиш имкониятини тақдим этиш, уларнинг корхона сифатида ривожланиш истиқболларини баҳолаш, алоҳида мутахассисларга шахсий таклифномалар юборилади (ҳаттоқи бошқа ташкилотларда янада қулай шарт-шароитлар билан ишлаш), корхонанинг обрўси ошади. Эркин меҳнат шароити. Илм-фанда бу вазифа профессионал тарғибот ва мартаба ўйналиши билан таъминланади. Профессионал тарғибот юқорида тавсифланган қидириш усуллари, уларнинг самарадорлигини ошириш учун психологик усулларни ўрганиш билан боғлиқ.

4. Ишга номзодларни ўрганиш ва танлаш. Вазифа ташкилотдаги бўш иш ўринлари учун мурожаат қилганлар орасидан энг яхшисини танлашдир. Уни ечишнинг муваффақияти бу одамларнинг мавжуд хусусиятларини тўғри баҳолаш ва психологик модель (портрет, психограмма) талабларига энг мос келадиган энг яхшисини танлаш қобилияти билан боғлиқ. Персонал хизмати ходимлари ишга даъвогарлар тўғрисида маълумот тўплашнинг турли усулларидан фойдаланадилар, аммо, шубҳасиз, профессионал психологик танлов усуллари ва процедуралари ёрдамида унинг ишончлилиги ошади.

5. Ишга янги келганларнинг меҳнат жараёнига киришини ва лавозимда ишлашини таъминлаш. Ҳар бир меҳнат ўзгариши ва унинг шароитлари уларга мослашишни талаб қилади. Иккинчиси ҳар доим психологик қайта қуриш сифатида содир бўлади: ҳар бир янги ходим муқаррар равишда қийинчиликларга дуч келади. Унга янги ишга одатланиши (унга мослашиши) учун бироз вақт керак бўлади, аммо уни камайтириш, мослашув жараёнини тезлаштириш ва хато ва бузилишлардан қочиш тавсия этилади.

6. Ишчилар хавфсизлигини таъминлаш ва ходимларнинг ортиқча иш қолдиришининг олдини олиш. Асоссиз ўзгарувчанликни олдини олиш керак, чунки у индивидуал ходимларнинг ишидаги ҳар қандай норозилик ёки камчиликларни бартараф этишдан кўра иқтисодий жиҳатдан кам фойда келтиради. Агар ходимлардан бири умидсиз бўлса, у ёмон ишлайди ва унга нисбатан кўрилган чоралар қониқарли натижга бермайди, бундай ҳолда албатта, ишдан бўшатиш керак . Ишдан бўшатишнинг ҳар бир ҳолатининг сабаблари батафсил ўрганишга лойикдир.

7. Ходимларнинг шахсий ривожланиши. Уларнинг корхонага садоқат руҳини кучайтирадиган, бурч, ҳалоллик, масъулият, ташкилотчилик ҳиссини кучайтирадиган тизим зарур. Тартиб-интизом, меҳнатсеварлик, муносабатлар маданияти, мижозларга хушмуомалалик билан муносабатда бўлиш, хушёрлик ва бошқалар.

8. Ходимларнинг мотивацияси. Эго - бу аллақачон айтиб ўтилган ва аниқ психологик йўналишга ва пухта ўйланган чораларга муҳтож бўлган мажбурий йўналиш.

9. Меҳнат жамоасининг бирлашиши. Бу ишнинг энг муҳим йўналишларидан бири: психологияда тан олинган бўлиб, у корхона фаолиятининг барча ҳолатларини жамоанинг ва маҳсус ишларнинг таъсирини кузатиш, баҳолаш ва таъсиранликни талаб қиласи, бу билан ривожланиш даражасини оширади.

10. Ходимларни ривожлантириш. Ташкилот ўз ходимларининг юқори касбий малакасидан манфаатдор. Беэътиборлик юқори рентабелликни таъминлай олмайди. Юқори малакали мутахассисларни ёллашнинг ҳар доим ҳам имкони йўқ. Ҳатто уч йилдан кўп бўлмаган олий маълумот ҳам «етарли». Шу сабабли, барча тоифадаги ишчиларнинг малакасини ошириш чоралари ходимларни бошқариш тизимиға киритилган. Баъзан у қайта тайёрлаш характеристини ўз ичига олади, бу эҳтиёж мамлакат ҳаётида рўй берадиган тезкор ва кескин ўзгаришлар муносабати билан юзага келади. Шунингдек инновациялар ва корхонанинг техник жиҳозларини янгилаш..

11. Ротация. Булар "керакли жойга керакли одамни топиш" фикрларига мувофиқ ишчиларнинг ички жойдан қўчирилишидир. Қисман, улар янги иш жойини танлаш ва тайинлаш пайтида йўл қўйилган хатолар билан боғлиқ. Бироз вақт ўтгач, у бошқа лавозимда ишлаш учун ҳам қизиқиш, ҳам кўпроқ маълумотларга эга эканлиги аниқланиши мумкин. Мисол: ходим ўзининг касбий маҳоратини ошириш натижасида бошқа малакага эга бўлган бошқа ишга лойиқдир. Буларнинг барчаси, агар одамнинг баҳолашлари тўғри бўлса, унда юз берган ўзгаришлар ва янги иш қобилиятига эга бўлса.

12. Номзодлар учун захира билан ишлаш. Бирор кишини масъул лавозимга тайинлаш ва хато қилмаслик учун сиз уни жуда яхши билишингиз керак. Шунинг учун уларнинг ходимларини танлашда хато эҳтимоллиги камроқ бўлади. Раҳбар ҳақида гап кетганда, шуни ёдда тутиш керакки, бундай лавозимда сизга нафақат яхши мутахассис, балки бошқарув қобилиятига эга одам керак. Қабул қилиш учун номзоднинг бундай қобилияtlари бор-йўқлигини, уларнинг диагностикаси психологиянинг тавсияларидан фойдаланиш зарур. Номлаш захирасига ёзилганлар учун маҳсус қабул ташкил этилади, бу иш жойларида куратор - тажрибали

раҳбарлар ёрдамида ва индивидуал дастурлардан мустақил равишида амалга оширилади.

13. Ходимларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. Натижаларни даврий равишида баҳолаш, иш усуллари ва ишчиларнинг қобилияtlари тўлиқлиги улар учун зарур ва фойдали деб билинади. Жорий мониторинг ва баҳолаш эҳтиёжни тўлиқ кондирмайди. Бизга ходимларни аттестациядан ўтказиш жараённида ва ишчиларнинг меҳнат унумдорлигини янада оширишни рағбатлантирадиган батафсил ва чуқурроқ хulosалар керак. Бу ходимнинг иш натижалари, муваффақиятлари, уларнинг шахсий сабаблари ва келажак учун маслаҳатлари тўғрисида ёзма уозув.Sertifikatlashtirish таҳлил учун, сертификатланган ходим билан самимий суҳбат, дўстона тавсиялар ва ундан кейинги муваффақиятларга илҳом учун асос бўлиб хизмат қиласди. Бу корхонада ишлаб чиқилган ва ходимлар диққатига етказилган маҳсус қоидалар билан тартибга солинганида яхши бўлади.

14. Ишчиларни ижтимоий ва психологик қўллаб-қувватлаш. Турли муаммолар ва ҳатто шахсий инқирозлар муқаррар равишида ходимлар ишида ва уларнинг шахсий ҳаётида (ишдаги муваффақиятсизликлар, ходимлардан бири билан қийин муносабатлар, оиласдаги низолар ёки нохуш ҳодисалар, даволаниш зарурати, ортиқча иш, моддий ресурсларнинг етишмаслиги ва бошқалар). Улар меҳнат унумдорлиги ва сифатида акс эттирилган ва улар эҳтиёткорлик ва тўлиқ садоқат билан ишлашга халақит беради.

15. Таркибий бўлинмалар раҳбарларига персонал билан ишлашда, уларнинг услубини ва самарали усулларини такомиллаштиришда ёрдам бериш. Бундай ёрдам ёш, янги менеджерлар учун баъзи вазиятларда зарур. Буни ўқитиш ва маслаҳат бериш, юзага келадиган қийин вазиятлар ва низолар ўртасидаги муносабатларни таҳлил қилиш орқали ифодалаш мумкин ва бевосита ходимлар ва корхонада мавжуд бўлган психолог томонидан амалга оширилади.

16. Персонал тайёрлаш ва малакасини ошириш. Бу мустақил йўналиш бўлиб, унда психологияга катта роль берилади, чунки ҳар бир ходим яхши психолог бўлиши керак. Фақат ушбу шаклда у ходимлар билан ишлашда корхонага сезиларли фойда келтириши мумкин. Таърифланган анъанавий фаолият соҳаларига психологлар ишчиларнинг кундалик бошқарувини қўшадилар, бу уларнинг муҳимлигини таъкидлайдилар. Одамлар билан ишлаш ҳеч қандай жойда бўлмаса ва режага мувофиқ расмий тадбирларни ўтказиш билан чекланган бўлса, ҳеч қачон самарали бўлмайди. Шахс психологияси асосан ҳаёт ва меҳнатнинг ҳақиқий шароитлари таъсири остида ривожланади, ўзгаради ва маълум бир ҳолатда уни ишонтирадиган чиройли ва тўғри сўзлар эмас, балки асосан ҳаётнинг таъсири остида шаклланади. Агар унга айтилсаю, лекин ҳаётда бошқасини кўрса, унда ҳаёт ҳақиқати уни ишонтиради.

Юқоридагилар шуни кўрсатадики, ходимлар билан ишлаш чиндан ҳам тизимли бўлса самарали бўлади, яъни ишчиларга таъсир қилишнинг барча усувлари, шу жумладан норасмий, психологик, одатий ва аҳамиятсиз бўлиб туюлади, аммо амалда уларнинг корхонага, меҳнатга, унинг унумдорлигига муносабатини белгилайди. Психологик бошқарув - бу ходимларнинг менежедрлари ва бошқа барча менеджерларнинг барча ходимларнинг ишини ва хулқ-авторини кундалик бошқаришдаги иши.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

4. Анфилатов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.
5. Назаров А. Бошқарув психологияси. -Т.: 2021.
6. Назаров А. Менежмент ва маркетинг психологияси. - Т.: 2020.
4. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.
5. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.

---

## **ЁШЛАРДА РЕПРОДУКТИВ ОНГ ВА ОИЛАГА ҚАДРИЯТЛИ МУНОСАБАТНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ**

*Нилуфар Расулова,  
Ўзбекистон ҳалқаро ислом академияси,  
“Дин психологияси ва педагогика” кафедраси  
катта ўқитувчиси*

*Шахзода Хакимова,  
Ўзбекистон ҳалқаро ислом академияси,  
Психология (Дин соционихнологияси) йўналиши талабаси*

Бугунги кун таълим жараёнида ёшларда оиласга қадриятли ёндашувни шакллантириш долзарб масаллардан бири ҳисобланади. Замонавий таълим мактаб ўқувчиларининг ижтимоий аҳамиятга эга бўлган оиласга бўлган муносабатини шакллантириш учун қулай шарт-шароитларни таъминлашга қодир. Ўрта мактаб ўқувчиларининг қадрият муносабатларини муваффақиятли тарбиялашнинг асосий

шарти - бу тарбия шакллари, усуллари ва воситаларининг комбинацияси йифиндиси доирасида малга оширилади.

Бизга маълумки, “тарбия” тушунчаси педагогикада етакчи масалларидан биридир.

У кенг ва тор маънода қўлланилади. Тарбия кенг маънода ижтимоий ҳодиса сифатида, жамиятнинг шахсга таъсири сифатида қаралади. Бундай ҳолда, таълим деярли социализация билан бир қаторда кўриб чиқилади. Чекланган маънода тарбия ўқитувчи ва ўқувчиларнинг педагогик жараён шароитида таълим мақсадларига эришиш учун маҳсус ташкил этилган фаолияти сифатида қаралади.

И.П. Подласий қўйидаги таърифни беради: “Тарбия – шахсни мақсадли шакллантириш жараёнидир. Ўқитувчилар ва ўқувчиларнинг маҳсус ташкил этилган, бошқариладиган ўзаро ҳамкорлиги, унинг якуний мақсади жамият учун зарур ва фойдали шахсни шакллантиришдир ”.

Таълим ўз мақсади сифатида шахснинг уйғун ривожланишини кўзда тутади ва педагогик жараён иштирокчилари ўртасидаги муносабатларнинг инсонпарварлик хусусиятини назарда тутади.

Оилавий қадриятларни тарбиялаш - бу оилавий маданиятни, ахлоқий оилавий муносабатларни тарбиялаш, бу оиланинг барча аъзолари миннатдорчилик, кечиримлилик, сабр-тоқат, меҳнатсеварлик, ишонч каби фазилатларга эга бўлмасдан, шунингдек, "бурч" каби тушунчаларни тушунмасдан тарбиялаш ва шакллантириш мумкин эмас.

Оилага қадриятли муносабатни тарбиялаш ўрта мактаб ўқувчиларини оилавий қадриятлар билан таништириш, уларнинг ҳаётий тажрибасини, оиладаги хулқатворнинг маънолари ва усулларини, унга нисбатан қадриятли муносабатни шакллантиришнинг педагогик ва ижтимоий-маданий жараёни сифатида қаралади.

Оиланинг асосий устувор йўналишлари – бу:

оила мансубликни англаш билан боғлиқ қадриятлар;

ота-боболари, ота-оналари ва оила меросига ҳурмат билан муносабатда бўлиш; энг яқин муҳитда шахснинг ўзини ўзи тасдиқлаши;

авлод, оталик ва оналик эҳтиёжларини қондириш; кўшниларга севги ва бағрикенглик муносабати, оилада қўллаб-қувватлаш ва хавфсизлик;

оилада шахснинг ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи англаш имконияти.

Ўрта мактаб ўқувчиларида оилага қадрият муносабатини тарбиялашнинг шартлари ва воситалари қўйидагилардан иборат:

– замонавий жамиятда оила ва болаларнинг оиладаги мавқеини очиб берувчи мониторинг тизимини яратиш ва жорий этиш;

– замонавий жамиятда оиланинг нормал ҳаётини таъминлашда халқаро ва давлат хуқуқ нормаларига риоя қилиш;

- оила ва оила тарбияси бўйича маърифий, ижтимоий ва маданий дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- ўқитувчининг касбий ва шахсий ривожланиш даражасини, унинг педагогик маданиятини, оилавий тарбия масалалари бўйича малакасини ошириш;
- шахсни тарбиялаш жараёнини такомиллаштириш мақсадида оила ва мактабнинг ўрнатилиши ва реал ўзаро ҳамкорлиги.

Н.Н.Ушакова оиласага қадрият муносабатини шакллантириш самарадорлигини аниқлаш имконини берувчи қўйидаги мезонларни белгилайди:

1. Қадриятларни билиш. Натижа - қиймат йўналишини шакллантириш қобилияти. Агар ўсмир концепция мазмунини, унинг ҳажмини, алоқаларини билишни, шунингдек, амалий муаммоларни ҳал қилишда контсептсиядан фойдаланиш қобилиятини тўлиқ ўзлаштиrsa, қадриятлар тушунчаси ўзлаштирилади.
2. Қадриятларни фарқлаш - ўсмирларнинг қиймат танлаш қобилияти.
3. Қадрият ёъналишининг самарадорлиги.

Оиласага қадриятли муносабатни тарбиялаш болаларнинг оила институти, унинг вазифалари, тарихий ретроспекциядаги ривожланиш босқичлари ва ҳозирги ҳолати тўғрисида билимларни эгаллашини, болаларни муайян ҳаракатларга, оиласа ўзини тутиш усулларини рағбатлантиришни ўз ичига олади ва унга нисбатан қадрият муносабатлари, шахснинг ўзини ўзи англаши зарурати муҳимдир.

Оиласага нисбатан қадриятли муносабатни шакллантиришда В.В.Абраменкова фикрига кўра, оилавий муносабатларнинг ота-оналари билан биргаликда оилавий воқеа ҳаётининг фаол иштирокчилари ва ижодкорлари сифатида тасаввурларни шакллантириш асосий ёндашувлардан биридир.

Оиласага қадриятли муносабатни тарбиялашни амалга ошириш учун педагог дарсда кўриб чиқилган материал билан тарбия элементларини чамбарчас боғлайдиган синф-дарс шаклидан ҳам, дарсдан ташқари дарсдан ҳам фойдаланиши мумкин: синф соати, ролли ўйин, викторина, семинар ва бошқалар шулар жумласидандир. Оиласага қадрият муносабатини тарбиялаш индивидуал, гурух ва фронтал шаклларда амалга оширилиши мумкин.

Мактаб ўқувчиларининг оиласага бўлган қадриятли муносабатини шакллантириш учун анъанавий ва инновацион шакллар жамоавий, гуруҳли ва индивидуал кўринишда қўлланилади. Ота-оналар билан ишлашда ўқитувчилар индивидуал сұхбат, психологик-педагогик маслаҳатлар, индивидуал топшириқлар, муаммонинг ечимини биргаликда излаш, ёзишмалар, ота-оналар ва болаларга миннатдорчилик билдиришлари мумкин.

Ўрта мактаб ўқувчиларини оилавий ҳаётга масъулиятли тарбиялашга тайёрлаш учун ижтимоий-психологик ва оилавий тарбия сайд-ҳаракатларини

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

бирлаштириш ўқувчиларнинг ахлоқий ва жинсий тарбиясининг етарлича юқори даражаси билан таъминланади.

Кўпгина психологик, педагогик тадқиқотлар катта ёшдаги ўқувчиларнинг никоҳ, оила ва ота-она тарбияси ҳақида етарли билимга эга эмаслигини ва келажакдаги оталар ва оналарнинг касбий тайёргарлиги мақсадларига эришишда мактаб ва оила ўртасида яқин бирлик йўқлигини аниқлади.

Бугунги кунда умумтаълим муассасалари амалиётига оилага қадриятли муносабатни шакллантиришга қаратилган муайян таълим дастурларини киритиш жуда муҳимдир.

Ўқитувчиларнинг вазифаси бу жараёнларни анъанавий оилавий қадриятларни сақлаш ва инновацион жамиятда оилавий қадриятларнинг янги тизимини шакллантиришга йўналтиришдир, шунда ўрта мактаб ўқувчилари ўзларини масъулиятли оиланинг келажакдаги роли билан танишади.

Ўрта мактаб ўқувчиларида оилага қадриятли муносабатни тарбиялаш ўқитувчи ва ота-оналарнинг яқин ҳамкорлиги каби муҳим шартни амалга оширишни назарда тутади. Оилага қадрият муносабати тушунчасини шакллантиришда ота-оналар устувор аҳамиятга эга.

Таълим муҳити ўрта мактаб ўқувчиларининг оилага қадриятли муносабатини шакллантиришни таъминлайдиган эвристик ва ижодий усуллардан фойдаланиш самарали усуллар сифатида дарслар, маъruzалар, сұхбатлар, мунозаралар, ўқув конференциялари, савол-жавоб кечаларини ўтказиш, ролли ўйинларга киритиш, ҳаётий вазиятларни таҳлил қилиш, муаммоли вазиятларни таҳлил қилиш, психологик-педагогик тайёргарлик, талабаларнинг мустақил ижодий ишларини муҳокама қилиш, ўқитувчилар ва ота-оналар учун маъruzалар, сұхбатлар, талабалар ва уларнинг ота-оналари билан индивидуал маслаҳатлар, библиотерапия шулар жумласидандир.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абрамова Г. С. Возрастная психология: Учеб. пособие для студ. вузов. - 4-е изд., стереотип. - М.: Издательский центр "Академия", 1999.-672 с.
2. Актуальность проблем теоретической и прикладной психологии: традиции и перспективы: Материалы Всероссийской научно-практической конференции, г. Ярославль, 19-21 мая 2011 г.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. Избр. психол. труды В 2-х т. - М.: Педагогика, 1980. - 178 с.
4. Антонов А.И. Медков В.М. Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2005. - 640 с.
5. Анциферова Л. И. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысливание, преобразование ситуаций и психологическая завдита //

Психология социальные ситуации: хрестоматия / сост. Н. В. Гришина. СПб.: Питер, 2001. 416 с.

6. Арина Г.А. Психосоматический симптом как феномен культуры // Телесность человека: междисциплинарные исследования. М., 1991. С. 45—53.

7. Расулова, Н. Т. (2020). ВАЖНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ В ЛИЧНОСТИ УЧИТЕЛЯ. International scientific review, (LXXIV).

8. Rasulova, N. T. (2020). Ўзбек оиласарида репродуктив фаолиятнинг тарихий илдизлари. Молодой ученый, (8), 343-345.

---

## **ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДА ПСИХОЛИНГВИСТИКА СОҲАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ҚОНУНИЯТЛАРИ**

*Тойирова Шахло Изатовна  
Бухоро Давлат Университетининг  
Педагогика институти ўқитувчisi*

*Абдуллаева Заринабону  
Бухоро Давлат Университетининг  
Педагогика институти талабаси*

**Аннатация** – ушбу мақолада психолингвистика соҳасининг психологияда кўлланишдаги самарадорлик жихатлари хамда лингвистикада келтириб ўтилган масалаларнинг бир қанча психологик ёндашувлар билан боғлиқлик томонлари ёритилиб берилган.

**Калит сўзлар** –лингвистика, тил,фаолият, бихевиоризм, генерация, Акустик продуктив

**Annotation** - This article describes the effectiveness of the field of psycholinguistics in the application of psychology, as well as the relationship of the issues raised in linguistics with a number of psychological approaches.

**Keywords** - linguistics, language, activity, behaviorism, generation, acoustic productive

Ҳозирги кунда келиб психолингвистика соҳасига бўлган талаб ортиб бормоқдаги бу соҳани очиб беришда филологлар , психологлар ,социологлар каби соҳа вакилларининг меҳнатлари каттадир. Психолингвистиканинг предмети тил структураси хамда нутқ товушлари, маъноси ва граматикасини формал тасвирлаб бериш хисобланади. Лингвистлар бўйича тилни тушунишда компетентликка асосланиш лозим бўлса психологлар тилни фаолият термини ёки одамлар тилдан қай тарзда фойдаланишлариги боғлаб ўрганадилар. Тадқиқотда ушбу иккала

ёндашувни хам ўзига киритувчи психолингвистика хисобланади. У психологиядан шуниси билан фарқланадики у одамлар табиий тилларни қандай қилиб қайта ишлашини эмас тибий тилларнинг тузилмасини ўрганади. Бундай фарқларга қарамасдан лингвистика соҳасидаги тадқиқотлар психологияга ўз таъсирини кўрсатмай қолмади. Лингвистик концепциялар тилни қайта ишлаш назарияларида муҳим рол ўйнайди. Лингвистика бихевиоризмнинг қулаши хамда когнитив психологиянинг юзага келишида муҳим ўринга эга бўлди. Лингвистлар тилнинг икки жихатига ўз эътиборларини қаратадилар: бу унинг самарадорлиги ва доимиyllигидир. Самарадорлик термини остида хар қандай тилда чексиз тасаввурлар мавжудлиги назарда тутилса, доимиyлик эса бу тасаввурлар хар қандай холатда хам тизмлигини кўрсатади. Шу исботланганки бихевиоризмнинг назарий терминалогиясини қўллаб бир вақтнинг ўзида тилнинг хам продуктив хам доимиy характеристикаларини кўриб бўлмайди. Лингвистиканинг асосий мақсади тил ташувчиларининг лингвистик интуициясини тушунтириб беришдан иборатdir. Лингвистик интуиция бу лингвистик жумлалар ёки лингвистик жумлалар ўртасидаги муносабатларни табиатини баҳолашдир.<sup>9</sup> Тил орқали гаплашувчи инсонлар буни қандай бажараётганликларини англамай туриб баҳолайдилар . Бу интуицияга гап тўғри тузилдими агар нотўғри тузилган бўлса нима учун бундай бўлганлигини баҳолашни киритиш мумкин. Масалан бизлар бази бир гаплар нотўғри тузилганлиги сабабини синтактик тузилманинг нотўғрилиги ёки сўзларнинг бемаънолиги билан белгилашимиз мумкин. Лингвистлар тилни тасвирлашнинг тизимини қайта ишлаш билан шуғулланадилар. Бази бир жихатлари билан уларнинг ёндашуви хотира моделларини ишлаб чиқувчи психологларнинг ёндашувига ўхшаб кетади. Бази лингвистар эса тил таркиби моделлари ва унинг тузилмаси ва жараёнларини қайта ишлаш билан шуғулланадилар. Хотирани ўрганишдан фарқли равища тилни ўрганиш компонентлар иерархияси мавжудлигидан келиб чиқади. Яъни бунда базали таркибийдан нисбатан мураккабларигача мураккаблик ошиб бориши билан у товошли бирликлар ва маъно бирликларига айланиб боради. Хар бир даражада нисбатан пастроқ даражадан қандайдир жихати билан боғлиқ бўлсада бошқа барча даражалар билин ўзаро алоқага киришиши мумкин. Нутқни акс эттирувчи хамда фикрни етказувчи ёзув тизимининг ишлаб чиқилиши инсоннинг ахамиятли иерархик яратувчанлигининг маҳсули хисобланади. Фонемалар. Сўзлашув нутқининг асосий бирлиги фонемалар хисобланади. Овоз бурмаларининг лаб, тил, ва тишлар билан мураккаб ўзаро таъсири жараёнида

<sup>9</sup> Когнитивная психология. Учебник для вузов / Под ред. В. Н. Дружи-нина, Д. В. Ушакова — М.: ПЕР СЭ, 2002

генерациялашган ва ягона бирлиқдаги символлар билан акс этувчи алохида нутқ товушларидир . Ушбу органларнинг барчаси нормал холатда иш юритса товуш тўғри тузилади хамда ушбу тилни билувчи одамлар томонидан тўғри тушунилади ва идрок этилади. Найссер фикрича фонемалар бу ўзида нутқни ифода этувчи элементар бирликларнинг кетма-кетликда кечиши бўлиб уни оддий акустик характеристикалар асосида эмас артикуляцион органлар харакати терминларида белгилаш осонроқдир. Бунга мисол сифатида Найссер д, т, б ундашларининг портлашини кўрсатади . Бу ундошлар эштитувчилар томонидан осонгина англансада унинг кетидан қандай унли харф келсада уларни акустик терминларда изохлаш жуда мушкул хисобланади. Акустик тарзда белгилаш мушкул бўлган фонемаларни нутқий ходисалар кўринишида тасвираш осонроқ кечади.<sup>10</sup> Хомский бихевиоризмнинг стимул ва реакция асосида ўрганиш методини қаттиқ танқид қилиб тил ривожланишини фақатгина оперант ўрганиш тушунчаларида тасвираш мумкин эмаслигини ва психологик назариялар юзаки жараёнлар эмас балки нисбатан чуқурроқ жараёнлар билан шуғулланиши лозимлигини таъкидлар эди. Кўпгина психологлар Хомскийнинг танқидларини рад этсаларда унинг назарияси назарий психология хамда когнитив тадқиқотларга таъсир кўрсатди. Хомскийнинг назариясида 3 та тушунча нисбатан қизиқарли хисобланади. Булар юзаки структура, чуқур структура ва трансформация қоидаси хисобланади.

Юзаки структура- жумланинг шундай қисмики оддий грамматик тахлил орқали уни белгилаш ва ажратиш мумкин.

Чуқур структура- маънони етказиш учун зарур бўлган ахборотнинг катта қисмини ўзида жамловчи асосий форма хисобланади.

Тил структурасини тушунишга уринишида лингвистлар яъни тилнинг табиатини ўрганувчи инсонлар унинг 2 та аспектига ўз этиборларини қаратганлар. Булар унинг продуктивлиги ва қонуниятидир. Продуктивлик бу тилда чегарасиз миқдордаги жумлаларни таркиб топтириш мумкинлигини англатса унинг қонунияти эса бу жумлалар гаплар кетма-кетликда жойлашишини кўрсатади. Продуктивлик тушунчаси нисбатан аниқ бўлсада қонуният тушунчаси бир мунча тушунарсиз хисобланади.<sup>11</sup> Тил қонуниятларининг бирлиги грамматика деб номланади трансформацион грамматика эса грамматик формаларнинг видео ўзгариши билан шуғулланади. Масалан мушук кетидан ит қувди. Ит мушукни қувди. Ушбу иккита гап хам бир хил маънони англатиб бир хил сўзлардан тузилган бўлсада ўз тузилмасига кўра фарқланади. Шуниси хам аниқки бунда

<sup>10</sup> Найссер У.. / Познание и реальность — Москва.: Прогресс, 1981. стр. 168-169

<sup>11</sup>. Когнитивная наука : Основы психологии познания : в 2 т. — Т. 1 / Борис М. Величковский. — М. : Смысл : Издательский центр «Академия», 2006.

тилнинг юзаки элементларини унинг чуқур тузилмасидан ажратса билиш зарурдир Нутқдаги хатоликларни Жумлали тузилмалар гапларнинг юзага келишидаги ролининг юқориилигини кўпгина тадқиқотлар тасдиқлайди. Инсонлар гап тузаштганларида катта жумлали бирликлар орасида танаффуслар қилиб жумла билан биттада тузишга мойилдирлар Хомский назариясининг нисбатан баҳсли жабхаси тилнинг бир қанча компонентлари орттирилган эмас балки түғмадир. Умумий кўринишда инсон миясини ахборотни қайта ишлаш ва сақлашнинг мураккаб системаси сиватида тасаввур этиш мумкин.<sup>12</sup> Тилга боғлаб тушунтирилганда бу тил билан боғлиқ билимларнинг ахамиятли қисми абстракт кўринишда сақланишини англашиб лекин хотирада конкрет сўзнинг маъновий бирликлари хам сақланишини англагади. Лингвистлар айниқса трансформацион граматикани қўллаб қувватловчилар тилни генерфциялаш ва сақлаш амалга оширилувчи тилнинг абстракт мезонларини ва математик қонунларни тасвирилашни тавсия этадилар. Тилнинг абстракт таркибига хеч ким шубха қилмайди лекин абстракция формасининг ўзи то хозирги вақтгача ноаниқ бўлиб қолмоқда. Яна бир қарашиб бўйича эса тил жисмоний ўсиш билан боғлиқ бўлиб бу иккала омил хам бир-бирига таъсир кўрсатади. Бу соҳа йўналиши бўйича кўпгина тадқиқотлар олиб борилган бўлмаса

### Адабиётлар рўйхати

1. Найссер У.. / Познание и реальность — Москва.: Прогресс, 1981. стр. 168
2. Когнитивная наука : Основы психологии познания : в 2 т. — Т. 1 / Борис М. Величковский. — М. : Смысл : Издательский центр «Академия», 2006.
3. Когнитивная психология. Учебник для вузов / Под ред. В. Н. Дружи-нина, Д. В. Ушакова — М.: ПЕР СЭ, 2002
4. Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И.( Психологическая роль геронтологии в Республике Узбекистан //Инклузивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 202-205. )
5. Тойирова Ш. Ўзбек оиласарда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.
6. Тойирова Л. И., Тойирова Ш. И. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДРОСТКОВ-БЛИЗНЕЦОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЕ //негізі» атты халықаралық білім беру онлайнконференциясының материалдары. – 2019. – С. 113.

<sup>12</sup> Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в Республике Узбекистан //Инклузивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 202-205.

- 7 Тойирова Л., Ульмасова Д. НАВЫКИ ТРЕНЕРА И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ КАК ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ // Свет ислама. - 2020. - Т. 2020. - №. 1. - С. 152-158
8. Izatovna T. L., Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 98-104.
9. Izatovna T. S. THE INFLUENCE OF PSYCHOGENETIC FACTORS ON THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 297-303.
10. Тойирова Л. Эгизаклар ривожланиш босқичларидағи ўзига хос психологик хусусиятлар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 126-130.
11. Izatovna T. S. PSYCHOLOGICAL APPROACHES OF PARENTS IN THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 82-87.
12. Izatovna T. L., Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 98-104.
13. Тойирова Л., Ульмасова Д. НАВЫКИ ТРЕНЕРА И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ КАК ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ //Свет ислама. – 2020. – Т. 2020. – №. 1. – С. 152-158.
14. Тойирова Л. И. и др. ЭГИЗАКЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙЛАШУВИДА НУТҚ БИЛАН БОҒЛИҚ ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАР //Oriental Art and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 196-200.

## **YOSHLAR TARBIYASIDA OILANING O'RNI**

*Payzimurotova Laziza Dilshod qizi  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*

Oila-jamiyatning tayanchi. Oilada farzandning psixalogik sog'lom bo'lishi ota-onanining psixologik tarbiyasiga bog'liq.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergen. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyooq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni

poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Farzand tarbiyasida psixologik muamollar bo'lmasligi uchun avvalo ota-onan yetarlicha ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifat-u madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar.

Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Kaykovusi "Qobusnoma" asarining 27-bobi "Farzandlari tarbiya qilish fikrida", Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-onan, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

– farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;

– odamlar xursandchiliginin baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;

– farzandingizga o'zgalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

– yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering.

Farzandga mehr berishda ham alohida etibor berish lozim. Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to'g'ri-noto'g'ri xatti-harakatlarini ma'qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo'lib o'sishiga olib keladi. Ortiqcha

taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo'yadi, mehr ko'rsatish esa uni yanada faol bo'lishga undaydi. Farzand qilgan xatolardan to'g'ri xulosa chiqara olishni o'rgatish, uning ongiga singdirish ota onaning burchi hisoblanadi. Farzandning har bir yutug'ini to'g'ri baxolay olish unga mativatsiya berish, qo'llab -quvatlashni bilishi lozim. Erka o'sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan, ma'suliyatsiz bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo'lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati o'zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak. Bolalarga onani hurmat qilishni, unga mehribon bo'lishni o'rgatish otaning muhim vazifasi.

Manfaatlar umumiy bo'lган ahil oilada yaxshi odat an'analar vujudga keladi, sog'lom muhit mehr-oqibat, qadr-qimmat uchun zamin yaratadi. Bolaning yaxshi tarbiya topishlari uchun shart-sharoit tug'iladi. Oilada er-xotin o'rtasidagi o'zaro xurmat, ishonch va vafo sadoqat bolalar quvnoq, hushchaqchaq o'sishlariga, normal tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhit yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolari o'zaro hurmatni joyiga qo'yishlari, bir-birlari uchun jon kuydirishlari, yaxshi munosabata bo'lishlari kerak. Oilada hamisha samimiyat va ko'tarinki ruh xukmron bo'lsa oila a'zolarining kayfiyatiga ijobjiy ta'sir etadi. Qaysi oilada noaxillik, qo'pollik, do'q-po'pisa, asabiylilik xukmron ekan, unda xalovat ham bo'lmaydi.

Oiladagi arzimagan janjal ham dastavval bolalarning psixik holatiga ta'sir qiladi. Ularda yomon odatlar xosil bo'lishiga olib keladi. Bolalar ulg'aygach, ular ham qush uyasida ko'rganini qiladi qabilida ish tutishadi.

Bola yomon yoki yaxshi xulqli, fe'l-atvorli bo'lib tug'ilmaydi. Uning o'sib borishi jarayonida oila muhiti, ota-onaning, kishilarning, atrof-muhitdagi munosabatlarning ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa ota-onaning o'zaro munosabati, yurish-turishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi totuvlik, hamjihatlik, o'zaro hurmat va yordam, shirinsuxanlik, mehnatsevarlik va to'g'rilik bolaga ijobjiy ta'sir qiladi.

Oilaga berilgan barcha ta'riflarga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, u murakkab mexanizm hamdir. Oilada sog'lom muhit yaratish va uni uzoq vaqt bir necha o'n yillar mobaynida saqlash uchun oila a'zolarining dunyoqarashi, nuqtai nazari, fikrlari o'zaro yaqin bo'lishi lozim. Oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar ko'pincha insoniy munosabatlardan, kishilar xulqini, hayotiy munosabatlarini baholashdan kelib chiqadi. Bu oilaviy muhit qarama-qarshi munosabatlardan tarkib topganligining natijasidir. Tarbiya ishida esa bunday kelishmovchiliklar salbiy iz qoldiradi. Bolalarda shubha, ikkilanish paydo bo'ladi, ota yoki onaning o'gitlariga ishonch susayadi yoki

butunlay yo'qoladi. Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni shakllantirishda fikrlar yaqinligiga kata e'tibor beriladi.

Oila-jamiyatning kichik bo'g'ini. Oilaning tinchligi, farovonligi yurtning porloq kelajagining poydevoridir. Yurtimizda oilaning mustahkamligiga uning osoyishtaligiga katta e'tibor berilmoqda. Oila jamiyatning kichik ammo juda muhim yacheykasi bo'lib ,uning tinchligini taminlash to'g'risida yurtimizda qator chora tadbirlar ko'rilmoxda. Bugungi kunda yoshlar o'rtasidagi kuzatilayotgan jinoyatlar va qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab sifatida oilaviy muhitning yaxshimasligi va ota-onva farzand munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatishimiz mumkin. Hayotimiz ota-onva farzandlar o'rtasida turli ziddiyatlar va tortishuvlarning guvohi bo'lamiz,ko'pchligimizga bu oddiy holdek tuyuladi. Ammo bundey kichik tortishuvlar borib-borib katta nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Oiladagi nizolarning oldini olish va bartaraf etish yo'li sifatida eng avvalo oilaviy munosabatlarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Oila va farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlar to'g'risida ko'plab buyuk allomalarimiz o'z fikirlarini bildirib o'tishgan. Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida keltirilishicha oila a'zolarining bir-biriga samimiyy munosabatlari, mehr-u oqibatlari shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Darhaqiqat oilaviy munosabatlarda ayniqla ota-onva farzand o'rtasida samimiyy munossabatlarning shakillanmaganligi,ular o'rtasida turli tushunmovchiliklar , va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqla o'smir yoshidagi bolalar ota-onasi bilan tez-tez ziddiyatga borishi va ulardan norozi kayfiyatda yurushi kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda ota-onva iloji boricha farzandi bilan ochiq va samimiyy munosabatlarni yo'lga qo'yishi ,ko'plab muammolarning yechimi hisoblanadi. Buyuk mutafakkir bobomiz, yuksak qalam sohibi Alisher Navoiy o'zining ko'plab asarlarida oila va oilaviy munosabatlar haqida o'zining ko'plab qarashlarini bayon qilgan. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odad va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqla kishilarining bir-birlariga bo'lgan ruhiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb, voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi. Buyuk allomamiz Jaloliddin Davoniy ham o'z asarlarida oila va farzand tarbiyasi to'g'risida ko'plab fikirlarini bildirgan. U ota-onaning bolani tarbiyalashdagi axamiyatiga keng to'xtalgan. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham ona ham teng huquqli,teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini va muayyan bir kasbni egallashiga ko'maklashadi. Farzand tarbiyasida otaning ham onaning ham o'rni katta bo'lib, agarda biror tarafning masuliyatsizligi bola tarbiyasida og'ishishlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ibn Sino o'z asarlarida bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikirlarni bildirgan. Ibn Sino bolada axloqiy tarbiyani, aqliy, jismoniy va mehnat

tarbiyasi bilan birgalikda shakillantirish, uni komil inson qilib tarbiyalashda asosiy omil deb biladi. Undan tashqari u bola tarbiyasida qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash maqulligini uqtirgan. Aksariyat ota-onalar farzandlariga dakki berish orqali xatolarini anglatmoqchi, tarbiyalamoqchi bo'ladi. Bu usul ko'pincha bolalarda ota-onaga nisbatan norozilik hissining paydo bo'lishiga olib keladi. Ota-onasiga farzand o'rtaida munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi, farzandning ota-onasini aldashiga, uzoqlashishiga oilb kelishi mumkin. Ular o'rtaidagi munosabatlarning iliq va samimiyligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ota-onasiga farzand o'rtaidagi nizolarning aksariyati ularning xohish -istaklarining mos tushmasligidan kelib chiqishi mumkin. Ota-onaning bola bilan ko'proq suhbatashishi va fikir almashishi, tinglashi ular o'rtaidagi ko'pgina konflektlarning kelib chiqishining oldini oladi. Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakillantrish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchni, xamjixatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir degan xulosaga keladi. Oiladagi munosabatlarning buzulishi, bolaning psixalogik rivojlanishiga o'z tasirini o'tkazadi. Bolaning sog'lom oila muhitda ulg'ayishi va munodsabatlardagi erkinlik uning kelajakda jamiyatga tezroq ishtimoiy lashishiga va yaxshi moslashishiga yordam beradi. Shu o'rinda takidlash joizki oilaviy sog'lom muhitni shakillantirish, oilaviy iliq munosabatlarni yaratishda ayol kishining o'rni katta hisoblanadi. G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda ko'pchilik ayollarda onalik ustanovkasining yo'qligi, oilaviy munosabatlarning buzulishiga, bola tarbiyasining og'ishishiga va ajrimlarga sabab sifatida ko'rsatilgan. Ota-onasiga farzandini yaxshi tarbiyalash uchun avvalo o'zlarini tarbiyalangan bo'lishi lozim. Ushbu xulosalarga asoslanib quyidagi tavfsiyalarni ishlab chiqdik: -eng avvalo ota-onasiga farzandlari bilan samimiyligi va ochiq munosabatni shakillantirishi lozim. Farzandlari bilan doimiy muloqot olib borish va hamfikir bo'lish, ota-onasiga farzand o'rtaida tushunmovchiliklarning yuzaga kelishining oldini oladi. Tabiat qo'yniga tez-tez oilaviy sayohatlarning tashkil qilinishi, oilaviy salomatlikni saqlash va munosabatlarning yaqinlashishiga oilb keladi. Oila a'zolarining birga bir dasturxon atrofida yig'ilishi, oilaviy birdamlikni va hamjixatlik ruhini shakillantiradi. Oilada bolaning fikri va qiziqishlarini tinglash va maslahatgo'y bo'lish, bolada ota-onaga nisbatan norozi kayfiyatning paydo bo'lishining oldini oladi. Oilaviy muammolar yechimi oiladagi sog'lom psixologik muxit yaratilishiga bog'liq. Bolaning vaqtini to'g'ri taqsimlash va kitobga oshno qilish, bola dunyoqarashini o'stiradi. Ushbu tavsiyalar oilaviy munosabatlarni yaxshilaydi va mustaxkamligini ta'minlaydi. Zero, oila tinchligi va osoyishtaligi jamiyat taraqqiyotining birlamchi omili hisoblanadi.

## **OILADA YOSHLARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**

*Ergasheva Muhlisa Farhodjon qizi  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*

Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi bolalarni tarbiyalashning xususiyatlari A.S. Makarenko ta'kidlashicha «bir oiladagi tarbiyaviy ish ammo boshqa oiladagi xudi shunday ishning aniq kopyyasi bo'lmasligi lozim»

Hozirgi zamon taraqqiyoti har bir shaxsdan voqelikni to'g'ri tushunishni, tahlil qilishni, xulosa chiqarishni, axloqiy poklikni va hissiy asabiychi damlilmkni hamda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida faol bo'lishni talab qilmoqda. Ma'lumki yuqoridagi sifatlarni shaxsga oila asos soladi, shakllantiradi.

Inson hayotining porloq bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi asosi oiladir. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini sifatida murakkab tarkibga, mazmunga ega bo'lib, u o'z faoliyatida oila a'zolari faoliyatining maqsad va vazifalarinigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatini ham o'zida aks ettiradi.

Oilaning murakkab, ko'p qirrali faoliyatining hayotiyligi ikki tomonlamadir:

- birinchidan, oila jamiyatning kichik bir qismi bo'lib, undagi o'zgarishlarni o'ta sezgirlik bilan o'zida aks ettiradi. Shunga asoslanib oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiyaning bir tarkibi deb hisoblash lozim.

- ikkinchidan, oilaning murakkab, ko'p qirrali faoliyati uning vazifalari, tuzilishiga, umumiyl turmush tarziga, oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, munosabatlariga va ijtimoiy faoliyatlariga bog'liqligini hisobga olish kerak.

Oila tarbiyasining o'ziga xosligi shundan iboratki, u bolalarga ota- onalarning ota-onalik, qon- qarindoshlik singari ko'plab kerak xislatlarni o'zatib oilada tarbiyalanayotgan shaxsning ko'plab insoniy sifatlarini rivojlanтирib, axloqiy kamolotini ham o'stiradi. Shu sababli oila tarbiyasi doimo mavjud, ko'rsatmali va serqirraligi bilan ajralib turadi.

Ota – onalar ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga ega va ma'naviy boy bo'lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar. Yoki aksincha, bularning barchasi oila tarbiyasining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ular faqat tarbiyalashning turli usullari ya'ni tushuntirish, maslahat berish, ma'qullah, jazolash, rag'batlantirish bilangina emas, balki shaxsiy namuna, birga ishslash orqali ham tarbiyalaydilar. Ota - onalarning bolalar faoliyatida ishtirok etishi, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali usulidir.

Masalan: Har tomonlama moddiy ta'minlangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasi, qashshoq, bechora hol oilada tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasi o'z mazmuniga ega. Birinchi oilada bolalar moddiy ne'matlarning Qadriga yetmagan bo'lsalar, ikkinchisida esa oila ta'minotini hisob-kitob, aql bilan tashkil qilishni bilishmaydi. Bu singari xususiyatlar oila tarbiyasining murakkabligini ko'rsatadi.

Ota - onalarning umumiy, madaniy, ma'lumot saviyalarining o'sib borishi va faolligining qaror topishi oila tarbiyasining mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Agar maktab oilaviy tarbiyashunosligiga ijobiy munosabat bilan yondashsa, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini yaxshi o'rgansa, ya'ni: ota – onalar obro'si, shaxsiy namunasi, bolalar hayotini tashkil qilish, o'z - o'zini tarbiyalashni nazorat qilish, o'zaro yordam, hamkorlik, ittifoqlik, hamjihatlik hamda oila tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan maqsadli foydalana olsa, oila tarbiyasining takomillashuviga erishadi. Hozirgi zamon oilalari mavjud jamiyat bilan o'zviy bog'langandir. Shahar, qishloqlarning o'sishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, xalqning madaniy va turmush saviyasining oshishi bolalarni barkamol hamda oila tarbiyasi mazmuniga o'zgartirishlar kiritishni talab qilmoqda. Tarbiya masalasiga yondashadigan bo'lsak, kam bolali oilalarga nisbatan ko'p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi ancha yengil kechadi. Chunki ko'p bolali oilalardagi bolalar, ota –onalarning xatti- harakatlarini, aka va opalarining ular to'g'risidagi g'amxo'rliklarini, ayniqsa bir-birlariga bo'lgan do'stona munasabatlarini, uydagi har xil vazifalarni sitqidildan bajarishlarini, kichiklarning kattalarga odob bilan munosabatda bo'lishlarini tabiiy holda ko'radilar, ko'zatadilar. Ota-onalarning bolalarga g'amhurligi teng taqsimlanadi. Kam bolali oilalarda esa buning aksi bo'ladi. Katta oilada bola yoshligidan jamoaga moslashadi, o'zaro aloqalar tufayli ijobiy, zaruriy ko'nikmalar to'playdi. Kam bolali oilalarga nisbatan ko'p bolali oilalarda bolalar o'zaro narsalarni teng bo'lishda adolat tarozisi asosida taqsimlashga odatlanadilar.

Konstitusianing 64-moddasida «Ota - onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» va 66- moddasida «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota- onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar» deb ta'kidlanadi.

Kattalarga hurmat va bo'yсиниш о'zbek oilalaridagi an'anaviy tarbiya uslublaridan biridir. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalash, ota- onalarning va katta yoshdagi barcha kishilarning namunasi bola shaxsini shakllantiruvchi, uning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, jamoa orasida o'zini tuta bilishga o'rgatuvchi omildir. Aynan oila bolani qadam qo'ydiradi, uning o'ziga xos xususiyati va ma'naviy qiyofasining shakllanishiga asos soladi.

Oilaviy tarbiyaning tub maqsadi, mazmuni bolalarni umuminsoniy xulq mezonlariga rioya qilgan holda ularni bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashdan iboratdir. Bulardan tashqari ularning g'oyaviy-siyosiy, madaniy oqartuv sohadagi

qiziqishlariga e'tibor beriladi. Bu sohada turli oilalarda berilayotgan tarbiyaning bir-biridan farqi borligini ham unutmaslik kerak. Bizningcha, o'zbek oilalarida mehnat tarbiyasi berish va kasbga yo'naltirish quyidagi to'zilish va mazmunda olib boriladi deyish mumkin: (Buning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud)

1. Bolalarga mehnatga iloji boricha ertaroq jalb qilish.
2. Bolalarni mehnat ko'nikmalariga o'rgatish, qurollantirish
3. Kasbga yo'naltirish (Ustoz- shogirdlik)
4. Bolalarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash
5. Murabbiylik qilish: a) oilada, b) mehnat jamoalarida.

Buyuk mutafakkir A.R.Beruniy «Har bir kishining qadr – qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishidir»- degan.

«Insonning asosiy burchi, vazifasi mehnat qilishidadir, chunki istalgan narsaga mehnat tufayli erishadi».

Yozuvchi G.Nikolayeva «Bola qalbi – oilaning fotosuratidir. Fotosuratgina emas, balki rengen ko'chirmasidir. U hamma vaqt oilaning ichki mohiyatini aks ettiradi. aga rota-onalar mansabparast, meshchan, ichi qora kishilar bo'lsalar, o'zlaridagi bu xususitlarni hammadan yashirishlari mumkin, lekin o'z farzandlaridan yashira olmaydilar», - degan edi.

Axloq-odobga oid hadislarning birida «Har bir ota o'z farzandlariga hulqu-odobidan buyukroq meros berolmaydi», - deb ta'kidlagan.

Hech narsa bolalarga namuna kuchidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Namuna, taqlid uchun asosli manba rolini o'ynaydi. Shaxsiy namuna esa tarbiya olib sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlari va boshqa faoliylari yig'indisidir. Atrofimizni o'rab turgan barcha narsalar bilan tanishishda bola kattalarning yordamiga ehtiyod sezadi. Yetarli darajala bilim, tajriba yo'qligi sababli ular kattalarning muomala va xatti-harakatlariga taqlid qila boshlaydi. Namuna sifatida katta yoshdagi kishilarning obro'si va kishilar bilan muomalalari bolalar xulqi hamda harakterlarining shakllanishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Oila tarbiyasida otalarning roli nihoyatda ulkan. chunki oilada er hamma vaqt bolalarining, turmush o'rtog'ining tayanchi bo'lib kelgan. Shu sababli oilada o'g'il doimo otasiga o'xshashga intilgan, uning xatti-harakatiga taqlid qilgan. Oilada ota-onalar namunasi bolalar uchun hayot darsi hisoblanadi. Otaning onaning, ona mehnatiga jamiyatga, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati bola qalbida yaxshilik yoki yomonlik, ma'qul va noma'qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarni vujudga keltiradi.

Oila muhiti – bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila

a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarning yig'indisi va nihoyat kattalarning bolalarga ijobjiy ta'sir ko'rsatish namunasidir.

Maqsadga muvofiq muhit ota-onalari bilan noto'g'ri munosabatda bo'lmaydigan, bir-birlarini tushunmaydigan, hurmat qilmaydigan, bolalarning to'g'ri tarbiyalanishini doimo nazorat qiladigan hamda bolalariga shaxsiy namuna bo'la oladigan oilalarda tashkil topadi.

Bolalarga ota-onalarning xatti-xarakatlarigina emas, balki gapirilayotgan gaplar, o'zaro savol-javoblari uyga kelgan kishilar va qo'shnilar bilan bo'ladigan muomala hamda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, amaldor kishi yoki oddiy kishi bilan ota-onaning muomalasi va o'zini ular oldida qanday tutishi, xarakatlari va hokazolar. So'z qudrati kuchga ega. «Yumshoq, mehribonlik bilan aytilgan so'z, shunday qudratli kuchki, uning bilan hech qanday jazo tenglasha olmaydi», - degan edi P.F.Lestgaft.

Oiladagi totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchilik kabilia rota-onalar obro'sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ruhiy muhitni yaratadi va ularning kamolotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Otaning bolalarga va onaga mehr-muhabbati, yuksak axloqiy munosabatlari namunasi bo'lib, ular bolalar qalbini larzaga keltiradi, yaxshi his-tuyg'ular bilan to'ldiradi, boshqalarga samimiy munosabatni tarbiyalaydi. Ota-onaning bolaga haddan ortiq sevgisi mehri, bolaga baxtsizlik keltiradi.Ba'zi pedagoglarning oilaviy tarbiya samaradorligi ota-onalarning bolalarga sarflagan vaqtłari bilan emas, balki ularning tarbiyasiga, oila jamoasining barcha bosqichlariga, ota-onalarning obro'si va shaxsiy namunalariga bog'liq. Masalan, ba'zi otalar oilada bolalar bilan doimo birga bo'lmaydi, ammo bolalarga kuchli ta'sir ko'rsata oladi, bunda ona-va oiladagi keksalarning hamkorligidagi ota haqidagi fikri bag'oyat muhimdir. otaning ish joyidagi mavqyei ham muhim.

Bolalar bilan munosabatda ochiqlik, xulosa chiqarishda shoshmaslik, rag'batlantirish va jazolashda o'ylab ish tutish ota-onalar obro'sida muhim ahamiyatga ega. To'g'ri, bolalarni ba'zan jazolash kerak, lekin bunda ularga axloq, odob mezonlari haqida tushuncha beri shva ularni so'zsiz bajarish lozimligini ota-onalar talab qilsagina, ota-onaning obro'si bo'ladi. ba'zi ota-onalar o'z bolalaridan talab qila olmaydi, natijada obro' ham bo'lmaydi. Maqsadga muvofiq o'zaro munosabatlar va ota-onalarning bolalari bilan ma'naviy yaqinligi, bolalarning ichki dunyosini sezish, qiziqish va intilishlarini oldindan bilishi, g'amxo'rlik qilish kabilar ota-onalarning obro'sini oshiradi. Hozirgi zamon oilalarida ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi bosiqligi, vazminligi ularga bo'lgan hurmati, diqqat-e'tibori kam bo'ladi, natijada ota-onalar bilan bolalar munosabatlarida ko'ngilsiz voqyealar sodir bo'ladi, oqibatda oilada ota-onalar obro'si pasayadi. agar oilada ota-ona bilan bolalar o'rtasida o'zaro muloqot uchun qulay sharoit yaratilsa, ota-onalar obro'si bo'lsa, tarbiya uslublaridan o'rinli foydalana olsa, bunday oilada bolalar

to'g'ri tarbiyalanadi va o'z fikr-mulohazalarini ro'yrost aytishdan qo'rqlaydilar. Oilada ota-onalarning bolalar oldida obro'qozonishi juda murakkab masaladir. Oilada ota-onalar buning uchun o'zlari to'g'ri, halol va adolatli bo'lishi shart. Ota-onalar o'zlarining xattiharakatlari, bildirayotgan fikri, muomalasi hatto o'ziga mos ijobjiy odatlari bilan bolalarini ishontira olishi ular obro'sining oshishida asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalar bolalarning o'qishi, ishi, xulq-atvori yoki ba'zi yutuqlari uchun va'da qilsalar uni bajarishi kerak. Agar va'dani bajarish imkoniyati bo'lmasa, uning sabablarini bolaga dalillar asosida isbotlab bersalargina o'z obro'sini saqlab qolishi mumkin. Eng avvalo bo'lar-bo'lmasga va'da bermasligi ma'kul. «Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang. Siz bolani turmushingizning Har bir onida, hatto o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz.» Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz- bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham bola buni darov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'llar bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundaye bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtanchoqltk qilsangiz yoki ichkilik ichsangiz, undan ham yomoni onani haqorat qilsangiz siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz. Ularga yomon tarbiya bergen bo'lsangiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati undan yomon bo'ladi», - degan edi mashhur pedagog A.S.Makarenko. Yuqorida ifodalangan sifatlar majmui oilada ota-onalar obro'sini tashkil etadi. Oilada ota-onalar obro'si bo'lishi uchu nota-onalar hamma bolalarini teng ko'rishi lozim. Yana ota-onalar oilada kichik yoki nochor bolalarini katta bolalar tan jazosidan himoya qilishi va ma'naviy jihatdan ularni quvvatlashlari maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, hayotda ko'plab namunali va obro'li ota-onalarimiz ko'p. Agar ota-onsa halol mehnat bilan mashg'ul bo'lsa, bola ularni hurmatlashga majburdir. Ba'zan esa ishda juda yaxshi mutaxassis bo'lgan ota-onalar bolalariga namuna bo'la olmaydilar. Natijada ular bilmagan holda shunday oilalarida ishyoqmas, ko'chabezori erkatoylar bo'lib yetishadi. Bizning nazarimizda bolalari bilan do'st, ularga diqqat e'tibor bilan qaraydigan qayg'ulariga hamdard, hursandsiliklariga sherik bo'luvchi bolalarga ma'naviy ko'maklashuvchi ota-onalargina haqiqiy ma'noda namuna bo'la oladilar.

Bizningcha ota-onalar o'zlarida quyidagi sifatlar bilan o'z farzandlariga namuna bo'lishlari lozim:

1. Ota-onalarning axloqiy jihatdan shaxsan namuna bo'lishlari.
2. O'zlariga topshirgan ishni mas'uliyat bilan bajarishlariga.

3. Bolalar tarbiyasidagi burchlarini mas'uliyat bilan his qilishlariga va bajarishlariga.
4. Mehnatda shaxsan namuna ko'rsatishlariga.
5. Barcha farzandlarini teng ko'rishga.
6. Farzandlarining harakter xususiyatlarini yaxshi bilishga.
7. Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning turli xil metod, usul va vositalarini yaxshi bilish hamda ulardan oqilona foydalana olishga.
8. O'z obro'sini oilada doimo saqlashga.
9. Farzandlarini doimo mehnat topshiriqlari bilan band qilishlariga va talabchanliklariga.
10. Oila xo'jaligini mohirlik bilan boshqara olishlariga.
11. Oila tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan bog'lab olib borishiga.
12. Ota- va ona talablarida birlikning bo'lishiga.
13. Ota-onalarning oilani iqtisodiy ta'minlashga va hokazo.

---

## **КОРХОНАДА ПЕРСОНАЛ ХИЗМАТИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ**

*Азамат Назаров, Ўзбекитсон ҳалқаро ислом  
академияси, “Дин психологияси ва педагогика”  
кафедраси катта ўқитувчиси*

*Ойшахон Холматова, Ўзбекитсон ҳалқаро  
ислом академияси, Психология (Дин  
соционпсихология) йўналиши талабаси*

Ишлаб чиқариш ва бозор ҳолатини яхшилаш, корхонанинг рентабеллигини ошириш учун имкониятларни излаш ва чоралар кўриш давомида, ходимларни эътиборсиз қолдириб бўлмайди, бу тармоқни ўрганиш имкониятлардан тўлиқ фойдаланиш ва ишлаб чиқарилаётган маҳсулотга ҳисса қўшишга таъсир этади. Маҳсулот ёки хизматнинг сифати, албатта, унинг одамлари меҳнатининг сифатидир, корхонанинг муваффакияти ишчилар меҳнатининг муваффакиятидир. Корхонанинг асосий қиймати - бу ходимларнинг сифати. Ҳатто автоматлаштирилган ишлаб чиқариш ҳам ускуналарнинг ишини қузатиб борадиган, уни созлайдиган, носозликларни олдини оладиган ва бартараф этадиган кам сонли одамларнинг малакаси ва ишчанлигига боғлиқ.

Ходимларни бошқариш, персонал бошқаруви менежментнинг асосий йўналишларидан бири бўлиб, унинг психологик функциясини маҳсус амалга оширишда - ходимлар психологик менеджменти билан боғлик.

Илмий менежмент назарияси ва амалиёти пайдо бўлганидан бери одамлар билан ишлаш диққат ва компетенцияни талаб қиласидан алоҳида ва муҳим йўналиш сифатида тан олинган. Дастроб эътибор унинг психологик жиҳатларига қаратилган. Бироқ, ушбу йўналишнинг моҳияти нима, у нимадан иборат бўлиши кераклиги, психологик жиҳати нима эканлигини тушуниш аниқ ўз ечимини топмади. Юқоридаги бобда ҳам улар муҳокама қилинган. Умуман олганда, ушбу эволюцияда корхоналар муваффакияти ишчилар сифат хусусиятларига боғликлиги ва улар тўғрисида янада ваколатли психологик тушунча аниқроқ аниқланиши лозимлиги белгиланди. Бу ҳатто бошқарув концепциялари ўзгарганда - "ишчи кучи \*", "мехнат ресурслари", "инсон омили", «персонал» да ҳам ўз аксини топди. Уларнинг ҳар бири корхонада ишлайдиган одамларга нисбатан ўз тушунчаси ва муносабатига эга эди. Масалан, "инсон омили" тушунчаси яқинда ижтимоий ва психологик жиҳатдан нотўғри деб ҳисобланди, чунки «омил» тушунчаси лотинчадан "уста, ишлаб чиқарувчи, ҳаракатлантирувчи куч" деган маънени англатувчи омил. Тор иқтисодий, технократик, саноат мулоҳазалари шароитида одам омил сифатида машина, молия, хом ашё, энергия ва бошқалар билан тенглашади. Гарчи инсон аслида корхонада ҳаракатлантирувчи, куч берадиган бўлсада, у нарса эмас, гаров ҳам, восита ҳам эмас, балки тирик мавжудот, шахсият, онг, маънавият эгаси. Ўз эҳтиёжлари, қизиқишлари, ташвишлари, режалари, ўз ҳаётини бошқа одамларнинг ҳаёти, ўзи учун масъул бўлган оила билан боғлаш унга хосдир. Ҳаёт ишдангина иборат эмас. Бирор киши яшаш учун ҳаракат қиласиди ва унинг ҳаётининг катта қисми ишдан иборат бўла бошлайди, гарчи кўпчилик учун бу ҳаётнинг муҳим ва қизиқарли қисми, касб, севимли машғулотига айланиши мумкин. Инсоннинг ўзи меҳнатни ҳаётида восита, омил сифатида ишлатади.

Персонал билан ишлашда ташкилий роль одамларга хизмат кўрсатадиган маҳсус бўлимга тегишли. Кўпинча ходимлар билан ишлашнинг асосий таркибий қисми жуда чекланган функцияларга эга бўлган ходимлар бўлими ҳисобланади: ходимларни ёллаш ва ишдан бўшатиш, ходимларни ўқитиш, уларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашни ташкил этиш. Шубҳасиз, улар юқорида айтиб ўтилган ишларнинг асосий йўналишлари комплексидан жуда узоқдир. Қисман, бу камчилик корхонанинг бир қатор бошқа таркибий бўлинмаларини тўлдиради - меҳнат ва иш ҳақини ташкил этиш, меҳнатни бошқариш, меҳнатни муҳофаза қилиш ва хавфсизликни таъминлаш, инновациялар, хукуқий, ижтимоий масалалар ва бошқалар. ишчиларнинг меҳнати ва кайфияти, аммо аксариятида маъмурий

аппаратлар етарли тайёргарликка (социологик, гуманитар, психологик, педагогик) эга эмаслар ва корхонанинг фойдасига доир қарорлар қабул қила олмайдилар. Ходимлар бўлими ходимлар билан ижтимоий ва психологик иш масалалари бўйича ушбу бўлимларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш функцияларига эга эмас. Йирик компаниялар ушбу бемаъниликтни уларни битта раҳбарга - персонал бўйича директор ўринбосарига (директорга) бўйсундиришга ҳаракат қилмоқдалар, аммо бундан ҳам ёмони - баъзилари директорнинг персонал бўйича ўринбосарига, бошқалари эса - директорнинг ижтимоий масалалар ва кундалик ҳаётга бўйсунишларини ёқламоқдалар. Бундан ташқари, улар одатда ташкилий мақомга эга эмаслар ва персонал муаммоларини ҳал қилиш хуқуқларида чекланган. Тажриба шуни кўрсатадики, бизнинг ходимлар билан ишлашимиз, қоида тариқасида, ишлаб чиқариш ва тижорат манфаатларига нисбатан тадбиркор ва менеджер учун иккинчи даражали хусусиятга эга. Бу муқаррар равища ишчиларга, меҳнат унумдорлигига, шунингдек фойда учун хисоб-китобларга зарар етказади. Айтиш мумкинки, бизнинг мамлакатимизда бошқарув психологиясининг умумий назарияси аксиомаларига мос келадиган цивилизацияланган шахсий бошқарув тизими яратилмаган. Бу фақат марказлаштирилган персонал хизмати бўлиши мумкин, бу унинг назорати ва ходимлар билан ишлашнинг бутун тизимиға таъсир кўрсатишни ўз ичиға олади.

Бундай хизмат билан бизда бир оз тажриба бор ва бу унинг афзалликларини исботлайди. Унинг тузилишининг варианти 9.1-расмда келтирилган.

Ходимлар билан ишларни тизимли равища қуришда, бу маҳсус хизмат ходимларининг алоҳида ҳаракатларига айлантирилмаслиги, балки барча менеджерлар таркибиға кириши керак, чунки ишлаб чиқариш бўлинмаларида ишчиларни кунлик бошқариш умуман муваффақият учун муҳим эмас.

Ишлаб чиқариш ва тижорат муаммоларини ва ходимларнинг муаммоларини ҳал қилишда мувозанатли ёндашувни ўрганишимиз керак, ходимларнинг харажатлари оқланиши ва фойда ўсиши учун ушбу ўзаро боғлиқ муаммоларни тизимли равища таъсир қилишни ўрганишимиз керак.

Чет элда персонал хизматининг муҳимлигини тан олиш корхоналарда директор ўринбосари, вице-президент, ходимлар (персонал) директори лавозимларига эга эканлигидир. Ушбу мақом унинг ваколатини белгилайди ва бошқа раҳбарларга бўйсунадиган бўлинмаларда ходимлар билан ишлаш масалаларига мурожаат қилиш хуқуқини беради. Инсон потенциалидан фойдаланиш ва оширишга янада тизимли ёндашиш. Кўпинча бундай лавозимларда психолог ёки ўқитувчи (асосан корхоналарда амалий тажрибага эга) фаолият кўрсатади. Бундай лавозимларни эгаллаган одамлар, асосий касбий билимларидан

ташқари, психология бакалавр дипломига эга бўлган ҳолатлар ҳам мавжуд, бу биз учун яхши намуна бўлиши керак.

Ходимлар хизматининг ишчиларни техник ҳужжатлар билан ишлиши, режалар ва ҳисоботларни ёзиши билан эмас, балки жонли, барча соҳаларни қамраб оладиган ва албатта самарали бўлиши учун унинг барча ходимлари етарли даражада психологик ва педагогик маҳоратга эга бўлиши керак.

Ходимларга хизмат кўрсатадиган ходимлар таркибига нафақат шифокорлар, юристлар, муҳандислар ва бошқа мутахассислар, балки профессионал психолог ҳам кирса яхши бўлади. Шуни ёдда тутиш керакки, психологлар профессионал таълим олишга ихтисослашган. Ҳеч қандай оддий психолог йўқ, аммо ижтимоий психологлар, муҳандислик психологлари, юридик психологлар, мактаб психологлари, психофизиологлар, менежмент психологлари ва бошқалар мавжуд. Психологлар тайёрлаш ҳали тўғри ташкил этилмаган. Шунинг учун психолог-менеджерларга устунлик бериш керак. (Рухий касал бўлган одамларни даволаш бўйича мутахассислар - психологлар ва психиатрларни чалкаштирмаслик лозим.)

Баъзи йирик ташкилотлар, агентликлар, бўлимлар, холдинглар, маҳаллий психологларнинг кенг тармоғига эга психологик хизматлар ўзларининг ишларининг марказлаштирилган бошқаруви ва персонал хизмати таркибидаги психологик бўлимлар билан ўзини оқлашди.

Бозор ҳаёти психологик консалтинг каби хизмат турини келтириб чиқарди. Агар ходимларда психолог бўлмаса, топ-менеджмент консалтинг фирмаларидан ёки таълим муассасаларида ва бошқа соҳаларда ишлайдиган индивидуал психологлардан маслаҳат сўраши мумкин.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

7. Анфилатов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.
8. Назаров А. Бошқарув психологияси. -Т.: 2021.
9. Назаров А. Менежмент ва маркетинг психологияси. - Т.: 2020.
4. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.
5. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.

## ФАОЛИЯТ ЖАРАЁНИДА ШАХСДА МАСЬУЛИЯТ ҲИССИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Мирмуҳсин Ақрамов

Ўзбекистон ислом академияси катта ўқитувчиси, PhD,

Нурсултон Райимов

Ўзбекистон ислом академияси магистранти

**Аннотация.** Мақолада психологияда масъулият тушунчасининг шахс омили, шахсий ва қасбий сифатлар ҳамда шахс ривожланишидаги муҳим хусусият сифатида олимлар томонидан назарий ўрганилиши ва таҳлили ҳамда ижтимоий масъулият ва унинг талабалар ўқув фаолиятидаги аҳамияти қўриб чиқилган.

**Таянч сўз ва тушунчалар:** масъулият, ижтимоий масъулият, меъёр, санкциялар, талабалик хусусиятлари, иродавий сифатлар, танлов эрки, шахс омили.

**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические исследования и анализ трудов учёных-психологов о понятии ответственности как важной особенности в факторе личности, личных и профес- сиональных качествах развития личности, а также о социальной ответственности и её значе- нии в учебной деятельности студентов.

**Ключевые слова и понятия:** ответственность, социальная ответственность, норма, санкция, особенности студентов, волевые качества, свобода выбора, фактор личности.

**Annotation.** The article consider factor personality of responsibility in the sphere of psychology personal and professional quality devolopement of personality as significant peculiarity theoretical study of scientists social responsibility and it's significance in educational activity of students.

**Key words:** responsibility, social responsibility, norm, sanction, peculiarities of students, quality of will-power, will of choice, faktor of personality.

Эркинлик ва масъулият муаммоси узоқ вақтдан бери фақат фалсафий категория доирасида мавжуд бўлишни тўхтатди. Бир пайтлар ушбу фалсафий тушунчалар инсоннинг илмий психологик дунёсига ҳам, психотерапиясига ҳам, қундалик ҳаётига ҳам кириб келди. Шу билан нафақат ҳал қилинмаган илмий муаммо, балки тирик қолиш масаласи ҳар бир шахснинг ўзини англаши, масъулиятлилик билан иш тутишига боғлиқ бўлиб қолди.

Масъулият – шахснинг индивидуал психологик сифатларидан бири бўлиб, инсон ҳаётида олдига қўйган мақсадларини амалга ошириш учун етакчи ўринни

эгаллаб, у ин- сондаги муҳим эҳтиёжни - жамиятда яшаш ва мақсадга эришиш, ўзини шахс деб ҳисоблаш билан боғлиқ эҳтиёжини қондиради<sup>13</sup>.

Масъулиятлилик тушунчасини собиқ совет психологиясида кенг ўрганилган тушунча ҳисобланади. Собиқ совет психологиясида масъулиятлилик дастлаб боланинг ривожланиш босқичида етакчилик қилган аниқ фаолият мисолида ўрганилган. Кейинчалик эса у ўзаро фаолият жараёнида ўрганилган. Масъулият ҳисси анъанага кўра, дам “қонун ташувчи”, дам алоҳида топшириқни бажарувчи сифатида ва оддий ҳаётий кундалик қоидаларни бажарувчиси сифатида чиқувчи субъектнинг ролини ўзгартириш орқали тадқиқ этилган. Шу сабабли реал масъулиятлилик хулқнинг ташқи кўрсаткичи бўлиб, у ёки бу юклатилган вазифанинг амалга ошириш меъёри бўлиб хизмат қилган. Масъулиятлилик эса концептуал равишда кўпинча шахс сифатида кўрилиб, шундан барча экспериментлар шакллантирувчи характер касб этган.

Бундай экспериментлардан бири Рубинштейннинг методологик тамойилини биринчи бўлиб ҳаётга тадбиқ этган Горбачева томонидан ўтказилган. Горбачева Пиаже каби болалар томонидан хулқ-автор қоидаларини ўзлаштириш жараёни қонуниятини тадқиқ этган, лекин ундан фарқ қилган ҳолда, болаларнинг ўzlари шикоят қилган жараён бузилишларини ўрганганди.

Маълумки, боғчада болалар кўпинча тарбиячиларига тенгдошлари томонидан қоидаларнинг бузилишидан шикоят қиласилар. Айнан шундай шикоятлар қонунларга онгли муносабат асосида етила бошлади. Болалар доимо: нимага у ёки бу қоидани бузди? У ёки бу қоида бузилса нима бўлади? Қоидага амал қилиш ёки уни бузиш чегараси қаерда?- каби саволлар берадилар. Катталардан тушуниб олгач, қоида бузилишларига уларнинг реакциясини кўриб, бола аниқ намуналарда, ўзининг тажрибасида ва тенгдошларининг тажрибасида хулқ-авторнинг ижтимоий ва ахлоқий меъёрини ўзлаштирадилар. Бир сўз билан айтганда болани ўзаро ижтимоий ва ахлоқий муносабатларнинг мураккаб турига кириши бошланади.

Болалар боғчага келишининг биринчи дақиқаларидан бошлаб майший қоидаларни ўзлаштира бошлаганликлари учун илк кунлардан майший қоидаларни бузилиши ҳақида хабар беришлари ажабланарли эмас. Шунинг учун болалар майший қоидаларни эртароқ, ўзаро муносабатлар қоидасини кечроқ ўзлаштирадилар. Бола бу даврда қоидаларни фақатгина тарбиячининг тушунишидан келиб чиқиб, фақатгина ўзига, шу вазиятгагина тегишли деб идрок этади. Шу тарзда қоидалар бу даврда боланинг “мен”и атрофида “марказлашади”.

13 Крылов Л.В. Педагогические условия воспитания со- циальной ответственности у студентов университета. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Кострома, 2010. –С.10.

Кўп ҳолларда ўйин қоидалари бузилганда болалар тарбиячига арз қиласидилар. Кичик ва ўрта гурухларда уларнинг миқдори бир хил, бироқ маъноси фарқ қиласиди. 5 ёшда болаларнинг арзлари турлича бўлади, бу эса улар ҳаётининг турли фаолиятлар билан бойиши билан шартланади. 7 ёшда болаларда арзлар миқдори кескин камаяди.

Кичик гурухларда ҳам ўрта гурухларда ҳам қоида фаолиятдан алоҳида эмас, балки қоидалар бола томонидан англашмайди ёки ёмон англашади. Болалар 5-6 ёшда ўз хулқ-атворини бошқаришга ўрганадилар. Бироқ бу боланинг қоидаларни умумлаштириб идрок этишини билдирамайди. Қоидаларни англаш, автоматлаштириш 7 ёшда рўй беради, бунда болалар ўз хулқ-атворига танқидий ёндашиш қобилиятига эга бўладилар ва улар бошқалар нуқтаи назарича шу позицияда турадилар.

Горбачева мустақил равишда Пиаже томонидан ўрнатилган боланинг ахлоқий ривожланишининг асосий белгилари ва босқичларини деярли барчасини аниқлади. Бироқ унинг тадқиқотларида бирёқламалик мавжуд. У ҳам болаларнинг қоидаларни моҳиятини тушуниш ҳоҳишини акс эттирувчи когнитив фаоллигини ўрганди. Қоидаларни тушуниш, ўзлаштириш, уларни автоматик ижро этилишига олиб келмайди. Боланинг иродаси ва характеристиристида узоқ вақт ишлаш, маълум кўнималарини шакллантириш талаб этилади. Билим, ижтимоий аҳамиятга эга фаолиятнинг муваффақиятили бажарилиши болада масъулиятлиликни шаклланиб бориши учун етарли эмас.

Мухими, бола ўзига юқлатилган вазифани эмоционал ҳис этиши, ўз фаолиятини нафақат ўзи, балки бошқа одамлар учун ҳам зарурлигини англаши керак; келиб чиқсан натижадан хурсанд ёки хафа бўлиши; фаолияти катталар ёки тенгдошлари томонидан ижобий баҳоланиши; юқлатилган вазифаларни бажарилишига жавобгарликни мухимлигини тушунишидир. Юқоридагиларни барчаси болани ижтимоий муносабатларнинг мураккаб турига фаол кириши натижасида ўзлаштирилиши мумкин.

Славинанинг қузатишига кўра, ҳаттоқи ўқувчилар ҳам топшириқни ёмон идрок этадилар, уни бажариш муддатини унутадилар. Берилган ишга нисбатан вақт ўтиши билан уларда қизиқиши йўқолади. Бироқ буларни барчасини енгиб ўтиш, тарбиялаш мумкин.

Славина ўз тадқиқотида катта ёшдаги ўқувчилар томонидан вазифани қандай бажарилишини кузатган. Унинг тахминича, топшириқни масъулият билан бажарилишининг асосий “механизми” бўлиб, олинган топшириқ ва уни бажарилиши ортидаги ҳаракат ўртасидаги мустаҳкамланган алоқанинг мавжудлигидир. Топшириқ ва уни режалаштириш ўртасида алоқа ўрнатиш - бу топшириқ ва ҳаракат ўртасида алоқа ўрнатишдир. Шундай бўлсада бу ҳаракат

фикрий ҳаракат хусусиятига ҳам эга. Бу экспериментда берилган топшириқни бола томонидан бажарилишини режалаштирилишига урғу берилган, чунки режалаштириш ҳаракатнинг бошланиши ҳисобланади. Масъулият психологик мазмун сифатида, ўзига хос ҳиссиётлар: масъулият ҳисси ва ҳиссиёт шакли, мажбурият, ғуур ва бошқалар сифатида кўриниши мумкин, деб таърифлайди. Бизнинг фикримизча, масъулият шахснинг характер сифатини очиб берувчи, уни тўлғазувчи жиҳат ҳисобланади. Масъулият шу билан бирга инсон иродаси билан боғлиқ бўлиб, инсоннинг иродаси, инсон характерининг ички структурасига кириб борган ҳолда ташқи муҳит томонидан ривожлантирилади.

Бунга мисол сифатида 1- ва 2-босқич талабалари орасида олинган «Масъулиятлилик» сўровномаси натижаларида 1-босқич талабаларида масъулиятнинг мотивацион жабҳасида (масъулиятни ўзининг намоён бўлиши хусусиятига кўра бир қатор объектив талаблари- ни шартлайди, яъни манфаатдорлик, меъёр, мотив, мақсадга эришишдаги барқарорлик ва бошқаларни тақозо этади) ўртача даражалик кузатилди<sup>14</sup>.

2-босқич талабаларида гурух аъзоларининг ўзаро мослашуви юқори даражада, гуруҳдаги қизлар ўртасидаги шахслараро муносабат меъёрда, ўзаро хурмат ва ўзаро тушуниш етарлича шаклланган. Бу эса қизларга ўқув фаолиятидаги топшириқларни бажа-ришда бир-бирларини қўллаб-қувватлаш, жамоа муаммоларини ўзининг муаммоси сифатида қабул қилиш хослигини кўрсатмоқда. Йигитларда эса масъулиятнинг ушбу позицияси ўртача даражада шаклланган, аммо маълум даражада шахсий шаклланиш зарур эканлигидан далолат беради.

Юқори босқичга келиб уларда ўзларига ишонч, мураккаб топшириқларни бажаришда масъулиятни ўз зиммасига олиш, мустақил қарорлар қабул қилиш ҳолатлари кузатилади.

Демак, талабанинг кейинги босқичга ўтиши уларда ижтимоий муҳитнинг таъсири орқали психологик хусусиятларининг шаклланишига олиб келар экан. Масъулиятнинг намоён бўлиши муаммоси маълум бир ижтимоий вазиятлардаги хулқ-атворнинг ички ва ташқи бошқарув меҳа-низмларининг ўзаро муносабати сифатида майдонга келади. Инсон томонидан ўзининг ижтимоий ва шахсий идентиклигини (ўхшашиблик) қуриш жараёнлари, ўзгарувчи ижтимоий муҳитларда хулқ-атворнинг индивидуал стра-тегияларини таъминловчи персонал қадриятлар, когнитив механизмлар тизимиининг шакл-ланиши, яъни умумий тарзда шахснинг ижти-моийлашув жараёнидаги фаоллиги бутунги кунда ижтимоий-психологик билимларнинг муҳим қисмини ташкил этади.

С.В.Быковнинг фикрича, масъулиятли бўлишни истаган инсон эркин бўлиши керак ва аксинча, кимки эркин бўлмаса, у масъулиятсиз бўлади ёки жавобгарликни

<sup>14</sup> Анисимов С.Ф. Мораль и поведение. - М.: «Мысль», 1979. - С. 115.

ташқарига юклатишга ҳаракат қиласи<sup>15</sup>. Шунинг учун ҳам инсон бирон-бир ишни бажаришга киришишда ўзига бўлган ишончи, тўплаган би- лимлари ва айниқса тажрибаси муҳим ҳисобланади.

Х.Г.Гадамернинг фикрича, масъулиятли бўлиш – воқеанинг мағзини тушунишга интилиш ва шу тушунчага мувофиқ ҳаракатланиш демакдир. Талабалик даврида эса кўпроқ ижтимоий масъулиятнинг намоён бўлиши кузатилади. Сабаби, талаба фаол иштирокчи сифатида ўқув жараёнида ва ижтимоий ҳодисаларда қатнашади. Бундай ҳолатларда айнан унинг ўзини тутиши, ишга, берилган топширикқа бўлган жавобгарлиги, шахсларро муносабати ундаги масъулият сифатларини қўрсатиб беради.

### Адабиётлар рўйхати:

1. Анисимов С.Ф. Мораль и поведение. - М.: «Мысль», 1979.
2. Басова О.А. Психологические особенности ответственности предпринимателя в процессе личностно-профессионального развития. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата психологических наук. - Ростов-на-Дону, 2008.
3. Быков С.В. Социально-психологическая регуляция ответственности личности. Диссертация на соискание учёной степени доктора психологических наук. – Казань, 2006.
4. Гаврилушкин С.А. Психологическая специфика проявления ответственности личности у студентов с различной патриотической направленностью. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата психологических наук. - М., 2012.
5. Гришаева Н.В. Социально-психологические факторы развития ответственности кадров управления. Диссертация на соискание учёной степени кандидата психологических наук. – М., 2010.
6. Дружинин В.Н. Психологические типы семьи в европейской культуре. – М., 1995.
7. Казанцева О.А. Индивидуально-типические особенности ответственности личности студентов. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата психологических наук. - Бийск, 2008.

<sup>15</sup> Быков С.В. Социально-психологическая регуляция ответственности личности. Диссертация на соискание учёной степени доктора психологических наук. – Казань, 2006. -С. 29.

## **КАСБ-ХУНАР ТАНЛАШ МЕТОДИКАЛАРИ**

*Рахимова Дилдора*

*Чилонзор 1-сон касб-хунар мактаби психологи*

Касб-хунарга йўналтиришнинг асосий вазифалари қуидагилардан иборат.

- Касбий маълумотлар бериш:

ўқувчиларга замонавий ишлаб чиқаришнинг турлари, меҳнат бозори ҳақида тушунчалар бериш ҳамда касбларнинг одамларга қўядиган талаблари ҳақидаги маълумотлар билан таништириш;

касб-хунар таълими муассасалари тўғрисидаги маълумотлар билан таъминлашнинг асосларини яратиш.

- Касбий маслаҳатлар бериш: ўқувчи-ёшларни қизиқишлари, мойиллиги, туғма лаёқати, қобилияти, кўникмалари, оилавий муҳит, худудий шарт-шароитлар, ўқувчи ва ота-оналарнинг истак ва хоҳишлири, касбга қўйиладиган талаблардан келиб чиқиб, малакали касбий маслаҳатлар беришни ташкил этиш асосларини ишлаб чиқиши. Касбий ташхис: шахснинг индивидуал психологик ва физиологик хусусиятлари, ёши, билим даражаси, кўникма ва малакаларини ҳисобга олган ҳолда якуний ташхис қўйиш (ташхис материаллари махфий ҳисобланиб, у факат ўқувчи ва унинг ота-онаси билан муҳокама этилади), ўқувчининг касбий мойиллигини аниқлаш, шахснинг йўналганлик даражасини баҳолаш.

- Касбга йўналтириш: психологик, психо-физиологик ва тиббий ташхис натижалари асосида шахснинг психологик, психо-физиологик ва физиологик хусусиятларига мос келадиган касбий тайёрлов йўналишлари тўғрисида унга тавсиялар бериш; жамият эҳтиёжи ва меҳнат бозори талаблари асосида уларнинг ўз қизиқишлари, қобилиятлари ва соғлиқларига мос бўлган касб-хунарларни танлашларига кўмаклашиш; ўрнатилган меъёрий талаблар асосида шахсни ўзи танлаган аниқ бир касбга лойиқлик даражасини аниқлаш.

- Касбий мослашув: шахснинг мутахассис бўлиб етишиши, ундаги тегишли ижтимоий ва касбий сифатларнинг шаклланиши, фаол ижодий меҳнат қилиш, берилган кўрсатма ва талабларнинг бажарилиши ҳамда юқори касбий ма- лакага эришишига имкон яратувчи тадбирлар тизимини яратиш, турдош касблар ичидан шахсга мақбул бўлган касбни танлашида кўмаклашиш.

Касб-хунарга йўналтириш ишларининг иштирокчилари аниқ белгилаб қўйилган, булар қуидагилар:

- ўқувчилар;
- ота-оналар;

- таълим муассасаси;
- касбга йўналтирувчи;
- касб-хунарга йўналтириш хизмати мутахассислари;
- ўқитувчилар;
- синф раҳбари;
- мактаб шифокори;
- кутубхона мудири;
- жамоат ташкилотлари;
- касб-хунар таълими муассасалари;
- корхоналар;
- меҳнат органлари;
- худудий бошқарув органлари (ҳокимлик);
- маҳаллий ўз-ўзини бошқарув органлари;
- оммавий ахборот воситалари

Бугунги кунда меҳнатга лаёқатли аҳоли, айниқса, ёшлар миграцияси, уларнинг чет элларда иш қидириб, турли жиноий тўдалар таъсирига берилиб қолаётганлиги ва бу борада ота-оналар, маҳалла фаоллари ҳамда таълим муассасалари ўртасидаги ҳамкорлик ишлари ғоятда долзарб масалага айланди. Кўпгина ота-оналар, педагоглар ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришда ота-она, ўқитувчи, маҳалла фаолларининг масъулиятини эътироф этишади-ю, касб танлашда – энг муҳим масъул шахс, яъни ўқувчи ҳақида деярли фикр билдирмайдилар. Ваҳоланки, касб-хунар танлаш аввало ҳар бир ёшнинг ўзи ҳал қилиши керак бўлган масаладир. Бунинг учун катта ёшдаги устозлар, маҳалла-куй, оила аъзолари ўсмир ва ўспирин ёшдагиларга касб танловида адашмасликка замин яратишлари лозим.

Хозирда мактаб юқори синф ўқувчиларининг касбга мойиллиги дифференциал диагностик сўровнома (ДДС) асосида ўрганилади. Ушбу сўровнома психология фанлари доктори, профессор Б.Р.Қодиров томонидан рус психолог олими Е.А.Климов методикаси асосида қайта модификация қилинган.

Мазкур сўровнома яратилганига 15-20 йил бўлиб қолди. Сўровномада ўқувчи эгаллаши керак бўлган касблар берилади, ўқувчи эса шу касблардан ўзига ёқадиганини танлаши керак

Кузатишлар асосида шу нарса аниқландики, ДДСда ҳозирда ўз долзарблигини йўқотган касблар мавжуд, шунингдек, янги соҳалар вужудга келиши асосида пайдо бўлган ва бугунги кунда ўз мавқеига эга бўлган айrim касблар мазкур сўровномага киритилмаган . Фикримча, юқорида келтирилган «Дифференциал диагностик сўровнома» мутахассислар томонидан таҳлил

қилиниб, унга тегишли ўзгартериш ва қўшимчалар қўшиш лозим, шу асосда муайян тўхтамга келиш зарурдир. Ўқувчи-ёшларни онгли касб танлаш ишларини жонлантириш ва бунда психолог билан биргаликда ота-оналар ва фан ўқитувчилари фаоллигини ошириш зарур. Мавжуд академик лицей ва касб-хунар коллежлари ҳамда олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда ўқувчиларнинг онгли касб танлашларига ёрдам берувчи «Очиқ эшиклар куни», «Мехнат ярмаркалари» ва «Касблар фестивали» каби тадбир ва учрашувларни ташкил қилиш, бу жараёнга етакчи мутахассисларни жалб қилиш мақсадга мувофиқ. Ўқувчиларда ёшлигидан бошлаб касблар оламига доир билим, кўникма ва малакаларни таркиб топтириш, бу мақсадда ота-оналар билан ҳамкорликни такомиллаштириш мақсадга мувофиқдир. Мактаб раҳбарияти ва амалиётчи психологлар масъуллигида ўқувчи-ёшлар ўртасида онгли касб танлашга эришиш учун индивидуал ва гурӯҳий маслаҳатларни кўпроқ ташкил қилиш лозим. Таълимга компетенциявий ёндашув йўналишида олиб борилаётган ишларни жонлантириш, ўқувчиларда касбий тасаввурни шакллантиришда мактабда ўқитиладиган фанлар доирасида амалий малака ва кўникмаларни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, шахсда касбий тасаввурларнинг шаклланганлиги касбий қизиқиш ва бўлажак касб тўғрисида онгли қарор қабул қилиш асосида белгиланиши мумкин. Ёшларнинг ўз имкониятларига етарли баҳо бера олмаслиги, танловга онгли равища ёндашмаслиги оқибатида касб танлашда хатоликларга йўл қўйиши мумкин. Ўқувчиларда касблар ҳақидаги ахборотларнинг етарли эмаслиги, бу борадаги тасаввурларнинг йўқлиги касб танлаш юзасидан қарор қабул қилишда қийинчиликларни келтириб чиқаради. Таълим тизимида ўқувчиларнинг фақат билим доирасини кенгайтириш асосий мақсадга айланмаслиги лозим, уларда ҳаёт учун зарур кўникма ва малакаларни шакллантириш биринчи ўриндаги вазифа бўлмоғи керак. Бу борада ҳозирда муҳим қадамлар қўйилди. Хусусан, бошланғич таълим соҳасида компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартлари ишлаб чиқилиб, таълим жараёнига татбиқ этилмоқда. Ушбу ёндашув асосида ўқувчиларда бевосита уларга ҳаётий вазиятларда зарур бўлган малака ва кўникмаларни шакллантириш масаласи устувор этиб белгиланган.

Ўқувчиларни касбга йўналтириш жараёнида жамиятда шахс ижтимоийлашуви институтлари бўлган оила, маҳалла ва таълим муассасалари ва ушбу жараёнга бевосита масъул бўлган шахслар, ота-оналар, ўқитувчилар, касб-хунарга йўналтирувчи синф раҳбарлари, психолог, дефектолог, шифокор, болалар етакчиси, тўғарак раҳбарлари, кутубхона ходимлари, маҳалла фаоллари, қўни-қўшни, қариндош-уруглар, тенгдошлар, ҳудудий меҳнат бозори мутасаддилари,

оммавий ахборот воситалари, яқин корхо- налар ҳамкорлигини ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда тадбиркорлик, ишбилармонлик фаолияти учун кенг имкониятлар яратилган. Яратилган имкониятлардан самарали фойдаланиш нафақат юртимиз иқтисодиётини ривожлантиришга, балки ёшларнинг ҳаётда ўз ўринларини топишларига кенг йўл очади. Касб танлаш жараёни ижтимоий аҳамият касб этса-да, лекин унинг ортида индивидуал шахс туради. Ҳолбуки шундай экан, касб танлови жараёнида ўқувчи шахсига индивидуал му- носабатни амалга ошириш зарур. Бунинг учун касб танловчининг ёш ва жинс хусусиятларига биноан касбий тарбияни амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Биринчи навбатда, ўқувчининг касбий эҳтиёжи, мотиви, лаёқати, қизиқиши ва қобилиятини ҳисобга олиш лозим. Акс ҳолда умумий хусусиятли йўлланма, кўрсатма ижобий натижага олиб келмайди, чунки индивидуаллик ўзига хос талабларни тақозо этади. Касбий билимлар – ўқувчиларни касбнинг моҳияти, унинг шахс олдига қўядиган талаблари билан таништиришдан иборат таъсирчан ахборотлар мажмуасидан иборат бўлмоғи керак. Мазкур ахборотларни ёшлар онгига етказишда жамиятнинг барча бўғинлари иштироки ва ҳамкорлигини ташкил этиш бугунги куннинг энг долзарб вазифасидир

### МАЊНАВИЙ ЭҲТИЁЖЛАР ТИЗИМИНИ ЎРГАНИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА

*Жабборов Жамишид Азимович  
ҚаршиДУ таянч докторант*

Жаҳонда содир бўлаётган туб ўзгаришлар жараёни бугунги кунда инсонларнинг мањнавий онги ва дунёқарашини ривожлантириш зарурлигини кўрсатмоқда. Инсоннинг мањнавий онги, маданияти ўсиши учун унинг мањнавий эҳтиёжлари ўсиши лозим. Эҳтиёжларнинг шаклланиши ва ривожланиши ҳамма вақт инсоннинг камол топиши, биринчи навбатда жамият ривожланишининг обектив талаблари ҳамда унинг индивидуал манфаатлари ва қобилияtlари билан боғлангандир. Чунончи, ёшларнинг вояга етиши, улар организмининг ривожи, тарбияси янгидан-янги эҳтиёжларнинг шаклланиши билан боғлиқдир.

Кишилик жамияти тараққиётига назар ташласак, инсон эҳтиёжлари, жумладан, мањнавий эҳтиёжлар доим ўсиб боради. Улар ўз ривожланиш қонунларига эга. Мањнавий эҳтиёжларнинг қондирилиши улардан юксакроқ

бўлган янги маънавий эҳтиёжларни туғилишига олиб келади. Бу ҳолат маънавий эҳтиёжларнинг муттасил равишда юксалиб бориши қонун эканини тасдиқлайди. Маънавий эҳтиёжларнинг пайдо бўлиши, англаниши, қондирилиши, эҳтиёжларнинг таркиби ўзгариши ёки янги-янги эҳтиёжларнинг пайдо бўлиши, уларнинг ҳам қондирилиш жараёни доимо такрорланувчи энг муҳим, моҳиятли, биринчи даражали зарурый боғланишлардир. Маънавий эҳтиёжларни узлуксиз равища ўсиши ва янгиларининг вужудга келиши ҳар бир жамиятга хосдир.

Ўзбекистоннинг бугунги маънавий ҳаётида асрларга тенг сезиларли ўзгаришлар юз берди. Миллий анъаналар ва асрий қадриятлар тикланмоқда, уларнинг жамият ҳаётидаги ўрни янада мустаҳкамланмоқда. Жамият маънавиятини янада юксалтириш мамлакат тараққиётининг устувор йўналишларидан биридир. Зеро, фуқароларни миллий истиқлол гояси ва мафкураси руҳида тарбиялаш ва комил инсонни шакллантиришда маънавиятнинг роли бекиёсdir. Ана шу мақсадни амалга оширишда маънавий эҳтиёжларнинг юксалиши, шаклланиши, англаб олиниши, миллий манфаатлар билан боғланиши, эҳтиёжларнинг мазмунига, инсон ва жамиятга таъсирига кўра ижобий ва салбий хусусиятлар касб этиши, улар ривожини белгиловчи омиллар, маънавият ва бутун жамият юксалиши билан боғлиқлиги каби масалалар устида илмий жиҳатдан янада чуқурроқ тадқиқотлар олиб бориш ўта долзарб вазифа эканлигини кўрсатади.

Ўзбекистон Республикасида 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сон “Таълим тўғрисида”ти қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги ПҚ-3160-сон “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ти, 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сон “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ти, 2019 йил 3 майдаги ПҚ-4306-сон “Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ва ПҚ-4307-сон “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ти қарорлари, 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сон “Ўзбекистоннинг янги

тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида” фармони ва бошқа меъёрий-хуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда мазкур диссертация тадқиқоти муайян даражада хизмат қиласди.

Жамият маънавий ҳаётини юксалтириш масалалари қадимдан жаҳон олимлари диққат-эътиборини ўзига тортиб келган. Инсоннинг ижтимоий моҳияти, жамият ва тафаккур, маънавият ва ижтимоий муҳит муносабатлари, инсон эҳтиёжи, ҳаётий талаблари ва нафси хусусиятлари ҳақидаги дастлабки фундаментал хуросалар зардуштийликнинг асосий манбаси бўлган “Авесто” тарихий-ёдгорлигига илгари сурилган бўлса, кейинчалик Шарқ-ислом дунёқараши негизидаги буюк алломалар Форобий, Беруний, Ибн Сино, Юсуф Хос Ҳожиб, Жалолиддин Румий, Алишер Навоий ижодиётида ифодаланган инсон маънавияти ҳақидаги ижтимоий ғоялар муҳим манбалар ҳисобланади.

Фарб илм-фанида антик давр фалсафасининг етук намоёндалари Суқрот, Платон ва Арастулар инсон фалсафасини ўрганиб, унинг эҳтиёжларини ҳам таҳлил қиласди. Ўрта асрлар ғарб файласуфлари Г. Гроцкий, Гельвеций, жаҳон классик фалсафасининг атоқли вакиллари И. Кант, Г. Гегель, К. Маркс эҳтиёжлар, айниқса маънавий эҳтиёжлар масаласида ўзига хос қарашларни илгари сурганлар. XIX-XX асрларда яшаб, турли соҳаларда илмий тадқиқотлар олиб борган З.Фрейд, Ҳ.Муррай, А.Маслоу, Ф.Котлер, Ж.Кейнес, Ж.Гелбрейт ва бошқа олимлар томонидан эҳтиёжлар тизими таҳлил қилинди, турларга бўлинди.

Собиқ иттифоқ даврида психология фанининг ривожланиши эҳтиёж, хусусан руҳий эҳтиёжлар ҳақида кўплаб концепциялар, қарашларнинг юзага келишига замин яратди. Б.Г. Ананьев, Л.С. Выготский, Л.С. Рубинштейн, А.Н. Леонтьев, А.Р. Лурия, А.В. Петровский, Б.И. Игнатьевларнинг илмий мероси бугунги кунда эҳтиёжлар тизимини тадқиқ қилувчилар учун илмий қўлланма бўлиб хизмат қиласди. Шунингдек, сунги йилларда маънавий эҳтиёжлар ва унинг назарий муаммолари, эҳтиёжлар эволюцияси ва уни очиб берадиган бир қатор ижтимоий-тарихий маълумотлар, турли нуқтаи назарлар, маънавий эҳтиёжларнинг ранг-баранг намоён бўлиши назарий жиҳатдан Н.М. Бережной, Е.В. Гайнутдинова, А.Р.

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

Нурова, Е.А. Стародубцева, Л.А. Беляева, С.И. Петрова, Е.А. Юсупова, В.С. Лысенко ва бошқа олимлар томонидан чуқур тадқиқ этилган.

Сўнги йилларда юртимимиз олимлари томонидан мустақилликнинг маънавий асослари, маънавиятнинг жамият тараққиётидаги аҳамиятига оид кўплаб илмий-тадқиқот асарлари, монографиялар, мақолалар, илмий-оммабоп китоблар пайдо бўлди. Эҳтиёжларни таснифлаш, улар тизимида маънавий эҳтиёжларнинг ўрни, унинг ўзига хослиги, юксалиши ёки пасайиши, уларга таъсир кўрсатувчи омиллар ҳақида бир неча умумий эътироф мазмунидаги мақолалар ёзилган. Ушбу йўналишда мамлакатимиз етакчи олимларидан А. Эркаев, Э. Умаров, М. Абдуллаев, Э.Ф. Фозиев, А. Маврулов, М. Ахуновларнинг китоблари ва мақолаларини кўрсатиш мумкин. Шунингдек, А. Мухтаров ғоя ва мафкуралар шаклланишининг ижтимоий-тарихий генезисининг манфаат ва эҳтиёжлар билан мутаносиблигини, З. Бойтемирова маънавий эҳтиёжлар таркибидаги ахлоқий эҳтиёжларни, М. Номуратова маънавий эҳтиёжлар тизимининг ижтимоий-фалсафий асосларини илмий тадқиқ этишган. Олимларимиз томонидан маънавий эҳтиёж масаласи етарли даражада ўрганилмаганлиги шу соҳада илмий тадқиқот олиб боришимизга хизмат қиласди.

Маънавий эҳтиёжларнинг мазмун-моҳияти, жамият ривожланишига таъсир кўрсатувчи омиллар ва қонуниятларни ижтимоий-фалсафий жиҳатдан асослаб бериш – илмий тадқиқотимизнинг мақсади сифатида белгилаб олинди.

---

## **YOSHLAR MA'NAVIYATINI TARBIYALASHDAGI ASOSIY OMILLAR**

*Mamajonova Madina Maxammadjonovna  
ADTI davolash fakulteti 5 tyutorlik guruhi Tyutori*

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a‘zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi kerak.

«Hech bir odam dunyoga tayyor bo‘lib tug‘ilmaydi, ya‘ni to‘la shakllangan bo‘lib, lekin uning har qanday hayoti to‘xtovsiz rivojlanish harakatida, tinimsiz shakllanishda bo‘ladi», deb yozgan edi V.G.Belinskiy.

Bola ma‘lum yoshga qadar — individ sanaladi. Individ (lotincha —individuum so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma‘nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta‘sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Shaxs o‘zini taniy boshlagandan ta‘lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Ta‘lim-tarbiya o‘z kelajagi uchun eng muhim omil ekanligini anglamasligi mumkin emas. Ota-onalarning o‘z farzandiga bo‘lgan otalik va onalik mehri ta‘lim-tarbiyaning ahamiyati va zaruriyigini anglashga undashi tabiiy. Jamiyat hech vaqt bir joyda to‘xtab qolmaydi, balki doimo rivojlanishda bo‘lishi bu hayotiy qonuniyatdir. Individ hayotiy muhim ko‘nikmalarni va ta‘lim-tarbiyani uzlusiz egallash orqali o‘zini anglay boshlaydi.

Shu bilan birga, ta‘lim-tarbiya jamiyatning oldinga qarab rivojlanishida zarur bo‘lgan omillarni shakllantiradi. Ta‘lim-tarbiya umumxalqqa tegishli va ayni paytda odamlar yoshiga, rivojlanish darajasiga qarab ma‘lum yo‘nalish hamda mezonlarga ega bo‘ladi. Jamiyatning bolalar ongiga ta‘sir o‘tkazishi, asosan, ta‘lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Inson kamolotida ta‘lim-tarbiya yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki:

- Ta‘lim-tarbiya jarayonida kishi organizmining o’sishi va muhitning stixiyali ta‘sir bera olmaydigan narsalarni o’rganib oladi. Masalan, tilni odamlarning ta‘sirida o’rganib olish mumkin. Lekin o‘qish, yozishni maxsus ta‘lim orqali o’rganadi.
- Ta‘lim-tarbiya yordamida hatto kishining ba‘zi tug‘ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o‘zgartirish mumkin. (ko‘r, kar, soqov).
- Ta‘lim-tarbiya yordamida muhitning salbiy ta‘siri natijasida yuz beradigan kamchiliklarini ham tugatish mumkin. (Bolalarning karta o‘ynashi, so’kishi, chekishi).

- Ta'lim-tarbiya natijasida bolalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'libgina qolmay, balki dunyoqarash ham shakllanadi, kamolotga yetib boradi.

Bilimlarning egallanishi uning jismoniy va ma'naviy jihatdan o'sishiga yordam beradi. U dastlab oila sharoitida va mакtabgacha tarbiya muassasalarida, keyinchalik maktab, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy maktabda ta'lim-tarbiya oladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning 15-iyun oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi mavzuyidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tadi. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlariimizning odob – axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlari. Mayli, yoshlari o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidani , deya ta'kidladi Prezidentimiz. Bu vazifa mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'ginlari va butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi.

Yoshlari ma'naviyatini shakllantirishda omillar va vositalar ko'p bo'lishiga qaramay, ularning eng muhimlari sifatida quydagilarni ta'kidlab o'tishni joiz topdik.

Birinchidan: Oila, bola ma'naviyati kurtaklari oilada shakllanadi. Ota-onalar o'z farzandlariga o'z-o'zini anglash, did-farosat, yaxshillikni yomonlikdan, ezgulikni jaholatdan,adolatni razolatdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati shakllanishiga yordam beradi. Oilada ota-onalar farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi ularda vatanga muhabbat, mehnati va fidoiyligi bilan o'zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylit kabi xislatlarni kamol topishiga xizmat qiladi. Keyinchalik bu xislat va his tuyg'ular insonga jamiyat, yurt, millat va vatanga bo'lgan munosabatlarda namayon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda oiladagi mehr-muhabbat, ota-ona aka-ukaga, opa-singilga munosabatlar, oilada avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analar, marosimlar, urf-odatlar bola ma'naviyati shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan: Kitob, bu sizga oddiy tuyulishi mumkin, lekin bizning madaniyatimiz, tariximiz, ajdodlarimizni ulkan me‘roslari aynan shu kitoblarda jo bo‘lgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Mashrab, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi mumtoz shoir va yozuvchilarimiz asarlari yoshlar qalbini, ruhiy dunyosini, ma‘naviy boyitishga foydali vositatadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy-ma‘naviy merosi o‘zining chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Mumtoz sa‘natkorlarimiz asarlarida hallolik, to‘g‘rilik, insonparvarlik, vatavparvarlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi inson uchun zarur ma‘naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada bayon etilgan. Axir yoshlar o‘qimay turib, ularni mazmun mohiyatini, undagi ma‘naviyat haqidagi fikrlarni, kashfiyotlani qanday qilib anglab oladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni oshirish maqsadida amalga oshiradigan chora-tadbirlari tahsinga sazovordir.

Uchunchidan: Xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan ijod mahsulidir. Bu ijodagi dostonlar, ertaklar, afsonalar, maqollar, miflar sodda va ravon uslubda, xalqona ohangda yaratilganligi bois yoshlar qalbiga oson singib kiradi, ma‘naviy ta‘siri yuqori bo‘ladi. Ularning barchasi ijtimoiy-maishiy hayotdan olingan voqia-hodisalar ta‘siri sifatida shaklangan va mohiyatan inson ruhiyatini yoritishga, ma‘naviy-axloqiy sifatlarini, aql-zakovatini takomillashtirishga yordam beradi. Xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganish jarayonida ularda ilgari surilgan ma‘rifatparvar g‘oyalarni, tarbiyaviy mohiyatini munosib ilg‘ash va yondashish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy yuksak, jamiyat taraqqiyotiga daxldor insonlar etib tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchida: Teatr, ma‘naviy tarbiyada kishilar ongi, ruhiyatiga ta‘sir etishda teatr san‘atining ham roli, o‘rni va ahamiyati, ta‘sir etish doirasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz teatr san‘atini ikki tomoni charxlangan shamshirga o‘xshatishimiz mumkin. Bir tomoni bilan kishilar qalbiga yorug‘lik olib kirsa, uni yuksak ma‘naviylik tomon yo‘llasa, ikkinchi tomoni bilan inson qalbidagi nodonlik, jaholat, ya‘ni, manaviyatsizlikka va jaholatga qarshi kurashadi. Teatr san‘ati boshqa san‘at turlari kabi obrazli – badiiy tabiatini

bilan inson qalbiga ematsional ta'sir ko'rsatish, uning ruhiy dunyosiga kirib borish, shu orqali ma'naviy dunyosini boyitish xususiyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy tarbiya bugungi kuning dolzarb masalasi ekan. Bunda yoshlarimiz ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladigan har bir omil va vositalarni tubdan tahlil qilish, ularda ilgari surilgan ma'rifatparvar g'oyalarning tarbiyaviy mohiyatini munosib ilg'ash va yondashish, hayotga tadbiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy barkamol, vatanimiz ravnaqi uchun munosib hissa qo'shadigan shaxslar qilib tarbiyalshda katta ahamiyatga egadir.

### Foydalanigan adabyotlar

1. I.A.Karimov —Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch|| Toshkent. 2008.
2. Mahmudov T. —Mustaqillik va ma'naviyat|| 2001.
3. O. Musurmonova, M. Qarshiboev, R.Qo'chorov —Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari|| 9-sinflar uchun darslik. 2015.
4. H.Ataeva, M. Salaeva, S.Hasanov —Umumiy pedagogikal 2013

## ОДОБЛИ БОЛА ТАРБИЯСИ

Жалолова Зебинисо Тоировна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар МТБга қарашли  
“Буратино” номли 3-сон МТТ тарбиячиси

“Одоб ҳар бир инсон амал қилиш керак бўлган ҳаёт қонунидир. Инсон айнан одоби билан тилсиз ва ақлсиз ҳайвонлардан ажралиб туради”.

**Одоб** – яхши хулқ, тарбия ва хушмуомалалик.

**Ахлоқ** – инсон табиати, муомала, хаттиҳаракати ва одоби.

**Тарбия** – таълим, ахлоқ-одобни ўргатиш, инсонни вояга етказиш ва улгайтириш.

Одобли ва одобсиз бола келинглар, одобли ва одобсиз бола қандай бўлиши ҳақида сухбатлашайлик. Одобли бола уйқудан эрта туриб, дарҳол юз-қўлинни ювади. Ҳатто

бадантарбия машқларини бажариб, баданини чиниқтиради. Бадани ва кийимлари доим тоза ва озода бўлишига эътибор беради. У кўп китоб ўқиш баробарида дарсларини ўз вақтида бажариб қўйишни яхши кўради. Ота-онаси ва устозларидан эшитган насиҳат ва ўгитлардан асло бўйин товламайди. Одобли бола ҳар доим аъло баҳоларга ўқийди. Агар яхши ва хушмуомала кишини кўрса, дарҳол ундан ибрат олиб, унга амал қилишга интилади. Бундай болани тарбияли ёки хулқи чиройли экан, деб мақталади. Одобли бола иложи борича одамларга яхшилик қилиш ҳақида ўйлайди. Кичик ёшидан бошлаб кўчада ёки бирон жойда қарияларни кўрганда салом бериб, қўлида юки бўлса, уни кўтариб уйигача элтиб беради. Кўни-кўшнилар томига тош отиб ўйнамайди, мушук ва шунга ўхшаш жонзотларга озор бермайди. Аммо болалар ичида одобсизлари ҳам учраб туради. Бундай бола эрта ўринга ётиб, уйқудан кеч уйғонади. Уйқудан турганида юз-қўлини чала ювади, бадантарбия машқларини бажаришни ёқтирумайди. Усти-боши кир-чир ва ифлос бўлиб юради. У қўлига китоб ушламайди ва дарсларини тайёрлашга ҳафсала қилмайди.

Ота-онаси бир ишни буюрса, уни лаббай деб, бажармайди, балки эринчоқлик қилиб, орқага суради. Устозлари берган уй вазифаларини қилмагани учун мактабга борганда гап эшитиб, синфдошлари олдида мулзам бўлади, ёмон баҳога ўқийди, яхши одоб ва хулқ ҳақидаги насиҳатларга қулоқ солмайди. Одобсиз болани ҳеч ким ёқтирумайди. Чунки у ақлини кам ишлатади-да. Шу боис одамлар уни хулқи ёмон бола экан ёки ота-онаси яхши тарбия бермабди, деб айтишади. Тарбиясиз бола қандай саломлашишни ҳам билмайди. Одобсиз бўлгани учун унинг атрофида дўстлари кам. Тарбия ва одоби йўқлиги учун болалар ундан узокроқ юришга харакат қиласи, чунки у дилозорлик қилиб, кўпчилик кўнглинин қолдиради. Шу боис биронта бола у билан дўстлашишни истамайди. Демак, одобсиз бола бир ўзи яккаланиб, дўстларидан ажраб қолади. Хўш, одобсиз бола қандай қилиб яхши бўлади, деб савол берарсан. Бунинг учун ҳар қандай одобсиз болага ҳам яхши тарбия берилса, у ўз айбини тушуниб, ундан воз кечиш ҳақида ўйлайди. Яхши болалар одобсиз болага чиройли насиҳат қилиб, уни тўғри йўлга бошлайди. Айниқса, кўчага чиққанда компьютерхонада ҳар хил бўлмағур компьютер

ўйинларига берилиб вақтини зое кеткизаётгани ва ёмон болага айланиб бораётганини билдиради. Одобсиз боланинг одобли болага айланиши осон эмас. Агар у ақлини тўғри ишлата олса, аста-секин яхши болалар сафига қўшилиб олади. Бунинг фойдасини ёши улғайгандан кейин билади. Фақат у яхши ва одобли бола бўлишга ҳаракат қилиши керак. Бир донишманд: «Ўғлинг етти ёшгача райхонингдир, яна етти ёш қўшилгунча дастёринг ва яна етти ёш қўшилганда вазиринг ва кейин эса у дўстинг ёки душманингдир», дебди. Шундан биламизки, итоатли ва одобли фарзанд ҳар доим ота-она ёнида бўлиб, уларнинг кўзини қувонтиради ва ишларида кўмак беради. Итоатсиз ва одобсиз бола эса ота-она гапини олмаслиги ва айтганига юрмаслиги билан худди ота-онаси ундан жудо бўлгандек таассурот қолдирап экан.

Одобли бола ҳақорат ва қарғиш олмайди. Ўзи бирорларни сўкиб, ҳақорат қилмайди, бошқаларнинг сўкиниши ва ҳақоратига сабаб бўлмайди. Одобли бола қилган ишлари ёки ўзида бор фазилатлар билан мақтанмайди, керилмайди, кеккаймайди, балки камтар бўлади, ўзидаги фазилатларни дўстлари билан баҳам кўради, мулойим, очиққўл ва очиқкўнгил бўлади. Бу “меники”, бу “сеники” деб ажратиш, ҳамма вакт фақат ўзини ўйлаш, бошқалар билан иши бўлмаслик одобли бола шаънига дуруст эмас. Демак, боланинг келажақда баҳтли ва толеъли бўлиши унинг одобахлоқи ва қанчалик илм олишига боғлиқ. Бола ота-онасининг сўзига кирса, айтганларидан чиқмаса, берган маслаҳатларини жон деб қабул қиласа, бундай бола улғайганида, албатта баҳтли бўлади.

### Одобли бола бўлиш қийинми?

Одобли бола ғоятда қадрли ва бебаҳодир. Хўш, одоб-ахлоқ ҳар бир боланинг кўрки ва бойлиги экан, бунга қандай қилиб эришиш мумкин? Бола одобли бўлиш учун кўп мاشаққат ва риёзат чекиши шарт эмас. Одобли бола бўлиш учун ҳамма мақталган сифатларни ўзига сингдириб, ахлоқ қоидаларига амал қилиш керак. Шунда боланинг билим олиши ҳам, хулқи ҳам жойида бўлади. Одоб бор жойда билим олиш ҳам осон ва баракали бўлади. Чунки одобли боланинг ҳар бир ишида тартиб ва самара бўлади.

## ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА ОНАНИНГ ЎРНИ

Утаева Жулдыз Нуралиевна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар  
3-сонли “Буратино” номли ДМТТ тарбиячиси

### “Уч тофа она”

**Биринчи тоифа** - болажонларга кийим ёки ўйинчок сотиб олса. “Айтчи. Болам. Бугун сенга нима олиб келдим?” дейди ва бола қалбини ўзига боғлади, ва ўзига йўналтиракан.

**Иккинчи тоифа** – фарзандига нималар олганида, “Болам, бу нарсани мен олиб келдим, даданг ишлаб пул бердила соғ бўлсинлар ва шу нарсани ман олдимда” деб бола кўнглини отага боғлади ва отага йўналтиради.

Учинчи тоифа - боласига бир нарса олса, “Болажоним, буни сенга мен олиб келган бўлсамда, даданг пул берган бўлсаларда, буни сенга оллоҳ берди.” Дейди ва бола қалбини оллоҳга боғлади, йўналтиради.

**Биринчи она** – фақат Она

**Иккинчи** – вафоли Она

**Учинчи** – ақилли Она ва шу билан бирга ҳам муаллимдир дейди донишмандларимиз.

Фарзанд – инсон ҳаётининг мазмuni, насл-насабини давом эттирувчisi, оиланинг мустаҳкам занжиридир. Яхши, солих фарзанд – ота-онанинг баҳт-иқболи, икки дунё саодатига етказувчи дилбанди. Фарзандлар “жаннат райҳонлари” деб тавсифланиши бежиз эмас. Аммо у одобли, яхши фазилатлар соҳиби, итоаткор ва қобил бўлгандагина ота-онасига раҳмат ва баҳт-хурсандчилик келтиради. Оила ва солих фарзандлар кўришни орзу қилмаган инсон бўлмаса керак. Фарзанднинг яхши, одобли, меҳнатсевар, соғлом бўлиб ўсиши кўп жиҳатдан онасига боғлиқ бўлади. Шунинг учун динимиз кўрсатмаларида бўлгуси келинни танлашга алоҳида эътибор қилинади. Келажакда туғилажак фарзандларга муносиб она танлаш ҳақида фарзанд ҳали туғилмасидан қайғурилади.

Донишмандлар бола тарбиясига у ҳали ҳомила ҳолида эканидаёқ киришишни маслаҳат беришади. Бунга қандай эришиш мумкин? Бўлажак онанинг емиши ҳалол, пок бўлиши, у ҳамиша тоза, покиза юриши, туғилажак фарзанднинг келгусида яхши тарбияли, одобли, эътиқодли, чин инсон бўлиб камолга етишида катта фойдаси бор. Ҳатто замонавий тиббиёт ҳам она ҳомиладорлик чоғида кўпроқ қандай кайфиятда бўлса, буларнинг ҳаммаси болага ҳам кўчишини исботлаган. Масалан, ҳомиладорлик чоғида кўп асабийлашган, бошига бирор ғам, мусибат

тушган аёлларнинг фарзандлари инжик, серзарда, йиғлоқи бўлиб туғилиши кўп марта кузатилган.

Аёл учун энг шарафли жой – унинг уйи, оила даврасидир. Аёл учун оиланинг чароғбони, рўзгорнинг ишбошиси, фарзандлар тарбиячиси бўлишдан кўра фазилатли, иш йўқ.

Олимларнинг тадқиқотларига кўра, ўз онаси тарбиясини олган, унинг ғамхўрлиги, шафқатини ҳар қадамда ҳис этиб турган болалар бутунлай ўзларини жамоат ишига бахшида қилиб, фарзандларидан узилиб қолган оналарнинг болаларига қараганда соғлом, ақлли, тарбияли ва кўнгилчан бўлиб улғайишар экан. Онанинг бурчларидан яна бири фарзандга меҳрибонлик кўрсатиб, уни турли азият берадиган нарсалардан сақлаган ҳолда вақтида озиқлантириб, ювиб-тараб, тоза кийинтириб, шамоллаб қолишига йўл қўймай, уни парвариш қилишда эринчоқлик ёки дангасалик қилмай доимо ҳушёр ва ундан хабардор бўлишликдир.

Оналарнинг бошқа муҳим вазифаларидан бири фарзандларни ёшлиқ чоғларидан бошлаб илму маърифатга қизиқтириб, ўргатиб бориш лозим бўлади. илму фаннинг қайси соҳасига бўлса ҳам қизиқиш пайдо қилиб, ўқиб ўрганиб маълумот ҳосил қилган киши, албатта, ўзи, оиласи, халқи ва Ватани учун манфаат келтирадиган инсонлар қаторидан жой олади.

Фарзанд тарбиясидаги онанинг муҳим вазифаси – болаларимизни ёшлиқдан оиласи, маҳалласи, она Ватанига меҳр-муҳаббатли этиб тарбиялаш саналади. Зеро, уламоларимиз таъкидлашлариdek, “Ватанни севмоқ иймондандир”. Ватан она каби муқаддасдир.

Дарҳақиқат, фарзанд тарбияси борасида оилада онанинг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Фарзандга меҳр деган улуғ туйғуни онадан бошқа ҳеч ким бера олмайди.

Аёллар агар болаларига яхши тарбия бермасалар, уларга ўзини, миллатини, динини, Ватанини танитмасалар ва севдирмасалар, оналик ҳақини адо этмаган бўлишади.

Баъзан оналар учун бола тарбияси жамият ва рўзгор юмушлари олдида эътиборсиз нарса бўлиб қолмоқда. Агар аёллар болаларига яхши тарбия бермасалар, уларга ўзини, миллатини, динини, Ватанини танитмасалар ва севдирмасалар, оналик ҳақини адо этмаган бўлишади. Оилада фарзанд тарбиясида аёл кишининг ўрни деганда фахр билан айтамизки, бугунги кунда аёлларимиз оиланинг соғлом иқлимли, оила бағрида фарзандларини эл-юртнинг муносиб ўғил-қизлари, Ватанининг ҳақиқий содик фуқароси бўлиб вояга етишларида онанинг роли бекиёсдир.

## БОЛА ТАРБИЯСИДАГИ ЭНГ МУҲИМ МЕЗОНЛАР

Шарипова Зарифа Кунузоковна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар МТБга қарашли  
“Буратино” номли 3-сон МТТ тарбиячиси

*Бола тарбияси мавзуси — бепоён, серқирра, чексиз ва умуман оддий одамлар қабул қилиши мушкул масала. Ҳар йили дунё бўйича болалар тарбиясига бағишиланган тонналаб китоб ва рисолалар чоп этилади, бироқ юз йил муқаддам бўлгани каби аксарият ота-оналар гапга кирмайдиган болалар муаммосига дуч келаверишиади. Ана шу ота-оналарга муаммоларни ҳал этишида қўйидаги мезонлар асқатади.*

**1. Болани яхши ҳулқи учун доимо мақтанг.** Афсуски, аксарият ота-оналар болани ёмон иши учун жазолашади-ю, яхши ишига келганда шунга мажбур деб ҳисоблашади. Аслида бола ўз хатти-ҳаракатларини энди тўғрилай бошлаган бўлади, «яхши» ва «ёмон» баҳо ҳали у учун бегона. Шунда у яқинларининг баҳосига қараб иш тутишга ҳаракат қиласида. Яхши ҳулқи ва гапга кирганлиги учун мақтанг, рағбатлантиринг, шунда у айнан сиз хоҳлагандек иш тутишга жон-жаҳди билан интилади.

**2. Агар гўдак инжиқлик қилса ва ўзини яхши тутмаса — уни шахс сифатида айбламанг!** Фақат муайян вазиятдаги хатти-ҳаракати учун айбланг. Масалан: ўғилчангиз болалар майдончасида ўзини ёмон тутди — бошқаларни турткиласи, хафа қилди, уларнинг ўйинчоқларини олиб қўйди дейлик. Катталар кўпинча: «Сен ёмон боласан, сен қизғанчиқсан!» дейишга одатланишган. Мана шу ҳолат болани шахс сифатида айблашга яққол мисол бўла олади. Агар бундай айбловлар тизимли равишда такрорланаверса — болакай чиндан ҳам ёмонга айланади. Унга тўғри танбеҳ беринг: «Сен нега ўзингни ёмон тутяпсан? Нега бошқаларни турткиласи, хафа қиляпсан? Фақат ёмон болалар бошқаларни ранжитади, ахир сен яхши боласан-ку! Сен эса бугун ўзингни ёмон болалардек тутяпсан — сени жазолашимга тўғри келади...». Шунда бола аслида ўзи яхши эканлигини, уни яхши кўришларини ва ҳурмат қилишларини, фақат унинг бугунги ҳулқи — нотўғри эканлигини англаш етади.

3. Фарзандингизнинг ёши ва ривожланишини ҳамиша ҳисобга олинг.
4. Болага қўяётган талаблар оқилона бўлсин.

**5. Ёмон ҳулқи учун вақтида жазолаш лозим (3 ёшли болани эрталаб овқатни тўкиб қўйгани учун кечки мультфильмдан мосуво қилманг — кичкинтой хато билан жазонинг боғлиқлигини тушуниб етмаслиги мумкин).**

6. Болани жазолаётганда ўзингиз хотиржам бўлишингиз керак.
7. Бола билан гаплашаётганда (айниқса, у қулоқ солмагандан, хархаша ва инжиқлик қилгандан, сиз эса жаҳлингиз чиқиб, хафа бўлган вазиятларда) доимо муомалангизга эътибор беринг — сиз билан бундай оҳангда гаплашишларини ахир ўзингиз ҳам хоҳламасангиз керак.
8. Бола сизни тушунаётганига ҳамиша ишонч ҳосил қилишингиз керак.
9. Нима тўғри-ю, нима нотўғрилигига ўз мисолингизда ўрнак бўлсангиз, яхшироқ самара беради. Бошқача қилиб айтганда, «Менинг айтганимни бажар»дан кўра «Мен каби бажар» болани самаралироқ тарбиялайди. Улар сиздан ибрат олсин, унумтманг, қуш уясида кўрганини қиласди.
10. Ота-она, яъни катта одам сифатида ҳамиша қарорларингизни қайтадан кўриб чиқишига тайёр бўлинг. Айниқса, бу 10 ёшли ва ундан катта болаларнинг ота-оналарига тааллукли. Бу ёшда бола музокарага кириша олади, далил ва исботлар келтиришга қодир бўлади. У хулосани доимо сиз чиқаришингизни, лекин уни тинглашга тайёрлигингизни ва муайян вазиятларда ўз фикрингизни фарзандингиз фойдасига ўзгартира олишингизни тушуниши даркор.
11. Боланинг хатти-ҳаракатлари (айниқса, бу ёмон ишлар бўлса) қандай натижаларга олиб келишини тушунтиришга ҳаракат қилинг. Агар гўдак каравотчасидан ўйинчоқларини отса — уларни олиб берманг: шунда миттивой унинг бу хатти-ҳаракати ўйинчоқлардан жудо қилишини тезда англаб етади. Каттароқ ёшдаги болалар билан жиддийроқ вазиятларда шунчаки гаплашиб олса бўлади.

### Ота-оналарга маслаҳатлар

Қайси тарбиялаш усулини танлаш ўз ихтиёригизда. Биз шунчаки оиласда илиқ муносабатларни сақлашга ёрдам берадиган маслаҳатларни бериб ўтмоқчимиз:

1. Қандай назорат қилишни ўзингиз ҳал этинг. Жараёнга комплекс тарзда ёндашинг: болага назорат ҳақиқатан зарурлигини ва буни унга зарар етказиб қўймаган ҳолда қандай бажариш тўғрисида ўйлаб кўринг.
2. Болани ўз қолипингизга солишга уринманг, барча хатти-ҳаракатларингизни у билан гаплашиб олинг. Шундай йўл тутингки, бола бирор қарор қабул қилаётганда сиз томондан ҳеч қандай босимни ҳис этмасин. Қабул қилган қарори учун мустақил жавоб беришига имкон яратинг. Натижада унинг сизга бўлган ишончи ортади, воқеа-ходисалардан боҳабар қилиб туради. Сиз эса ўз навбатида ўзингизни назорат қила бошлайсиз.

3. Ота, она ва фарзанд ўртасида ўзаро ишонч бўлиши ниҳоятда муҳим. Бола ўз хатолари, кечинмалари ва муаммолари ҳакида гапиришдан чўчимаслиги зарур. Унинг ростлиги учун уришиш зинҳор тавсия этилмайди, хатто бу ростлик сизга умуман ёқмаса ҳам. Болага қилган хатолари учун қаттиқ танбеҳ беравериш

ярамайди, акс ҳолда у сизга умуман ишонмай қўяди. Яхшиси, у нимада ноҳақ эканлигини жаҳлсиз, бамайлихотир гаплашиб олишга ҳаракат қилинг. Унинг ишончини бир марта йўқотсангиз, яна қайтариш осон кечмайди. Негаки, бола билан муносабатларда устунлик қилиш бу ҳали унинг дўстига айланишини англаатмайди.

### БОЛАЛАР ВА ЁШЛАРНИНГ ОИЛАДАГИ ТАРБИЯСИ

*Ширинова Нафиса Мамашариповна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар мактабгача таълим бўлимига қарашли  
“Кўзмунчоқ” номли 5-сонли ДМТТ тарбиячиси*

Фарзанд тарбиясини качондан бошламок керак?, деган саволга Ибн Сино бобомиз “Бола тарбияси билан унинг тугилишидан аввалрок, она корнидан бошлабок шуғулланиш лозим”, деб жавоб берган.

Ҳар бир ҳаракатларимиз замирида фарзандларимизни бахту-икболи, фаровон келажаги максад килиб куйилган. Фарзанд-оилада улғаяди, камол топади.

Оила–Ватан ичра бир мўжаз Ватан. Мухтарам Президентимиз таъкидлаганларидек, “Авлодлар давомийлигини таъминлайдиган маънавият кўрғони бу – оиладир”. Бугунги кунда барчамизнинг наинки асосий вазифамиз, балки инсоний бурчимиш баркамол авлодни тарбиялашдир. Шу боис ҳам мамлакатимизда барча хайрли ишлар аввало оилаларни мустаҳкамлаш ва ёш авлоднинг ёруғ келажагини таъминлаш мақсадида амалга оширилмоқда. Зоро, оила соғлом экан, жамият мустаҳкам, жамият мустаҳкам экан, мамлакат барқарордир. Болалар тарбиясига нафақат оила, таълим-тарбия муассасалари балки маҳалла ҳам маъсулдир. Чунки, фарзанд тарбияси кўп омилларга, аввало, ахлоқий-маънавий мухитга ҳам боғлиқ. Таълим-тарбия муассасалари билан оила ҳамкорлиги бунда мухим аҳамиятга эга. Она юртига муҳаббатни шакллантириш, маърифатли ва маънавиятли шахс сифатида вояга етишларини таъминлаш, болаларнинг маънавий баркамол ва жисмонан соғлом бўлишлари учун иқтисодий ва ижтимоий мухитни яратиш ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиздир.

Афсуски, фарзандлари таълим-таърбиясига вақтида етарли даражада эътибор бермаган баъзи ота-оналарнинг ҳатоси баъзида қимматга тушмоқда. Зоро, тарбия -шахснинг маънавий ва ақлий қиёфасини, ҳаттоки бутун тақдирини белгиловчи омилдир. Улуғ мутафаккир Абдулла Авлонийнинг “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ” китобида “Аллоҳ таоло инсонларни асл хилқатда истеъодод ва

қобилиятли, яхши билан ёмонни, фойда билан заарни, оқ билан қорани ажратадиган қилиб яратган. Лекин инсондаги бу қобилиятни камолга етказиш – тарбия билан бўлур” - дейилган. Фарзандга тўғри тарбия бериш эса оиласдан бошланади. Оиласда фарзандларнинг ҳар томонлама камол топиши учун маънавий-ахлоқий шароитлар яратилсагина муваффақиятларга эришилади.

Ҳар бир ота-она фарзанд тарбиясида ўзларининг бурч ва маъсулиятларини чуқур англашлари лозим. Шундай экан, оиласда руҳий хотиржамлик, самимий муносабат, ота-она обрўсининг юқори бўлиши, болаларга талаб қўйишида оила катталари ўртасидаги бирликнинг сақланиши, бола шахсини меҳнатга тарбиялашга алоҳида эътибор бериш, болани севиш ва иззатини жойига қўйиш, оиласда қатъий режим ва кун тартибини ўрнатиш, боланинг ёш ва шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш, боладаги ўзгаришларни кузатиб бориш, ундаги мустақилликка интилиш ва ташаббускорлик сифатларини қўллаб-қувватлаш ота-оналарнинг педагогик билимларга эга эканлигини кўрсатади.

Оила, одоб-ахлок ва таълим-тарбияга эътибор кон-конимизга сингиб кетган бурчларимизданdir. “Бир болага етти кушни ота-она” деган ибратли макол хам айнан халкимизга хос. Мана шу мақолнинг ўзи ҳам фарзанд тарбияси, оиласпарварлик биз учун нечоғлик муҳим эканини билдиради.

### **Болани тўғри тарбиялаш учун фойдали маслаҳатлар:**

1. Боланинг очиқ рост гапиришга ўргатинг. Бунинг учун болангиз билан дўст бўлинг.
2. Болага бақирманг, унга салбий таъсир қилиб қўйасиз.
3. Боланинг фикрига қулоқ солинг, унга жим бўлиб туришини такитламанг. Оқибатда бола психикаси бузилиши мумкин.
4. Болангиз тушкун ахволда бўлса, сиз унга жиддий муносабатда бўлинг, салбий хис-туйгуларини чикириши керак, акс ҳолда унга юқ бўлади.
5. Болангиздан нимага сиқилаётганини сўранг ва биргаликда ечим топинг.
6. Болага ёмон баҳога ўқийсан-Сен кўча супурувчи бўласан! деб асло айтманг бу болага ёмон таъсир қиласин.
7. Болани ўзи ёқтиргмаган спорт, тўгаракка қатнашишига мажбурламанг. Бу ишингиз билан бола келажагига салбий таъсир қиласин.
8. Болага китоб, ўйинчоқ, турли нарсалар совға қилинг. Лекин совғани ўзи танласин.
9. Болангизга кундалик жадвал белгиланг ва унга риоя килишга ўргатинг.
10. Болангиз нима деса, ҳаммасига хўп дейверсангиз, уни баҳтсиз қилиб қўйасиз.

## **ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O`STIRISH USULLARI**

*Setimova Saida Samandarovna  
Xorazm viloyati Xonqa tumani 35 – maktab  
boshlanchich sinf o`qituvchisi*

Yosh avlodning har tomonlama yetuk bilimli, yuksak ma`naviyatli, barkamol vatanparvar shaxslar bo`lib yetishishini ta`minlash yo`lida amalga oshirilayotgan ulkan buniyodkorlik ishlarining eng asosiy bo`g`ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishslash bo`yicha yuksak mahoratga ega bo`lishlarini ta`minlash yuzasidan zarur chora - tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Bu masalaga davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillardan boshab jiddiy e`tibor berib kelinmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta`lim tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar ,rivojlangan huquqiy davlat qurilishi jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bolalarimizni birovchlarning qo`liga berib qo`ymasdan , ularni o`zimiz tarbiyalashimiz lozim.Buning uchun yoshlarimiz bilan ko`proq gaplashish, ularning qalbiga qulqoq solish, dardini bilish, muammolarni yechish uchun amaliy ko`mak berishimiz lozim” , deb ta`kidlaganlarida o`quv –tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi, o`quvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishi nazarda tutilganligini aytish mumkin.

Zamonaviy texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar o`quvchilarni bilimli, hamda yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib , uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol – o`zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat , muloqot tartibida bo`lishni anglatadi.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishda qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay , qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga ershishdir.

Dars jarayonida bir nechta metodlardan o`rinli foydalanish darsning samaradorligini oshiradi,o`quvchilarni faollashtiradi.Ta`lim metodlari va shakli sinfdan sinfga o`tgan sari oddiyidan murakkabga qarab rivojlantirib boriladi.Quiyi sinflarda ko`proq rasmlar, narsa – buyumlardan foydalanish, slaydlar, audio va videolavhalardan foydalanish, darslarda ta`limiy o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Biroq ulardan o`quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish lozim.Ta`limiy o`yinlarni qo`llashda me`yorni bilish kerak.Ularni haddan

ziyod ko`paytirish ko`paytirib yuborish o`quvchilarni dars maqsadidan chetlashtirib qo`yishi mumkin.

Ona tili darslarida Grammatik jadvallar, test,rasmlar ,muhokamali topshiriqlar, har xil mantiqiy vaziyatlar,boshqotirmalar, yozuvchi va shoirlarning hayoti, ijodi, ularning boy madaniy merosini tushuntirish uchun multimedia vositalaridan , videoroliklardan , elektron darsliklardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ona tili darslaridagi ta`limiy maqsadda o`quvchilar bir – biriga uzviy bog`liq bo`lgan til tushunchalari, qoidalari va ta`riflar haqida bilim oladi, tarbiyalovchi maqsadda o`quvchilar bilim egallash jarayonida , ularni o`rab turgan atrof-muhitga , odamlarga, voqealarga va dunyoga nisbatan munosabati shakllanadi,rivojlantiruvchi maqsadda esa olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu o`rinda o`qituvchi bilan o`quvchining , o`quvchi bilan sinfdoshlarining munosabatida do`stona muhit ahamiyatlidir.Chunki dars - bola hayotining bir qismidir.U chegaralab qo`yilgan bo`lmasligi kerak.Ona tili darslarini o`qituvchilar shunday tashkil qilsinlarki, unda kashfiyotlar ro`y bersin, haqiqatlar tug`ilsin, cho`qqilar zabit etilsin, izlanishlar davom qilsin.Shundagina, qiziquvchan, erkin ijod qilishga qodir, barkamol shaxsni shakllantirish mumkin.

Ma`lumki didaktika , pedagogikaning bir bo`limi bo`lib, ta`lim – tarbiyaning umumiyl metodlarini ifodalaydi.U predmetni o`rgatish, o`rganish hamda ta`lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-biri bilan uzviy aloqada bo`lib, ulardan birortasini e`tibordan chetda qoldirmaslik mumkin emas.

Ishni o`rganish yoki o`rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani o`rganmoqchimiz yoki o`rgatmoqchimiz degan savol tug`iladi.

O`rganish ham, o`rgatish ham oxirgi natijasi ham ta`lim mazmuniga bog`liq.Har xil mazmundagi matnlarni o`ziga xos usullar bilan o`zlashtirish qabul qiluvchi uchun o`rgatishning qanday bo`lishi va uning mazmunidan kelib chiqadi, bu esa o`rganishni tashkil etuvchi, ya`ni o`rgatuvchiga bog`liq.

O`qituvchi o`quvchilarni faollashtiradigan, o`zi va o`rganuvchi uchun qulay bo`lgan yo`llarni, usul va uslublarni o`qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib o`quv jarayoni samaradorligiga erishadi.

O`quvchilarni darsga qiziqtirishda didaktik o`yinlarning ahamiyati beqiyosdir.Didaktik o`yinlarni ta`limiy o`yinlar deb ham aytish mumkin.Har bir didaktik o`yining o`ziga xos maqsadi bo`ladi.Namuna sifatida “Bingo” o`yinini keltiramiz:

**Ona tili fani uchun “Bingo” o`yini.**

**Topshiriq:**Katakchadagi so`zlarning har biriga qaysi so`z turkumiga tegishli ekanligini yozib,so`ngra ismingizni ham yozib qo`ying.

## Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари

Chizg`ich	O`qidi	beshta	yaxshi
yugurdi	bola	quyosh	aziz
sakkizinchi	mayin	bolalar	sakradi
shamol	salqin	o`n	mahalla
(O`quvchining ismi yoziladi).			

“Bingo” o`yinining maqsadi: O`quvchilar o`yin asosida o`tilgan mavzularni takrorlaydilar,bir – biriga yordam berish ko`nikmasi shakllanadi.

“Bingo” o`yinini o`tkazish qoidalari:

- 1.Har bir o`quvchiga “Bingo” o`yinining tarqatmasi tarqatiladi.(Hamma o`quvchiga bir xil tarqatma beriladi.)
- 2.Tarqatmada o`quvchi bajarishi lozim bo`lgan topshiriq aniq yoziladi.
- 3.Doskada topshiriqni bajarish uchun belgilangan vaqt yozilgan bo`ladi.
- 4.O`qituvchi kataklarning sonini o`quvchilar sonidan kelib chiqqan holda o`zgartirishi mumkin.
- 5.O`quvchi belgilangan vaqt mobaynida o`zining tarqatmasi bilan ixtiyoriy boshqa bir o`quvchining oldiga borib bir kataknini to`ldirishni iltimos qiladi.Uning tarqatmasiga qaysi o`quvchi yozsa, uning o`zi ham shu o`quvchining tarqatmasidagi ixtiyoriy bir katakdagi topshiriqni bajaradi.(Shu tariqa “Bingo” o`yinining tarqatmasida nechta katak bo`lsa, shuncha o`quvchining yoniga boradi.O`quvchining o`zi tarqatmasiga yozmaydi.O`quvchilar sinf bo`ylab harakat qiladilar.Bu jarayonni xuddi tovar ayriboshlashga qiyo slash mumkin.Chunki “Bingo” o`yinida o`quvchilar topshiriq bajarishni ayriboshlaydilar.

Masalan:bir vaqtning o`zida Nigora Sayyoraning tarqatmasidagi bir katakga javob yozadi, shu vaqtning o`zida Sayyora Nigoraning tarqatmasidagi ixtiyoriy bir katakdagi topshiriqni bajarishi mumkin.Agar o`quvchilar soni ko`p bo`lib,noqulayliklar tug`ilsa, unda “Bingo” o`yinini o`quvchilarni guruhlarga bo`lib o`tkazish mumkin.

- 6.Berilgan vaqt o`z nihoyasiga yetgach, o`yin yakunlanadi.(Ba`zi o`quvchilar ishi yakunlanmagan bo`lsa ham.)
- 7.Topshiriq yakunida o`qituvchi o`quvchilarning yordami bilan berilgan topshiriq qay darajada bajarilganligini aniqlaydi.Ya`ni , yuqorida ko`rsatilgan ona tili fani uchun berilgan namunaviy tarqatma asosida tahlil qilamiz.

Namuna: o`qituvchining savoli ,birinchi katakdagi “chizg`ich” so`ziga nima deb yozdingiz?

Ixtiyoriy bir o`quvchi javob beradi.Masalan, Nigora degan o`quvchi ,uning tarqatmasiga Surayyo ot so`z turkumi deb yozibdi – degan javobni beradi.(Bu to`g`ri javob,lekin o`qituvchi darhol “to`g`ri”,yoki “noto`g`ri” javob deb aytmaydi.)

O`qituvchi tahlil qilishni davom ettiradi, hammaning tarqatmasiga ot so`z turkumi deb yozilganmi?Shunda agar boshqa o`quvchining tarqatmasida boshqacha yozilgan bo`lsa darhol aytadi, mening tarqatmamda Mushtariy sifat so`z turkumi deb yozibdi.O`qituvchi xato yozgan o`quvchini uyaltirmagan holda ,soz turkumining qoidasi,uning savolini o`quvchilar bilan hamkorlikda takrorlab oladilar.Shu tariqa barcha katakdagi topshiriqlarni o`quvchilar yordamida tekshirib oladi.”Bingo” o`yinining ta`limiy ahamiyati ana shu 7 – bandda o`z ifodasini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.”Nutq o`sirish usullari”. A .G`ulomov
- 2.”Til va adabiyot ta`limi” jurnali , 2018 5 – son.
- 3.”Ta`lim to`g`risida”gi va “Davlat tili haqidagi “ qonunlari.
- 4.Innovatsion metodlar qo`llangan dars namunalari.
- 5.”Xalq ta`limi “ jurnali 2018 yil, 4 – son.

---

## **O`SMIRLAR XULQI BILAN STRESSLI VAZIYATLAR O`RTASIDA MUNOSABATLARNI EMPERIK O`RGANISH**

*magistranti,*

*Mirzayeva Sayyora Rustamovna  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
Psixologiya kafedrasi o`qituvchisi, p.f.b.f.d (PhD)*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda jahon psixologiyasi fani o`zini o`zi boshqarish va takomillashtirish, o`zini o`zi qo`lga olish, o`ziga o`zi buyruq berish, o`zini o`zi tarbiyalash bo`yicha boy materiallar to`plagan, bu esa o`z navbatida inson munosabati, maqsadi, holati, kechinmalari o`zgarishi va yangidan yaralishi haqida ilmiy-tatbiqiy ma'lumotlar beradi, kundalik turmush psixologiyasi rang-barangligini ta'minlab turadi. Ushbu maqolada o`smirlar xulqi bilan stressli vaziyatlar o`rtasida munosabatlarni emperik o`rganish to`g`risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi qo'lga olish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'smirlar xulqi, stressli vaziyat, emperik, fiziologik stress, psixologik stress.

Kanadalik fiziolog olim G. Sele stressni ikki turga ajratadi: fiziologik (eustress) va psixologik (distress).

**Fiziologik stresslar (eustresslar “foydali stresslar”)** me'yordan ortiq jismoniy zo'riqish, baland yoki past harorat, og'riq va shunga o'xshashlar sabab bo'ladi [1. 5-b].

**Psixologik stresslar (distresslar “zararli stresslar”)** xavf-xatar hissi, tahdid, qo'rquv, vahima, nizo, qo'yilgan jangovar vazifa yuzasidan axborotning yo'qligi yoki juda ko'pligi, komandir (boshliq)ning nizomga zid xatti-harakati keltirib chiqarishi mumkin.

Ko'pincha stress xolatlariga qarshi tura olishimiz aniq bir xolatga va unga shaxsan qarshi tura olishimizga bog'liq. Distress xolati kutulmaganda ma'lum bir vaziyat ta'sirida ro'y beradi, lekin ko'pgina xollarda ushbu xolat ortib (kuchayib) boradi: boshlanishida organizmning kurashuvchanligi susayadi, keyin esa asta-sekinlik bilan so'nib boradi, natijada eustress distressga aylanadi.

Distress ko'pincha uzoq muddatli stressga ta'luqli, bunda ham “yuzadagi” va chuqur moslashuvchi zahiralar safarbar etiladi va sarflanadi. Bunday stress somatik (tanadagi) yoki psixik kasallikka (nevroz, psixoz) o'tishi mumkin.

Psixologik stress o'z navbatida informatsion va emotsional stress turlariga ajratiladi.

*Informatsion stress* - insonda haddan tashqari axborotlarni ko'p qabul qilish, inson oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishda bir qancha echimlar bo'lganda va ulardan qaysi birini tanlash, yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishda ikkilanadi. Bu holat inson psixologiyasini qattiq zo'riqishga olib keladi.

Axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilinishi oqibatida inson psixikasi zo'riqadi (charchaydi) va buyrak usti bezlaridan stressli garmonlar ko'p ishlab chiqila boshlaydi. Haddan tashqari zo'riqish natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va faqatgina tanglik holatiga olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni, tashqi ta'sirni qabul qila olmay qoladi. Bu ba'zi hollarda salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Miyada stressga olib kelgan axborot tormozlanib, saqlanib qolib tanglik holatini yuqori nuqtasiga chiqqanida inson tanglik holatidan chiqolmay qoladi va bu o'z joniga qasd qilish holatigacha olib kelishi mumkin.

Emotsional stress - ta'qiq qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar (oilaviy mojoralar, to'satdan ishdan bo'shatish, yaqin kishisini yo'qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik) xavfi ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto'g'ri munosabat qilinganda va hokazolarda ifodalanadi [2. 12-b].

K. Izardning fikriga qaraganda, «asosiy hissiyotlar»ni alohida ajratib ko’rsatish mumkin bo’lib, bular:

***Qiziqish*** - (emotsiya tarzida) - malaka va ko’nikmalarning rivojlanishiga, ta’lim olishga moyilllik tug’diradigan bilimlarni egallashga yordam beradigan ijobiy hissiy xolatdir;

***Quvonch*** - xali qondirilishi mumkin bo’lmagan yoki har xolda qondirilishi noaniq bo’lgan dolzarb ehtiyojning etarli darajada to’la qondirilgan bo’lishi mumkinligi bilan bog’liq ijobiy hissiy xolat;

***Xayratlanish*** - to’satdan ro’y bergan xolatlardan hissiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan belgisi bo’lib, xayratlanish diqqat-e’tiborni o’ziga tortgan ob’ektga qaratilgan xolda barcha oldingi hissiyotlarni tormozlantirib, qiziqish tusini olishi mumkin;

***Iztirob chekish*** - hozirga qadar qondirilishi ehtimoli ozmi-ko’pmi darajada mavjud deb tasavvur qilib kelingan hayotiy muhim ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi haqida aniq yoki shunday tuyulgan axborot olinishi bilan bog’liq salbiy hissiy xolat bo’lib, u ko’pincha hissiy zo’riqish (stress) shaklida boshdan kechiriladi. Iztirob chekish **astenik** hissiyotlar (kishini bo’shashtiradigan) tusida bo’ladi.

***G’azablanish*** - odatda affekt tarzida kechadigan va sub’ekt uchun g’oyat muhim ehtiyojni qondirish borasida jiddiy tusiq paydo bo’lgani oqibatida kelib chiqadigan, ifodalanishiga ko’ra salbiy tarzdagi hissiy xolatdir. Iztirob chekishdan farqli o’laroq, g’azablanish stenik tusda bo’ladi (ya’ni, garchand, qisqa muddatli bo’lsa ham, hayotiy kuch-g’ayratlarni oshirib yuboradi).

***Nafratlanish*** - ob’ektlar (narsalar, odamlar, xolatlar va boshqalar) ga yaqinlashish, qo’rquv, uyalish kabi hissiy xolatlarga ham alohida to’xtalib o’tadi;

***Jirkanish*** - shaxslararo munosabatlarda ruy beradigan va sub’ektning hayotiy nuktai nazari, karashlari va xulk-atvoriga nomutanosibligi okibatida hosil buladigan salbiy hissiy holatdir;

***Qo’rquv*** - sub’ekt uzining xotirjam hayot kechirishiga ziyon etishi mumkinligi hakida, unga real tarzda tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bulgan xavf-xatar hakidagi xabarni olishi bilan paydo buladigan salbiy hissiy holatdir. Qurkuv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bulishi mumkin, yoxud hissiy zurikishlar tarzida, yoxud ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va xavotirlangan tarzda, yoxud affektiv holatga tushgan tarzda (dahshatli kurkuv hissiyotning eng sunggi turidir) kechishi mumkin;

***Uyalish*** - uzining niyat maksadlari, hatti-harakatlari va tashki kiyofasi fakat tevarak -atrofidagilar tomonidan kutilganiga mos kelmaganligini emas, balki uziga loyik xulk-atvor va tashki kiyofa hakidagi shaxsiy tasavvurlarga ham mos kelmayotganligini anglab etishida ifodalangan salbiy holatdir [3. 432-b].

Stress inson organizmini bosim, kuchlanish, tanglik holatlarida haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir. U yuzaga kelishi va kechishi jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. U ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

- konstruktiv («biz» turidagi - ko'pchilik orasida), ya'ni jamoa yoki guruhda yuzaga kelgan biron bir voqeа yo hodisaning ta'siri asosida yuzaga keladigan psixologik holat.
- destruktiv («men» turidagi - yakka shaxs o'zi kechiradigan jarayon). Stessli holatni bevosita ishtirokchisi yo guvohi bo'lган shaxsda kechadigan holat.

Stress holatini oddiy qilib insonlarda kechadigan tushkunlik holati deb aytish mumkin [2. 9-b].

irgi kunda mutaxasislar stress xolatlarini kelib chiqishiga ijtimoiy muxitni ta'siri to'g'riisda o'zlarining fikrlarini bildirishmoqda. Keyingi paytlarda streslarni qo'yidagi turlari ko'p tilga olinmoqda:

***Ichki shaxsiy stress.*** Ushbu xolati kutilgan natijalarga erisholmaslik, amalga oshmagan extiyojlar, tushunmovchilik va maqsadsiz xarakatlar, og'riqli xotiralar, voqealarga xaqqoniy baxo bermaslik natijasida va boshqa xolatlarda yuzaga keladi.

***Ishdagи stress.*** Odatda og'ir mexnat faoliyati bilan bog'liq, ishdagi natijalarga nazoratni yo'qligi, bajaradigan ishlarni aniq belgilanmaganligi va ish taqsimlashdagi noroziliklar. Ishda xavfsizlikni yaxshi ta'minlanmaganligi, mexnat faolyatiga to'g'ri baxo bermaslik, ishni noto'g'ri tashkil etish stress xolatini keltirib chiqarishi mumkin.

***Ijtimoiy stress.*** Katta guruxdagi odamlar boshdan kechiradigan muammo sirasiga kiradi, bunga misol iqtisodiy inqiroz, kambag'allik, ajratib qo'yish va taxqirlashlar.

***Ekologik stress.*** Atrof muxitning turli ekstremal sharoitlarida yuzaga keladi, xavo va suvni ifloslanishi, og'ir ob-havo sharoitlari, yaxshilikni ravo ko'rmaydigan qo'shnilar, tifilinch, baland shovqinlar va shunga o'xhash oqibatlarni kutish yoki uning oqibatlari va boshqalar sabab bo'lishi mumkin.

***Moliyaviy stress.*** Qilingan xarajatlarni daromadlar bilan qoplashni iloji yo'qligi, qarzdorlikni to'lash yoki uni olishdagi muammolar,to'lanadigan oylik maosh ish xajmiga mos kelmasligi, moliyaviy kam ta'minlanganlik va boshqa sabbalar stressni keltirib chiqaruvchi omil bo'lishi mumkin [4].

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Селье Г. Стресс без дистресса. – М.: Прогресс, 1979. – 5 б.
2. Samarov R.S. Shaxs va stress. O'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent, 2004.12 б.
3. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология. Учеб. пособ. - СПб.: Питер, 2010. - 432 б.
4. <http://www.eurolab.ua>

## **PSIXOLOGIK XIZMATDA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR**

*Shorustamboyeva Shahnoza Ulugbekovna  
Yunusobod tumani 247-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Shaxs tarbiyasi. uning ijtimoiy-psixologik kamolati har qanday davlatning bosh strategik maqsadlaridan biridir. Chunki shaxsni ma'lum ezgu g'oyalar, ijtimoiy psixologik va yuksak intellektual shaxs sifatida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo'lmaydi.

**Kalit soʻzlar:** psixologik maslahat, shaxs, muloqot, autism, psixologik korreksiya, ahloq, suhbat.

Ayni dam maxsus maktab va maktab-internatlarda faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi psixologlarning faoliyatida o'quvchilar ruhiy holatlarini o'rganish, xulq atvoridagi o'g'ishlarini oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish, stress, nizo va ko'plab salbiy emotsiyonal kechinmalarining oldini olish ishlarini to'g'ri tashkil qilish psixologik xizmatning samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mana shunday muammoli holatlarni yo'qotishda esa psixologik xizmat sohasida mavjud bir qancha yo'nalishlar yordam beradi.

Shaxs shakllanishidagi inqirozli davrlarning o'quvchilar xulq-atvoriga ta'siri. Shaxsning shakllanishi dunamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho igarilashib ketsa. goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Ba'zan inqirozli davrlarni boshidan o'tkazayotganlar esa o'zlarini jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog'liq xotirjamlikni yo'qotib qo'yadilar. Ruhiy tushkunliklar natijasida o'z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar. xuddi shu bois.o'zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Mazkur holatlarni o'rganar ekanmiz. bunda barcha yondashuvlarga. tamoyillarga. yo'l-yo'riqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo'lish jarayoni. uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamdakechishining asosiy holatlarini chuqur tahlil qilish xulq-atvor rivojlanishining nazariy namunalarini tuzish va shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish. Psixokorreksion ruhiy tuzatish zarur hisoblanadi. Xulq-atvor psixologiyasida. jumladan jahon psixologiyasi fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Ko'p hollarda esa bu psixologik kategoriya sifatida qaraladi.

Inqirozli davrlar orasida o'smirlik davri o'zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o'smirlarni voyaga yetkazishnin o'ziga xos qonuniyatlari. xususiyatlari. imloniyatlari. xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va

vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O'smirlik davri taqlidchanligi. muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi. hissyotliligi. mardligi. tantililgi bilan farqlanadi. O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin va T.V.Dragunovlarning ta'kidlashicha. o'g'il-qizlarning bu davrda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi. tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi. O'smir o'quvchilarning to'g'ri va to'liq ta'lim va tarbiya olishi uchun oila va mакtabning o'rni beqiyosdir.

Muammoni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari. Mazkur muammoni bartaraf etishda quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud:

- Xulqida og'uvchanligi bo'lgan o'quvchilar. ularning sinf rahbarlari. ota-onalari bilan tizimli ishslash.
- Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.
- Maktab rahbariyati va jamoasi o'rtasidagi munosabatlarni kuzatish va turli muammoli vaziyatlarni oldini olish yuzasidan olib boriladigan tadbirlar o'tkazish.
- Psixologik profilaktika yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlarni maqsadli va uzlusiz olib boorish.
- Psixologik diagnostika yo'nalishi bo'yicha olilib boriladigan ishlar.
- Psixologik korreksiya yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar,
- Psixologik maslahat yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik pedagogik konsiliumlar va ularni o'tkazish tartibi.
- Voyaga yetmagan bolalarni o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishni amaliyatga muntazam joriy etish.

Sinfagi o'quvchilar sonining tobora ortib borishi. maktabga jiddiy his-hayajon tangliklari bilan keladigan o'quvchilar sonining ortib borayotganligi va bilim va axloq darajalari turlicha bo'lgan o'quvchilarlardan iborat sinflar bilan ishslashga to'g'ri kelayotgan bir vaqtda. o'qituvchilar talabalarni rag'batlantirish va boshqarishning samaradorligini oshirishga tobora ko'proq ehtiyoj sezishmoqda. Turli xil jismoniy va ruhiy nuqsonlari mavjud o'quvchilarni sinflarga qo'shish harakatining kuchayib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolari mavjud o'quvchilar sonining ko'payib borayotganligi va sinflarda ta'liim borasida muammolar mavjudligi o'quvchilar uchun psixologik muammo yaratishga sababchi bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz. kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak o'quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni. jumladan xulq-atvorida og'ishi borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Maktabda psixologik muammolari bor o'quvchilar bilan psixologik maslahat o'tkazish shartlari. Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o'zgarib

rivojlanib o‘zgarib boradi. bu esa individuallik. shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi.

Shuningdek. quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

•Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixolgik yo‘llarini aniqlash.

•O‘smitning ichki ruhiy holatini: maqsadi. hayotga munosabati. o‘z-o‘ziga ishonchi. irodaviy – hissiy o‘zini boshqarishni tahlil etib. shularga mos ravishda maslahat berish.

•Maqsadga erishishda o‘smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.

•Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o‘smir hayotidagi ijtimoiy. Shaxsiy vazifalarni hal etish.

•Ayniqsa, o‘smirlar bilan ishslashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish. maslahat berishda aaniq maqsad qo‘yish.

Qolaversa amaliyotchi psixolog psixologik maslahat berishdan tashqari o‘smirlar bilan reja asosida psixokorreksion mashg‘ulotlarni yakka va guruhlar asosida olib borishi kerak bo‘ladi. Maktablarda amaliyotchi psixologlar tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishslashda sinf rahbari ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha director o‘ribbosari. ota-onalar qo‘mitasi. mahalla fuqarolar yig‘ini. voyaga yetmagan yoshlardan ishslash inspektori. Yoshlar Ittifoqi. hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Psixologlar va pedagoglar tomonidan dezadaptatsiyalangan xulqning oldini olishga qaratilgan bir qator tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Ularning keltirgan tavsiyalariga ko‘ra. sinf jamoasi a‘zolarida sog‘lom psixologik munosabat hissini shakllantirish va bu jamoada tarbiyasi qiyin o‘smirlarga nisbatan ijobjiy va faol munosabat ruhini keltirish biz aytgan muammolarga barham berar ekan.

Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan. yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: Fikrlash. ishslash va yashash madaniyatiga ega bo‘lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerak!. O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari asosida sog‘lom. har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Afsuski. bugun maktablarimizdagi bir qancha o‘quvchi yoshlarni ruhiyatida. xulq-atvorida muammolar uchrab turibdi. Ularning kelib chiqish sabablarini esa biz yuqorida ko‘rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko‘plab salbiy holatlarga olib keladi. bu ham o‘ziga va o‘zgalarga qolaversa. Butun jamiyatga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun bu jarayonda mакtab amaliyotchi psixologi bir qator psixologik tadbirlar amalga oshirishi va mazkur o‘quvchilar bilan ko‘p suhbat uyushtirishi kerak. Shuning uchun biz ta‘kidlaganimizdek mакtab amaliyotchi psixologi psixologik xizmat

sohasidagi bir qator yo‘nalishlarini ishga solgan holda ruhiyatida buzilishlari bor o‘quvchilar bilan birga psixokorreksion ishlarni amalga oshirishi va mavjud muammolarni bartaraf etishi kerak bo‘ladi. Shuningdek. bu vazifalarni amalga oshirishda amaliyotchi psixolog bilan birgalikda sinf rahbari ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha director o‘rinbosari. ota-onalar qo‘mitasi. mahalla fuqarolar yig‘ini. voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori. Yoshlar Ittifoqi. hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Shundagina psixologik xizmatni to‘laligicha amalga oshirgan bo‘lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur. 2010. 150-b
2. Mahmudova D.A. Psixokorreksiya asoslari. – Toshkent. Fan va texnalogiya nashriyoti. 2011. 128-b
3. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU, 2006. 128-b

---

## **O’SMIRLARDA KUZATILADIGAN SUITSID SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH USUSLLARI**

*Dovidova Gulnoz Mirzakarimovna  
Farg`ona imkoniyati cheklangan kasb-xunar maktabi o`qituvchi*

**Annotatsiya:** Maqolada suitsidning turlari, bosqichlari va psixogik sabablari ko’rsatib o’tilgan. Shu bilan birga suitsidni oldini olish, motivlarini aniqlashga doir ota-onalar, tarbiyachi va o’qituvchi pedagoglarga muhim tavsiyalar berilgan.

**Kalit so’zlar.** Suitsident, suitsidal xulq-atvor, stress, affektiv suitsid, namoyishkorona suitsid, tug’ma instink, psixofiziologik jarayon.

Barchamizga ma’lumki, dunyo mamlakatlari jadallik bilan rivojlanayotgan bo’lsa ham, bir qancha global muammolar haligacha o’z yechimini topgani yo’q. Shulardan biri esa suitsid-o’z joniga qasd qilish ko’p qirrali muammo bo’lib, u nafaqat psixolog, suitsidologlar, balki tibbiyot xodimlari, pedagog, psixiatr, sotsiologlarni ham birday o’ylantirib kelmoqda.

Suitsid so’zi lotin tilidan olingan bo’lib “sui” o’zini, “caedere”-o’ldirmoq, ya’ni o’z joniga qasd qilmoq demakdir. Suitsid sodir etishga moyil shaxslar “suitsidentlar” bo’lib, ular aniq va mavhum suitsidni sodir etadi. Ularning deyarli ko’pchiligi ruhan sog’lom odamlar bo’lib, bunday qilishlariga ko’proq turli depressiyalar, shaxsiy

hayotdagi va moliyaviy muammolar, jismoniy va ruhiy zo'rланishlar sabab qilib ko'rsatilmoqda.

Shaxsda o'z joniga qasd qilish, ko'pincha, atrofdagilardan vaqtida yordam kelmaganda sodir etiladi. Shuningdek, suitsidal urinish orqali o'g'il yoki qiz bola o'ziga e'tibor qaratishga urinadi. Ayniqsa o'smirlar orasida (10-14 yosh) bu holat ko'p kuzatiladi . Bunga sabab o'smirlik kechinmalarining murakkabligi (gormonal o'zgarishlar hisobidan) ularning bartaraf etish imkoniyatining yetarli emasligi (suitsident shunday o'ylaydi ) o'z joniga qasd qilish niyatini vujudga keltiradi. Bu davr (o'smirlikda) insonning o'zgalar ta'siriga tez va oson tushadigan, boshqalar diqqat-e'tiboriga sazovor bo'lishga intilayotgan, rejalar ko'p, chiroyli hayot kechirishga ehtiyoji tug'ilayotgan davri hamdir.

Seyr suitsidal harakati oldidan hissiyotlarni tahlil qilib o'z joniga qasd qilishning 4 ta asosiy sabablarini belgilagan:

- Yakkalanib qolish(hech kim seni tushunmaydi, sen bilan hech kimning ishi yo'qdek his qilish);
- Umidsizlik (kelajakdan hech qanday ma'no- mazmun va yordam kutmaslik);
- Ojizlik (hayotingni nazorat qila olmaysan, hammasi senga bog'liq emasdek his qilish);
- O'zini ahamiyatsizdek his etish(qadr-qimmati tahqirlangan, o'ziga past baho berish, biror masalani hal qila olmaslididan qayg'urish, o'zidan uyalish).

Mazkur sabablar chuqurroq o'rganilganda shaxsning oilada, o'qish joyida, mehnat jamoasida yetarli qadrlanmaganligi, qadr-qimmati, hurmat-izzati, g'ururi surunkali kamsitilishi, insonning muntazam ravishda tanqid va haqoratga duchor bo'lishi, kelajakka ishonchning pasayishi va eng muhimi kimdandir kutgan mehrini , e'tiborini ololmasligi suitsidga olib kelishi mumkin.

Suitsidentlarda o'z joniga qasd qilishning quyidagi belgilari kuzatiladi:

- ko'z yosh va affektiv holat(jazavaga tushish);
- munqli musiqalarni takror-takror eshitish;
- hayotga bo'lgan qiziqishning so'nishi va passivlik;
- uyquning buzilishi ;
- ishtahaning yo'qolishi;
- kelajak rejalarining mavhumligi, noaniqligi;

Suitsidni amalga oshirgan yoshlarning deyarli hammasida yaqindan dardlashadigan, ko'nglidagini eshitib, foydali hayotiy maslahat beradigan, qalbiga yaqin odami na oilasida, na o'qish joyida bo'lgan. Bu yoshlar orasida nafaqat suitsidal holatlarni, balki turli jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlarini ham ommalashib,

“yosharib” borishiga zamin yaratmoqda. Shu sabab ayni shu davrda ota-onan o’qituvchi va tarbiyachilardan ogohlik talab etadi. Buni quyidagi misol bilan izohlab o’tamiz.

Ma’lumki, ota ham, ona ham ko’chaga chiqqach, uyiga yo bo’lmasa farzandiga biron bir sovg’ a yoki kerakli narsasini olib kelishga harakat qiladi. Agar sovg’ a olsa, uyga kirgach, albatta bola uni ichida nima borligiga juda qiziqadi. Kutishini buyursangiz ham ayrimlari sabrsizlik qiladi va sovg’ ani ochadi. Bu jarayon bolangizga “Bu ishni qilma” deb ta’qiqlagan gaplaringiz unga xuddi shu “Sirli sovg’ a” bo’lib tuyilishining amaliy isbotidir.

Agar siz o’smir farzandingizda suitsidal xulq-atvor belgilarini sezayotgan bo’lsangiz, avvalo, buni uning o’ziga to’g’ridan to’g’ri aytmang. Bunda:

Birinchidan, bola bilan suhbatlashish, uning ahvoli bilan qiziqish, kelajak haqida gapirib, hamkorlikda rejalar tuzish darkor. Bolani qo’llab-quvvatlab, o’ziga, kelajagiga ishonchini shakllantirish zarur, o’z maqsadiga erisha olishiga umid berish kerak. Bolani hech qachon “qovog’i solig’ligida” va “farosatsizligida” ayblamaslik kerak Undan ko’ra, uning shaxsiy fazilatlarini yanada orttirib ko’rsatishga urinish zarur.

Ikkinchidan, bola bilan astoydil shug’illaning, yangilikka intiling, u bilan yangi mashg’ulotlar, avval qilmagan ishlarni birqalikda bajarishga urinib ko’ring, bola o’zining kerakligini, sizning mehringizni tuyishi zarur.

Uchinchidan, o’smir qat’iy kun tartibiga rioya qilishi lozim. Vaqtida dam olishi, yaxshi ovqatlanishi, harakatli mashqlarni bajarishga alohida e’tibor bering. Tushkunlik-psixofiziologik jarayon ekanligini unutmang, bunday vaziyatda o’smirning jismoniy holatiga e’tibor qarating.

To’rtinchidan, psixolog yoki psixoterapevt mutaxassisga murojaat qiling. “Insonning hayvondan farqi- insonning ongli zot ekanligi”, deymiz. Lekin buning zamirida qanday ma’no borligini to’la anglamoq juda muhim. Sababi: ongli zotgina o’z-o’ziga buyruq berib, o’z xarakter xususiyatlarini o’zgartira oladi, iroda tarbiyasi bilan shug’ullana oladi. Jamoa orasida”men”ligini unutmaydi, tug’ma instinklari asosida harakat qilmay, balki ijtimoiy munosabatlar tizimiga bo’ysungan holda faoliyat yuritadi. Ya’ni qobiliyatsiz, odobsiz bola tug’ilmaydi. Uni muhit, ya’ni biz va siz shu tarzda tarbiyalaymiz. Psixologiyadan, uning usullaridan foydalana olgan pedagoglar va ota-onalar ta’lim-tarbiya jarayonida salbiy holatlarni vujudga keltirmaydi. Demak, bolani muhit tarbiyalaydi, muhit ta’sirini esa, ko’p jihatdan, ota-onan belgilaydi:

- Agar bola ko’p tanqid qilinsa, u tergashni o’rganadi:
- Agar bolaga qarshilik ko’rsatilsa, u urushqoqlikka ko’nikadi:
- Agar bola ko’p mazax qilinsa, u o’ta tortinchoq bo’lib qoladi:
- Agar bola ko’p qo’llab-quvvatlansa, u o’zida ishonch hissini mustahkamlaydi:

- Agar bolani ko'p maqtashsa, u baholashni va taqqoslashni o'rghanadi:
- Agar bola bilan rostgo'y bo'lishsa, uadolatlilikka intiladi:
- Agar bola samimiylit va mehr muhitida tarbiyalansa, u bu dunyoda mehr-muhabbatni qadrlaydi.

Amerikalik tadqiqotchi M.Laynzen suitsidga moyilligi mavjud shaxslarni o'z joniga qasd qilishdan ushlab qoluvchi 6 ta sababini ko'rsatgan:

1. Muammolarni hal qilish zarurligiga ishonch ("O'zimni qanchalik yomon his qilmay, hali hammasini yo'qotmadim").
2. Bolalarga g'amxo'rlik (Katta yoshlilarda).
3. Oila oldidagi mas'uliyat ("Men oilamni tashlab ketishga haqqim yo'q").
4. Suitsid qo'rquvi ("Men o'lishdan qo'rqaman, agar o'lmay qolsam nogiron bo'lib qolishdan qo'rqaman").
5. Jamiyatdagi insonlar yuz o'girishidan qo'rquv ("Agar men o'zimni o'ldirsam, boshqalar kuchsiz va keraksiz deb o'ylashadi").
6. Ma'naviy va diniy qarashlar.

Suitsit ijtimoiy muammo bo'lgani sababli, uning oldini olish uchun bizning fikrimizcha quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1- Oiladagi psixologik muhitni sog'lomlashtirishga, ota-onada va bolalar munosabatlarini yuqori saviyaga ko'tarishga e'tibor berish kerak.
- 2- Bolalarni o'smirlik va o'spirinlik davridagi o'zgarishlarni ota-onada va pedagoglar to'g'ri tushunishi va to'g'ri muomala qilish uchun ularni tegishli bilimlar bilan qurollantirish kerak.
- 3- Yoshlar o'rtasida hayot betakror ne'mat ekanligi, shu bilan birga hayotda turli muammoli vaziyatlar yuzaga kelishi muqarrar ekanligi va ularni o'ziga va o'zgalarga ziyon yetkazmagan holda yengib o'tish zarurligini o'rgatish lozim.
- 4- Yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish kerak.
- 5- O'zbekiston tabiatidan bahramand bo'lishga o'rghanish, tabiat qo'yniga oilaviy dam olishlar uyushtirish kerak. Har bir muammoni yechimi mavjud buni yechish uchun esa, avvalo, hayot bo'lishimiz zarur. Umr insonga faqat bir marta beriluvchi in'omdir. Shunday ekan bu in'omni qadriga yetaylik va o'zimizdan ezgu nom qoldirish uchun harakatni bugundan boshlaylik. Zero, tinimsiz harakat va kurashish orqali barcha narsaga erishish mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Mustafayeva Sh . O'smir psixologiyasi: Biz bilmagan jihatlar. 2015-yil (16-17 bet)
- 2.Xalilova N. Voyaga yetmagan qizlar orasida tanglik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni o'rghanish yuzasidan tavsiyalar. 2019-yil (8-12 bet).

## **ОИЛАВИЙ КОНФЛИКТЛАРНИНГ ФАРЗАНДЛАРГА ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРИ**

*Хашимова Зарофат  
Учтепа тумани 81-ИДУМ психологи*

Инсон ўз ҳаётида болалик давриданоқ бошқа инсонлар билан турли ижтимоий муносабатларга киришади. Инсон ҳаёти бошқалар билан бўладиган турли муносабатларнинг узлуксизлигидан иборат бўлган жараёндир. Ана шу муносабатлар эса ҳар доим ҳам бир текис, силлиқ ва тинч давом этавермайди. Ҳаётнинг бир текис давом этишини турли низо ва зиддиятлар бузиб туради. Биз уларни конфликtlар деб атаемиз. Конфликт ҳар бир инсон ҳаётига алоқадор бўлган ўзига хос жараён бўлиб, ҳеч бир инсон ўзини комил ишонч билан конфликт вазиятлардан муҳофаза қилинганман деб айта олмайди. Конфликтлар инсон ҳаётининг ажралмас қисми ҳисобланади, чунки ҳар бир инсон ўз ҳаёти давомида конфликтлар билан тўқнаш келади. Конфликтлар табиий ҳодиса бўлиб, конфликт билан тўғри муносабат ўрнатиш инсон тарбияси, унинг шаклланишининг зарурий талабларидан биридир. Психологик жиҳатдан конфликтларни ўрганиш фақат назарий эмас, балки жуда муҳим амалий аҳамиятга ҳам эга. Фаннинг бу соҳаси вазиятларда юзага келувчи конфликтларнинг олдини олишга, уларни ҳал қилиш учун самарали чораларни қўллашга ёрдам беради.

Оила инсонларни бирлаштириб турувчи энг кичик ижтимоий бирлик бўлиб, унинг тинчлиги, равнақи ва барқарорлиги жамият тинчлиги ва барқарорлиги ҳисобланади. Шу боис, Ж.Сантаяна “Оила табиатнинг шоҳ асарларидан биридир”, дейди. Оила – маънавият ўчоги. Айнан оиласада инсоннинг маънавий қадриятлари 11 шакллантирилади<sup>16</sup>. Инсоннинг ҳар томонлама униб-ўсиши учун шароит яратилади. Бироқ, айнан оила таркибида, инсонларнинг жуда яқин алоқалари ва маълум муносабатларга киришиши натижасида турли инқирозлар, зиддиятлар, низолар келиб чиқади. Ўзбек оиласининг тарихий ривожланган ўз миллий

<sup>16</sup> Иномова М.О. Оиласада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. –Т.: ТДПУ, 1999; Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. –Т.: Ўқитувчи, 2000; Мусурмонова О., Баубекова З. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятларини шакллантириш. –Т.: Фан, 1993; Сафаров О., Махмудова М. Оила маънавияти.-Т.: Маънавият, 1998; С.Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1997; Шайхова Х., Назаров К. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. –Т.: Ўзбекистон, 1992; Юсупов Э. Инсон камоллигининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998; Нишанова С. Маънавият дарслари. –Т.: Ўқитувчи, 1994; Холматова М. Оиласий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000; Холматова М., Муравьевна Н. Ёшлар оиласий ҳаёт бўсағасида.-Т.: Ўзбекистон, 2000; Тўраева О. Ҳаёт сабоқлари.-Т.: Ўзбекистон, 2005; Тўраева О. Оиласий ҳаёт этикаси ва психологияси. –Т.: Ўқитувчи. 1990; Курбонов Т. Одобнома. –Т.: Ўқитувчи, 1990; Фитрат. Оила. –Т.: Маънавият. 1998.

анъаналари мавжуд. Улар оиладаги томонлар мажбуриятлари, масъулияти ва ҳуқуқларини белгилаб беради. Ҳам аёл киши учун, ҳам эркак киши учун маълум талаблар қўйилади. Аёл киши кўпроқ уйда, болалар тарбияси ва уй юмушлари билан шуғулланиши лозимлиги, эркак кишининг эса – оила аъзоларининг моддий таъминотини амалга ошириши лозимлиги айтилади. Ўзбек оиласи ўз ривожи босқичларида ислом дини қадриятларини ҳам ўзига сингдира олган. Шу билан бирга оила институти ҳар вақт ўз даврининг ижтимоий, иқтисодий талабларига ҳамоханг тарзда ўсиш ва такомил жараёнида бўлади. Агар авваллари оила институти ўзининг кичик бир дунёси ичидаги ташқи таъсирлардан бир қадар эркин яшаган бўлса, ҳозирда ҳар бир оила ва унинг аъзоларига глобализасия шароитида жуда катта ахборот оқимлари ўз таъсирини ўтказади. Бу ҳам маълум даражада оилавий конфликтларни элтириб чиқаради,

Оила мураккаб ижтимоий груп бўлиб, биологик, ижтимоий, ахлоқий, мафкуравий ва руҳий муносабатларнинг бирлашуви натижасида вужудга келади. Шу сабабдан турмушдаги ва оила аъзолари муносабатларидаги ўзгаришлар унинг моддий-маиший, иқтисодий негизи ўзгаришига бевосита боғлиқдир. Оила аъзоларининг ўзаро муомалаларини тадқиқ қилган венгер сосиологи М.Комлоши 10-14 ёшдаги мактаб ўқувчиларининг ўқишига ва меҳнатга бўлган муносабатига бевосита таъсир қилувчи оила муҳити (вазият, шароит, ҳолат) омилларини тўрт рийхга ажратади: 1) ота-оналарнинг жамоатчилик фаолияти (уларнинг мафкуравий қарашлари ва ишга нисбатан муносабатлари); 2) оила ичидаги муносабатлари (ота ва она муносабати, ота-оналарнинг бува ва бувига муносабатлари, ака-укалар ва опа-сингилларнинг ўзаро муносабатлари); 3) ота-оналарнинг тарбиявий-педагогик фаолияти (уларнинг тарбиявий муаммолари, қизиқишилари, мактаб билан ҳамкорликлари, ўқувчиларга дарс тайёрлаш кезида ота-оналарнинг ёрдами, уларнинг тарбиявий аҳамияти); 4) оилада ўқувчининг фаолияти (ўқувчининг кундалик тартиби, хўжалик ишларидаги муайян мажбурияти) ва бошқалар. М.Комлоши йиққан материалларини таҳлил қилиб, оила муҳити (вазияти, шароити, ҳолатини\_уч тоифага: ижобий, ўзгарувчан ва салбий тоифаларга ажратади. Психолог олим В.И.Селиванов оилада шахсни шакллантириш жараёнини ўрганиб, баҳтли болалик-бу оиладаги қувончли ҳамжиҳатликнинг ҳамда отаоналарнинг болаларига ғамхўрлигининг самарасидир, деган хulosага келади. Муаллиф оилаларни йўналишига қараб, уч тоифага мансуб эканлигини кўрсатиб беради: ижтимоий-илғор йўналишдаги оила, зиддиятли йўналишга эга бўлган оила, паст даражадаги ижтимоий йўналишга мансуб оила.

Ҳалқимизда **“қуни уясида кўрганини қиласи”** деган мақол бор, табиийки ҳар бир бола ўз ота-онасидан оърнак олади. Оиладаги доимий конфликтлар, ота-онанинг келишмовчиликлари боланинг руҳиятига биринчи навбатда, тарбиясига,

дунё қарашига салбий таъсир кўрсатади. Бизнинг ҳалқимиз азал-азалдан бунга эътибор қаратишган хусусан, Маҳмуд Қошғарий бу тўғрисида ўша даврдаёқ фикр билдирганлар “Ахлоқий тарбияни изчил ва тартибли амалга оширишда оила муҳити фоят муҳим рол ўйнайди. Инсон ахлоқий, маънавий ва руҳий қиёфасининг пойдевори оилада қўйилади. Шунинг учун ҳам машҳур алломалар оила тарбиясига катта эътибор беришган ҳамда шу масалага багишилаб қатор қимматли асарлар ёзишган. Доно ҳалқимиз «Бола — бошидан, ниҳол — ёшидан» деган нақлни бежиз айтмаган. Модомики шундай экан, ёш авлодни таркиб топтириш, тарбиялаш ишини ёшлиқдан, оиладан бошлаш керак. Би-нобарин, оиладаги тарбия жараёнида ҳар бир дақиқа ва фурсатни қўлдан бой бериш орқали ота-оналар кейинчалик қўпгина қийинчиликларга дуч келадилар. Ахир, нотўғри тарбия туфайли нафс балоси ўқига гирифтор бўлган ўн гулидан бир гули ҳам очилмай туриб умри хазон бўлган ёшлар камми? Донишманд тили билан айтганда, «Қапға очлик, ташналиknинг қийинчилигини сезса, музни тешади; бекиниб турган овчини кўрмай, унинг тузофидаги донлар учун парво қилмай киравсрэди»<sup>17</sup>

Ота-она обрўсини орттиришда, энг аввало, ибрат-намуна муҳим рол ўйнайди. Оилада тарбия ишини муваффақиятли амалга ошириш учун ота-она тинмай ўзларини тарбиялаб боришилари керак. Ўзларида етишмайдиган сифат ва фазилатларни тўлдириб, мавжуд иллатларни батамом тутатишлари лозим. Чунки ота-оналарнинг тарбия жараёнидаги истсъоди — бу фарзандларга нисбатан муҳаббат ва садоқатдан иборатдир. Агар ота-оналар ўзлари келисишмаса уларни бола олдидағи хурмтлари йўқоқлади. Ҳар кун ота-онасининг жанжалига воқиф бўладиган фарзанд уйдан қочишига қўпроқ қўчага интилиш уларда кучайиб кетади. Бунинг оқибатида боланинг психологиясига салбий таъсир кучаяди сўнгра ҳар хил девиант ҳолатлар болада кузатилиши мумкин. Бу жамиятимиз учун жуда котта зарадир. Бу каби ҳолатларни олдини олиш учун Ота-она фарзандлар ўртасида обрўга эга бўлишилари керак, бунинг учун қатор чора ва тадбирларни амалга оширишилари зарур. Даставвал улар турли ёшдаги фарзандлари руҳий дунёсига мос муомала қилишилари даркор. Кичик, ўрта ва катта ёшдаги ўғил-қизлар билан мулоқотда уларнинг ёш хусусиятларига мос муомалада бўлиш шарт.

Оилада тотувликнинг мавжуд бўлиши барча муваффақиятларнинг гаровидир. Чунки оила аъзоларининг бир-бирига бўлган муносабатлари келажак авлоднинг қандай шахс бўлиб вояга етишига ўз таъсирини кўрсатади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- Иномова М.О. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. –Т.: ТДПУ, 1999;
- Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. –Т.: Ўқитувчи, 2000;

<sup>17</sup> M.Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk, Toshksnt, 1960, 401-bet

3. Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси.  
—Т.: Ўзбекистон, 2000;
4. Холматова М., Муравьевева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида.-Т.:  
Ўзбекистон, 2000;
5. М.Қошғарий. Девону луғотит турк, Тошкент, 1960, 401-бет

---

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOSLIGI**

*Umarova Xusnora Murodovna  
Farg'ona Viloyati Uchko'prik tumani 11-maktabi psixologi*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o'rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o'rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o'rinni egallamoqda. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy noverbal signal,kommunikativlik, interksionizm,kichik maktab yoshi, maktab ta'limi, psixodiagnostika,intellekt.

Shaxsning barkamolligi ko'p jihatdan uning aqliy rivojlanishi va ma'naviy jihatdan shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot obektiga aylanib bormoqdaki, bevosita psixologiya fani bu borada nazariy va amaliy ta'limotlarning inson ruxiy kechinmalarini o'rganishda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalilanmoqda.Amerikalik olim Megrabyanning ma'lumotlariga ko'ra, birinchi uchrashuvda biz boshqalardan kelayotgan noverbal signallarga 55%ga ishonamiz, ulardan ta'sirlanamiz; 38% – paralingvitsik va 7%gina nutqning bevosita mazmuniga ishonamiz. Shuning uchun xam obrazli tarzda —Kiyimga qarab kutib olinadi, aqlga qarab kuzatiladi deyiladi. Keyingi uchrashuvlarda bu mutonosiblik, tabiiy, o'zgaradi.

Ijtimoiy munosabatlar insonlarning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rganishlari ma'lum. Masalan,

interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasini tarafdarlari – odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvini jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlang'ich (I-IV) sinflarning o'quvchilari kiradi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga quyiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ta'limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning obhektiv va subhektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi, binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi, shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.

Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'ynchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rindi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqliklari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin. Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. A. V. Zaporojets, M. I. Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporojets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;
- 2) kattalar bilan hamqorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Fransuz psixologi P.Jane(1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug'ullandi. Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar sistemasining shakllanishi nissonning o'sishini belgilaydi, u aloqa deb, xatti-harakatni tushunadi. Bu esa kishining atrof muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi

faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning prinsipi hisoblanadi. P.Jane o'z tadqiqotlarida psixikaning to'rt darajasi:

- a) motor reaksiyasiyaing o'sishi;
- b) perseptiv harakatning o'sishi;
- v) shaxsiy-ijtimoiy harakatning o'sishi(o'zining harakatini boshqa kishilarga moslashtirish);
- g) intellektual sodda xatti-harakatning o'sishi(nutq va tafakkurning rivojlanishi) mavjud ekanliginn asoslagan.

AQShlik psixolog Dj.Bruner(1915) shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtaida ikki yoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtirgan.Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z atrof-muhitidagilar bilan muloqotga kirishishlari yordamida o'zlarini jamiyatga moslab boradilar.O'quvchilarning bilim doirasi kengaygani sayin ular qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko'cha boshlaydilar, yahni narsa va hodisalar niyag turli xususiyatlarga egaligini, voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan emas, balki ko'p sabablardan paydo bo'lishligini anglash bosqichiga ko'taradilar. Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab namoyon bo'ladi. O'quvchilar «Nega bugun falonchi darsda ko'rinxaydi, balki kasal bo'lib qolgandir, uqlab qolgandir, dars tayyorlay olmay, uyalganidan kelmagandir?» - deb gumonsirab, taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar, natijada taxminiy hukm chiqara boshlaydilar. Uchinchi sinfdan boshlab turli vaziyatlarni, holatlarni aniq dalillar bilan isbotlab berishga o'tadilar. Buning sababi bolalarning bilimi kundan-kunga osha borishi, mahlum tizim hosil qilishidir.

Ular bu paytda o'z hukmining chin yoki chin emasligini anglab yetadilar, bevosita muhokama qilish, dadil keltirish, isbotlashning shartlariga asoslanib fikr yuritish jarayoniga o'ta boshlaydilar. Bolalar narsa va hodisalarning paydo bo'lish sabablarini aniqlashda muammo, masala va savollar qo'yishdan tashqari, ularni hal qilishga, yechishga ham odatlanadilar. Biroq, ularning hukmi moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning ichki qonuniyatlarini, obhektiv bog'lanishlari va munosabatlarini to'liq ifodalay olmaydi. Uchinchi sinfdan boshlab o'quvchilarda tushuncha va hukmlar rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish ham o'zgarib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabatini, bog'lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish bo'lib, bolaning tafakkurida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki bunda yaqqol-obrazli tafakkurga tayanib-xulosa chiqariladi. Keiynchalik mavhum shart-sharoitlardan

vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo'ladi va u ko'rsatmalilik, sxemalar, chizmalar, tanish misol va masalalar, hodisalarga asoslanishda ko'rindi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun sabab-natija munosabatlarini ifodalovchi narsa va hodisalarni tahriflash juda murakkabdir. M.N.Shardakovning tajribasida uchinchi sinf o'quvchnlari jismlarning kengayishi isitishga bog'likligini anglab yetmaganlar va barcha jismlar issikdan kengayadi, deb xulosa chiqara olmaganlar. Lekin alohida olingan jismlarning issikdan kengayishi hodisasini tushuntirib aytganlar, demaq jismlardagi umumiyligini, o'xshashlik belgilarini topa olmaganlar. Umumiy xulosani ko'ra eksperimentator yordamida chiqarganlar. Ta'lim jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim rol o'yndi. O'quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib, ularning uzviy bog'lanishini, aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, yahni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishini aniqlaydi. O'quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni tahlil qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy belgilaridan ajratishni o'rganadilar va shu tarifa o'zlarining mavhumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar. Bolalarning bilimlar tizimini o'zlashtirishda tushunchalarni, qonuniyatlarni nomuhim belgisiga binoan o'rganishlari tez-tez uchrab turadi va bu hol o'quv materiallarini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun o'quvchilarga tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan mahlumki, yil oxiriga borib, bolalarning o'zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi. O'quvchilarning muloqotchanlik qobilyatlarini o'rganishga qaratilgan bir qancha psixodiagnostik, proyektiv metodikalar mavjud. Bevosita kommunikativ bilimdonlikni aniqlash uchun —Muloqotga kirishuvchanlik darjasи, — Muloqot, — Tinglashni bilasizmi?, —Fikrni bayon eta olish kabi qator metodikalar qo'llaniladi. Muloqot jarayonida odam o'zini qanchalik nazorat qila olishi M. Snayderning maxsus testi ishlataladi. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik bevosita odam tomonidan o'zini o'zi bilish – autopsixologik bilimdonlik bilan xam bog'liq. Bu odamdagи shunday malakalarki, ular uni o'z sifatlarini diagnostika qila olish – o'z-o'zini diagonotsika, o'z-o'zini tuzata olish (o'zini korreksiya), o'z-o'zini takomillashtira olish, o'ziga o'zi motivasiya bera olish, xar qanday ma'lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvitsik bilimdonlikni nazarda tutadi. Proyektiv metodikalardan "Oila" rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin. Psixologlar bu testdan bolaning oiladagi «Men»ini o'rganish maqsadida foydalanadilar. Bu testni o'tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Bu testni o'qituvchilar, mакtab psixologlari va ota-onalar o'tkazishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan mакtabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida yaqqol obrazlarga suyanib mulohaza yuritish, yahni yaqqol tafakkur mavhum tafakkurdan mahlum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutlaqo mosligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikrlashni o'rgatish kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

### Foydalanimgan adabiyotlar

1. G'oziev E. Psixologiya. T., —O'qituvchi, 1994
2. Davletshin M.G. Zamonaviy mакtab o'qituvchisi psixologiya. T., 1998
3. Karimova V. Mustaqil fikrlash. T., —Sharq, 2000
4. Z Nishonova. Bolalar psixologiyasi va uni ukitish metodikasi T. 2006
5. Ziyonet.uz

## ИҚТИСОДИЙ БИЛИМЛАРГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖЛАР ТАСНИФИ

Жабборов Жамишид Азимович  
ҚаршиДУ таянч докторанти

Мамлакат тараққиётининг асосий мезонларидан бири иқтисодиёт соҳасидир. Жамиятнинг ҳар қандай соҳасида ривожланиш кузатилиши иқтисодий соҳага бевосита боғлиқдир. Маълумки, иқтисодий ҳаёт юксалиши обектив иқтисодий талабларга риоя қилишга, хўжалик юритиш усуллари ва шарт-шароитларига боғлиқ бўлиб, иқтисодий қонунлар мажмуй асосида амалга ошади. Иқтисодиётнинг ўзи жамият моддий ҳаётига мансуб бўлса-да, иқтисодий ғоялар, билимлар, назариялар маънавият унсурларидир. Инсонларнинг иқтисодий ғоялари, билимлари, қарашлари, хуносалари, ҳис-туйғулари, кайфияти, иқтисодий баҳолаш, қарашлари, иқтисодий заруратни англаш даражаси, ижтимоий мўлжали, иқтисодий идеали маънавий эҳтиёж сифатида намоён бўлади.

Учинчи Ренессанс пойдеворинин яратиш ғояси ҳаётга жорий этилар экан, аввало, халқнинг иқтисодий билимларга бўлган эҳтиёжини юксалтириш лозим. Масалан, меҳнат фаолияти билан ахлоқ туташмаса, иқтисодий муносабатларда маънавият масалалари, хусусан, инсонпарварлик талаблари ва меъёрлари етарлича ҳисобга олинмаса, техноқратик қарашлар устунлик қилса, ишлаб чиқариш ўсгани

билин, инсоний муносабатлар таназзулга учрайди, бегоналлашиш қучаяди. Бу, оқибат-натижада ижтимоий таназзулга олиб келиши мумкин<sup>18</sup>.

Иқтисодий онг ва қарашлар билан боғлиқ маънавий эҳтиёжларни қуидагича таснифлаш мумкин:

*- Янги иқтисодий билимларни, бозор муносабатлари, талаб ва таклифиларни таҳлил қилишини ўрганиши эҳтиёжи.* Одамларнинг билимлари ва малакасининг, иқтисодий тафаккурининг ўсиши, бозор муносабатлари шароитида янги мақсадлар сари интилиши, эркин иқтисодий фаолият юритишининг муҳим шартидир. Шу боисдан бозорнинг талаб ва таклиф қонуниятларини ўрганиши – иқтисодий фаолликни ҳамда одамларнинг иқтисодий онгини юксалтирувчи асосий омилдир. Иқтисодий саводхонлиги саёз, бозордаги талаб ва таклиф нима эканлигини тушунмайдиган тадбиркор охир-оқибат иқтисодий касодга юз тутади. Шу сабаб алоҳида тадбиркор ҳам, бутун жамият ҳам иқтисодий ҳаётини ташкил этувчи ва бошқарувчи сиёsatчилар ҳам, катта-кичик компаниялар менежерлари ҳам ўз устида ишлашлари, доимий равишда иқтисодий билимларни ошириб боришилари лозим. Иқтисодиёт стихияли равишда ички ва ташқи бозор талабларига, ўзгарувчан ижтимоий-сиёсий ва геосиёсий воқеликка, технологик имкониятларга мослашиб боради. Натижада, иқтисодий назариялар, концепциялар ҳам бойиб, ўзгариб туради. Аввалги назарияларни тадқиқ қилувчи назариялар, концепциялар пайдо бўлади. Булар шунчаки иқтисод илмида “мода”нинг ўзариши эмас, балки объектив тараққиёт тақозо этган заруратdir. Аммо ҳеч қачон барчани бирдек қаноатлантирадиган, барча даврлар учун ўзгармас иқтисодий назариялар, таълимотлар вужудга келмайди. Бундан фақат иқтисодиёт илмининг бошланғич асослари ва фундаментал тушунчалари мустасно.

*- Иқтисодий ҳаёт, фаолият билан боғлиқ юридик қонунларни ўрганиши эҳтиёжи.* Ушбу эҳтиёж алоҳида жисмоний шахс учун ҳам, юридик шахс (корхона) учун ҳам, давлат идоралари ва бутун жамият учун ҳам зарурdir. Зоро, ҳар қандай иқтисодий муносабатлар, алоқалар – у ишга ёлланувчи ва иш берувчи бўладими, ё корхоналар ўртасидаги ўзаро мажбуриятларнинг бажарилиши бўладими, ёки давлат солиқ ва молия-кредит тизими ва тадбиркорлик субъектлари ўртасида бўладими, қатъий назар – маълум хуқуқий қонуний кечиши лозим.

Шунингдек, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларида фаолият кўрсатаётган ишчи-ходимларда ҳам юридик қонунларни ўрганишга эҳтиёж пайдо бўлди, уларда эксплуатацияга қарши хуқуқий жиҳатдан кураша олиш қобилияти шаклланди, эркин касб танлаш, адолатли меҳнат шароитларида ишлаши, қонунда белгиланган тартибда ишсизликдан ҳимояланиш хуқуқларидан фойдалана бошладилар, мажбурий меҳнатга жалб қилинишнинг олди олинди.

<sup>18</sup> Эркаев А. Маънавиятшунослик. 1- ва 2- китоб. “Маънавият”, 2018 й.

- Ўз касбига оид янги технологик билим ва қўникмаларни ўзлаштириши, касб маҳоратини ошириши эҳтиёжи. Мехнат бозоридаги рақобат шахсдан доимий равишда ўз билим ва қўникмаларни, малака ва маҳоратини ривожлантириб боришни талаб қиласди. Зарур ҳолларда киши қайта ўқиши, касбини, яшаш жойини ўзгартиришига тайёр турмоғи лозим. Бундан ташқари, замонавий жамиятда технологиялар шунчалик тез янгиланмоқда-ки, ОТМ ёки ўрта маҳсус, касб-хунар билим юртларини 20-22 ёшида тамомлаган мутахассислар олган билим 8-10 йилда янги технологиялар талабларига асосланган ишлаб чиқаришдан сиқилиб четга чиқиб қолмаслик учун ишчи-ходимлар онгли равишда ўз малакаларини ошириб боришлари, мунтазам ўз устида ишлашлари керак.

- *Ишлаб чиқарииш жараёнини такомиллаштириши, АКТ технологияларини ишлаб чиқаршига жорий қилиши ва ҳ.к. бўлган эҳтиёжлар.* Иқтисодиёт соҳаларида замонавий ахборот коммуникатив технологияларни, биотехнологияларни, нанотехнологияларни, яшил иқтисодиётни, муқобил энергиядан фойдаланишини жорий этиш, иқтисодиётни янги инновацион ғоялар билан бойитиб бориш аҳоли турмуш фаровонлигини юксалтиришга ва давлат иқтисодий қудратининг ошишига хизмат қилиши қаторида жамият аъзоларида янги иқтисодий тафаккурни шакллантиради. Жамият иқтисодий ҳаёти доимо янги иқтисодий ғоялар ҳамда замонавий технологияларга муҳтождир.

- *Ижтимоий шериклик, психологик тикланиш ва ижтимоий ҳимоя эҳтиёжи.* Ижтимоий шериклик иш берувчи ва ишга ёлланувчи, меҳнат ва капитал ўртасидаги муносабатларнинг цивилизациялашган шаклда қонун доирасида амалга ошиши учун хуқуқий-иктисодий шарт-шароит яратади, мутахассислар ва ишчилар ўртасида соғлом маънавий мухитни вужудга келтиради.

Психологик тикланиш меҳнат самарадорлигини ўсишига хизмат қилувчи омилдир. Чунки, ҳар бир ходим кудалик меҳнат фаолияти давомида жисмоний ҳамда руҳий чарчоқ аломатларини ҳис этади, дам олиш вақтида жисмоний ва руҳий ҳолатини қайта тиклашга ҳаракат қиласди: ухлаши, китоб ўқиши, мусиқа тинглаши, тв томоша қилиши, газета ўқиши, оиласи ёки дўстлари билан мулоқотда бўлиши, виртуал алоқа воситалари орқали дўстлари билан сұхбатлашиши, сайр қилиши ва ҳ.к.лар машғул бўлиши мумкин. Бу орқали инсон ўз маънавий эҳтиёжларини қондириш билан бир қаторда меҳнат фаолияти учун ўзини руҳан тикламоқда.

Иқтисодий соҳада маънавият масалаларига алоҳида эътибор берилиши – учинчи Ренессанс пойдевори сифатида меҳнат қадрини кўтарилишига, жамиятда янгича муносабатлар ва иқтисодий тафаккурнинг шаклланишига, меҳнат бозорида иш берувчилар ва ходимлар, хизматчилар, ишчилар ўртасида ижтимоий ҳамкорлик (шериклик)ни қарор топтиришга, инсон эҳтиёжларини муттасил қондирилишига ва

янги эҳтиёжларининг шаклланишига, бозор муносабатларида ахлоқий, эстетик, ҳуқуқий жиҳатдан ёндашишига хизмат қилади.

## **МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARDA ТАФАККУРНИ РИВОЈЛАНТИРИШ**

*Xasanova Nazira Ibadullaevna  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
10 DMTT Ovunchok*

Tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadigan jarayon bo'lib, u dastavval keng predmetli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Keyinchalik u «aqliy» xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi. Tafakkur inson bilish faoliyatining oliy shakli sifatida atrof olamni umumlashtirgan holda vositali aks ettirish imkonini beradi, predmetlar bilan hodisalar o'rtasida aloqa va munosabatlarni tashkil qiladi.

Tafakkur - yangilikni qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. Bu yangilik sub'ektiv bo'lishi, ya'ni uni kimlardir qachonlardir topgan bo'lishi mumkin, lekin sub'eckt tafakkur jarayoni yordamida o'zi uchun uni yangidan kashf etadi, aks holda biz ko'proq xotira, o'tgan tajribalarimizni qayta tiklagan bo'lamiz. Bolalarni o'qitishda tafakkurning shu muhim xususiyatini asos qilib olish mumkin.

Maktabgacha tarbiya Yoshi - psixik rivojlanishning intensiv bosqichi hisoblanadi. Aynan mana shu yoshdan bolada juda kata o'zgarishlar ro'y beradi, ya'ni psixofiziologik funksiyalarning takomillashuvidan boshlab, to murakkab yangi shaxsiy obrazlarning paydo bo'lishigacha bo'lib o'tadigan jarayonlar sodir bo'ladi. Yangi obrazlarni, xayoliy hodisalarni analiz qilish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xosdir, ammo natijalar hamisha ijobiy bo'lmasa ham, bolalar faoliyatini tahlil qilganimizda, biz shu narsaga amin bo'ldikki, bolalar predmetlarni tasavvur qilibgina qolmay, ularning o'zaro bog'liqligini ham xayolan tasavvur qilar ekan.

Tasavvurning rivojlanishi, tafakkurning shakllanayotgan jarayoni bilan tavsiflanadi, bu shakllanish bolaning xayoliy tasavvurlarining ixtiyoriy ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir.

Bunday imkoniyat 5-6 yoshli bolalarda yanada yuqoriroq bo'ladi, chunki bola yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib oladi. Maktabgacha tarbiya yoshining so'ngida ko'rgazmali-obrazli tafakkurning eng yuqori formasi ko'rgazmali-sxematik tafakkurning rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Ko'rgazmali-sxematik tafakkur tashqi muhitni o'zlashtirib olish uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi, ya'ni har xil

predmetlarni va hodisalarni umumlashtirishning modeli uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tafakkurning ko'rgazmali-sxematik formasi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy negizi hamdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda asosan obrazli, so'z-mantiqli va ko'rgazmali-harakatli tafakkur turi rivojlangan bo'ladi. So'z-mantiqli tafakkur turi esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda endi rivojlanish davrida bo'ladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektini diagnostika qilish uchun, bиринчи navbatda obrazli, so'z-mantiqli va ko'rgazmali-harakatli tafakkur turlariga e'tibor qaratish kerak. Mana shu bog'lanishlar va munosabatlar tufayli bolalardagi obrazli – so'z-mantiqli va ko'rgazmali-harakatli tafakkurni diagnostikalash uchun, biz har ikkala tafakkur turining muhim jihatlarini inobatga olgan holda, ushbu tafakkur turlariga quyidagi metodikalarni tavsiya qilamiz.

1. Obrazli, so'z-mantiqli tafakkur turini baholash uchun metodikalar:

- a. «Mantiqsiz tasvirlar» metodikasi
- b. «Yil fasllari» metodikasi
- c. «Bu yerda nima ortiqcha?» metodikasi
- d. «Rasmlarga qanday predmet yetishmaydi» metodikasi
- e. «Guruhlarga bo'lib ko'r-chi» metodikasi

2. Ko'rgazmali-harakatli tafakkur turini baholash uchun metodikalar:

- a. «Konturlarni birlashtirish» metodikasi
- b. «Labirintdan chiqish, yo'lini top» metodikasi
- c. «Figuralarni qirqib chiq» metodikasi
- d. «Tasvirlarni ko'chirish» metodikasi

Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlna boshlaydi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ayrim otaonalar va tarbiyachilar agar bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, "ko'p mahmadona bo'lma", "sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding", deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi va noto'g'ri tafakkur ularda rivojlanib boshlaydi. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zları ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi.

### **Kichik maktab yoshidagi bolalar xotirasini rivojlantirish metodikalari.**

Inson dunyoga kelar ekan, asta-sekinlik bilan butun olamni tanib, ilg'ab boshlaydi. Uning tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasi ham tobora kuchayib boradi. Bu jarayonlarning barchasi birdaniga sodir bo'lib qolmasdan, balki, turli xil omillar aralashuvi natijasida

yuzaga keladi. Ya'ni, insonning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sohasi, tashqi o'zgarishlar jamlanib insonni olamga, olamni esa, insonga tanitib boshlaydi. Ana shunday jarayonlar sodir bo'lar ekan, bunda albatta xotiraning o'rni bo'lakdir. Chunki, agar tashqi olamning bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo'qolib ketaversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi, muayyan tartibga kelishi, qaytadan jonlanishi mutlaqo mumkin bo'lmas edi.

Biz bilamizki, individning o'z tajribasini esda saqlashi, esda olib qolishi va keyinchalik uni yana qaytadan esiga tushirishi xotira deb ataladi. Xotira insonni kelajagini, tarixini, butun yashash jarayonini anglatib, eslatib turuvchi jarayondir.

Xotira individ dunyoga kelganidan rivojlana boshlaydi. Uni rivojlantirishda turli xil metodikalar, mashqlar va o'yinlardan foydalaniladi. Bugun biz, kichik mакtab yoshidagi bolalar xotirasini rivojlantirishda foydalaniladigan metodikalar va ularning ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

Xotiraning rivojlanishi bola bilan ishslashda ta'limning qaysi metodlari ustunligiga, uni o'rab turgan muhit idrok obrazlari bilan qanchalik boyligiga bog'liq. Xotirani rivojlantirishda juda ko'p metodikalardan foydalaniladi. Yosh davrlari va ontogenet psixologiyasi sohasida qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxsiy xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari, aqliy qobiliyatlarining o'ziga xosligi va farqlarini o'rganishda qo'llaniladi. Intellektual testlar xotiraning mahsuldorligi yoki noyob xislatliliginini aniqlashda qo'llaniladi. Bevosita esda olib qolish xususiyatlarini pictogramma, ya'ni rasmiy assotsiatsiyalar metodi orqali ham o'rganish mumkin. Sinaluvchi aniq so'zni rasmdagi tasvir orqali eslab qolishi kerak. Sinaluvchi so'z va tasvir o'rtasidagi aloqani o'ylab topishi kerak, bu esa keyinchalik so'zni qayta esga tushirishga yordam beradi.

R.Meyli testi 1961-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, 7-14 yoshli bolalar va kattalarning ko'rish va eshitish xotirasini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metodika orqali sinaluvchining esda olib qolish qobiliyati o'rganiladi. Bu tadqiqotlar bir kunda o'tkazilmaydi. Yana bir metodikalardan biri obrazlarni eslab qolishga yo'naltirilgan va "Obrazlar bo'yicha xotira metodikasi" deb ataladi. Metodikadagi obrazlarni (12 ta rasm) sinaluvchiga 20 sekund mobaynida o'rganish tavsiya etiladi. Obrazlarni eslab qolish lozim va 1 minut ichida blankada aks ettirish lozim.

Ko'rib esda olib qolning narsani qayta tiklash metodikasi - ko'rish xotirasi xususiyatlarini D.Veksler (1945) taklif etilgan metodika yordamida o'rganish mumkin. Bu metodika xotira shkalasini o'rganish subtestlaridan biridir. Bundan tashqari xotirani rivojlantiruvchi mashqlardan: "So'zlarni aytib ber", "Sonlar ketma-ketligini top", "Predmetlarning o'rnini top" kabilalar ham kichik mакtab yoshidagi bolalar xotirasini rivojlantirishda foydalaniladi.

Umuman aytganda bolalarning xotirasini rivojlantiruvchi metodika va mashqlar turlitumandir. Ularni rivojlantirishda metodikalardan foydalanish albatta yaxshi natija beradi. Shuningdek, xotirani rivojlantiruvchi mashqlar uni rivojlantiribgina qolmasdan, balki, kichik maktab yoshidagi bolalar xotirasini mustahkamlashda ham foydalaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, eng avvalo, yoshlarning ongini, tafakkurini o‘zgartirsak, tafakkur darajasini yanada o‘sirishga erishsak, bolalarda ijtimoiy muhitdan ajralib qolish, nutqiy kamchiliklar, idrok etish, xotiraning sustligi, tafakkurning cheklanishi kabi salbiy jarayonlarni oz bo‘lsada bartaraf qilishga erishgan bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ergash G‘oziyev “Umumiyy psixologiya” Toshkent 2010. { 458-463-b }
2. Sh. A. Dustmuhamedova, Z.T.Nishanova, S.X. Jalilova “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” Toshkent 2014. { 110-112 b }
3. Z. T. Nishanova, Z.Q.Urbanova S.Abdiev “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” Toshkent-2011. {49-66 b }

---

## BALALAR DÓRETIWSHILIGIN RAWAJLANDIRIWDA MILLIY MUZIKANIŃ ÁHMIYETI

*Bazarbay Qalmenov  
Nókis qalası 12-Mektepke shekemgi  
bilimlendiriw mekemesiniń muzika basshusı*

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń “Mektep bilimlendiriwin rawajlandırıwdıń Mámleketlik ulıwma milliy baǵdarlaması tuwralı” pármانında barlıq oqıw pánleriniń baǵdarlamaları mámleketlik bilimlendiriw ólshemine muwapiq keliwi, tálim-tárbiya beriwdiń kadrlar tayarlaw milliy baǵdarlaması talaplarına juwap beriwi, oqıtılıwdıń barısı, mazmunı, usılları, balalardıń qızıǵıwshılıǵıń arttıriw, berilgen materiallardıń izbe-izligin hám úziliksizligin támiyinlewine ayriqsha dıqqat awdarılǵan.

Mektepke shekemgi bilimlendiriwden baslap orta mekteptiń baslawısh klasslarında muzika sabaqlarında balalarǵa durıs baǵdar berip, ápiwayı muzikalıq elementlerden baslap tolıq ózlestirilse, onda balalardıń esitiw qábleti, este saqlaw uqıbı jaqsı rawajlanadı. Bunda tap baqshadan baslap baslawısh klasslarda oqıtılıtuǵıń barlıq pánler qatarı muzika pániniń áhmiyeti úlken ekenligin ayriqsha atap ótemen. Sebebi muzika balanıń dáslepki sezim tuyǵıların, arzıw-ármanların ózine tán kórkem tilde súwretlep beredi hám balanıń qálbine, oy-sezimlerine tez tásir kórsetedi.(Mısal ushın siz ózińizdiń balalığıńızdı esleń...)

Yyde, shańaraqta ana tárbiyasında, yamasa kempir-apasınıń tárbiyasın alǵan, aldaw yamasa aldaniw ne ekenligin bilmeytuǵın sada, aq-kókirek bala, kóphshilikke aralasıp, turmistiń kúndelikli ashshı soqqılarına dus kelip, hayran qaladı, ózligin joytadı, hátteki biraz waqt shokqa túsip qaladı. Mine usınday halatlarǵa dus kelmewi ushın, ápiwayıdan quramalılıqqa qaray, áste izbe-izlikte, keuilli keypiyat penen balanıń qálbine jol tawıp, turmistiń oylı-báleñtliligin jay, ápiwayı misallar menen túsindirip bariw wazıypası- biz pedagoglarrágá kásiplik wazıypa etip jükletilgenligin ayırım kásipleslerimiz umıtıp ketken. Sebebi ortalıq sonday, pútkıl Ózbekistan boylap mektepke shekemgi bilimlendiriwden baslap, mekteplerdiń baslangısh tálimi, ulıwma orta bilimlendiriwde tárbiyaǵa itibar berilmey qoydı, sonıń aqıbetinde tálimniń sapasınıń tómenlew dárejesine jetip keldik. Ashshı bolsa da bul búgingi haqıqat.

Házirgi tez pát penen rawalanıp baratırǵan, úshinshi renessans dáwirine joldıń baslanıwında, joqarıdaǵı eskilik qaldıqlarınan tek-ǵana qutlıw emes, al oqıtıwshılıq kóz-qaraslarımızdı qayta qurıp, jańarǵan mámlekет jasları qanday bolıwı kerek bolsa, sol talapqa say oqıtıw usıllarımızdı maslastırıp alıw waqtı keldi.

Balalarǵa úyretiwge berilgen qosıqlardıń tematıkası hár qıylı. Olar; Watan, ana, mektep, ustaz, milliy bayramlar, tábiyat, máwsimler haqqında. Bul qosıqlardı úyreniw barısında balalar muzıka sawatı, muzıka ádebiyatı haqqında bilimlerge iye bolıwı menen menen birge ana-watanǵa súyispenshilik sezimlerin, mektep, ustaz, milliy bayramlarǵa bolǵan húrmetin tárbiyalaymız. Sonday-aq máwsimlerdi ayıra biliwge hám tábiyattı asırawǵa, yaǵníy ekologiyani taza uslawǵa úyretip baramız.

Muzıka sabaǵında ótilgen hár bir tema, baqshada yamasa mektepte oqıtılıtuǵın basqa pánlerdi ózlestiriwde de tikkeley tásır kórsetedi. Sebebi muzıka janlı kórkem-óner túri sıpatında dáwir, ómir, tábiyat hám eń tiykarǵısı bolǵan- balanıń sezim-tuyǵıların, arzıw-ármanların sáwlelendiredi. Muzıka óziniń tábiyati hám sezim kúshi menen danışhpanlıq hám filosofiyadan da kúshli júrek sezimlerin bildiredi -dep esaplanılǵan. Mine usılardıń barlıǵı muzıkanıń qanshelli dárejede kúshli, qúdiretli ekenligin dáliyillep turıptı.

Muzıka pánin oqıtıw tómendegi wazıypalardı ámelge asırıwdı maqset etip qoyadı:

1. Balalardıń muzıkaǵa bolǵan ıqlasın oyatiw hám olardıń muzıkalıq qábiletlerin, ritm tuyǵısın ósiriw, muzıkalı oqıtıw, este saqlaw, dıqqat hám kórkemlilik talǵamın payda etiw;

2. Balalarda milliy muzıka miyrasımızǵa hám ol arqalı Ana-Watanǵa muxabbat sezimin tárbiyalaw;

3. Balalarda kórkem dóretiwshilik qábiletin ósiriw.

Házirgi kúndegi eń actual mashqalalardıń biri jas áwladtı kámıl etip tárbiyalaw, yaǵníy búgingi balalardı milliy hárakter, milliy minez-qulıq hám óz watanınıń pidayıları etip tárbiyalawdan ibarat. Sebebi respublikamızdıń rawajlanıwı, gúlleniwi, keleshegi

kóbirek mine usı búgingi jas áwladqa baylanışlı. Sonlıqtanda tálim-tárbiya jumısların baqshadan hám onıń dawamı sıpatında kishi mektep jasınań baslaw talap etiledi.

Baqshadaǵı, mekteptegi tálimde psixologiyalıq jaqtan tayarlawda balanıń ob'ektiv hám sub'ektiv jaqtan mektep talabına múnásipligi názerde tutıladı. Onıń psixikası tálim, bilim aiıwǵa jeterli dárejede rawajlanǵanlıǵı oqıtıwshı tárepinen jáne bir tekserilip hám jıl dawamında baqlap barıladı. Sonda-ǵana baqsha jasındaǵı hám kishi mektep jasındaǵı balalarda milliy sezim, milliy maqtanısh, Watandı súyiwshilik sezimleri rawajlanadı. Bul joqarida aytılǵanlar únde esitip júrgen ápiwayı sózlerdey sezilgeni menen, házirgi kúnniń wazıypası usı.

Perzentlerin hár tárepleme jetilisken etip ósiriw bárqulla xalqımızdıń dıqqat orayında bolıp kelgen. Sebebi 1-klassqa qádem qoyıp atırǵan balalarǵa tálim- tárbiya berip atırǵan oqıtıwshı olarǵa dáslepki ádep- ikramlılıq, mehir-miriwbet túsiniklerin sanasına sińdire alsa ǵana, ol bala erteńgi kúni shin mánisindegi kámil bala, ǵárezsiz mámlekетimizdiń isenimi bola aladı. Demek muzıka tárbiya quralı eken, biz muzıka oqıtıwshıları onnan orınlı paydalaniwımız tiyis.

Ázelden-aq xalqımızdıń balalarǵa arnalǵan dóretpeleri arqalı, kompozitorlar dóretpelerindegi balalarǵa arnalǵan muzıkalıq shıgarmaları arqalı muzıka oqıtıwshıları, belgili sazendeler óz tárbiyalanıwshıların psixologiyalıq jaqtan, estetikalıq, ádep-ikramlılıq sezimlerge bay etip tárbiyalap kelgen.

Aqıl-oy menen sap deneni rawajlanıw, adamgershilik tazalıq penen ómirge degen estetikalıq kóz-qarasti úylesimli türde úshlastırıw-hár tárepleme jetik insandı qaliplestiriwdıń zárúrlı shártı. Balalarǵa muzıkalıq tárbiya beriwde sabaqtı durıs shólkemlestiriw, kóbirek usı mártebeli minnetke jetiw jolında kómekshi boladı.

Muzıkada sıyıqırılı kúsh bar, sebebi muzıka ózi haqqında, óz tilinde sóyleydi. Tíńlaǵan adamdı súysindiredi, jılatadı, quwantadı, emleydi, adamǵa ruwxıy kúsh beredi. Sonıń ushin da onı ilahiy qúdiretli kúshke iye dep ayta alamız.

Shayır Reyimbergen Ayapbergenov “Duwtarım” qosığında bılay táriypleydi..

Tíńlaǵandı súysindirgen- súydirgen,  
Júrek terbep ıshq-otına kúydirgen,  
Gúmbirlegen sestiń “Nardı iydirgen”  
Yoshımnıń ilhamı jańla duwtarım.

Qulaqtı qańtarıp saz- nama shertsem,  
Kimlerge shipasań, kimlerge dártseń,  
Jılaǵandı jubatpasań namártseń,.....

Muzıkadan da basqa kórken-ónerdiń túrleri kóp, misalı súwretlew óneri, skulptura, poeziya, teatr, kino. Muzıkanı tíńlap túsiniwimiz ushin (súwretlew óneri, skulptura, poeziya, teatr, kino) bulardı janapay qoyıw shárt emes. Al biraq, poeziyada, teatrda, kinoda waqıyanıń elede tásirsheńligi ushin, muzıka kerek.

Muzıka joqarıdan berilgen ilahiy qúdiretli kúsh! - dep aytayıq desek, onı jaratatuǵın házireti insan!.

Hár qanday qubılıstıń birpútinlik baylanışlığı bar. Muzıka, yaǵníy nama bizge esitiliwi ushın jipekten qattı tartılǵan tar kerek, al tardıń jarqın ses beriwi ushın qaraman yamasa tut aǵashınan sheber oyıp islengen ses shanaǵı “gárdan” kerek, bir qaraǵanda bul jipektiń yamasa aǵashtiń muzıkaǵa baylanısı joqtay bolsa da, báribir olarsız nama jańlamaydı. Demek bul álemde hámmezi bir-birine baylanıslı, bir-birine mútaj, birin biri tolıqtıradı.

Muzıkalıq shıǵarmanı, namanı qalay túsinemiz? Onıń maǵızı nede? Bul ápiwayı, tábiyǵıy kóringen názik qubılıstı qalay ilip alıp sezemiz?

Tereńde jasırıngan sırlı qubılıslardı seziw -bul adamnıń taza dóretiwsheńlik uqıplarınan biri. Bul haqqında ullı shayırımız Ibrayım Yusupov “Berdaqtıń duwtarı” qosıǵında bılay táriyplegen.

Yoshlı qosıq! Bir kúsh bar-aw ózińde,  
Jimbırlap eneseń sana-sezimge,  
Kewillerde báhár gúli ashılar,  
Baqsılar hawijge mingən gezinde. (1, 65-b)

Tábiyattı sheber súwretlep portret sızıw ushın názik seslerdi anıq esitiw, ótkirkózlilik, eń sezimtal intuitsiyanıń ózi jeterli emes. Onı kórip hám túsiniw menen sheklenip qalmastan tiriltiw, onıń menen birge jasaw kerek.

Hár qanday shıǵarmanı túsiniw ushın, onıń dóretiwshi iyesindey bolıp sol halatqa túsiw, obrazǵa beriliw, sol shıǵarmanıń ishinde jasaw kerek boladı.

Kórkem shıǵarmanı dóretiwindegi azaplari haqqında kóp kompozitorlar, jazıwshılar, shayırlar óz pikirlerin bildirip, jazıp qaldırıǵan. Mısalı: jáne shayır Ibrayım Yusupov bılay dep jazadı

Kewlińdi tabıwdı oylap,  
Bir sózdi bir sózge baylap,  
Qara túnde qálem shaynap,  
Aq qaǵazdı qaralayman.

Ármanım sol, tursam-jatsam,  
Sóz qusın ushardan atsam,  
Saǵan az-kem sóz unatsam,  
Basqa baxıt soramayman.(2, 28-b)

Tap sonday halat muzıka dóretiwshisinde de belgili bir waqıyanı súwretlew barısında, qıyalındaǵıday jalǵız buwın, yamasa namanıń bir qatarın ornına qoyıwı ushın ilham qusı qonbay qıynaladı. Sebebi nama sesleriniń uyǵınlasiwı, kelbeti hám mazmunınıń birigiwi nátiyjesinde muzıkalıq shıǵarmanıń tásirsheńligi artadı. Mine usı seslerdiń garmoniyalyq uyǵınlasiwı hám ses bálemtliliginiń óz ornına túsiwine -namanıń sırlı,

ilahiy kúshi dep túsinemiz. Al usı sáatl shıqqan muzıkalıq shıǵarmanı sheber sazendeler sherte-ǵoysa, namaniń tásirsheńlik kúshi jáne arta beredi. Al saz qúdireti haqqıhda bolsa, shayır óziniń “Xoshadás” qosıǵında belgili baqsı Genjebay Tilewmuratovtıń atqarıwshılıq ónerine tómendegishe táriyp bergen.

Esimde awılǵa baqsı kelgeni,  
“SHasánem-ǵáriyptı” aytıp bergeni,  
Baqsını dástanǵa salar aldında,  
“Qáne, ballar, barıp uyıqlań” degeni.

Gewish arasında, esik artında,  
“SHıqpayman” dep jılar, aqır-sońında,  
Bir baxıtlı bala uyqıdan qalıp,  
Tań atqansha baqsı tińlaǵan sonda ... (3, 116-b)

Tálim protsessinde balanıń abstrakt oylawı jaqsı rawajlanǵan bolıwı ushın, bárshı seziw organları qatnasiwı kerek: kóriw, esitiw hátte dem alıw, sebebi olar anıq nárse, predmet-waqıyaǵa qarap pikirleydi. Sonlıqtanda oqıtıwshı balalardı belgili bir muzıka shıǵarması menen tanıstırıw waqtında, onı tásırlı “janlı” atqarıp, tińlatıp, balalardıń dıqqatın shıǵarmaǵa qaratıwı shárt.

Bul arqalı oqıtıwshı balalardıń sóz baylıǵın ósiredi, pikirlew qábiletin, dúnya qarasın keńeytedi, emotşional sezim-tuyǵılarına aktiv tásır kórsetedi. Muzıka iskerliginiń mazmunında tek ǵana ózlestiriw emes, bálkım balalar ańınıń sırtqı ortallıqqa bolǵan mihásibetin rawajlandırıw, estetik mádeniyatın payda etiw hám basqa da ishki sezimlerin payda etiwi názerde tutıladı. Oqıtıwshınıń sabaqqa dóretiwshilik penen qatnas jasawı úlken áhmiyetke iye bolıp hám bir qansha wazıypalardı óz ishine maqset qılıp qoyadı:

- muzıka tárbiyasında jańa metodlardı qollanıw;
- kúndelili turmıs hám kórkem óner arasındaǵı úziliksiz baylanısti támiynlew.

Muzıka iskerliginde oqıtıwshınıń pedagogikalıq sheberligine ayriqsha talap qoyıladı. Oqıtıwshı hár bir balanı úyreniletuǵın yamasa tińlanatuǵın muzıka shıǵarmasına baylanıslı islegen kiris sózi menen ájayıp hám sıyqırılı muzıka álemine alıp kireti. Qızıqlı gúrriń yamasa sáwbet joli menen balalardıń dıqqatın tartıdı. Solay etip oqıtıwshı usınday usıllar menen balalardıń muzıka kórkem-ónerine bolǵan qızıǵıwshılıǵın payda etip ǵana qoymastan, rawajlandırıp bariwǵa erisedi.

### ÁDEBIYATLAR

- 1) Yusupov Ibrayım. “Tańlamalı shıǵarmalar” toplamı.2-tom. 65-bet.
- 2) Yusupov I . “Kewildegi keń dúnya” qosıqlar toplamı.”128-bet
- 3) Yusupov I. “Búlbıl uyası” qosıqlar toplamı.116-bet.

## **YUQUMLI KASALLIKLAR, KORONAVIRUSNI KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH**

*To 'rayev Mardonjon Farmonovich  
BuxDU Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lgan yuqumli kasalliklar, koronavirusni kelib chiqish sabablari va ularni inson psixologiyasi, ongi yordamida bartaraf etishning o'ziga xos yo'llari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** yuqumli kasalliklar, koronavirus, jamoaviy g'ayrishuuriy ong, infeksiya, mikrob, yallig'lanish, taranglik, sarosima, tartibsizlik, g'azab, qahr, alam, qasos olish istagi, qo'rquv, fikrlar tozaligi, **Valeriy Snelnikov, Dardingni sev.**

### **INFECTIOUS DISEASES, CAUSES OF CORONAVIRUS AND THEIR ELIMINATION**

Turaev Mardonjon Farmonovich, teacher of the Department of Information Technology of Bukhara State University

**Annotation:** The article describes the current problems of infectious diseases, the causes of coronavirus and specific ways to overcome them with the help of human psychology and consciousness.

**Keywords:** infectious diseases, coronavirus, collective unconsciousness, infection, germs, inflammation, tension, confusion, disorder, anger, rage, pain, desire for revenge, fear, purity of thought, Valery Snelnikov, Love your pain.

### **ИНФЕКЦИОННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ, ПРИЧИНЫ КОРОНАВИРУСА И ИХ ИСКЛЮЧЕНИЕ**

Тураев Мардонжон Фармонович, преподаватель кафедры информационных технологий Бухарского государственного университета.

**Аннотация:** В статье описаны актуальные проблемы инфекционных заболеваний, причины возникновения коронавируса и конкретные способы их преодоления с помощью психологии и сознания человека.

**Ключевые слова:** инфекционные болезни, коронавирус, коллективное бессознательное, инфекция, микробы, воспаление, напряжение, замешательство, расстройство, гнев, ярость, боль, желание мести, страх, чистота мысли, Валерий Снельников, Любите свою боль.

“Mening fikrimcha, odamlar nafaqat kasalliklarni, balki barcha kasal tug‘diruvchi mikroorganizmlarni ham o‘zi yaratadi. Odamlar o‘z fikrlari kuchidan foydalanib ularni hech narsadan, bo‘shlikdan, sof energiyadan hosil qiladi. Faqat bu fikrlar halokatli va kasal tug‘diruvchidir. Ya’ni jamoaviy g‘ayrishuuriy ongdagi taranglik, sarosima va tartibsizlik kasallikni kelib chiqishiga yordam beradigan virus yoki mikrobni yaratadi.

Organizmdagi yallig‘lanish ongimiz, tasavvurimiz “yallig‘langanini” anglatadi. Bunga kuchli g‘azab, qahr, alam, qasos olish istagi, qo‘rquv olib kelishi mumkin. "Yallig‘langan" fikrlar chipqon, yiringlash va bezgak shaklida namoyon bo‘ladi.

“Infeksiya-chi?” — deb so‘raysiz siz.

Bakteriya va viruslarning o‘zi sirayam xavfli emas. Ular atrof-muhit, tabiatning tarkibiy qismi va qandaydir muhim vazifalarni bajaradi. Masalan, ichaklarimizda yashab, ovqat hazm qilish jarayoniga yordam beradigan bakteriyalar bor. Mikrob va viruslar o‘z-o‘zicha tajovuzkor emas, biroq tajovuzkor muhitga tushganda ular kasallik tug‘diruvchi va zaxarlovchi bo‘lib qoladi. “Begona o‘tlar o‘sigan erda begona o‘tlar o‘sadi”. Yoki mashhur mikrobiolog olim Lui Paster aytganidek: “Mikroblar hech narsa emas, muhit - hamma narsa”. Muhitni esa biz o‘z fikrlarimiz bilan tayyorlaymiz. Ezgu fikrlar bilan - parvarishlaymiz, tajovuzkor fikrlar bilan - ifloslantiramiz.

Bu erda *ham ikki yo‘l bor*. Birinchisi - bu antibiotiklar yordamida infeksiyani yo‘q qilish. Biroq bu tajriba shuni ko‘rsatadiki bu boshi berk yo‘l, chunki mikroorganizmlarning endi preparatlar ta’sir qilmaydigan chidamli ko‘rinishlari shakllanadi. Tibbiyot yanada kuchliroq kimyoviy dorilar yaratishga majbur bo‘ladi, biroq bu butun organizmni zararlashga olib keladi.

Ikkinci yo‘l ham bor - mikroblar uchun oziqlanish muhitini yaratadigan tajovuzkor fikr va tuyg‘ulardan xalos bo‘lish va o‘z immunitetini oshirish. Tanlash sizning ixtiyoriningizda. Mikroblar bilan kurashish kerak emas, ular bilan do‘stlashish kerak. Bu dunyodagi barcha tirkik mavjudot Xudo tomonidan insonga yordam berish uchun yaratilgan.

Tez-tez uchraydigan yuqumli kasallik bo‘lmish gripp, umuman har qanday shamollash ham hayotingizda haddan tashqari ko‘p voqealar bir vaqtida sodir bo‘layotgani va bu taranglik, sarosima va tartibsizlik, jaxl va besaranjomlikni vujudga keltirayotganidan darak beradi.

Katta-kichik nizolar, ruhiy iztirob, alamlar yig‘ilib qolgan. Bu holatda kasallik ijobjiy vazifa bajaradi - e’tiborda bo‘lish, har turli majburiyatdan qochish, dam olish, to‘sakda bir-ikki kun yotib fikrlarni tartibga solib olish.

*Bir kuni tanishimning 8 yoshli o‘g‘li xitob qildi.*

*- Dada, men o‘qishdan shunchalik charchadimki. Kasal bo‘lib qolsam, məktəbga bormasam.*

**Menimcha, bu har bir kishiga tanish bo‘lsa kerak. Va faqat bolalik davrida emas. O‘zingiz kasallik varaqasini tez-tez olib turishingiz esingizdadir?**

Kasallikni shunchaki o‘z sog‘ligingiz uchun qo‘rquv, kasal bo‘lib qolishdan qo‘rqish, statistik ma’lumotlarga bo‘lgan ishonchszilik vujudga keltirishi ham mumkin. Bunday holda siz salbiy ijtimoiy ko‘rsatmalarni qabul qilasiz va atrofdagilarning salbiy ruhiy holatidan ta’sirlanasiz.

Mana bu holat tez-tez bo‘lib turishini eslang. Yoningizda kimdir aksirdi yoki yo‘taldi, siz esa kasal bo‘lib qolaman deb qo‘rqib ketdingiz. Yoki televizordan qayerdadir gripp virusi quturyapti deb e’lon qilishdi, siz esa tashvishga tushib, oldindan aptekaga yugurdingiz. Bunday hollarda men doim o‘zimdan so‘rayman.

Menga kasallik kerakmi? Kasallik menga qanday foydali narsa berishi mumkin? Menga hal qilinmagan muammolardan qutulish, voqelikdan qochish uchun bir hafta to‘shakda haroratim ko‘tarilib, tomog‘im og‘rib tumov bo‘lib yotish kerakmi?

- Yo‘q deb javob beraman o‘zimga o‘zim, - menga bu kerak emas. Axir men hayotimdagи har qanday muammoni hal qila olaman, chunki hayotimni o‘zim yarataman. Demak, doim har qanday vaziyatdan qutulishning eng yaxshi yo‘lini topa olaman. Agar hozir hayotimda qanaqadir hal qilinmagan muammo bo‘lsa, men butun ichki kuchimni uni hal qilish uchun tashlayman. Men ongosti aqlimdan bu muammoli vaziyatni a’lo darajada hal qilishim uchun yangi fikr va fe’l-atvor usullarini yaratishini so‘rayman. Man o‘zimga va Koinotga batamom ishonaman. Shuning uchun xotirjamman. Va kasallik mena chetlab o‘tadi. Mening immun tizimim a’lo darajada ishlaydi.

Men shunchaki sog‘lom bo‘lish, hayotdan quvonish va lazzatlanishni tanlayman! Bu mening tanlovim” — Valeriy Snelnikov “Dardingni sev” kitobidan.

“Jamoaviy g‘ayrishuuriy ongdagi taranglik, sarosima va tartibsizlik kasallikni kelib chiqishiga yordam beradigan virus yoki mikrobni yaratadi”.

Koronavirus paydo bo‘lishidan oldingi vaziyatni eslang, yo internetdan sana bo‘yicha qidiruv bersangiz ham chiqadi. Vaziyat dunyo bo‘yicha juda taranglashib ketgandi. AQSH va Yevropa davlatlarining ayrimlari Shimoliy Koreya, Eron, Rossiya, Xitoy kabi davlatlarga bosim o‘tkazishga harakat qilayotgan edi. O‘sha paytdagi asosiy, eng ta’sirli, mashhur axborotlar shu haqida bo‘lardi. Unday jarayon davom etaversa, urush boshlanishi va u III jahon urushiga ulanib ketishi hech gap emasdi.

“III jahon urushi qanday bo‘lishini bilmadimu, lekin IV jahon urishida odamlar xuddi qadimgidek qo‘llarida tosh va tayoqlar olib jangga kiradi” — A. Eynshteyn – atom bombasi yaratuvchisi.

Har holda 4-5 ta “aqlli”ni deb, butun sivilizatsiya qaytalanmaydi.

Unda nega muammoga aloqasi yo‘qlar ham jabr ko‘ryapti? – dersiz. Sabab kuchli ta’sirli axborotlar yordamida keng ommaga sarosima, qo‘rquv hosil qilinayotgandi.

“*Bir kishi safarda ketayotib, yo ‘lda koronavirusni uchratib qolibdi.*

— *Qayerga ketyapsan? – so ‘rabdi virus.*

— *Ziyoratga , sen-chi?*

— *Sening yurtingga, besh ming kishini olib ketishga, — debdi virus.*

*Har kim o ‘z yo ‘lida ketibdi. Yil o ‘tib, ular yana o ‘sha joyda ko ‘rishib qolishibdi.*

— *Sen meni aldading, — debdi virusga haligi kishi, — besh ming kishini olib ketaman deb, yurtimdan ellik besh ming odamni olib ketibsan!*

— *Yo ‘q, men rostdan ham besh ming kishini olib ketdim. Qolgani vahimadan, ayrimlari oziq-ovqatga bo ‘kib o ‘lishdi, — debdi virus” — latifa.uz dan.*

Qachon koronavirusga qarshi vaksina yaratiladi? — qachonki vaziyat yumshab, odamlarning fikri sarosima, taranglikning xavfsiz darajasigacha tushsa.

Bir taklif, davlat rahbarlari (ayniqsa, urush “manbalari”), yig‘ilib, hech qanday tahdidlar qilmaslikka, do‘stona, tinch-totuv yashashga kelishib olishsa va amalda ham bu isbotini topsa, koronavirus ham dunyo bo‘yicha keskin kamayadi. Albatta, kasallanganlarda atrofqa, davlatga nisbatan ham qo‘rquv, ishonchsizlik bo‘lishi mumkin. Bu ham o‘zaro ishonch bilan yengiladi.

Har holda bu bilan nafaqat koronavirusdan qutilish, balki dunyo bo‘yicha tinchlikni o‘rnatish ham mumkin bo‘ladi. Buning foydasi chek chegarasizdir. Qolaversa ko‘pchilik insonlar dunyoga kelishdan maqsadlarini ham unitib qo‘yishgandi. Koronavirus davri yordamida yaxshi fikrlab olishlari zarur.

Kasallikni yengishning oson, foydali yo‘li *fikrlar tozaligidir.*

To‘g‘ri boshqacha yo‘l bilan ham vaziyatni izga tushirish mumkin, ammo yuqoridagilarni amalga oshirish kasallikni tub ildizini yo‘qotish bilan birga, qolgan yo‘llardan oson, qiziqarli va foydaliroq bo‘lsa-ki ajab emas(may, 2020).

Avgust oyida viloyat koronavirusga qarshi qurashish shtabiga ishlashim, u yerda kelib tushayotgan ma’lumotlar orqali ham ayrim hollarni tahlil qilish imkonim bo‘ldi. Hammaga malumki 15-avgustdan butun respublika bo‘yicha qariyb barcha cheklolar olib tashlandi. Qizig‘i shundan keyin viloyat bo‘yicha har kunlik koronavirusdan va umumiyl o‘limlar soni 2-3 barobar kamaydi... Afsuski respublika bo‘yicha kunlik, oylik va oldingi yillardagi holatlar haqidagi ma’lumotlarni statistika qo‘mitasidan olib, taxlil qilishning imkonini bo‘lmadi.

Noyabrda AQSHda yangi president aniq bo‘ldi. Uning rejalariga e’tibor bersak, Xitoy, Eron va boshqalar bilan vaziyatni yaxshilab, Rossiya bilan aksincha ish tutmoqchi... Demak, yuqoridagi fikrlardan foydalansak, koronavirus Xitoy,

Eronlarda kamayib, Rossiyada ko‘payishini bildiradi... Bu holat hozirdan o‘zini ko‘rsatyapti...

O‘zbekistonga kelsak, aholisida ko‘p ham dunyo muammosini, tinchligini o‘ylashga hafsala ham, vaqt ham yo‘q. Aholi asosan mustaqil ish tutadi, ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan, o‘tkazyapti ham, xullas koronavirus ko‘p ham ta’sir qilmaydi.

Semizlikning psixologik asosi qo‘rquvda. Semiz kishidagi ziyoti yog‘ unga bo‘ladigan xavfdan majoziy ma’noda himoya qiladi, xavfni "o‘tmaslashtiradi"... Shuning uchun ham koronavirusga ko‘proq yoshi katta, semiz kishilar chalinadi...

Xulosa qiladigan bo‘lsak, inson har qanday qo‘rquvni (u kelajak hayotidanmi, odamlar va davlatga bo‘lgan bo‘lgan ishonchsizlikmi...) yengsa, ishonchga aylantirsa, unga koronavirus ta’sir qilmaydi (noyabr).

Qisqacha aytganda, barcha kasalliklarni psixologik asosi bor. Masalan, hozirda eng ko‘p kasallanish yurak qon tomir kasalliklariga to‘g‘ri keladi. Uning asosi muhabbat va quvonch yetishmasligi. Xuddi shunday koronavirus asosi qo‘rquvda... Shuning uchun har qanday qo‘rquvni ishonchga aylantirish kerak... (Biz shu davrda yashayotgan ekanmiz, bu davlat, jamiyat, dunyo biz uchun eng munosibrog‘i va xavfsizrog‘idir...)

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Valeriy Snelnikov “Dardingni sev” Toshkent “Navro‘z” nashriyoti 2019-y.

## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ АУТИЗМГА ЧАЛИНГАН БОЛАЛАРДА ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТ ТУРИ ОРҚАЛИ МАЙДА МОТОРИКАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Абсалиева Зарифа Сайимовна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳри  
20-сонли ДМТТ тарбиячиси

Ўзбекистон Республикасининг ilk ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари туғилганидан 7 ёшгача бўлган болаларнинг бешта асосий ривожланиш соҳаларига бўлинган. Ҳар бир ривожланиш соҳаси ўз ўрнида кичик соҳаларга бўлинган бўлиб, улар ҳар бир ёш гурухига мос бир нечта талаблардан(кутилаётган ривожланиш қўрсаткичларидан) иборат. “Жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш”

соҳаси қўйидаги кичик соҳаларга бўлинади: йирик моторика, майдада моторика, сенсомоторика, соғлом турмуш тарзи ва хаёт хавфсизлиги асослари. Тасвирий фаолият машғулотлари бола ривожланишида комплекс таъсир этади: - шакл, ҳажм, пластик, рангни идрок этиш ҳиссиётини, сенсор сезувчанлигини ривожлантиради; -майда қўл моторикасини, фазовий таффакурни ва тасаввурни ривожлантиради; -иккала қўл ишини синхронлаштиради; -ишни режалаштириш, амалга ошириш, натижани башоратлаш ва унга эришиш, керак бўлса ўзгартириш киритиш ишларида кўникма, малакалари шаклланади;

Мактабгача ёшдаги аутизмга чалинган болаларда тасвирий фаолият тури орқали майда моторикани ривожлантириш ва турли хил замонавий ўйин усулларидан фойдаланиш бўйича гурухларда олиб бориладиган тасвирий фаолият машғулотларида ёки санъат марказларида боланинг майда қўл моторикаси ривожлантирилиб борилади. Майда моторика эса ўз навбатида боланинг оғзаки нутқини ривожланишида, қунт, диққат-эътиборини, хотира ва тафаккурини шаклланишида жуда муҳим аҳамият касб этади. Бунинг учун тасвирий фаолият машғулотларида ёки санъат маркази орқали бармоқлар ҳаракатига асосий эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Замонавий усуллардан бўлган бармоқлар ёрдамида расм чизиш мактабгача ёшдаги аутизмга чалинган болаларга ўзгача қизиқиш ва завқ бағишлийди. Бунда бола бармоқларини махсус суюқ рангли бўёққа теккизади ва қофозга турли шаклларни ифодаловчи тасвирларни чизишга ҳаракат қиласи.

Бу жараён орқали бола ранглар билан танишади, атроф-муҳитга қизиқиши ортади, ўзлигини намоён этади ва энг муҳими майда моторикаси ривожланади.

Эртак асосида қумдан фойдаланиб расм чизиш, квилинг усулида қоғоз тасмачалардан турли нарсалар ясаш, ЗД апликациялар каби қизиқарли методлардан фойдаланилганда ҳам боланинг бармоқлари бевосита иштирок этади ва бармоқлар учларида жойлашган нутқ ва тафаккурни ривожлантирувчи нуқталар ўз навбатида мия фаолиятига ижобий таъсирини кўрсатади. Мактабгача таълим ташкилотларида ўтиладиган “Тасвирий фаолият” машғулотлари болаларга бериладиган эстетик тарбия масалаларини ечишда ҳам катта аҳамиятга эга. Чунки тасвирий фаолият ўз хусусиятига кўра бадиий фаолият ҳисобланади.

Бадиий фаолият машғулотларининг барча турлари болаларда гўзалликни билиш учун, борликқа нисбатан эстетик муносабатни ривожлантириш учун кенг имкониятларни очиб беради. Бундан ташқари тасвирий фаолият болаларни ахлоқий тарбиялайди. Ушбу жараёнда болаларда ироданинг сифатлари-бошлаган ишини охирига етказиш, олдига мақсад қўйиб, ўшани бажаришга томон интилиш, қийинчиликларни енгиш, ўртоқларига ёрдамлашиш каби хусусиятлар тарбияланади.

Жамоа ишини яратиш жараёнида болаларга бир-бирига ёрдам, келишиб ишлаш каби сифатлари; ишни баҳолаш жараёнида, уларда ўртоқларининг ишга нисбатан реал муносабатда бўлиш, тўғри баҳолаш, ўз ишидан ва ўртоқларининг ишидан хурсанд бўлиш каби ахлоқий сифатлар шаклланади. Тасвирий фаолиятда ўйинли ўргатиш усулларидан фойдаланиш кўргазмали амалий 228 ўргатиш усулига киради. Бола қанча кичик бўлса, ўйин унинг тарбиясида шунча катта ўрин тутади. Ўйин усуллари қўйилган масалага нисбатан болаларнинг дикқатини яхши жалб қиласди ва хаёл билан тафаккурнинг ишини енгиллаштиради. Кичик ёшдаги болалар учун ўйин машқларидан расм чизишда кенг фойдаланилади. Мақсад болаларнинг оддий чизиқли шаклларни чизишга ўргатиш, ҳамда қўл ҳаракатларини ривожлантиришдир. Болалар тарбиячининг ортидан қўллари билан ҳавода, сўнг қофозда турли чизиқларни чизадилар.

Тарбиячи боланинг қўлига қофоз ва қалам бериб уни хоҳлаган нарсасини чизиши мумкинлигини айтади ва чизган белгиларига қараб шаклларни тасвирлаб беради. “Ёмғир ёғаяпти”, “шамол бўляпти” каби сўзлар билан тушунча ҳосил қиласди. Бундан бола қувонади, шу билан бирга луғати бойийди ва нутки ўсади. Образ билан ҳаракатнинг бирлашуви бола томонидан чизиқларни ва содда шаклларни тасвирлаш малакасига эга бўлишни анча тезлатади.

Кичик гуруҳда предметларни тасвирлашда ҳам ўйин усулларидан фойдаланилади. Масалан: меҳмонга қўғирчок келади ва болалар унга нозу-неъматлар ясайдилар, нон, кулча, ширинлик, ва ҳоказо. Бундай иш мобайнида болалар шарни ясиласига уринадилар. Ушбу жараёнда ҳам боланинг майда моторикаси ривожланади. Ўрта гуруҳда болалар айиқни юмшоқ ўйинчоғига қараб чизишлари керак. Шунда қизиқарли ўйин ўтказиш учун, айиқча эшикни тақиллатади, сўнг болалар билан саломлашиб, болалардан унинг расмини чизиб беришларини илтимос қиласди. Машғулот яқунида у расмларни баҳолашда қатнашади ва яхши расмларни ўзи танлайди. Машғулотнинг жисмоний дақиқа қисмида эса болалар қалам ёрдамида кафт машқларини бажарадилар. Бунда бир дона қалам аввал кафтлар орасида олдинга ва орқага ҳаракатлантирилади кейин эса ўнг қўлнинг устки қисмида юргизилади, сўнгра чап қўлнинг устки қимида юргизилади. Ушбу ўйиндан фойдаланилганда боланинг бармоқларидағи барча нуқталар қўзғалувчан ҳаракатга келади ва бевосита майда моторикани ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, тарбиячи ўйиндан фойдаланганида бутун машғулотни ўйинга айлантириб юбормаслиги керак, чунки бу болаларнинг дикқатини топшириқни бажаришдан тортиб, кўникма, малакаларга эга бўлиш мавзусини бузади. Расм чизиш, лойдан буюм ясаш, аппликация турли методлардан ҳамда ўргатиш усулларидан

фойдаланишни талаб қиласи, шу жумладан болаларда кўникма малакаларни ҳосил қиласидиган амалий методлардан ҳам фойдаланиш талаб қиласи.

Амалий методлардан асосийси бўлмиш, техник ва баъзан тасвирий малакаларни ўргатадиган машқлардир. Бу машқлар болалар учун мураккаблик туғдирмайди. Чунки бунда юмалоқ шакли предметларни ясашни ўрганиб, болалар коптокни, олмани, апельсинни ва шу каби предметларни ясайдилар. Йўлларни, ёмғирларни чизиб, улар горизонтал ва вертикал чизиқларни чизишни машқ қиласидилар. Катта гурухдаги болалар олдида эса тўғридан тўғри маълум бир топшириқ қўйилади, чиройли ва тўғри штрих билан чизишга ўрганиш. Штрихлаб чизишни кўрсатиб бергандан сўнг, болаларга мураккаб бўлмаган предмет контурини (масалан: уй, қўзиқорин, олма) чизиб олиб, уни озода қилиб бўяmasлик расмни хунук қилиб қўйишини биладилар ва сидқидилдан машқ қиласидилар. Машқлардан тасвирий характерга эга бўлган топшириқларни тушиниш учун фойдаланилади. Масалан, тарбиячи бир чизиқ билан инсон бошининг ёнмача қиёфасини чизишни кўрсатиб берганидан сўнг, болалар бир неча марта одам бошининг расмини қайта - қайта чизадилар. Тарбиячининг вазифаси болаларнинг тасвирий фаолиятини шундай ташкил қилиш керакки, у фаол ва ижодий бўлсин. Ҳар бир машғулот фақатгина маълум бир предметни тасвирлашни ўргатиш эмас, балки боладан ишни мустақил бажаришни ҳам талаб қиласи. Шу мақсад билан тарбиячи турли хил усуллардан фойдаланиб, янги замонавий методларни қўллаган ҳолда тасвирий фаолият машғулотини ташкил этиб борса, ижобий натижаларга эришилади.

### МАКТАВАЧА TA’LIM SOHASI PEDAGOGLARINING RAQAMLI SAVODXONLIGINI OSHIRISH

*O`roqova Zebo Narzullayeva  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
20-son DMTT tarbiyachisi*

Hammamizga ma`lumki, so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari yanada rivojlanib bormoqda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya – bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intelektual, ma’naviy –axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiyl o‘rta ta’limiga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta’lim turidir.. Maktabgacha ta’lim tizimiga qo‘yilgan talablar ham yetarlicha. Xuddi shu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi 2017-

2021yillarini takomillashtirish chora tadbirdari to‘g‘risida”gi PQ-27-07-sodan qarorining asosiy maqsadi Maktabgacha ta’lim tashkilotini yanada takomillashtirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, Maktabgacha ta’lim muassasasi tarmog‘ini kengaytirish malakali pedagogik kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni mакtab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intelektual axloqiy, estetik, va jismoniy rivojlanish shart-sharoitlarini yaratishdan iboratdir. Ana shunday dolzarb masalalarni inobatga olib shuni aytishimiz joizki, bola tarbiyasi juda qiyin masala. Tarbiya jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish va bolalarimizni yuksak bilim teran fikr, egasi qilib tayinlash albatta biz tarbiyachilarining mas’uliyatli vazifalarimizdir. Uning uchun pedagog va tarbiyachilarimizdan yetarlicha bilim, malaka, ko‘nikma, pedagogik mahorat shakllangan bo‘lmog‘i zarurdir. Hozirgi kunda har bir tashkilot, muassasa rivojlangan, intelektual salohiyatli, axborot kommunikatsiyalar bilan hamnafas, raqamlashtirilgan va ma’lum bir tizimlashtirilgan jarayonlar qurshovidamiz. Ayniqsa hozirgi kunda uzlusiz ta’limning bиринчи pog‘onasi bo‘lmish maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining raqamlashtirilgan tizim, dastur, bilan mukammal puxta o‘zlashtirish ularning pedagogik kasbiy layoqatini oshirish bugunning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Xo‘sish raqamli savodxonlik o‘zi nima? Raqamli savodxonlik 1997-yil fanga kiritilib, ya’ni bu internet tarmog‘i ma’lumotlarini o‘zlashtirish to‘g‘ri qabul qilish, tushunish, birlashtirish va o‘rni kelganda ularish demakdir. Internet – bu butun jahon “tarmoqlar tarmog‘i”. U turli apparatdasturiy arxitekturaga asoslanib qurilgan hisoblash tizimlari va lokal tarmoqlarini o‘zida birlashtiradi.

Birinchidan, bunday tizimni yo‘lga qo‘yish uchun biz nimalarni o‘zgartirishdan boshlashni anglashimiz zarurdir. Xususan, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini bilamizki tashkilot direktori boshqaradi, tartibga soladi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadiva natijada baholaydi tashkilotning mavqeini ko‘tarish uchun chinakamiga harakat qiladi. O‘sha tashkilotning innovatsion faoliyati axborot resurs bazasi moddiy texnik bazasi bilan ta’minalash rahbarning ustuvor vazifalaridan biridir. Shunday sharafli kasb va mahoratga ega rahbar agarda yuqoridagi yangicha innovatsiya, metod, axborot kommunikativ 164 texnologiyalarni bilsa, uning atrofidagi har bir xodim unga ergashadi va taqlid qiladi. Biz demak, oliy ta’limdan boshlashimiz zarurdir. Oliy ta’lim muassasasi talabalarini o‘quv faoliatlari jarayoni davomida biz raqamli savodxonlik, va axborot kommunikatsiya bilan tanishtirib ularni o‘rganishga da’vat etsak kelajakda ular rahbarlik qiladigan tashkilot hech ham orqada qolmas edi. Afsuski, ba’zi olis chekka hududlarimizga oliy ma’lumotli kadrlar, pedagoglar yetishmaydi.

Xuddi shu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ko‘z o‘ngimizda gavdalananadi. “Ma’lumki, maktabgacha ta’lim muassasasi hisoblanadigan bolalar bog‘chalari o‘g‘il qizlarimiz, nabiralarimizning ongu tafakkuri qiziqishlar

dunyosi, go‘zal his-tuyg‘ulari shakllanishida, ularning kelgusida barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Farzandlarimizni bolaligidan sog‘lom, aqli qilib tarbiyalasak, ertaga mакtabga bilimli yoshlar keladi. Mакtabni o‘quvchilari har tomonlama bilimli bo‘lib bitirsa, institutlarimizga ilm-ma’rifatli ma’naviyatli yoshlar boradi, mamlakatimiz uchun yaxshi kadrlar yetishib chiqadi. Shuning uchun mакtabgacha ta’lim doimo diqqatimiz markazida bo‘lishi kerak” Tarbiya borasida va bolalarning kamoloti pedagoglarning savodi bo‘yicha to‘xtalar ekanmiz, avvalo, bola oilada tarbiyalanishini ham unutmasligimiz kerak.

Taraqqiyparvar ma’rifatparvarlardan biri Abdulla Avloniy “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?”-degan savolga “Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur deb javob bergen edi. Haqiqatdan ham millat tarbiyasida ayollarimiz onalarimiz mas’uldirlar. Buning isboti sifatida qaysi mакtabgacha ta’lim tashkilotini olmang hammasida ona ya’ni ayol tarbiyachilar asosiy o‘rinni egallashgan. Tarbiya jarayonining sifati va uzlusizligi, aniqligini psixologiya tadqiqotlari bilan o‘rganganimizda aksincha ayol tarbiyachi ya’ni ona tarbiyasi bilan erkaklarning faolligi orasida tafovutlar kelib chiqarkan.

Endi bunday tafovutlar qanday jarayonlarda o‘z tasdig‘ini topishi mumkin? Shuning isboti bilan ozgina to‘xtalamiz. E’tibor bergen bo‘lsangiz mакtabgacha yoshdagи bolalar xarakteri ham nutqi ham o‘zgacha ularning psixik, aqliy, fiziologik xususiyatlari tobora farq qiladi. Ularning o‘ziga tortadigan tomoni shundagi, ikki jins vakillari ya’ni o‘g‘il va qiz bolalar nutqida o‘xshashlik borligida. Bu qanday jarayon? Bu psixologiyada “GENDER” nomi bilan yuritiladi. Gender aslida jinslar, jinslararo munosabatlarni bildirsada, mакtabgacha yoshdagи bolalar nutqida boshqacha ifodasini topadi. Ya’ni ularning nutqidagi ayrim ovoz tonlari, jarangli, jarangsiz, muloyimlik, do‘q qilish jahl bilan fikrini aytish bolajonlarimiz orasida ikki jins vakillari orasida almashish kuzatiladi. Masalan qiz bolalarda yug‘onroq ovoz hukmini o‘tkazish buyruq xuddi o‘g‘il bolalardek bo‘ladi. O‘g‘il bolalarda aksincha xuddi qizlardek muloyimlik, nafosat, ovoz mayinligi bilan tafovut qiladi. Buning asl sababi psixologiya, irsiyat, tibbiyat, tarbiyaga bog‘liqdir. Biz ana shu masalani yechimini toppish uchun va mukammal o‘rganish va bartaraf etish uchun raqamlashtirilgan ta’lim va axborot texnologiyalarning o‘rni beqiyos kattadir. Masalan bolalarga, sen o‘g‘il bolasan unday gapirma dadil tur desak u bizni eshitmaydi. Uning uchun bizga audiovizual va vizual idrok asosida ko‘rgazmali qurollarda foydalanish afzalroqdir. Masalan qandaydir teatrni sahnalshtirganda o‘g‘il bolalarning hukmron ekanligi govdalantirilsa yanada yaxshi natija beradi. Qiz bolalar esa aksincha ularga gap bilan uqtirib bo‘ladi. Demak, biz bolalarning psixik va aqliy xususiyatlarini hisobga olish uchun ham rivojlanishda orqada qolmasdan innovatsiyaga mos bo‘lgan metod va vositalarda foydalanib yechim topish kerakdir. Bundan tashqari multifilmalar bolalarni bilim egallashga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda katta yordam beradi. Bunda tarbiyachilar bolalarga tomosha qilish uchun multifilmarni internetdan keraklisini topa

bilishi zarur va topib, yuklab olib ko‘rsatadi. Bugungi kun tarbiyachilari elektron raqamli kutubxonalardan foydalanishni bilishi muhim. Chunki, har vaqt yosh avlod ta’lim-tarbiyasi hayot-mamot masalasi bo’lgan. Ta’lim-tarbiya masalasini yaxshi olib borishda keng ko‘maklashadigan vosita internetdan va axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Biz malakali kadrlar salohiyatini yanada oshirish va ularni axborot texnologiyalar asosida ta’lim berish uchun qandaydaydir innovatsion o‘quv kurslari, seminarlar, treninglar faoliyati yo‘la qo‘yilsa, natija aynan hozirgi tizimga mos kelgan bo‘lardi. Undan tashqari pedagoglarni raqamlashtirish savodiga jalb qilish uchun esa konferensiya, video, radio, ko‘rsatuv va eshittirishlar orqali ularni yangi tizimga jalb etish lozim bo`ladi.

---

## **TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILAR BILISH FAOLLIGINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Kazaxbaeva Dilbar Ibrayimovna  
Bozataw tumani XTB 9 sonli umum ta’lim maktabi psixologi*

Ta’limda o’qituvchining boshqaruvchilik roli o’z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatni asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiylaloqalar, estetik hamda ahloqiy qarashlar jarayonida qo’lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo’yadi.

Bularning barchasi o’qituvchining ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishda o’z aksini topmog’i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o’qituvchi o’z o’quvchilariga qo’lga kiriitilgan bilimlarni o’rgatadi, o’quv faoliyatida ularni malaka va ko’nikmalar bilan qurollantiradi. SHu bilan bir paytda u o’quvchilarda dunyoqarash va ahloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O’qituvchining faoliyati o’quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yana-da, aniq qilib aytgan-da, butun o’quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o’quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi, o’quvchilarga qiyinchiliklarni engib o’tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi.

O’z navbatida o’quvchilarning faoliyati o’quv jarayonida o’rganishga, bilim, malaka hamda ko’nikmalarni egallashga, o’zini jamiyatda foydali faoliyatga tayyorlashga

yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'pqirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda, o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiyligi va alohida topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchining faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlabgina qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. SHu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois o'quvchi jalgan etiladigan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; sub'ekt (o'quvchi) kuchi, faolligi, mustaqilligi turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy, reproduktiv, boshqalarida – izlanishli, uchinchilarida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri uning oxirgi natijasi – egallangan bilim, malaka, ko'nikmalari xarakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi, xuddi etuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'quvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish, ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi. Insoniyatning umumlashtirilgan bilimlari tizimi ta'lim davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va ular ilmiy haqiqat tashuvchilariga aylanadilar.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub'ektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va ma'lum boyliklar yaratuvchi faoliyatning qayta yaratuvchi xarakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasi (maktab, akademik lisey, kasb-hunar kolleji)dagi bilish faoliyatining xususiyati shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan "mahsul"ga ega emas va o'quvchining o'zi uni hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, "men o'qidim o'rgandim! Adolatdan emas" degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Faoliyat maqsadlari, uning maqsadli farazlari ta'limning uzoq muddatli jarayonini belgilaydi, uning ijtimoiy yo'nalgaligini ob'ektiv ifodalaydi va uning pirovardi natijalarini belgilab beradi. SHu bilan birga isbotlanganki sub'ektiv tarzda bu murakkab va o'quvchining tajribasidan uzoq bo'lган maqsadlar hamma vaqt ham anglab etilmaydi va o'quvchining o'zi faoliyat sub'ekti sifatida maqsadlarni bevosita tashuvchi bo'lmaydi. O'qishning ijtimoiy yo'nalgaligi o'quvchining faoliyati bilan belgilanadi, o'quvchi qanchalik yosh bo'lsa, bunday belgilanish darajasi yuqori bo'ladi.

Bu jarayonni bilish bosqichlaridan iborat bo’lgan tarkibiy qismlarga (yoki bo’g’inlarga) ajratish mumkin. O’quvchi bilmaslikdan bilishga qarab, to’la va mukammal bo’lmagan bilimdan to’la va mukammal bilimga o’tishi lozim.

O’qitish jarayoni to’rtta asosiy bo’g’inlardan tashkil topgan:

- 1) o’zlashtirilishi lozim bo’lgan ma’lumotni idrok qilish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo’lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko’nikma va malakalarning hosil bo’lishi;
- 4) hosil qilingan ko’nikma va malakalarni amalda qo’llash.

Bu bo’g’inlar o’quvchilarning ma’lum bir yo’nalishdagi bilish faoliyati bilan bog’langan bo’lib, u o’qituvchining boshqaruvchilik qobiliyatini taqozo etadi.

O’rganilayotgan ma’lumotni idrok etish. Bu bo’g’inning vazifasi – o’rganilayotgan ob’ekt haqida tasavvur hosil qilish. Tasavvurning hosil bo’lishi esa, bilish vazifasining to’g’ri qo’yilishini talab qiladi. YA’ni, o’quvchi: nimani bilishi, nima uchun bilishi, qay tariqa bilib olishi lozim. Bilish vazifalarini qo’yish bilan bir vaqtida o’quvchida bilishga bo’lgan qiziqish va ehtiyoj hosil qilinadi. Bilishga qiziqish o’qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolaning maktabga, darslarga, o’z bilish faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatiga ko’maklashadi.

### Foydalanaligan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.. T.: O’qituvchi, 1992. 62 b.
2. Adizov B.R. Boshlang’ich ta’limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori. diss. avtoref. T.: 2003, 43 b.
3. Azizzo’jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2003, 174 b.

---

## YOSHLARDA STRESSOGEN VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK CHIDAMLILIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

*Tosheva Mohinur Yusupovna  
Qarshi Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti*

Jahon miqiyosidagi mutaxassislar stress bugungi kunda “asr kasalligi” bo’lib qolayotganligini ta’kidlashmoqdalar. Zero, shaxsning stress holatiga tushishi nafaqat uning yuritayotgan faoliyatiga, uning ruhiy jismoniy salomatligiga ham jiddiy salbiy ta’sir etadi. So’ngi yillarda hayot tarzining tezlashuvi, axborotlar oqimining ortib borishi, iqtisodiy o’zgarishlar, emotSIONAL zo’riqishlar, bularning barchasi bugungi kun shaxsiga

o'zining salbiy ta'sirini o'tkazayotgani ma'lum. Shunga bog'liq holda bugungi kun kishisida stresslarning kuzatilayotgani keng ilmiy-jamoatchilik diqqat markazida bo'lgan asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Butun Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra (2020-2021-yillar) mavjud kasalliklarning 65%i stress bilan bog'liq ekanligi ta'kidlandi. Demak, kelajakning asosiy kuchi bo'lgan yoshlarda stressga tushishlari tufayli turli somatik va psixosomatik kasalliklarni orttirib olish ehtimoli keng jamoatchilik uchun ham jiddiy e'tibor ob'ekti bo'lishiga asos bo'lmoqda.

Stress jismoniy, ruhiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin bo'lgan zo'riqish holatlarini o'z ichiga oladi. Chidamlilik so'zining ma'nosi "bardoshlilik".

**Stressga chidamlilik** –stressga qarshi turish qobiliyatini anglatadi. Bu hiss tuyg'ular va stressli voqealarni yengish qobiliyatining o'lchovidir. Bugungi kunda yoshlarimiz orasida stress holatlari ortganini ko'rishimiz mumkin. Stress ortida har doim sabab bor. Stressni sababini tushunganingizdan so'ng, shunga mos ravishda qarshi choralar haqida o'ylastingiz mumkin.

### **Yoshlardagi stress sabablari:**

#### **1. Hammaga birdek yoqaman degan fikr.**

Odamlar turli xil qarashlarga ega. Ba'zi bir narsalarni yoqtirishsa, ayrimlarini yoqtirishmaydi. Misol uchun ko'pchilikka yoqadigan taom ma'lum miqdordagi odamlarga yoqmasligi mumkin. Har bir inson ham hammaga birdek yoqavermaydi. Agar hamma sizni yoqtirishi mumkin emasligini tushunmasangiz , siz hammaga birdek yoqaman deb o'ylaysiz va harakatlanasiz. Bu esa stress manbayi hisoblanadi. Chunki hammaga birdek yoqish mumkin emas.

#### **2. O'qish faoliyatida yoki o'qishni tugatgandan so'ng maqsadsiz holat.**

Maqsadsiz barcha qiyinchiliklar stressga aylanadi.

#### **3. Vaziyatni o'zgartira olmaslik hissi.**

Hayotda yoshlarimizga mos kelmaydigan qoidalar, ularning haqiqatlaridan farq qiladigan haqiqatlar va atrofdagilar bilan o'zlarini solishtirishlari. Bu vaziyatlarni o'zgartira olmasliklariga ishonish ham stressni keltirib chiqaradi. Hamma narsa ularning ideallariga to'g'ri kelmaydi.. Ammo bu ular vaziyatni umuman o'zgartira olmaydilar degani emas. Biroq, "vaziyatni o'zgartirish mumkin emas" deb o'yashlari stressni yaratib beradi.

#### **4. Kechalari yaxshi uxlamaslik.**

Kechasi yaxshi uxlamaslik chidamlilikni pasaytiradi. Miya uxlash orqali his-tuyg'ularni tetiklashtiradigan funksiyaga ega. Tartibsiz va stress tufayli u xlabel olmaslik funksiyaning to'g'ri ishlamasligiga sabab bo'ladi. Yaxshi uxlamaslik stressni kuchaytirishi tabiiydir. Bundan tashqari uyqu yetishmasligi kognitiv funksiyani pasaytiradi.

#### **5. Stressga qarshi garmonlarlarning pasayishi.**

Stressga qarshi garmonlarning pasayishi stressga moyillikni oshiradi. Stressga qarshi garmonlar jismoniy mashqlar yetishmasligi, uyqu yetishmasligi va tartibsiz hayot tufayli yetishmaydi. Bugungi kunda zamonaviyb odamlar kamroq jismoniy mashqlar va uyquga ega bo'lganligi sababli, bu stressga qarshi garmonlarning kamayadigan muhitini yaratadi.

### Stressga chidamlilikka ta'sir qiluvchi omillar:

**Sezish qobiliyati-** Sezgi qobiliyati qanchalik past bo'lsa, stressga chidamlilik shunchalik yuqori bo'ladi.

**Qochish qobiliyati**-bu stress omillarini qabul qilmasdan oldini olish qobiliyatidir. Stressli vaziyatlarga moslashuvchan javob bera oladigan odamlarning stresslardan qochish qobiliyati yuqori bo'ladi. Tanangiz va ongingiz qanchalik sog'lom bo'lsa, undan qochish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

**Stress omillari bilan kurasha olish kuchi**- stress bilan samarali kurasha oladigan odamlar stressga nisbatan ancha chidamli bo'lishadi. Masalan: sizda muammo ko'p bo'lsa, bu muammoni bartaraf etishni o'ylash, muammolarni hal qilishingiz mumkin.

**Stressni ijobjiy narsaga almashtirish qobiliyati**-bu stressli vaziyatlarni ijobjiga almashtirish qobiliyatidir. Misol uchun: biror narsa noto'g'ri bo'lsa, "bu juda qimmatli o'rghanish imkoniyati edi" deyish yaxshi fikrdir.

**Tajriba** – bu insonning o'tmish tajribasi. Agar siz o'tmishdagi stresslarga o'rghanib qolgan bo'lsangiz, siz kamroq stressga duch kelasiz.

**Imkoniyatlar**- sizdagi imkoniyatlar qancha stressni saqlashingiz mumkinlidir. Agar stressga tushganinggizda, imkoniyatlarining ko'p bo'lsa, stressga chidashingiz mumkin bo'ladi. Agar sizda imkoniyatlar kam bo'lsa, stressga chidamligingiz kam bo'ladi. Agar siz jismoniy va rihiy jihatdan yomon bo'lsangiz, siz juda ko'p stress holatlariga moyil bo'lasiz.

Psixologik chidamlilik uchun, hayotning go'zal tomonlariga e'tibor qaratib, biz istamagan vaziyatlarga tayyor yashash muhim nuqtai nazardir. Agar biz stressga to'g'ri munosabatda bo'lsak, bu stress bizda asta sekin kamayadi. Insonlar stress haqida gap ketganda salbiy fikrda bo'lishadi, ammo stressing o'zi yomon emas. Stress shunchaki kuchlanish va dam olishdir. Inson qiyin vaziyatlarda stressni his qiladimi yoki u buni shaxsiy qiyinchilik uchun imkoniyat sifatida ko'radimi bu odamning o'ziga bog'liqdir. Stress o'sishga, muvaffaqiyat tuyg'usiga va ishonchga olib keladi.

Stressga chidamlilikni oshirish imkoniyatlari:

-Yaxshi uyqu va to'g'ri ovqatlanish.

-Sevimli mashg'ulot va qadrlaydigan narsalar.

-Boshqalar bilan maslahatlashish- oilangiz, do'stlaringiz va yaqinlaringiz bilan tashvishlaringiz va muammolaringizni o'rtoqlashing.

-Mashg'ulotlardan so'ng dam olish, kichik tanaffus qilish, kofe ichish.

- Siz chora ko'rishingiz kerak. Mashq qilish, musiqa yoqish va raqsga tushish, yurish kabi rag'batlantiruvchi harakatlar bilan stressni engish osonroq.

- Nafas olish mashqlari va meditatsiya ham stressni boshqarishda juda samarali usullardir.

- Sog'lom turmush tarzini qabul qilish: sog'lom oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, spirtli ichimliklar va chekishdan voz kechish, muntazam uyqu.

### Stressni boshqarish teknikasi:

**1-qadam:** Stress belgilarini sezganingizda, avvalo, qilayotgan ishni to'xtating. Tanangiz sizga nima demoqchi ekanligini tinglang. Bir muncha vaqt tinchlik va osoyishtalikka vaqt ajrating. Siz tinchlantiruvchi tushni tasavvur qilishingiz yoki tinchlantiruvchi so'zлarni yoki iboralarni takrorlashingiz mumkin. Agar siz ma'lum bir tinchlantirish texnikasini muntazam ravishda mashq qilsangiz, o'zingizni osongina tinchlantirishingiz mumkinligini tushunasiz. Dam olish va stress darajasini pasaytirgandan so'ng, siz aniqroq fikrlashni boshlashingiz mumkin.

**2-qadam:** Ishning qaysi bosqichida xafa va g'azablanganingizni aniqlang. Keyin o'zingizdan nima o'tganini va o'zingizga nima deganiningizni so'rang.

**3-qadam:** Boshingizdan qanday mantiqsiz fikrlar o'tayotganini aniqlashga harakat qiling. Nima va qaysi fikrlar sizni bezovta qilayotganini aniqlaganiningizdan so'ng, bu fikrlarni ko'rib chiqing va o'zingiz bilan biroz suhbatlashing. Haqiqiy bo'limgan va mantiqsiz g'oyalaringizni ko'rib chiqing.

**4-qadam:** Ko'proq mantiqiy va oqilona g'oyalarni ishlab chiqish uchun o'zingiz bilan bahslashing. Endi siz aniqroq va mantiqiy fikr yuritishingiz mumkin, qanday xatti-harakatlar stressni keltirib chiqarayotganini bilib olishingiz mumkin.

**5-qadam:** Eski, muvaffaqiyatsiz odatlardan voz kechish va yanada samarali xulq-atvor namunalarini qabul qilish uchun yangi narsa qilishga tayyor bo'ling. Muxtasar qilib aytganda, sizni yanada muvaffaqiyatli qiladigan yangi xatti-harakatlarga ega bo'lish xavfini oling.

**6-qadam:** Stressga bo'lgan nuqtai nazaringizni o'zgartirish stressni boshqarishga yordam beradi. Vaziyatni qabul qiling va uni qayta ko'rib chiqing.

Har birimiz hayotning turli sohalarida va bosqichlarida son-sanoqsiz stress omillari va kutilmagan oqibatlariga duch kelamiz, va shunga qaramay biz yashashni davom ettirish ma'suliyatining og'irligini his qilamiz. Hayotda uchragan muvaffaqiyatli odamlar umumiy nuqtasi bo'lgan konsepsiya chidamlilik qobiliyati yotadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.Karimova V.M salomatlik psixologiyasi.-T.: Yangi asr avlod. 2005.-71 b.
2. Samarov .R.S. Shaxs va stress. O'quv uslubiy qo'llanma.-Toshkent,2004-40b
3. Ziyo.net.uz

## **SHAXSLARARO MULOQOTDA NIZOLAR VA ULARNING PAYDO BÖLISH EHTIMOLI**

*Umarova Sitorabonu Haydar qizi  
JDPI Pedagogika psixologiya fakulteti 2-bosqich talabasi,*

*Egamnazarov Murod  
JDPI umumiy psixologiya kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Shaxslararo muloqotda nizolar va ularning paydo bòlish ehtimoli haqida bo'lib ijtimoiy psixologiya kirish qismi haqida ma'lumotlar keltirilgan

**Аннотация:** Эта статья о конфликтах в межличностном общении и возможности их возникновения, а также информация о вводной части социальной психологии.

**Annotatsiya:** This article is about conflicts in interpersonal communication and the possibility of their occurrence, as well as information about the introductory part of social psychology.

**Kalit so'zlar:** Texnik vositalar, kommunikativ, konstruktiv oqibatlari, shaxslararo ziddiyat, psixologik mexanizm.

Muloqot — odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihatи hisobga olinadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya — tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinushi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi — bulaming barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Muloqot ijtimoiy faollikning ontogeneza (individual rivojlanish yo'li) paydo bo'ladigan birinchi turidir. Faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, faoliyat va muloqot o'zaro chambarchas bog'liqdir. F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik kop qirrali jarayonki, unga bir vaqtning ozida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning ozaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar ortasidagi axborot almashinushi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;

- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- ye) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihatni munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati — nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihatni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zarobir galikda harakat qilish) va perceptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi

Muloqot va shaxslararo ziddiyatlar. Nizolar muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo`ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o`ziga jalg etadi. Öz vaqtida Banopart Napoleon shunday yozgan ekan: “Qilich bilan har narsa qilish mumkin, faqat uning ustiga ötirib bolmaydi”. Bu fikrida u kopincha insonlar ortasida bolib turadigan nizolarni, ziddiyatlarni nazarda tutgan ekan. Shuning uchun ham muloqot, uning jihatni, tabiatni, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o`rgatish masalalariga chuqur e'tibor berish lozim. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligi munosabati bilan 2016 yil 7 dekabr kuni tantanali tadbirda: “Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak” degan so'zları ham muloqot jarayonidagi ziddiyatli vaziyatlarni oldini olishda juda muhim ekanligini kòrsatadi. Muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo`lganligi hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdarligi va samaradorligini tahminlovchi muhim omil ekanligini bildiradi. Ijtimoiy hayotda, shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o'zaro kelishmovchiliklarni bo`lib turishi muqarrar. Shuning uchun bahzan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlari ham bo`lishi mumkinligini ochiq ehtirop etadilar. Ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to`g`risida gapiradigan bo`lsak, ba'zan ikki shaxs o`rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to`g`ri xulosa chiqarib, shunday harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, xushyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga assolangan shaxslararo ziddiyat shaxsni o`z ustida muttasil ishlashga, o`z xulqini o`zi tuzatishiga sabab bo`ladi. Bunday nizolar oqibatida ko`ra konstruktiv deb ataladi.

Destruktiv nizoning oqibati esa ko`pincha salbiy bo`lib, u shaxslararo antogonizmni keltirib chiqaradi, tomonlarning asablari charchaydi, ular xastalanib qolishi ham mumkin. Yoki er va xotin o`rtasida, yoki qaynona va kelin o`rtasidagi nizo oila ajrimiga sabab bo`lishi va bir butun oilani buzilib ketishi olib kelishi mumkin. Ijtimoiy psixologik fenomen sifatida nizo yoki ziddiyatga uyidagicha ta“rif berish mumkin. Konflikt yoki ziddiyat - bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhi lararo o`zaro muloqot va ta“sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to`g`ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to`qnashuvi oqibatida paydo bo`lgan salbiy hissiyotlarga to`la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik xodisadir.

Nizo – bu o`zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug`ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq. Adovat, ixtilof, nifoq tufayli o`zaro janjallar sodir bo`ladi. Odamlar janjal haqida o`ylaganlarida dushmanlik, qo`rqitish, bosqinchilik, tortishuv kabi noxushliklarni nazarda tutiladi. Har bir kishining o`z «Men»i atrofdagilar bilan bo`ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari awal oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya`ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Muloqotga bo`lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Kimlar bilandir bo`lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ayrim hollarda esa qoniqmaslikni his qilamiz.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008-y. 8-11 betlar.
2. O‘zbekiston respublikasining "Ta'lif to‘g‘risida"gi Qonuni, Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T.: “Sharq”,1997-y.296 b. 23-27 betlar.3. O‘zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”,1997-y. 31-bet.
- 3 G'OZIYEV E.G .Muomala psixologiyasi .T-2001.

---

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MAKTAB TA`LIMIGA TAYYORLASHDA MAKTABGACHA TA`LIM VA OTA-ONA HAMKORLIGI**

*Toshniyozova Aziza Abduhakimovna  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 20-soni  
“Kamalak” nomli DMTT tarbiyachisi*

Bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oilada oilaviy tarbiya muammolari ichida otaonaning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid

bilim berish davrimizning dolzarab masalalaridan biridir. Har bir ota-onalarning tarbiyachisi bo’lishi, ularni har tomonlama kamol toptiruvchi shartsharoitlarni yaratishi lozim. Ota-onalarni ta’lim tarbiyaga oid va psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan turib oilaga tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil qilish mushkul bo’ladi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishga mакtabgacha ta`lim tashkilotini, undan so’ng umumta`lim maktablarini oila bilan aloqasini mustahkam bog’lamay turib, ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo’lmaydi. Shu maqsadda ota-onalarni maktabgacha ta`lim tashkilotiga jalb etish va ota-onalar bolalarining kun davomidagi faoliyatlarini nazorat qilishi, ular bilan shu jarayonda ishtirok etishi yaxshi samara beradi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotining oila bilan hamkorlik olib borishi, ota-onalarni bilish saviyasi, umumiylar tarbiyaga oid madaniyati, ijtimoiy intilishlari va talablarini oshirish bolalar tarbiyasiga nisbatan turlicha munosabatlari, shakllangan hayotiy tajribalarni amalda qo’llash va mustahkamlash imkonini beradi. Guruhlarda o’tkaziladigan ota-onalar yig’ilishlarining o’tkazilishi maktabgacha ta`lim tashkiloti va oila hamlorligini ta’minlaydigan eng muhim omillardan hisoblanadi, lekin oila va MTTni yanada birlashtirish, hamkorlik qilish uchun maxsus tashkil etilgan markaz bo’lishi kerak va bunda yosh, taribaga ega bo’lмаган ota-onalar bilan muntazam va samarali ish olib borish, ota-onalarni MTTga jalb etish, ular uchun jonli, hayotiy mavzularda qiziqarli ma’ruza, suhbatlar va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, “Bolangizni bilmoqchi bo’lsangiz”, “Bolangizning o’zlashtirish darajasini bilasizmi?”, “Bolalarimiz odobi haqida shuhbatlashaylik” kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarni farzandlari, ularning kelajagi haqida qayg’urishlariga turtki bo’ladi. Bunday tadbirdarga bir necha yillik bola tarbiyasiga oid tajribaga ega bo`lgan, faol ota-onalarning ishtirokini ta`minlash va o’z tajribalarini bat afsil bayon etishlari ko’plab ota-onalar oldida turgan murakkab vazifalarning ijobjiy hal etilishiga olib keladi. Albatta, buning uchun maktabgacha ta`lim tashkiloti jamoasi, guruh tarbiyachilarini tadbir o’tkazish uchun asosli va puxta tayyorgarlik ko’rishlari, qachon, qanday tartibda treninglar, suhbatlar o’tkazish va undan ko’zlangan maqsad rejalarini mukammal ishlab chiqishlari, to’plangan tajribalarni tahlil qilish, tavsiyalar haqida, faol ota-onalarni jalb etish haqida oldindan rejalashtirib olishlari lozim. Ana shundagina treningdan kutilayotgan natija samarasi ta’milanadi. Bunday hamkorlikdagi ishlarda qo’shimcha uslublardan ham foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, tashkilotchi va ota-onalarning o’zlari o’z hattiharakatlarini, xulq-odoblarini tanqidiy baholashlari, ma’qullash va muhokama yuritish metodlarini qo’llash nihoyatda muhimdir. Ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda, ularni maktabga tayyorlash masalasida otaonalarning o’rni beqiyosdir.Qachonki oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorlikda faoliyat olib borar ekan shundagina ko’zlangan maqsadga erishiladi.

Pedagogik adabiyotlarda bolaning mакtabga tayyorgarligini mazmuni va mezonlari aniq ko'rsatib berilgan, lekin bolani mакtabga tayyorlashda bola shaxsini qaysi tomonlari va aynan qanday rivojlantirish kerakligi masalasida ota-onalar va mакtabgacha ta'lim tashkiloti mutaxasislari tasavvurlari turlicha. Jarayon qatnashchilari orasida o'tkazilgan so'rovlар shuni ko'rsatganki, ko'pchilik ota-onalar uchun bolaning mакtabda muvaffaqiyatli o'qishini asosiy hal qiluvchi sharti bu uning umumiy rivojlanishi, ya'ni yaxshi salomatlik, jismoniy chiniqish, axloqiy va ijtimoiy yetuklik. Ba'zi bir otaonalar faqatgina aqliy rivojlanish muvofaqqiyatli mакtab ta'limining asosi deb hisoblashadi.O'z fikrlarini ular shunday asoslab berishadi, xususan, birinchi sinfda bolalarga barcha o'quv predmetlari mazmunini o'zlashtirish qiyin kechadi va hozirgi ilmiy-texnikaviy rivojlanish insonning aqliy qobiliyatiga juda katta talablar qo'yadi.Aynan shuning uchun bola mакtabga tayyorgarlik jarayonida eng avvalo aqliy jihatdan rivojlantirishi lozim.Ota-onalarning ko'pchiligi eng avvalo, bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasiga e'tiborni kuchaytirish kerak deb hisoblashgan.

Darhaqiqat, mакtabgacha yoshdagи bolalarni mакtab ta'limiga tayyorlash jarayonida ota-onalarning ko'pchiligi birinchi sinfga borishdan oldin bolaga o'qish va yozishni o'rgatish kerak emas deb hisoblashadi, chunki keyinchalik, bola mакtabga borganda o'qishga bo'lgan qiziqishini yo'qotib qo'yishi mumkin deb o'z qarashlarini izohlashadi. Ularning bolaga o'qish va yozishni o'rgatmasligining yana bir sababi-mакtab talablarini bilmay turib, noto'g'ri o'rgatib qo'yishdan xavfsirashdir. O'qish va yozish bu faqat mакtab faoliyati turlari va ularni maxsus tayyorlangan mutaxasislar nazorati ostida amalga oshirish kerak deb hisoblashadi.

Ota-onalarning boshqa bir guruhi esa mакtab ta'limidan oldin o'qish va yozishni o'rgatishga harakat qilishadi. Ular bolaga mакtab tomonidan qo'yilgan talablar va yangi ma'lumotlar juda ko'p, birinchi sinfda yaxshi o'zlashtirish muhim, shuning uchun oldindan olingen malakalar bolaga har qanday topshiriqlarni bajarishga yordam beradi va natijada ortiqcha zo'riqishni oldini oladi deb hisoblashadi.

Shunday ota-onalar ham borki ular bolalarini o'z shuhratparast niyatlariga o'rgatadilar ya'ni o'quv yili boshida ularning bolalari o'z tengdoshlaridan o'zib ketadilar va shu tufayli endi shakllanib kelayotgan jamoada oldingi o'rinni egallaydilar deb hisoblashadi. Bolalarning mакtabga tayyorligini turli sohadagi mutaxasislar bolalar shifokori somatik rivojlanishini, pedagog-psixoliglar esa bolaning ruhiy holati va ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatiga baho berishlari mumkin.

Taniqli pedagoglardan Ya. A. Komenskiy o'zining "Onalar mакtabi" kitobining mакtabga tayyorlash bobida shunday yozadi; "Barcha insonlar bajaradigan ishlar ma'lum bir tayyorgarlik talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini mакtabga tayyorlashadi" deb yozadi. Mакtabga har tomonlama tayyorgarlikning mazmunidan tashqari, Komenskiy ota-onalr uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalar mакtabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qish va o'ynashdagi xursandchilik hissini tug'dirish.
2. Bolalarni mакtabdagи ta'limga mohiyatini tushuntirish, mакtabdagи faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolada bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakillantirish deya ko`rsatib o`tgан.

Yuqоридаги fikrlardan kelib chiqib biz ota-onalarga quyidagilarni tavsiya etamiz: - bolangizni mакtabga tayyorlashda asosiy etiborni o'qish jarayoni bilan bog'liq bo'lган malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qarating;

- bolangizni diqqatini bir joyga to`lashga o`rgating;
- xotira, tafakkur va nutqini rivojlantirishga jiddiy e`tibor bering;
- bolani mакtabga bo'lган qiziqishini o'stirish maqsadida o'z o'quvchilik xotiralaridan foydalaning;
- bolaning referent guruhini tashkil etadigan yaqinlarining muvofaqiyatli mакtab ta'limi haqidagi na'muna (faxriy yorliq, diplom)lardan foydalanib ta'limga bo'lган ijobiy munosabatni shakllantiring;

Bundan tashqari "Mакtabda","O'qituvchi-o'qituvchi" kabi rolli o'yinlarni tashkil etish ham bolani mакtab ta'limi, hayoti haqida tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, ota-onalarning ko'pchiligi mакtabda yaxshi o'qishining shartlaridan biri-shaxsning umumiyl rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi bilim, nutq, tafakkur, va xotirasini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Chunki farzand yurt kelajagi, jamiyat suyanchi, oila ishonchidir.U bir nihol, uni qanchalik parvarish qilsak, o'sib ulg'ayganda mevasi shunchalik totli bo'ladi.Bola kamolatiga, uning yuksak cho'qqlarga erishishiga orzumand bo'lган, farzandi oldida ota-onalik, jamiyat qarshisida fuqorolik burchalarini chuqur anglagan har bir ota-ona ushbu vazifaga ma'suliyat bilan yondashishi va uni vijdonan ado etishi lozim. Yuqоридаги ma`suliyatli vazifalarni amalga oshirishda mакtabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi masalalariga alohida e`ribor qaratib, o`zaro aloqani mustahkamlasak ta'lim-tarbiya o`zining kafolatli natijasini beradi.

**MTT YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING  
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI**

*Xolova Shaxriya Toshpo`latovna  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 16-sonli DMTT tarbiyachisi*

Maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyalanuvcilarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi o`qitishning har xil usullari-amaliy, ko`rsatmali, og`zaki, o`yin usullaridan foydalanadi. Usulni tanlashda bir qator omillar-mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh va individual xususiyatlari, zarur didaktik vositalarning mayjudligi va boshqalar hisobga olinadi. Tarbiyachining metod va usullarning asosli tanlanishiga, har bir aniq holda ulardan ratsional foydalanishga doimo e`tibor berib turishi quyidagilarni ta`minlaydi:

-elementar matematik tasavvurlarning muvaffaqiyatli shakllanishi va ularning nutqda aks ettirilishi;

-tenglik va tengsizlik munosabatlarini (buyumni soni, o`lchami, shakli bo`yicha) idrok qilish va ajratish, natijaviy munosabatlar (o`lchami yoki soni bo`yicha orttirish yoki kamaytirish)ni, analiz qilinayotgan ob`yejtlarning miqdori, shakli, kattaligini umumiyligi belgisifatida ajratish, aloqa va bog`lanishlarini aniqlash malakasi; Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usulning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-aqliy faoliyat uchun asos bo`ladigan har xil amaliy ishlarni bajarish; -didaktik materiallardan keng foydalanish;

-didaktik materiallar bilan amaliy ishlash natijasi sifatida tasavvurlarning paydo bo`lishi;

-eng elementar usulda sanash, o`lchash va hisoblash ko`nikmalarini hosil qilish;

-o`yinda, mehnatda, ya`ni faoliyatning har xil turlarida shakllangan tasavvur va o`zlashtirilgan harakatlardan keng foydalanish.

Mashqlar hamma bolalar bir vaqtida yoki bitta bola doska yoki tarbiyachining stoli oldida bajaradigan yakka tarzda bo`lishi mumkin. Hamma bolalar bajaradigan mashqlardan bilimlarni o`zlashtirish va mustahkamlashdan tashqari, nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin. Yakka-yakka tarzda bajariladigan mashqlar ham o`sha vazifalarni bajaradi-yu, ammo ular bolalar faoliyatida yo`nalish oladigan namuna sifatida ham xizmat qiladi. Ular orasidagi bog`lanishlar vazifalarining umumiyligi bilangina emas, balki doimo almashinib kelishi, qonuniy ravishda bir-birlarining o`rnini bosishi bilan ham aniqlanadi.

Hamma yoshdagagi guruhlarda bajariladigan mashqlar o`yin elementlari kichik guruhda-syurpriz moment ko`rinishida, o`xshash harakatlar, ertak qahramonidan iborat bo`ladi. Katta guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterini oladi.

Mashqlar bolalarning yoshiga qarab qiyinlashtirib boriladi. Ular bir necha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. O‘quv-bilish mazmuniga oid o‘yin-mashqlar muammo shaklida emas, ko‘pchilik hollarda, ularni bajarish uchun tasavvur bo‘yicha harakat qilish, topqirlikni namoyish qilish, aqlilikni ko‘rsatish talab qilinadi. Chunonchi, tarbiyachi kichik guruhdagi bolalardan har qaysi quyonni sabzi bilan siylashni taklif qiladi; katta guruhdan bolalardan esa, doskaga osib qo‘yilgan kartochkadagi doirachalar nechtaligini aytishni, guruh xonasidan xuddi shuncha buyum topishni, kartochkadagi doiralar miqdori bilan guruhdagi buyumlar miqdori teng ekanini isbotlashni taklif qiladi. Agar birinchi holda mashq shartli ajratilgan bitta bo‘g‘indan iborat bo‘lsa, ikkinchi holda 3 ta bo‘g‘indan iborat bo‘ladi. Kompleks mashqlar eng samaralidir, chunki, ular dasturning har xil bo‘limlariga doir masalalarni bir vaqtida bir-biri bilan tarkiban birga hal qilish imkonini beradi. Masalan, geometrik shakllar, kattalik, miqdor va sanoq bo‘limlariga oid masalalarni bir vaqtida hal qilish imkonini beradi. Bu xil mashqlar mashg‘ulotlarning foydali ish koeffitsiyentini oshiradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bunday xildagi mashqlar (ya‘ni bir xil maqsadni ko‘zlovchi va bir ma‘noda amalga oshiriluvchi mashqlardan) keng foydalilanadi, bunday mashqlar tufayli zarur faoliyat usullari bajariladi: sanoqni, o‘lchashni, eng sodda hisoblashni egallash amalga oshiriladi; bir qator elementar matematik tasavvurlar shakllanadi. Mashqlarni tanlashda ularning tarkiban bir mashg‘ulotda birga hal qilinishinigina emas, balki istiqboldagisi ham hisobga olinadi. Bir mashg‘ulotdagi mashqlar sistemasi yil davomida o‘tkaziladigan har xil mashqlarning umumiyligining sistemasiga tarkiban qo‘silib ketishi kerak.

Bolalarning mashqlarni bajarish jarayonidagi faollik, mustaqillik, ijodkorlik ko‘rsatishlariga qarab, taqlidiy va produktiv mashqlarni ajratish mumkin. Reproduktiv mashqlar harakat usulini oddiy takrorlash (tiklash)ga asoslangan. Bunda bolalarning harakatlari kattalar tomonidan namuna, tushuntirish, talab, nima qilish va qanday qilishni belgilovchi qoidalar shaklida to‘la chegaralanishi mumkin. Ularga qatiy ergashish ijobiy natija beradi, topshiriqli to‘g‘ri bajarishni ta‘minlaydi, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini oladi. Mashqlarning borishi va natijasi tarbiyachining bevosita kuzatuvida bo‘ladi, u ko‘rsatmalar, tushuntirishlar bilan bolalar harakatini to‘g‘rilab turadi. Produktiv mashqlar shunisi bilan xarakterlik, ularda harakat usullarini bolalarning ko‘zlarini to‘la yoki qisman ochishlari kerak bo‘ladi. Bu bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ijodiy yaqinlikni talab qiladi, maqsadga yo‘nalganlik va maqsadga intilishni shakllantiradi.

Bolalarning yoshi kattalashishi bilan mashqlarni bajarishdagi mustaqilliklari ortadi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qiluvchi va yo‘naltiruvchi og‘zaki ko‘rsatmalar, tushuntirishlar, oydinlashtirishlar roli orta boradi.

Didaktik o‘yinlardan eng ko‘p foydalaniladi. Bola bilish mazmunini o‘yin shakliga kirgan o‘rgatuvchi masalani (o‘yin mazmunida), o‘yin harakatlari va qoidalari oldindan nazarda tutilmagan holda o‘zlashtiradi. Didaktik o‘yinlarning hamma turi (buyumli, stolda o‘ynaladigan bosma va og‘zaki turlari) elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning samarali vosita va usullaridir. Buyumli va og‘zaki o‘yinlar matematika mashg‘ulotlarida va ulardan tashqarida o‘tkaziladi, stolda o‘ynaladigan-bosma o‘yinlar odatda mashg‘ulotdan bo‘s sh vaqtarda o‘tkaziladi. Harakatli usullar va ularga mos tasavvurlar shaklidagi bilimlarni bolalar mashg‘ulotdan tashkari vaqtida oladi, o‘yinlar (syujetli-didaktik, didaktik va boshqa xil o‘yinlar) da esa shu bilimlarni aniqlashtirish, mustahkamlash, sistemalashtirish uchun yaxshi sharoitlar yaratiladi. Elementar matematik tasavvurlarni o‘rgatish va shakllantirish metodi mashg‘ulotlarda har xil turdaga o‘yinlardan, uning alohida elementlaridan (syujetli-rolli,harakatli va b.), usullaridan (surpriz moment, musobaqa,izlash), o‘yin va didaktik boshlanishlarni kattalarning rahbarlik va o‘rgatuvchi roli hamda bolalarning bilimini faollashtirishni tarkiban birga qo‘sib olib borishdan foydalanishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning mакtab ta‘limiga tayyorlashda matematikaning roli juda beqiyosdir .

## **БОЛА ТАРБИЯСИДА ОТА-ОННИНГ ЎРНИ ВА ВАЗИФАСИ**

*Ёдгорова Насиба Истроиловна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳри 20-сонли ДМТТ психологи*

Бола дунёга келган кундан бошлаб ота онанинг бола тарбияси учун жавобгарлиги ва масъуяти орта бошлайди. Азал-азалдан бола тарбияси билан асосан она шуғилланиб келган. Отанинг асосий вазифаси эса оилани боқиши бўлиб, факатгина уйда бўлган вактда болани назорат қилиб бориш бўлган ҳолос.

Бола ўз оиласида теварак –атрофи қариндош ва яқинларига тўла бўлган мухитда тарбияланади. Шу сабаб бу каби оилалар унинг дунё қарashi ва хулқига доим ўз таъсирини ўтказиб туради, ундаги тарбиянинг шакилланишига ўзига хос фундаментни яратади. Ота она аввалам бор ўз фарзандига тўғри тарбия бериб боришга бу йўлда ҳамиша изланишда бўлиб, ўқиш ва тажриба ортириш лозим яна шуниси аҳамиятлики, боладаги барча хислатлар диний ахлоқ билан камолга етади. Шу боис тарбия энг аввало гўзал фазилатли ахлоқ билан безатилмоғи даркор. Ахлоқий тарбияга эса ҳар бир инсоннинг муқаддас гўшаси, бошпанаси

ҳисобланган оилада асос солинади. Бу йўлда ота оналар ўзларининг одоб ахлоқи билан ибратли бўлишлари лозим, чунки ота-оналар боланинг, илк бора қўзини очишдан то ёши катта бўлиб ақлини танигунга қадар бўлган вақтда бўлиб келган ҳаётларидаги биринчи тарбиячилари ҳисобланади. Шуни ҳам алоҳида айтиши лозимки, бола тарбиясига ҳеч бир нарса намуна каби кучли таъсир ўтказа олмайди. Оиладаги тарбия, ижтимоий, руҳий, жисмоний, хулқий, ахлоқий ва бошқа сифатларга асос солади, теран шакиллантиради ва негизидан камол топтиради. Оила жамиятнинг кичик бир ўчоғларидан бири ҳисобланиб, бу даргоҳда келажакда катта пойдеворга асос соладиган баркамол авлод вояга етади.

Шуни унутмаслигимиз лозимки, шахснинг шакилланиши ниҳоятда мураккаб ва кўп қиррали жараёндир. Оилавий тарбия боланинг умумий ва ўзига хос ривожланишини таъминлаш билан бирга, мавжуд имкониятларини ва ақлий тафаккурини юксалтиради. Боланинг жисмонан соғлом, ақлан етук, ахлоқан пок, меҳнатсевар, маданиятли, интелектуал салоҳиятли бўлиб ўсишдан жамиятимиз ҳам манфатдор.

Ўқув тарбиявий муассасаларнинг тарбия борасидаги ишлари қанчалик яхши йўлга қўйилишидан қатъй назар, тарбия масалаларини оила ҳал қиласди. Боғча ва мактаблар таълим бериб тарбияласа, ота-оналар факат тарбиялабгина қолмай, улар билан бирга яшайдилар ҳам. Шу имкониятлар боис боланинг тарбиясига таъсири кучли бўлиб узоқ давом этади. Ота-оналарнинг фарзанд учун фидоий бўлиши, бу ўзбек миллати менталитетининг ўзига хос бўлган ажойиб фазилатларидан биридир.

Ёшларимиз илм-фан маданият, техника санъат ва спорт юксак даражада ривожланган бир шароитда улғаймоқда. Шарқ мутафаккирларининг ғоялари тарбиявий масалаларда халқ донишмандлиги, азалий урф одатлар ва қадриятлар билан уйғунлашиб кетганлигини ҳисобга олган ҳолда ота-оналарнинг болалар тарбиясига бўлган муносабати, оиладаги ўзаро мулоқот, кекса ёшдагилар ва болаларга беминнат ғамхўрлик, каби ўй фикрлари акс эттирилгани муҳим аҳамият касб этмоқда. Оилада боланинг нутқи шакилланиши ва ривожланиши баробарида улар онгига катталарга ҳурмат, дўстлик, ҳалоллик, инсонийлик тушунчаларини сингдириб борилади. Эътибор қилган бўлсангиз, худди шу вақтда улар атрофдагиларни турли хил саволларга кўмиб ташлашади, олган жавоблари қандай бўлишидан қатъй назар уларнинг келгуси ҳаётда дастуриламал бўлиб қолади.

Худди шунингдек оиладаги ҳар кунги юмушлари давомида болаларнинг хулқ автори шакилланиб боради ва кейинчалик ахлоқнинг ўта мураккаб шакиллари: жамоатчилик, ватанпарварлик, фаоллик каби жараёнлар давом этади.

Ота-она ўз фарзандларида мақсадга интилувчанлик, ботирлик, ишга масъулят билан ёндашиш ҳислатларини шакиллантириб бориш ҳам катта аҳамиятга эга.

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

Бунда қизларни ёши улғайган сари оилавий ҳаётга тайёрлаш, уларни янги оилада одоб-ахлоқ мейёрларига, урф-одатларига оила юмишларига ва хаётнинг нозик соҳаларига пухта тайёрлаб бориш вазифаси ҳам оиладан, айниқса онадан жуда катта меҳнат ва метин иродани талаб этади.

Фарзандлар мустақил оила қуришганда, янги оиласи қанчалик мустаҳкам ёки барбод бўлиши, қиз боланинг ўз оиласига олиб келган тарбиясига нечоғик боғлиқлигини кўпчилик оналар яхши англайдилар. Агар оилада ота-оналар ҳалол меҳнатлари эвазига ҳаёт кечираётган бўлсалар бундай оиладаги фарзандлар ҳаётга, ўз харакатлари ва меҳнатлари билан муносиб инсон бўлиб вояга етадилар. Бола ҳаёт хақидаги яхшилик ва ёмонлик, фойдали ёки заарли тушунчаларни биринчи бор оилада ота онаси, ака-укаси ва опа-сингилларидан олади. Шу жиҳатдан ота-она маънан юксак, ахлоқан пок, ростгўй ва маданиятли бўлмоғи даркор. Айниқса ҳозир тобора йўқ бўлиб кетаётган одоб намунаси билан ибрат кўрсатмоғи жуда муҳимдир.

Болани меҳнат орқали тарбиялаш ҳам алоҳида аҳамият касб этади, чунки қадим-қадимдан меҳнат тарбиянинг асосидир. Инсон тарбияси меҳнатга бўлган муносабатига қараб белгиланади.

Меҳнатсевар боланинг ота-онаси номига ҳамиша раҳматлар айтилади. Меҳнат бу ҳаёт, десак ҳам ўринсиз бўлмайди, негаки ҳаётни меҳнатсиз тасаввур қилиш қийин. Кўпчилик оилаарда болани ёшлигиданоқ хунарга, маълум бир бир касб тўгаракларига, умуман меҳнатга ўргатиб бориш одат тусига кириб, ота-боболардан қолган анъана ва удум ҳисобланган. Бу жуда қувонарли ҳол, чунки боланинг қандай касб танлаши жуда муҳим ҳаётий масала бўлиб, уни ҳал қилишда оила ёрдами аҳамиятлидир.

Оилада яхши меҳнат қиласиган болалар мактабда ҳам альочи, тиришқоқ ва жамоатчи бўлишади. Катта оилаларда ота-она бериш керак бўлган тарбиянинг анчагина фоизини болалар ака-укаларидан қариндош-уруқлқридан ўзлаштириб олишади. Шу сабабли бундай оилаларда жанжал тўполон эмас, балки ўзаро хурмат, дўстлик, сокинлик ва осойишталик ҳукум суради. Улар уйидаги меҳнати орқали жамоатчиликнинг дастлабки сабогини олишади.

## **ОИЛА — МАЬНАВИЯТИМИЗ ТАЯНЧИ**

*Бобомуродова Зарифа Насриддинова*

*Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 20-сон “Камалак” номли ДМТТ тарбиячиси*

Маънавият кўп қиррали тушунчадир. У инсон фаолиятининг барча қирраларини, унинг яққол қўзга ташланувчи зохирий ва яширин, ички руҳий – ботиний томонларини ҳам қамраб олади. Маънавият ўзи нима?, деган саволга аниқ ва лўнда жавоб топиш қийин. Унга ҳар хил, баъзан эса бир-бирига қарама қарши, ноаниқ саёз жавоб ва фикрлар билдирилган. “Маънавият” тушунчасива унинг тамойилларига ўзига хос изоҳ ва таърифлар бериб келинмоқда. Бунга сабаб “Маънавият” тушунчаси кенг маънода жамият ҳаётидаги ғоявий, мафкуравий, маърифий, маданий, диний ва ахлоқий қарашларни ўзида тўла мужассам этган ижтимоий-маънавий ҳодиса эканлигидир. Аслида маънавият – инсонни жамики бошқа мавжудотлардан ажратиб турадиган энг бақувват маънавий-руҳий омил ҳисобланади.

Маънавият ҳар доим маърифат билан яъни билим билан уйғун ҳолда ривожланиб боради. Ҳар иккаласининг уйғунлигига эриша олсаккина ёшларимизнинг маънавий баркамол, иймон эътиқодли, ватанпарвар, инсонпарвар, виждонли, диёнатли, ор-номусли, ҳалол ва пок инсонлар бўлиб тарбия топишларига эриша оламиз.

Инсоннинг маънавий жиҳатдан камол топишида оила муҳим рол ўйнайди. Ҳар бир инсон ўз фарзандининг бахту саодати, фазлу камолини кўриш учун бутун ҳаёти давомида курашади, меҳнат қиласи ва ўзини аямайди.

Инсон зотини яратибдики унга ҳаёт деб аталмиш бебаҳо неъматни тортиқ қилди. Унинг бахтини янада тўқис бўлиши учун эса фарзанд деб аталмиш яна бир тухфани ҳадя этди. Эр-хотин ўртасидаги никоҳ фарзанд туфайли янада мустаҳкамланди. Натижада оила деб аталмиш муқаддас қўргон вужудга келди.

Маълумки, ҳалқимиизда оила ва қариндошлиқ муносабатлари маънавий қадрятларнинг муҳим манбай саналади. Катталарни ҳурмат қилиш, ўзаро ёрдамлашиш, келажак авлод ҳақида ғамхўрлик қилиш ҳамиша унинг асосий қоидалари бўлиб келган.

Оила маънавияти, у оила аъзоларининг шахсий маънавиятларига асосланиб, миллат маънавий қадриятлари таъсирида юксалиб боради.

Биринчи президентимиз Ислом Каримов ўзининг «Юксак маънавият-енгилмас куч» китобида маънавиятга шундай таъриф берадилар: «**Маънавият-инсонни**

руҳан покланиш, қалбан улғайишига чорлайдиган, иймон-эътиқодини бутун қиласидиган, виждонини ўйғотадиган бекиёс куч. Унинг барча қарашларининг мезонидир». Шунингдек, ушбу китобда «оиланинг маънавий олами», «оиладаги маънавий мухит», «хонадондаги маънавий иқлим», «оила-маънавият қўрғони» тушунчалари бор. Ёш авлод тарбиясида маънавият бетакрор ва қудратли омил эканлиги ва долзарблигини зинҳор унумаслигимиз лозим.

Оила аъзоларининг хар бири шахс сифатида муайян маънавий дунёга эга бўлиб, улар ўртасидаги яқин муносабатлар, мулоқотлар натижасида оилада ўзига хос оилавий маънавият юзага келади. Оила маънавиятида ота ва онанинг маънавий фазилатлари эр-хотинлик муносабатларининг шарқона юкори инсонийлик ва ахлоқийлик даражасини белгилаб беради. Оила маънавият олами ўзаро хурмат, қадрлаш, ҳамкорлик, муросасозлик, меҳрибонлик, раҳмдиллик, меҳр-оқибат, сабр-бардошлилик, инсон-севарлик, олижаноблик, катталарга хурмат, кичикларга иззат каби маънавий қадриятларни ўзида мужассамлаштириши мухимдир. Бундай қадриятларнинг оилада эъзозланиши, бунга амал қилиниши оилада шундай маънавий мухит ва иқлими яратидики, ўсиб келаётган авлод соф қалби ва онги шаклланишида ўта аҳамиятлидир.

Оила маънавий қўрғон бўлибина қолмай ёш авлод таълим-тарбиясининг илк масканидир. Инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк хаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характерини, табиати ва дунёкарашини белгилайдиган мезон ва қарашлари яхшилик ва эзгулик, олийжаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топади.

Муҳтасар қилиб айтганда, оила покликка ва софликка, икки томонлама муҳаббатга, садоқат ва вафодорликка асосланиши керак. Бу фарзандлар тарбияси учун мухим омил ҳисобланади. Шахс маънавияти, унинг дунёқарashi, эътиқодига кўникмалар мажмуи асосан оилада шаклланади. Шу маънода, оила-ҳақиқий маънавият ўчоғи ва қўрғони, мафкуравий тарбия омили ва мухитидир. Бинобарин, миллий ғоямиз, мафкурамизга хос юксак туйғулар илк бор оила мухитида сингади. Бу жараён боболар ўгити, ота ибрати, она меҳри орқали амалга оширилади.

Буюк алломалар оила хусусида қўйдаги фирмаларни билдирадилар:

**Ибн Сино:** Болада ахлоқий хусусиятларни меҳнат, жисмоний ақлий тарбия билан узвий тарбия билан узвий бирлиқда шакллантиришни, уни инсон қилиб камол топтиришда асосий омил деб ҳисоблайди.

Оила унинг асрлар мобайнида сақланиб келаётган муқаддас анъаналари орқали ёшларда ватанга муҳаббат, иймон-эътиқод, масъулият, ватанпарварлик, инсонпарварлик, илмга иштиёқ, меҳнатсеварлик кўникмалари шаклланади.

## **BUGUNGI TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK MUHITNING TA'SIRI**

*Baxramova Qanoatxon Sirojiddin qizi  
Andijon viloyati, Oltinko'l tumani 16-maktab psixologi*

Ma'lumki, pedagogik faoliyatning tuzilishi o'qituvchining o'z iga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog'liqdir. O'qituvchi faoliyati o'z aro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashqilotchilik. Konstruktiv komponenti. O'qituvchining ishida konstruktiv dars katta o'rinnegi egallaydi, ya'ni sinfdan tashqari ishlar maktab dasturlari bilan bog'liq o'quv materiallarni ta'limga oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta'limga oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida o'z ifodasini topadi, ya'ni: o'z faoliyatining tartibi va tizimi ta'limga oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi. Ayni vaqtida pedagogik faoliyatning ushbu komponenti maktab oldida turgan asosiy vazifasi o'sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o'qituvchi shaxsiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o'zlashtirilishi uchun o'quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta'limga oluvchilarning faoliyati faol bo'lmasa, chuqur bilim va o'zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi. Muhit, ta'limga tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'limga qanday mavqega ega? Ta'limga rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qillnishi ta'limga jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv darajalari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi. Bu borada nemis psixolog V.Shtern: ta'limga psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixolog L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'limga tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'limga rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'limga faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga, xalaqit bermaslik, balki ta'limga uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveytsariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yug'rilgandir. J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlna borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'limga - bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga

qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat`iy nazar bogliqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta`kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'z i rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xisusiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funktsiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurban holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi. E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini hech mahal mifikta`limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lмаган jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blokskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya`ni uning jamiyatda egallagan o'rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funktsiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsnini faollashtiradi. Status,rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va

mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl-uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Individ, shaxs va sub`ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor qilishi zarur: - inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari); -insoning o`ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatları, mexanizmlari, evolyutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyutsiya; -inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta`sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar, Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallah interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi. Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funktional sistemasi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay balki o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi. Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xattiharakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi: Birinchisi - boshqaruv tizimi; Ikkinchisi - stimullahtirish tizimi; Uchinchisi - stabilizasiyalash tizimi; To'rtinchisi - indikatsiyalash tizimi. Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo`lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi Birinchi tizimi hosil bilishida analizatorlar shaxsning hulq-atvori va xattiharakatlarini belgilaydi. O'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o'ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta'kidlab, o'tganimizdek ontogenez protsessida filogenetik analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qishilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida pertseptiv tizimiga o'tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensorpertseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-pertseptiv jihatlari doimo takomillashib boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.:Aspekt Press, 2009.-376 s.
6. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019.1-2 kitob.

7. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2012
8. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2011.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.

---

**“ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ” ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ  
БАКАЛАВРЛАРИНИ БЎЛАЖАК КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ  
МЕХАНИЗМЛАРИ**

Р. А. Юнусов

*Тошкент давлат стоматология институти*

*Ёшлар масалалари ва маънавий,  
маърифий ишлар бўйича проректор*

**Мавзусининг долзарбилиги ва зарурати.** Жаҳонда мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлаш, уларнинг инновацион, креатив салоҳиятини ошириш, эгалланган педагогик-психологик билимлари асосида истиқболдаги педагогик фаолияти учун зарур бўладиган кўнимкамларини ривожлантириш устувор масалалардан ҳисобланади. GI-2020 дунёдаги Токио-Ёкохама, Tokio-Yokohama, Shenchjen-Gonkong-Guanchjou, Seul, Pekin, San-Xose, San-Frantsisko каби ривожланган 100 та мамлакатни баҳолаб, дунё миқёсидаги инновацион кластерларнинг 42%и АҚШ ва Хитойда жойлашганилигини, ушбу мамлакатларда инновацион салоҳият мавжудлигини кўрсатиб берди. Шунингдек, 80 та кўрсаткичдан ташкил топган Global Innovation Index-2020 рейтингида Ўзбекистон инновацион ресурслари бўйича дунёда 81-ўринни эгаллади, яъни институтлар (95-ўрин), инсон капитали ва тадқиқотлари (77) асосида ташкил этилган ҳаражатлар суб-индексига кўра, инфратузилма (72), билим ва технология самарадорлиги (90) ни ташкил этади. Жумладан, етакчи илмий тадқиқот ва таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларни инновацион ёндашув асосида касбий фаолиятга тайёрлаш технологияларини ривожлантириш касбий етуклика эришиш жараёнида педагогик, психологик қадриятларни тадбиқ этиш бўйича ЮНЕСКО бошчилигига илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда .

Дунёда глобал ахборот оқимларининг жадаллашуви, фан-техниканинг ривожланиши, “Педагогика ва психология” таълим йўналиши бакалаврларини тайёрлашга бўлган талабларнинг ортганлиги, касбий фаолиятга тайёрлаш жараёни

олдига қўйилаётган вазифаларни халқаро ёндашувлар асосида ривожлантириш мазмуни ва технологиясини такомиллаштириш эҳтиёжини келтириб чиқарди. Олий таълим тизимида касбий фаолиятга тайёрлашнинг педагогик механизmlарини коррекциялаш методларини қўллаш асосида такомиллаштириш; инновацион ёндашув асосида машғулотларни лойиҳалаш кўникмаларини шакллантириш, самарали механизmlарини ишлаб чиқиш долзарб аҳамият касб этади

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони, 2017 йил 20 апрелда қабул қилинган “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори, 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сонл қарорлари хамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-хуқукий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда мазкур диссертация муайян даражада хизмат қиласди.

Олий таълим тизимида касбий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш бўйича тадқиқотлар жаҳоннинг етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасалари, жумладан, Princeton university (АҚШ), Association for Educational Communications and Technology – AECT (АҚШ), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Англия); University of Strasbourg (Франция), Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universitdt Bonn (Германия),

Н

Ү

Дунёнинг етакчи олий таълим ва илмий тадқиқот муассасаларида ғалабаларнинг касбий маданиятини ривожлантириш бўйича қўйидаги устувор Ҷўналишларда тадқиқотлар амалга оширилмоқда: касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнини ташкил этиш ва бошқаришнинг педагогик механизmlарини такомиллаштириш; касбий билимларини фаолиятли ёндашув асосида такомиллаштириш; талабаларнинг машғулотларни ташкил этиш компетенцияларини ривожлантириш мазмунини такомиллаштиришдан иборат.

Бўлажак мутахассисларда касбий-шахсий сифатларни шакллантириш, уларни йистикболдаги педагогик фаолиятга тайёрлаш, бўлажак ўқитувчиларда инновацион, креатив тайёргарликни шакллантириш, улардаги касбий ижодкорлик кўникмаларини ривожлантириш масалалари Х.И.Ибрагимов, Ш.А.Абдуллаева, Н.Н.Азизходжаева, Х.Абдукаримов, Б.Р.Джураева, Р.Г.Исянов, Н.А.Муслимов, У.Нишоналиев, Б.Х.Рахимов, Н.Ш.Шодиев, Д.И.Юнусова, О.Қ.Ҳайдарова, Ш.Шодмонова, П.Юсупова кабилар томонидан тадқиқ этилган.

МДҲ олимларидан Е.С.Заир-Бек, И.А.Колесникова, В.М.Монахов, Е.А.Авилова, А.Арушанова, М.Бакина, Э.Берн, Л.М.Волобуева,

W

.

u

n

Ю.В.Гиппенрейтер, О.О.Гонина, Н.Н.Жирнова, О.Л.Зверева, Т.Ф.Кузнецова, Н.А.Менчинская, Л.А.Парамонова, О.Солнцева, А.Фомина ва бошқа бир қатор олимларлар томонидан кенг кўламда ўрганилган.

Хорижлик олимлар Б.Мюнстерберг, Д.Сьюпер, А.Г.Маслоу, А.Бандура, Дж.Роттерлар шахснинг касбий жиҳатдан юқори даражада етукликка эришиш муаммоларини ўрганган.

**Тадқиқотнинг мақсади:** “Педагогика ва психология” таълим йўналиши бакалаврларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг назарий асослари ва методик таъминотини такомиллаштиришдан иборат.

### **Тадқиқотнинг вазифалари:**

шахс касбий камолоти касбий инновацион фаолият, касбий компетентлик, ўқитишнинг таълимий ва ахборот технологияларини назарий асосларига доир фалсафий психологик ва педагогик адабиётларни таҳлил қилиш;

замонавий таълим шароитида бўлажак мутахассисларнинг касбий фаолиятга тайёрлашнинг асосий компонентларини танлаш ва тавсифлаш;

“Педагогика ва психология” таълим йўналиши бакалаврларини касбий инновацион фаолиятга тайёрлашга таъсир кўрсатувчи таълимнинг рефлексив, ривожлантирувчи, ахборот ва педагогик технологияларнинг ўрнини асослаш;

бўлажак педагог ва психологларда касбий фаолиятга тайёрлашнинг методика ва технологияларини ишлаб чиқиши.

**Тадқиқотнинг предмети** -“Педагогика ва психология” таълим йўналиши бакалаврларини касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнининг мазмуни, шакллари, усул ва воситалари ҳамда технологиялари.

### **Тадқиқотнинг илмий янгилиги қўйидагилардан иборат:**

шахс касбий камолоти касбий инновацион фаолият, касбий компетентлик, ўқитишнинг таълимий ва ахборот технологияларини назарий асосларига доир фалсафий психологик ва педагогик адабиётларни таҳлил қилинган;

замонавий таълим шароитида бўлажак мутахассисларнинг касбий фаолиятга тайёрлашнинг асосий компонентларини танланган;

“Педагогика ва психология” таълим йўналиши бакалаврларини касбий инновацион фаолиятга тайёрлашга таъсир кўрсатувчи таълимнинг рефлексив, ривожлантирувчи, ахборот ва педагогик технологияларнинг ўрни асосланган;

бўлажак педагог ва психологларда касбий фаолиятга тайёрлашнинг методика ва технологиялари ишлаб чиқилган;

бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнининг педагогик-психологик хусусиятлари жамиятнинг ижтимоий буюртмаси ва компетенциавий ёндашувни педагогик амалиёт жараёнида машғулотларни лойихалаш, ташкил этишга оид касбий билимларни ташхислаш ҳамда

коррекциялаш асосида аниқлаш механизмлари назария ва амалиёт бирлиги тамойилига таянган ҳолда ишлаб чиқилган.

Педагогик – Психологик хизмат ҳозирги замон таълим тизимининг ажралмас компоненти бўлиб, талабаларга таълим ва тарбия беришда ва уларнинг шахсий имкониятларини, талабада мавжуд қизиқиш ва интилишларни ўз вақтида аниқлаш ва улардан максимал тўлиқ равишда фойдаланишни таъминлаб беради. Психологик-педагогик амалиёт олий педагогик таълим тизимида педагог-психологлар касбий тайёргарлигининг муҳим таркибий қисмидир. Бу касбий-педагогик компетенцияни шакллантиришнинг яна бир босқичи бўлиб, у талабанинг фуқаролик жамиятининг тўлақонли аъзоси бўлишига имкон бериши керак. Касбий ва педагогик компетенция психологик, педагогик, дидактик, услубий, коммуникатив таркибий қисмларни назарий ва амалий жиҳатдан самарали ўзаро таъсирга олиб бориш қобилиятини ўз ичига олади.

Шундай қилиб, биз, бир томондан, бўлажак педагог-психологларнинг касбий-педагогик фаолиятига тайёргарлигини шакллантириш самарадорлиги ва сифатини оширишда жамиятнинг ўзгарувчан эҳтиёжлари ва юқорида айтиб ўтилган тайёргарликни юқорида айтиб ўтилган ҳолда шакллантириш имкониятлари ўртасидаги зиддиятни ажратиб кўрсатамиз. Психология факультетларининг бўлажак талабалари, шунингдек, "Педагог-психолог" мутахассислиги бўйича олий маълумотга эга бўлганлар, танланган фаолият йўналиши нимани англатиши ҳақида ўйлаб олишлари керак. Бунинг сабаби шундаки, психология соҳаси жуда кўп турли соҳаларни ўз ичига олади. Келажақда завқ келтирадиган ҳақиқатан ҳам ўзига мос келадиган касбий йўналишни танлаш учун ушбу мутахассиснинг жавобгарлиги, у қаерда ишлаши мумкинлиги, у қандай фазилатларга эга бўлиши кераклиги, қаерда ишлаши ҳақида иложи борича кўпроқ маълумотга эга бўлишингиз керак.

### КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Базарова Шахноза Хусанбоевна  
Наманган вилояти Косонсой тумани 52-ДИУМ психологи,

Шодмонов Давронбек Сафаралаевич  
Наманган мухандислик-қурилиши институти ўқитувчиси

Кичик мактаб даври 6-7 ёшдан бошланиб то 9-10 ёшгacha давом этади. Бу даврда бола у мактаб ўқувчилариiga қўйиладиган хар хил талаблар билан танишади, фан асосларини ўрганиш учун биологик ва психологик жиҳатдан тайёрланади. Унинг психикаси билим олишга етадиган даражада ривожланади. Шу

ёшдаги бола идрокининг ўткирлиги, равшанлиги, софлиги, аниқлиги, ўзининг қизиқувчанлиги, ишонувчанлиги, хаёлининг ёрқинлиги, хотирасининг кучлилиги, тафаккурнинг яққоллиги билан бошқа ёшдаги болалардан ажралиб туради. Мактаб таълимига тайёрланётган болада диққат нисбатан узоқ муддатли ва шартли барқарор бўлади. Кичик мактаб ёшидаги болаларнинг асосий фаолияти ўқиш хисобланади. Боланинг мактабга бориши унинг психологик ривожланиши ва шахснинг шаклланишидаги ўрни нихоятда катта Бола ўкув фаолиятида ўқитувчи рахбарлиги остида инсон онгининг турли асосий шакллари мазмунини эгаллайди ва инсоний анъаналар асосида харакат қилишни ўрганади. Ўкув фаолиятида бола ўз иродасини ўкув мақсадларига эришиш учун машқ қилдиради. Ўкув фаолияти боладан нутқ, диққат, хотира, тасаввур ва тафаккурини керакли даражада ривожланишини талаб этган холда, бола шахси ривожланиши учун янги шароитларни яратади. Биринчи бор мактабга келган бола ўз атрофидагилар билан психологик жихатдан янги муносабат тизимиға ўтади. У ўзининг хаёти тубдан ўзгарганини. унга янги мажбуриятлар нафакат хар куни мактабга бориш, балки укув фаолияти талабларига буйсуниш хам юклатилганлигини хис эта бошлайди. Оила аъзоларининг бола укув фаолияти, ютуқлари билан қизиқаётганлиги, шунингдек. уни назорат қилаётганлиги, унга қилинаётган янги шаклларидағи муомала муносабат унинг ижтимоий мавқеи ўзгарганлигини тўла хис этишига, ўзига нисбатан муносабатининг ўзаришига асос булади. Катталар болаларни амалий жихатдан ўз вақтларини туғри тақсимлаш борасида яхши ўқиш, ўйнаш, сайд қилиш ва бошқа нарсалар билан шуғулланишга ўргатадилар. Демак, оиласда бола у билан ҳисоблашадиган, маслахатлашишадиган янги бир ўринни эгаллайди. Ўкучининг мактабдаги мувафаққияти унинг кейинги психик ривожи ва шахсининг шаклланишида тўлиқ ижобий асос булади. Бола инсоний муносабатлар тизимида хам алоҳида ўрин эгаллаётганини, ота-онаси, яқинлари, атрофидагилар унга ёш боладек эмас. балки ўз вазифалари, мажбуриятлари бор бўлган, ўз фаолият натижасига кўра хурматга сазовор бўлиши мумкин бўлган алоҳида шахс деб муносабатда бўладилар. Бунинг натижасида боланинг ўз-ўзидан оиласи, синфи ва бошқа жамоалардаги ўз ўрнини англай бошлаганини кўриш мумкин. Бу даврда боланинг "Мен шуни хохлайман" мотивидан "Мен шуни бажаришим керак" мотиви устунлик қила бошлайди. Мактабда биринчи синфга келган хар бир ўкувчида психик зўриқишиш кучаяди. Бу нафақат унинг жисмоний саломатлигига балки хатти-харакатида хам яъни маълум даражада қўрқувни кучайиши, иродавий фаолликнинг сусайишида намоён бўлади. Бу даврга келиб бола атрофидагилар билан ўзаро муносабатда маълум бир натижаларга эришган, ўзи хохлаётган нарсаларни хамда, ўз оиласида ўз эгаллаган ўрнини аниқ биладиган бўлади.. Шунингдек у ўзини ўзи бошқариш малакасига эга бўлади, вазият ва холатга қараб иш юрита олади. Бу

ёшдаги болалар уларнинг хатти-харакатлари ва мотивлари уларнинг ўзларига берадиган бахоларига қараб "Мен яхши боламан" эмас, балки бу хатти харакатлар ўзгалар кўз ўнгидан қандай намоён бўлишига қараб бахоланишини тушуна бошлайдилар. Бола мактаб таълимига боғчада тарбияланётганида тайёрланади. Мактабга келиш арафасида боланинг сўз бойлиги турли масалалар бўйича ўз фикрининг баён эта оладиган даражада ортади. Агар ўз ёшдаги нормал ривожланаётган бола ўз нутқида 500-600 сўзни ишлатса, олти ёшли бола 3000-7000 сўзни ишлатади. Бошланғич синф ёшидаги болалар нутқи асосан от, феъл, сифат, сон ва боғловчилардан иборат бўлади. Бу ёшдаги болалар ўз нутқларида қайси сўзларни ишлатган маъкул-ку, қайсиларини ишлатиш мумкин эмаслигини фарқлай оладилар. 6-7 ёшли бола ўз жумлаларини мураккаб грамматик тизимда туза олади. Бола бутун болалик даврида нутқни жадал равища эгаллаб бориб нутқни ўзлаштириш маълум бир фаолиятга айлана боради. 7-9 ёшли болаларнинг ўзига хос яна бир хусусияти борки бола нутқда фақатгина ўз фикрини баён этибгина қолмай, балки ўз сухбатдошининг дикқатини ўзига жалб қилиш учун хам гапирадилар. Бу даврда ёзма нутқ хам шаклланишини бошлайди. Ёзма нутқ жумлаларни туғри тўзиш ва сўзларни хам туғри ёзишга маълум талаблар қуйилганлиги билан характерланади.

Бола сўзларни қандай эшитган бўлса, шундайлигича ёзилмаслигини билиши, уларни туғри талаффуз этишга ва ёзишга ўрганиши зарур. Ёзма нутқ эгаллаш асосида болаларда турли текстлар хақида маълумот хам юзага келади. Бу даврда ёзма нутқ энди шакллана бошлагани боис болада хали ўзи ёзган фикрларни сўз ва харфларни назорат этиш малакаси хали жуда кам. Лекин унга ижод қилиш имконияти берилади. Ушбу мустақил ижодий иш мактаб ёшидаги ўқувчида берилган мавзууни англаш, унинг мазмунини аниқлаш. фикрини баён этиш учун материал тўплаш, асосийини ажратиб олиш маълум кетма-кетлиқда материални баён этиш, режа тўзиш малакаси юзага келтиради. Жумлаларни туғри тўзиш, айнан мазмунга туғри келадиган сўзларни топиш ва уларни туғри ёзиш хам, тиниш белгиларини туғри қўйиш, ўз холатларини топа олиш, туғрилай олиш хам ақлий ривожланишининг кўрсаткичларидан хисобланади. Ўқиши фаолияти кичик мактаб ёшидаги ўқувчининг ақл-идрохи, сезгирилиги, кузатувчанлиги, эслаб қолиш, эсга тушуриш имкониятларини ривожлиш учун мухим шарт-шароитлар яратади, хисоблаш малакаларини шакллантиради. Мазкур таълим жараёнида уларнинг билимлари кўлами кенгаяди, билимга қизиқишилари ортади, ижодий изланиш қобилияти ривожланади, уларда тафаккурнинг фаоллиги, мустақиллиги ортади, ақлий имкониятини ишга солиш вужудга келади. Мазкур ёшдаги болалар ўз идрокларининг аниқлиги, равонлиги, ўткирлиги билан бошқа ёш даврдаги инсонлардан кескин фарқ қиласи. Улар хар бир нарсага берилиб, ўта синчковлик

билин қарашлари сабабли идрокнинг мухим хусусиятларини ўзлаштириш имкониятига эга бўладилар. 7-10 ёшдаги ўқувчининг идроки унинг хатти-харакати, уйини ва меҳнат фаолияти билан бевосита боғлиқдир. Ўқувчи ўзининг эхтиёжи, майли, қизиқиш ва интилиши турмуши шароитига мос, шунингдек ўқитувчи тавсия этган нарсаларни идрок қиласди. Мактабга биринчи синфга келган бола предметларнинг ранги, шакли ва катталигини, уларни маконда жойлашишини билиш билан бирга уларни таққослай олади. Мактабда муваффақиятли ўқиш учун бола сенсор ривожланганлик даражасини юқори бўлиши жуда мухим. Мактаб ёшига келиб нормал ривожланаётган бола расм ва суратлар реал хаётни акс эттираётганлигини яхши тушунадилар.

Шунинг учун хам сурат ва расмларда нималар акс этганини реал хаётга таққослаган холда билишга харакат қиласди. Бола расмларда атроф-хаётдаги нарсаларни кичиклаштириб тасвирланганлигини англай биладилар. Бу тасвирлар болаларда эстетик ва бадиий дидни ривожлантиради. Чунки бола шу расмлар орқали олам гўзаллигини турфа ранглардан иборат эканлигини англайди, ажратади ва ўз муносабатини билдира олади. Тафаккурнинг ривожланишини кичик мактаб ёшидаги бола психикасининг соғломлигига унинг билиш фаоллигига кўриш мумкин. Боланинг қизиқувчанлиги асосан атроф-оламни билиш, ўрганишига қаратилган бўлади. Бола уйнаб туриб олам сир-синоатлари, сабаб-ходисалари ва боғликларидан хабардор бўлишга интилади. Масалан, бола ўзи мустақил равишда қандай предметлар сувда чўкиши, қайсилари эса сўзишини тадқиқ қила олади. Бола ақлий муносабатларда фаол бўлса, у шунчалик кўп савол беради ва бу саволлар асосан хилма-хил бўлади. Болани қор, ёмғир қандай ёғиши, қуёш кечаси қаерда бўлиши, машина қандай қилиб юриши, ердан осмонгача неча километр эканлигини билиш жуда қизиқтиради. Бу уларнинг жуда кўп асосан « Нима учун? », « Қандай қилиб? », « Нима орқали? » саволларига жавоб олишга қаратилган бўлади. Бу ёшдаги болалар асосан ўzlари куриб турган нарса хақида чуқурроқ фикр юрита оладилар , кичик мактаб ёшидаги болалар тафаккурининг асосий тури образли тафаккурдир.

6-10 ёшли бола албатта мантиқий хам фикрлай олади, лекин бу ёш асосан кўрганларига таяниб таълим олишга сензетив бўлган давр хисобланади. Сўзсиз бугунги жамиятимизда болаларнинг ақлий ривожланиши янги билимларни тузилиш типига хам боғлиқ бўлиб, улар маълум даражада шаклланган катталар томонидан тузилади. Чунки интеллектуал ривожланиш ижтимоий омиллар билан белгиланади - индивид ижтимоий муносабатлар билан ўзгаради. Боланинг мактабда мунтазам - равишида ўқиши ўтиши унинг атроф-хаётдаги нарса-ходисаларга нисбатан фикрини ва муносабатларини ўзгаришига олиб келади. Кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг тафаккури мантиқий фикрлаш, мулохаза

юритиши, хукм ва хулоса чиқариш, таққослаш тахлил қилишнинг турли усулларини қуллашдек ўзига хос хусусиятлари билан мактабгача ёшдаги болалардан ва ўсмирлардан фарф қиласиди. Таълим жараёнида тафаккур операцияларига, мустақил фикрлашга ўргатиш кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларни камол топтиришнинг гаровидир. Ўқув фаолият психик функцияларни юқори ривожланганлик даражасини талаб этади. Боланинг дикқати, хотира ва тасаввури мустақил тус ола бошлайди. Лекин одатдаги холат ва вазиятларда болага ўз психик функцияларини юқори даражада ташкил этиш хали бирмунча кийинроқ. 6,7-10,11 ёшли болалар билиш жараёнларидағи ихтиёрийлик иродавий зўриқиши асосидагина, бола ўзини атрофдагиларнинг талаби ёки шахсий харакати интилгандағина юзага келиши мумкин. Бошланғич синф ўқувчиларида дикқатни иродавий зўр бериш билан бошқариш ва вазиятга мослаш имконияти яхши бўлмайди. Бунинг асосий сабаби уларда ихтиёрий дикқатнинг кучсизлиги ва бекарорлигидир. Болаларда ихтиёрсиз дикқат кўпроқ ривожланган бўлади.

Бошланғич синф ўқув материалларининг яққоллиги, эркинлиги, жозибадорлиги, ўқувчида беихтиер хис-туйғулар уйғотади, иродавий зўриқишиз, осонгина фан асосларини эгаллаш имконини беради. 1 -2 синф ўқувчилари дикқатининг ўзига хос хусусиятларидан бири унинг етарлича барқарор эмаслигидир. Шунинг учун хам улар дикқатларини муайян нарсаларга қаратади олмайдилар ва дикқат обектда узоқ тура олмайди. Таълим жараёни кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг ихтиёрий, барқарор, мустахкам, қучли, фаол онгли дикқатни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Билим олиш жараёнида мустақил ақлий мехнат қилиш, мисол-масалалар ечиш, машқлар бажариш, такрорлаш иродавий зўр бериш жараёнида ихтиёрий, онгли дикқат таркиб топади. Бу ёшдаги болада ихтиёрий дикқатни жамлаш, ташкил қилиш, зарур бўлса уни тақсимлаш, онгли равишда бошқариш ўқуви шаклана бошлайди.

Кичик мактаб ёшидаги бола маълум даражада ўз фаолиятини ўзи мустақил ривожлантира олади. У ўз режасини, у ёки бу ишни қандай кетма-кетликда бажаришини сўз билан ифодалаб бера олади. Режалаштириш сўзсиз боланинг дикқатини ташкил эта олади ва ривожлантиради. Уларда ихтиёрсиз дикқат устунлик қиласиди. Кичик мактаб ёшидаги болалар сўзсиз ўз дикқатларини интеллектуал масалаларга қаратади, лекин бу жуда катта иродавий кучни ва юқори мотивацияларни ташкил этилишини талаб қиласиди. Боланинг хаёли теваракатроф таасуротлари, тасвирий санъат асарларини етарли даражада акс эттиришда вужудга келади. Образлар, шартли белгилар, табиат манзаралари жамланиб ўқувчиларда хаёл пайдо бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Нишонова З.Т., Алимова Г.К.. Болалар психологияси ва психодиагностикаси Т.: ТДПУ 2017.
2. Дўстмуҳамедова Ш.А., Нижонова З.Т ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология Т.: Фан ва технологиялар 2013.
3. Хурвалиева Т. Мактабда психологик хизматни ташкил этиш. – А.Авлоний номидаги XTXҚТМОМИ, 2006 й.

## **ИЗ ИСТОРИИ МОРФОНОЛОГИИ**

*Алимарданова Шахло Ашурмаматовна  
преподаватель-стажёр кафедры общего языкознания, УзГУМЯ*

Каждый человек должен воспринимать День Конституции как знаменательное событие в жизни государства, так как она оказывает огромное влияние на жизнь каждого гражданина, поскольку закрепляет систему прав и обязанностей, а также гарантирует их реализацию.

Конституция – это основной закон общества и государства, который устанавливает основополагающие цели и принципы их развития. Студенты, обучаясь в образовательных учреждениях, должны знать о своих правах и обязанностях. На филологических отделениях вузов изучается морфонология, пограничная область между фонологией и морфологией.

Истоки учения о глубокой связи грамматики с фонологией и конкретных формах проявления этой связи легко обнаруживаются в индийской грамматической традиции. Важность морфологически значимых чередований всегда была ясна и исследователям индоевропейских языков: не случайно, что одним из основоположников морфонологии считается И.А. Бодуэн де Куртенэ, который писал о функциональном характере альтернаций и их морфологической обусловленности.

Общеизвестно, что основы морфонологии как области науки о языке, изучающей фонемы в составе морфем, заложил И.А. Бодуэн де Куртенэ, который ещё в середине 70-х годов XIX века разграничил две «категории звуковых перемен»: 1) перемену звуков «независимо от влияния других звуков» и 2) перемену звуков «под влиянием других звуков»<sup>19</sup>, – сделав таким образом первый шаг в разработке теории альтернаций,- или чередований фонем в морфемах. Впоследствии в работе «Опыт теории фонетических альтернаций»

<sup>19</sup> Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. – М., 1963, с. 83

учёный, углубляя и конкретизируя свою мысль и подчёркивая выводимость чередования фонем из чередования морфем, писал, что «фонетическая альтернация целых морфем распадается на альтернации отдельных фонем, как фонетических компонентов этих морфем»<sup>20</sup>. В этой же работе автор разделил все альтернации на два класса: 1) неофонетические альтернации, или дивергенции, которые представляют собой комбинаторно обусловленные чередования модификаций одной и той же фонемы (т.е. чередования звуков, обусловленные фонетическим окружением) и 2) не-неофонетические, или палеофонетические альтернации, основывающиеся только на традиции. Наконец, в статье «Фонология» (1899) он ввёл корреляции, т.е. «психофонетические альтернации», которые стоят наравне со словообразовательными и флексивными средствами и относятся уже собственно к морфологии, а не к фонетике.

Данная теория альтернаций Бодуэна де Куртенэ получила дальнейшее развитие в трудах представителей Московской фонологической школы.

В работах А.А. Реформатского, В.Н. Сидорова, Р.И. Аванесова, П.С. Кузнецова, М.В. Панова явления, которые обусловлены фонетическими позициями фонем, т.е. звуковым окружением, принадлежат только фонетическому ярусу.

А.А. Реформатский шёл к морфонологии от изучения фонологической системы языка. Рассматривая фонологические проблемы, он в работе «Из истории отечественной фонологии» (1970) различал морфологические чередования, лишённые значимости, и морфологические чередования, связанные с изменением грамматического значения, и высказал мнение о том, что морфологические чередования, лишённые значения, можно отнести к морфонологии и описывать их с применением термина морфонема. А.А. Реформатский отметил, что термин «морфонема» нужен только в том случае, когда «исследователь желает объединить в одно целое чередующиеся элементы вариантов морфем»: например, [к] - [ч]: *рука – ручной, пеку – печёшь*; [г] - [ж]: *дорогой – дороже, луг – лужайка*; [ск] - [ш’]: *треск – трещать, писк – пищать и т.п.*

В этой же работе автор вносит уточнения в определение статуса морфонологии и дополняет её прежнюю характеристику новыми чертами: «Между фонологическим и морфологическим ярусами есть зона морфонологии, не образующая особого яруса, а входящая как особая сфера и в фонологию, и в морфологию. От нормальных явлений фонологии объекты морфонологии отличаются тем, что для них не существует фонетических позиций, а существуют морфологические условия. А от нормальных явлений морфологии

<sup>20</sup> Там же. – С. 273

объекты морфонологии отличаются тем, что они не обладают собственной значимостью, как морфемы»<sup>21</sup>.

Идеи А.А. Реформатского подготовили почву для дальнейших исследований в области морфонологии.

Как отмечает Н.Е. Ильина, качественно новый этап в изучении морфонологических чередований представляют собой работы М.В. Панова<sup>22</sup>. В статье «О грамматической форме», характеризуя разные типы чередующихся фонем, М.В. Панов отграничивает внутреннюю флексию от традиционной мены фонем, видя между этими двумя явлениями принципиальное различие. Внутренней флексией, как и А.А. Реформатский, М.В. Панов признаёт чередование, которое является единственным средством выражения грамматического значения: «Если есть морфологические образования (слова или формы слов), которые отличаются определённым грамматическим значением и материальное различие между ними – только чередование звуков корня, то это чередование является грамматическим способом (внутренней флексией) для передачи данного грамматического значения во всех морфологических образованиях с таким чередованием»<sup>23</sup>. Наоборот, чередование не является внутренней флексией, если кроме него для выражения грамматического значения используется аффиксация. Вместе с тем оба типа чередований М.В. Панов относит к грамматике.

Он рассматривает чередования фонем на конце корня и справедливо отмечает, что причиной мены фонем являются аффиксы, следующие за корнем. На конкретных примерах М.В. Панов показывает, что в современном русском языке есть «аффиксы, которые неизбежно вызывают чередование: <б>/<бл’> - <п>/<пл’> - <в>/<вл’>... Самое это чередование не столько характеризует корень (поскольку <лоб> = <лоб’> = <лобл’>; значение корня этим чередованием не изменяется), сколько следующий за ним аффикс: <бл’> уже сигнализирует о следующей флексии «у»<sup>24</sup>. Определённые фонемы сопутствуют строго определённым аффиксам. Смена аффикса влечёт за собою мену фонем. Например: фонемы <т’>, <д’> и сочетание фонем <ст’>, находящиеся на конце корня в формах инфинитива *крутить*, *водить*, *пустить* заменяются фонемами <ч>, <ж>, <щ> в форме 1 лица единственного числа *кручу*, *вожу*, *пущу*.

Такие фонемы, вступающие в чередование друг с другом в зависимости от последующих аффиксов, М.В. Панов сводит к морфемике. Далее автор приводит некоторые морфонемы русского языка: {в - в' - вл'} (*лов* – *ловить* – *ловлю*), {с -

<sup>21</sup> Реформатский А.А.. Из истории отечественной фонологии. М., 1970, с. 114

<sup>22</sup> Панов М.В. О грамматической форме//Грамматика современного русского языка. – М., 1959, с. 16

<sup>23</sup> Панов М.В. О грамматической форме//Грамматика современного русского языка. – М., 1959, с. 12

<sup>24</sup> Там же – С. 27

с' - ш} (запрос – запросить - запрошу), {з - з' - ж} (воз – возить - возжу). Фонемы, объединяющиеся в морфонему, представляют собой разные ступени изменения этой морфонемы.

Термин «морфонема» неоднозначен. Его содержание зависит от термина «фонема». Естественно, если морфонология базируется на фонемной основе, то можно с уверенностью сказать, что различие морфонологических теорий определяется различием фонологических теорий.

Термин «морфонема» был введён в лингвистику польским учёным Г.Улашином. Оперируя терминами звук, фонема, морфонема, учёный соотносит их с такими реалиями: термин звук (Laut) он закрепляет за природными звуками, от которых отграничиваются звуки речи и называет их фонемами (Phonema); термином морфонема (Morphonema) он обозначает звуки речи, выполняющие семасиолого-различительную функцию. Если сопоставить точку зрения Г.Улашина со взглядами представителей Московской фонологической школы, то оказывается, что в поле зрения исследователей находятся одни и те же языковые объекты – звук речи и фонема, а различие в подходе к ним чисто терминологическое: у Г.Улашина термины как бы сдвинуты на один уровневый порядок вниз.

Известно, что термин морфонема – именно с таким значением, какое ему придавал Г.Улашин, – был принят некоторыми зарубежными фонологами. Морфонема обычно понимается как ряд фонем, включающий в себя фонему в сильной позиции и фонемы в слабой позиции.

В ином значении термин морфонема использовал Н.С. Трубецкой – представитель Пражской лингвистической школы, создатель синтагматической фонологии. В фонологической теории Н.С. Трубецкого основной единицей является фонема, которая определяется следующим образом: «Фонема – это совокупность фонологически существенных признаков, свойственных данному звуковому образованию»<sup>25</sup>.

Как отмечает Н.Е. Ильина, термин «морфонема» отвергают многие лингвисты, разрабатывающие вопросы морфонологии. Несмотря на это, данный термин проявляет жизнеспособность. Он встречается у исследователей словообразования (Е.А. Земская) и морфологии (С.В. Бромлей) русского языка.

<sup>25</sup> Трубецкой Н.С. Основы фонологии. Пер. с нем. А.А. Холодовича. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960, с. 45

Е.А. Земская понимает под морфонемой «ряд чередующихся фонем, выступающих в алломорфах одной морфемы»<sup>26</sup>, например, {с - с' - ш}, {д - д' - дж}, {б - б' - бл'}, {к - ч}. Эти ряды чередований объединяют морфы в одну морфему.

М.В. Панову принадлежит иная трактовка рассматриваемого термина. Все позиционные реализации фонем относятся к фонетическому уровню фонологического яруса. А морфонология имеет дело с морфологическими (грамматическими, традиционными) чередованиями фонем. В связи с этим под морфонемой М.В. Панов понимает обобщение фонем, заменяющих друг друга в разных грамматических позициях, заданных аффиксом, т.е. «фонемы, чередующиеся в зависимости от грамматических условий, объединяются в морфонему»<sup>27</sup>.

Как видим, к проблемам морфонологии обращались многие ученые-лингвисты, и у каждого были свои взгляды на данную область языка, которые пересекались или различались, в зависимости от того, к каким лингвистическим школам и направлениям принадлежали исследователи.

### UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA O`QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi  
Namangan viloyati Namangan Davlat universiteti magistranti*

O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta`lim tizimida kasb – hunarga yo`naltirish ishlarining tashkiliy, pedagogik, psixologik, ijtimoiy masalalariga asosli tarzda to’xtalib o’tilgan.

Umumta`lim maktablarida 9-11- sinf bitiruvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish ishlarining samaradorligini oshirishda psixologik-pedagogik xizmat muhim o’rin tutadi.

O`smissiz-yoshlarimizning aksariyati o’z maqsadlariga erishish uchun yaxshi kasbga va ma’lumotga ega bo’lish kerakligini yaxshi bilishadi. Biroq o’quvchilar hali kelajakda qanday kasblarga ehtiyoj (talab) bo’lishini, maqsadga erishish uchun ulardan qanday

<sup>26</sup>Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Просвещение, 1973, с. 99

<sup>27</sup> Панов М.В. Русская фонетика. – С. 207

shaxsiy va kasbiy mahorat talab qilinishini to’liq anglab yetmaydilar. Bu muammolarning jarayonida yechimini ba’zida kattalar ham topolmaydilar.

Kasb tanlash o’smirlarda tashabbusni, mustaqillikni, mas’uliyatni, eng muhimmi, biror bir maqsadga erishish motivini shakllantirish, o’ziga ishonchni tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratish lozim. O’sib kelayotgan avlod psixik salomatligini saqlashda o’quv mashg’ulotlari psixogigienasi yetakchi ahamiyatga ega: birinchidan, deyarli barcha bolalar o’n bir yil davomida ta’lim oladilar va ta’lim ularni hayotining asosiy qismini tashkil etadi, ikkinchidan esa, bu yillarga keskin inqiroz davrlari (7-8 yosh inqirozi va pubertat davr) to’g’ri keladi, bu davrlarda esa organizm nihoyatda ta’sirchan va asabni qo’zg’atuvchi ta’sirlarga ko’p duch keladigan bo’ladi.

O’quv mashg’ulotlari psixogigienasi quyidagi vazifalarga ega:

- 1) bolalar psixik taraqqiyotining uyg’unligi va o’z vaqtida kechishiga yordam berish;
- 2) ta’lim psixik salomatlik garovi bo’lmish ijobiy emotsiyalarni uyg’otishi bolalarga shodlik keltirishiga intilish;
- 3) bolalarni toliqtirib qo’yuvchi haddan ortiq aqliy zo’riqishdan qochish;
- 4) mакtabda psixik jarohatlovchi vaziyatlarning oldini olish. Bu tamoyillarga maktabdagи barcha o’quv faoliyati bo’ysunishi lozim. Biroq, ularga doim ham amal qilinavermaydi, ko’pgina belgilar, maktabning nevrozlantruvchi ta’siridan guvohlik beradi. Ayrim mualliflar mulohazalarida “maktab” atamasi “stress” tushunchasi bilan yonma-yon turadi. A.Popielarska dalillariga ko’ra, 1957 -1962 yillarda psixik salomatlik konsul’tatsiyasiga kelgan 1050 boladan 190 nafari (20%) da (maktab o’quvchilarida) nevroz aniqlandi. Bolalar nevrozining eng katta sabablaridan biri – muhit shart-sharoitlari, xususan, pedagogik jarayonning borishidir. Katta maktab yoshidagi o’quvchilarining kasbga yo’nalganligi shu yosh davrdagi ularning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlarni belgilab beradi. Bo’lajak kasbni aniq tanlash yoki aksincha, bu yoshda aniq tasavvurga ega bo’lmaslik, ikkilanish bo’lg’usi faoliyatning ehtimol tutilgan sohalarini tez-tez o’zgartirib turishda katta maktab yoshidagi o’quvchi shaxsini shakllantirishda uning umum psixik holatiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi .

Yuqori sinf o’quvchilari bilan kasbga yo’llash ishlari olib borishda har bir o’quvchining individual imkoniyatlari hamda regiiondagi muayyan kasblarga ehtiyojni doimo hisobga olib borish zarur. Ye. A. **Klimov** bu borada shunday deydi: o’sib kelayotgan yosh inson kasblar olamidagi murakkab, ko’zga tashlanmaydigan va hali kuzatib ulgurmagan narsalar to’g’risida yetarli axborot olmaganligi uning bu sohada ongli va mustaqil ravishda kasb tanlash to’g’risidagi pedagogik talablarga qarama – qarshi bo’lib chiqadi. Umumta’lim maktablarida psixologik-pedagogik ishlar samaradorligini oshirish hamda o’quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish muammolaridan yana biri bu oilada yetarlicha tushuntirish ishlarini tashkil qilinmaganligidir.Bu jarayonda maktab psixologi faqat o’quvchilar bilan emas, balki ularning ota-onalari bilan maxsus

ravishda sistemali ish olib borish zarurligini aniq – ravshan anglashlari kerak. CHunki oila kasbga yo'llashning ta'sirchan va ayni mahalda yomon boshqariladigan omilidir.

Umumta`lim maktablarida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini samaradorligini oshirish uchun maktablarda kasb-hunarga yo`naltirish maqsadida “Kasblar olami” xonasini tashkil etish ham maqsadga muvofiq.Kasb-hunarga yo`naltirish xonalari o`quvchilarga kasbiy axborotlar va maslahatlar berish, ularni kasblar dunyosining sir-asrорлари bilan tanishtirish,ongli ravishda mustaqil kasb tanlashga yo`naltirishga xizmat qiladi.

Umumta`lim maktablarida kasb-hunarga yo`naltirish maqsadida tashkil etilgan “Kasblar olami” xonasining faoliyatini tashkil etish to`g`risidagi tavsiyalar umumiyl o`rtalim maktabi psixologining kasb hunarga yo`naltirish ishlarining samarali bo`lishiga yordam beribgina qolmay, maktablarning bitiruvchilarining kasb-hunarga yo`naltirishiga ijobiy ta`sir etishi haqida fikr bildirib o`tgan.

Kasb–hunarga yo`naltirish xonasini tashkil etishdan maqsad, o`z tayyorlov yo`nalishlari, mutaxassisliklari bo`yicha umumiyl o`rtalim maktab bitiruvchi o`quvchilarga kasbiy axborotlar, maslahatlar berish, ularga kasblar dunyosi, o`zлari yashayotgan hududga mos mehnat turlarining mazmuni bilan tanishtirish, hozirgi zamon ishlab chiqarish turlari, mehnat bozori va uning rivojlanish istiqboli, kasblarga bo`lgan ehtiyoj va ularni shaxsga qo`ygan talablari haqidagi tushunchalarni berib, ongli ravishda mustaqil kasb tanlashlariga yo`naltirishdan iborat jarayonlarni o`z ichiga oladi, hamda ushbu xona maktabning kasb – hunarga yo`naltirish markazi bo`lib hisoblanadi.

Umumta`lim maktablarida faoliyat olib borayotgan psixologlarni o`quvchilar bilan olib borilayotgan kasb-hunarga yo`naltirish ishlariga hamda xonaning faoliyatini yuritish ishlariga ma`sul shaxs qilib qo`yishimiz maqsadga muvofiqdir.

CHunki uning ish faoliyatida har doim o`quvchilarni qiziqishlari, qobiliyatları, kasbiy moslashish jarayonlarini qay darajada kechayotganlik holatlari, oilaviy tarbiyaviy muhitning ta`sir doiralari, do`stlar davrasi, nizoli vaziyatlar kabi psixologik-pedagogik jarayonlar bilan bevosita bog`liq bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda umumta`lim maktablarida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish hamda bu jarayonda psixologik-pedagogik ishlar samaradorligini oshirishda oila bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish,o`quvchilarning psixologik-fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqib kasb tanlashlari yuzasidan maslahatlar berish,’Kasb tanlash xonasi’ni tashkil etishda barcha muhim jixatlarga e`tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.Zero,kelajagimiz bunyodkorlarining o`z kasblarining yetuk mutaxassislari bo`lib yetishishi bizning bugungi kundagi e`tibor va say-harakatlarimizning natijasi bo`lishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1)O`zbekiston respublikasi ”Ta`lim to`g`risidagi qonun”

- 2)"Yosh davrlar va pedagogik psixologiya".T.O'qituvchi 1991-yil
- 3)"Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan kasb tanlashga oid konsultatsiya ishlari"(Metodik ko'rgazma)Razzoqov D.N.,Timenko N.P Qarshi.1991
- 4)www.ziyo.uz

---

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОФИЗИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ УЗБЕКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА СРЕДСТВАМИ ИНДИВИДУАЛЬНО-ИГРОВЫХ ВИДОВ СПОРТА**

*Мухиддинова Феруза Асомиддин кизи  
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта  
Студент*

Значение образования в современном обществе Узбекистана невозможно недооценивать. Только физически и психически здоровое поколение будет способно противостоять вызовам быстро меняющихся условий современной жизни, справляясь с возрастающим спадом потребности на рынке труда к квалифицированным кадрам. Быстрый рост научно-технического прогресса способствует увеличению количества информации, все это требует от современной молодежи серьезного умственного и психического напряжения, а также дополнительных физических сил, хорошей координации и культуры движения.[1]

Специалисты по индивидуально-игровым видам спорта, а также педагоги физической культуры призваны в первую очередь, формировать привычку здорового образа жизни у школьников, подготавливать, здоровых, физически крепких, спортивно ориентированных учащихся.

Профессиональная психофизическая готовность будущих учителей физической культуры включает в себя сохранение высокой работоспособности, обеспечение физических и функциональных возможностей для адаптации организма к производственным условиям, способность к быстрому восстановлению психических и физических сил, противодействию стрессу. Психофизическая готовность обеспечивает высокий уровень функционирования интеллектуальных и психофизических возможностей, которые в свою очередь способствуют формированию сильной мотивации и оптимизации в достижении поставленных целей в процессе труда. Психофизическая готовность к профессиональной деятельности формируется в процессе профессионального

обучения. Она необходима как условие эффективной педагогической деятельности.

Все учебные заведения Узбекистана от детского сада до университета финансируются за счет государства. Все основные занятия по физической культуре проходят на открытом воздухе, это обусловлено высокой температурой и влажностью. Игровые виды спорта в Узбекистане очень популярны, ведущие позиции среди них занимают: футбол, баскетбол, волейбол и гандбол.

Настольный теннис, бадминтон и теннис занимают важное место среди средств физического воспитания молодежи Узбекистана. В Узбекском государственном университете физической культуры и спорта студентки ходят на занятия «Игра с ракеткой», в который входят лекционные и практические занятия по трем видам спорта. А также по указу президента Республики Узбекистан № УП-6099 от 30.10.2020 несколько раз было организовано и проведено при кафедры «Теория и методика тенниса, бадминтона» соревнования по бадминтону для желающих студентов независимо от специализации в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта. Таким образом число желающих заниматься этим видом спортивной деятельности значительно вырос. С 12 до 16 ноября было проведено очередное соревнование по бадминтону. Победители были награждены дипломами и денежными призами.

Занятия индивидуально-игровым видам спорта призваны сформировать у студентов необходимый уровень знаний и навыков, а также психофизической готовности. В результате изучения тенниса, бадминтона и настольного тенниса достигается высокий уровень работоспособности, развиваются физические качества, вырабатывается потребность регулярных занятий физической культурой.

Психофизическая готовность студентов в процессе изучения индивидуально-игровых видов спорта определяется во многом усвоением необходимых ценностей, которые обеспечивают высокий уровень готовности к жизни и деятельности. При наличии высокой психофизической готовности у студентов Узбекского государственного университета физической культуры и спорта повышаются биологические возможности жизнедеятельности организма, что способствует возможности противостоять ухудшению экологических условий, справляться с высокими физическими и психическими нагрузками, работать эффективно в обычных и экстремальных условиях. Для формирования психофизической готовности к педагогической работе средствами индивидуально-игровых видов спорта следует учитывать интенсивность и объем предполагаемой нагрузки, процесс игровой деятельности должен быть непрерывным.

Специалисты-психологи установили, что при условии работы руководителем у человека возникает физическая и психоэмоциональная усталость

в большой мере, чес при исполнении трудовых функций и действий. Занятия индивидуально-игровыми видами спорта позволяют устанавливать коммуникационные связи у студентов, развивать способность к взаимодействию в коллективе, умение принимать решения в условиях ограниченного времени и на фоне физической усталости и психического напряжения. Профессиональная психофизическая готовность студентов Узбекского государственного университета физической культуры и спорта является интегративным образованием личности, поскольку является синтезом тесно связанных между собой следующих компонентов: теоретическая и физическая подготовленность, функциональная устойчивость организма, психическая подготовленность.

**Вывод.** Сформированная психофизическая готовность у студентов Узбекского государственного университета физической культуры и спорта к будущей профессиональной физкультурно-спортивной деятельности будет способствовать высокой дееспособности, приспособляемости к высоким температурным и повышенной влажности климата и стрессоустойчивости, что в результате повысит их конкурентоспособность и профессиональную мобильность.

Таким образом, овладение профессионально-педагогическими знаниями, умениями, навыками в процессе занятий индивидуально-игровыми видами спорта можно создать условия для формирования психофизической готовности к будущей профессиональной физкультурно-спортивной деятельности. Также в реальной педагогической работе это будет способствовать профессиональной и социальной стабильности учительских кадров

### Литература

4. Исмаилов А.И. Готовность как интегральная характеристика экспериментальной деятельности / А.И. Исмаилов, Р.А. Желтов // Детский тренер. – 2013. - №1. – С.39-42.
5. [О мерах по широкому внедрению здорового образа жизни и дальнейшему развитию массового спорта.](#) № УП-6099 от 30.10.2020.
6. Губанцева А.А. Психофизическая характеристика учебной деятельности студентов – будущих менеджеров / А.А. Губанцева, А.Г. Мастеров // Научно-методические основы повышения качества подготовки специалистов для сферы физической культуры, спорта и туризма. – Волгоград, 2013.

**ОИЛАДА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ВА ТИББИЙ САВОДХОНЛИКНИ  
ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ**

*Махсудова Мўтабар Абдусаломовна  
НамДУ доценти*

Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларидан бири ҳозирги замон оиласарида ҳуқуқий ва тиббий саводхонликни шакллантиришнинг етарли эмаслигидир..

Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг дастлабки йиллариданоқ оила барқарорлигини таъминлаш, соғлом она ҳам маънан, ҳам жисмонан етук ҳамда рухан соғлом, юксак ҳуқуқий маданиятга эга бўлган баркамол авлод тарбиялаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилиди. Мазкур йўналиш қатор ҳукумат қарорлари, оила институти, соғлиқни сақлаш, ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий соҳаларни янада такомиллаштиришга қаратилган Давлат дастурлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармон ва фармойишлари билан ҳуқуқий тусга эга бўлди. (1.3-б)

Ҳозирги кунда комил инсонни шаклланиши ва жамиятда ўз ўрнини топиши ўзига хос хусусият, имконият ва қонуниятларга эгадир. Буларнинг шаклланиши эса оиласдан бошланади. Оила таълим-тарбиянинг бошлангич механизми бўлиб хизмат қиласи, ҳамда таълим-тарбия, шахсларро муносабатлар, миллий анъана ва қадриятлар, урф-одатлар ҳамда ижтимоий муаммоларнинг келиб чиқиши ва уларни бартараф этиш чоратадбирлари оиласда ўрганилади.

Ҳуқуқий маданиятни амалга ошириш, аввало оиласдан бошланади. Оиласнинг ҳар бир аъзосини қонунларга итоаткорлик руҳида тарбиялаш, қонунга нисбатан хурмат туйғусини шакллантириш орқали ҳар хил нисбий тушунчалардан ҳоли бўлишимиз мумкин. Лекин биз айни дамда бу даражага эришганмиз, дея олмаймиз. Сабаби, фуқароларнинг оила аъзоларининг ўзаро муносабатларида турли ҳуқуқий низолар бўлиб туради. Ҳуқукий тарбия шахсларнинг нафақат онгига, балки уларнинг юриши-туришига ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Оиласда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш нафақат ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш билан, балки ўсиб келаётган ёш авлодда қатъий тамойилларнинг шаклланиши, жамият қабул қилган нормаларни хурмат қилишга ўргатади. (1.13-б)

Оиласда ҳуқуқий маданиятни шакллантиришга қаратилган тарбияни амалга оширишда қуйидаги ҳолатларга эътибор бериш зарур:

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

- ёшларни энг аввало демократия асосларига ўргатиш керак, чунки у нафақат ўзининг ҳукуқлари ва мажбуриятларини, балки бошқа шахсларни ҳукуқ ва эркинликларини ҳурмат қилиш, шахс эркинлиги, ҳукуқий давлат каби тушунчаларни ўрганмоғи даркор;
- ҳукуқий нормалар яхши ва ёмон, тўғри ва нотўғри каби ахлоқий тушунчалар билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Шу сабабдан ҳукуқий тарбия этик ва маънавий тарбия билан бирга олиб борилиши лозим;
- ҳукуқ нормалари ҳақида қизиқарли ва ҳаётда учраб турадиган аниқ вазиятлар ва мисоллар асосида билим бериш зарур. Чунки мавхум тусдаги қуруқ маълумотлар тарбияланувчининг онгидаги ҳазм қилинмайди.

Оилада шахснинг ўзига хос сифатлари мажмуини шакллантириш юзасидан амалга ошириладиган ҳукуқий тарбия қўйидаги мақсадларни кўлрайди:

- аниқ мақсад-ҳукуқий билимлар тизимини шакллантириш;
- оралиқ мақсад-ҳукуққа ишончни шакллантириш;
- пировард мақсад-ҳукуқий ижтимоий фаол ҳукуққа одатланиш. (1.14-б)

Одамнинг соғлиги, жисмонан ва маънан етуклиги унинг интилишларини, ҳаётга бўлган муҳаббатини, яшаш иштиёқини ва меҳнат қилишга бўлган фидойӣ фазилатларини тарбиялайди. Шу боис ҳам қайси давлатнинг фуқаролари соғлом бўлса, мамлакат ҳар томонлама тараққиётга эришади. Мустақиллик йилларида аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, оналиқ ва болаликни ижтимоий муҳофаза қилиш, хотин-қизлар саломатлигини яхшилаш ва миллат генофондини асрашга қаратилган давлат томонидан молиялаштирилган ўнлаб давлат дастурлари, турли муҳим ҳужжатлар ҳаётга кенг тадбиқ қилинади. Бадантарбия ва спорт билан шуғулланиш аҳолининг, айниқса ёшларнинг ҳаёт тарзига айланиб бормоқда. Бу борада юртбошимиз ташабbusлари билан бир қанча молиявий кўмак берувчи ҳомий ташкилотлар ва бюджет ҳисобидан маблағлар ўз ўрнида сарфланяпти.

Оила қуриш, она бўлиш, соғлом фарзандни дунёга келтириш, болани ҳар томонлама соғлом, интеллектуал етуқ инсон қилиб тарбиялаш бу улкан баҳтдир. Ана шу баҳтга мукаммал эришиш учун бола тарбиясида тиббий саводхонликнинг, шахсий гигиена қонун қоидаларини билиш жуда катта аҳамият касб этади. Она ва бола саломатлигини ижтимоий муҳофаза қилишда оила аъзоларининг тиббий саводхонлиги ва тиббий маданияти муҳим аҳамиятга эга. (1.22 б)

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

Бугунги кунда оналар ва болалар ўртасида учраб турадиган ўлим ҳолатлари, қариндош-уруғлар ўртасидаги никоҳлар оқибатида ногирон болаларнинг туғилиши ҳолатлари, турли хавфли касалликлар, репродуктив саломатликни мустаҳкамлаш билан боғлиқ муаммоларнинг ҳали ҳануз учраб туриши, ёшларни оила қуришда тиббий кўрикни чуқурлаштириб ўтказиш муаммоси ижтимоий-психологик муаммолардан биридир.

Она ва бола саломатлигини ижтимоий муҳофаза қилиш ва репродуктив саломатликни мустаҳкамлаш билан боғлиқ муаммолар ижтимоий-сиёсий муаммо эканлигини эътиборга олган ҳолда, оила аъзоларининг тиббий саводхонлик ва тиббий маданият даражаси ҳам жиддий зарурият ҳисобланади.

Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф ўзининг “Бахтиёр оила” китобида тиббий кўрикнинг аҳамиятини шундай ифода этган: “Никоҳланишдан олдин ўтказиладиган тиббий кўрикнинг юқумли ёки оила қуриш мақсадларига таъсир ўтказадиган хасталикни аниқлашда фойдалари бор. Тиббий кўрикни ман қилувчи нарса шариатда йўқ, жумладан, ирсий кўрикнинг ҳам. Фақат шарт шуки, айбни ошкор қилмаслик керак ва даволанишга йўл қўйиш лозим.” (2. 74 б)

Демак, соғлом турмуш тарзини шакллантириш аввало, оиладан бошланади. Оила аъзоларининг тиббий саводхонлиги ҳар бир шахснинг кундалик овқатланиш тартиби ва озиқ –овқат моддаларининг сифат ва миқдор кўрсаткичларини билиши, ва унга оғишмай амал қилиши, кун тартибига риоя қилиш, меҳнат ва дам олиш шароитларини яратиши, ўзининг бадани, кийим-кечаги, турар жойларини тоза сақлаши, жисмоний тарбия машқларини бажариши, заарли одатларга ўрганмаслик, оилада ва иш жойларида энг мувофиқ руҳий муносабатларни ўрнатиш, одамлар билан ўзаро муносабатларни яхшилаш кабиларни ўзи бошқариши зарур.

Кейинги йилларда оилаларда турли хил сабабларга, хусусан юртимизда кечаётган ислоҳотлар, қийинчиликларни енгиб ўтиш ва келажакка нисбатан янгича қарааш лаёқатининг етишмаслиги ва шу кабилар оилада фарзандлар тарбиясига эътиборнинг бироз сусайишига сабаб бўлиб, ота-оналар фарзандари билан кам мулоқотда бўлишига тўғри келмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда ижтимоий-психологик муаммолардан бири бўлган ҳуқуқий маданиятни ҳамда тиббий саводхонликни шакллантиришни аввало оилалардан бошлаш мақсадга мувофиқ экан. Сабаби болаларга таъсир қилиш мумкин бўлган энг қулай муҳит бу оила муҳитидир. Шунинг учун катталар, яъни ота-оналар

фарзанд тарбиясида ушбу жиҳатларга катта эътибор беришлари керак. Шунингдек, таълим муассасаларида ҳам тарбиячилар ёшларни тарбиялашда ва уларга таълим беришда ҳуқуқий маданият, тиббий саводхонликни ривожлантириб боришда турли усусларни қўллашлари лозим. Жумладан, тарбиявий ижобий муҳитни яратиш, китобга, мутолаага муҳаббатни тарбиялаш, билим инсон ҳаётида, келажагида ҳал қилувчи қадрият деган тушунчани шакллантириш кабилар.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

- 1.Ҳамирова М.А. Оилада ҳуқуқий саводхонликни ошириш бўйича тавсиялар. Т. 2015
- 2.Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила.Т.”HIOL-NASHR”. 2019

---

## **БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ БОШҚАРИШ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ**

*Алибоева Дилдора Баҳодир қизи  
Гулистон Давлат Университети Педагогика психология йўналиши 2-курс  
магистри*

**Анататция:** Бошқариш маданиятини такомиллаштириш унинг барча элементларига эътиборни кучайтириш демакдир. Раҳбарнинг маданият даражаси бу ўта мураккаб кўрсаткич ҳисобланади, раҳбарлик, раҳбардан бошқарув маданиятининг қонуниятларига бўйсунишни талаб этади.

**Калит сўзлар:** бошқарув маданияти, бошқарув этикаси, ижтимоий тараққиёт қонунлари, қарор, сиёсий ёндошув, бошқаришни демократлаштириш, рағбатлантирувчи бошқарувчи, назорат.

Раҳбарлик, раҳбардан бошқариш маданиятининг қонуниятларига бўйсунишни талаб этади. Боқарув маданияти ўз ичига аҳлоқ, одоб қоидаларини олиш керак. Бошқариш маданиятини такомиллаштириш унинг барча элементларига эътиборни кучайтириш демакдир. Раҳбарнинг маданият даражаси бу ўта мураккаб кўрсаткич ҳисобланади. Маданият, бошқарув услубининг энг муҳим мажмуасидир. Демак, бошқаришни маданият, одоб, аҳлоқ нормаларига бўйсунган холда олиб бормоқ керак. Бошқарув хизмати этикаси ҳақида раҳбар ўз ишида аҳлоқ-одоб қоидаларининг мулойимлик ва ўзаро ёрдам хамжиҳатлик, катталарга хурмат, кичикларга иззат ва ҳар бир жамоа аъзосига нисбатан инсонийлик, шахс сифатида муносабат ва шу каби меъёрларга таяниши ва шу асосда иш олиб бориши зарур бўлади. Йиғилишлар ўтказиллаётган вақтда уларнинг қатнашчиларига нисбатан

мулойим бўлиш керак, чунки одамлар бундай йиғилишларга мақбул бошқарув қарорларини яратиш учун келадилар, бундай қарорлар эса биринчи навбатда, раҳбар учун ўта мухим хисобланади. Бошқаларни сабр-тақат билан эшишта олиши, сўзловчиларнинг сўзини охиригача эшишишга харакат қилиши, ходимларнинг фаоллигини тақрорлаши керак. Кўпчилик олдида оддий раҳмат айтиш ёки миннатдорчилик билдириш баъзан моддий тақдирлашдан хам авзал бўлиш мумкинлигини унутмаслик керак. Агар бирор ходимни ишдаги нуқсонлари учун жазоламоқчи бўлсангиз, албаттаadolat чегарасидан чиқмаслик ва қўпол муомала қилмаслик керак. Сўз шаклини ва жазо турини танлашда, жазоловчи ходимларнинг ёшини жинсини ва харакатларини инобатга олиш керак. Танқид-одамларга катта ва зарур таъсир кўрсатувчи воситадир. Маълумки бошқарув жараёни учун ижрочиликнинг психологик хусусиятлари ва уларнинг ўзига хослиги мумухим аҳамиятга эга. Худди шу боисдан жамоа гурӯҳ ва уларнинг аъзолари юзасидан муайян даражадаги психологик маълумотлилик фаолият ва муомалали ташкил қилиш, уюштириш мулоқатга киришиши воқийликка тортилганлик масалаларни эътиборга олиш бошқарув жараёнини мақсадга мувофиқ амалга оширишни таъминлайди. Раҳбарлик, психологик саводхонлик ҳар қайсиси алоҳида хусусият, вазият, ҳолат, зиддият, шахс қаршилиги, муносабат, муаммо ва ечимга оқилона ва омилкорлик билан индивидуал ёки дифференциал ёндошишни амалиётга татбиқ этишга кенг кўламли имконият, пухта шарт-шароит шахсий услуг вужудга келишига негиз яратади.

Бинобарин раҳбар ходимларнинг индивидуал типологик хусусиятлари бўйича психологик билимлар билан ҳаноат ҳосил қилмасдан, балки ижтимоий психологик ҳолатлар, қонуниятлар, ҳодисалар ривожи, уларни келтириб чиқарувчи омиллар харакатланувчи механизmlар ижтимоий ҳодисалар ривожи, уларни келтириб чиқарувчи омиллар харакатланувчи механизmlар ижтимоий муаммоларнинг ечими жараёнда қатъий қабул қилиш ва уни бажаралиши босқичлари тўғрисидаги маълумотлар билан қўлланиши лозим. Акс холда жамоа гурӯҳ сингари микротузилмаларни бошқаришда психологик муҳитни барқарорлаштиришда шахслараро муносабатларни тўғри ташкил қилишда ишлаб чиқаришни йўлга қўйишида одамлар ўртасида ўзаро таъсир, таъсирланиш, таассурот ўзаро тушуниш ҳамдардлик каби мураккаб кечинмалар кучи давомийлигини англаштиришда нуқсон ва камчиликларга йўл қўйилади. Раҳбар ходимлар инсонлар темпираменти улар хусусиятлари хақида тўлиқ тушунчага эга бўлиши, раҳбарнинг ўз фаолиятини мувафақиятли бошқаришига омил бўла олади. Бошқаришнинг илмийлик қоидаси. Бу қоидани амалга ошириш ижтимоий тараққиёт қонунларини тобора тўлароқ билиб боришини ва улардан кундалик юритиш амалиётидаги борган сари тўлароқ фойдаланиши тақоза этади. Раҳбардаги мухим сифатлар борки, улар бошқариш

ишининг самарасига ижобий таъсир қўрсатади. Раҳбарнинг мустақил фикирлилик, топқирлик, ташабускорлик сифатлари, муомала маданияти - у ўринли, аниқ, самимий гапириш маданияти ва сухбатдошни тинглаш қобилятидир. Бугунги кунда бошқарувнинг илмий асосланган ва тажрибада синаб кўрилган қоидаларига таянмай туриб, бошқарувни самарали ривожлантириб ва бошқариб бўлмайди. Замонавий бошқариш маърифатли, ўз касбини кенг ва чуқур эгаллаган юқори ахлоқ меъёрларига амал қилишни талаб этади. Маърифат ва ахлоқ орқали кишиларнинг иқтисодий ва ижтимоий муносабатларини, хулқини ўрганиш ва ташкилот фаолиятида қўллаш катта муваффақиятларга олиб келади. Бошқарув жараёнини мақсадга мувофиқ равишда амалга ошириш учун раҳбар идора қилишнинг қайси бўгинида бўлишидан қатъий назар муайян қобилятга эга бўлиши керак. Раҳбар ўзининг шахсий фазилатлари, мустахкам характери кучли иродаси, барқарор хиссиёти нарсаларга ва жабҳаларга нисбатан маҳсус қобилятлари билан ходимларни бошқара олади. Фан ва техниканинг ривожи одамларда онглилик даражасининг юксак қўсаткичи ижтимоий тажрибаларнинг таъсирчан кучи хисобланади. Кишиларнинг муайян билимларга эга эканлиги раҳбарнинг комил инсон камолати поғонасига кўтарилишини тақоза этади.

Раҳбардан иродавийлик хусусияти талаб қилинади. Раҳбарда иродавий куч-куватнинг мужассамлашуви, бошқарув фаолиятининг машаққатлари, заҳматлари, мақсадга интилиши ва событқадамлилик, ташаббус, мустақиллик, ижодийлик, саботлилик, қатъийлик, принципиаллик, вазминлик, эсанкирамаслик, ўзини қўлга ола билишлиқ, интизомийлик, ўзини ўзи удалаш, ўзига ўзи буйруғ бериш, ўз кучига ишониш, ўзини сафарбар қила олишлиқ каби фазилатларни мовжудлиги раҳбарнинг муваффақиятидир. Раҳбарлик фаолияти ва раҳбар шахси учун иродавий сифатлар жуда муҳим аҳамиятга эга, уни бошқариш эса психологик тўсиқлар, вазиятлар, низоли холатларни енгиш манбай бўлиб хисобланади. Раҳбар кадирнинг нуфузи барқарор ирова субекти эканлигини хар қайси харакат ва фаолиятида намойиш қилишда ўз ифодасини топади, уни комилликка йўналтиришга имкон яратади.

### Фойданилган адабиётлар:

- 1.Э.Ғозиев “Бошқарувнинг педагогик-психологик харитаси” номли йўриқнома.
- 2.Р.М.Махмудов, А.А.Бекназаров. Ички ишлар идораларида Бошқарув психологияси.
- 3.Холбеков А, Махмудов И, Рашидов Ф Замонавий раҳбар: маънавий фазилатлар, психологик қиёфа, касбий маҳорат-Т 2008.й.
- 4.Платонов Ю.Р.Социальная психология –СПб-2006.
- 5.Платонов К.К .Психологи 1980 йил.

- 6.Э.Фозиев Психологиянинг метадологик масалалари – Тошкент.
- 7.Урбанович А.А.Психология управления Учеб пособия-Минск -2005.
- 8.Н.Боймуродов Раҳбар психологияси.

---

## **ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ПРЕОДОЛЕНИЯ СТРЕССОВЫХ СИТУАЦИЙ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

*Декамбаева Зилола Абубакировна  
психолог ГОШ СП МАФИ им. Мирзо Улугбека*

**Резюме.** Увеличение количества стрессогенных факторов, оказывающих психотравмирующее воздействие на личность, вызывающих эмоциональное напряжение, состояние стресса, обуславливают необходимость изучения особенностей реагирования на стрессовые ситуации и их преодоление у подростков, поскольку сам возраст с психолого-педагогической точки зрения – потенциальный источник стресса (происходят кардинальные изменения, принуждающие преодолевать стрессовые ситуации при помощи психологических ресурсов).

**Ключевые слова:** стресс, стрессовые ситуации, подростки, период онтогенеза, возрастной период, копинг, совладающее поведение, стратегии.

Прежде чем говорить об особенностях преодоления стрессовых ситуаций в подростковом возрасте, необходимо рассмотреть особенности самого возрастного периода с психолого-педагогической точки зрения. Специфика подросткового возраста заключается в том, что данный период онтогенеза представляет собой остро протекающий переход от детства к взрослости, где выпукло переплетаются противоречивые тенденции развития. В соответствующей психолого-педагогической литературе уже стало традиционным обозначать данную возрастную категорию в таких терминах, как «трудный», «критический», «конфликтный».

Поведенческие проявления характеризуются негативизмом, упрямством, стремлением к независимости, демонстративным безразличием к успехам в школе и т.д. Ведущая деятельность – интимно – личностное общение подростков, которое пронизывает всю его жизнь, при этом накладывая отпечаток и на учебную деятельность и на внеучебные занятия, на отношения с учителями, родителями.

На возникновение новообразований в психике подростка влияют такие факторы, как социальные условия жизни подростка, новые требования к его

поведению и деятельности, завершение физического и полового созревания, дифференциация эмоциональной сферы, расширение сферы волевой активности, сдвиги в мотивационной сфере и ценностных ориентациях, «перемены в структуре общения», развитие интеллектуальной и эмоциональной сферы (И.В. Дубровина) [1].

В подростковом и раннем юношеском возрасте изменяется соотношение «телесных» компонентов и морально-психологических компонентов «Я». Подростки чрезмерно чувствительны к особенностям своего тела, своей внешности, сопоставляя свое развитие с развитием других подростков (И.С. Кон) [2].

В связи с этим, в данный возрастной период чаще по сравнению с другими периодами онтогенеза, встречается синдром дисморфофобии (страх или бред физического недостатка). Наличие синдрома экспериментально подтверждается в работах Соколовой Е.Т., которая изучая формирование негативного самоотношения и искаженного образа «физического Я», пришла к выводу о том, что определенные индивидуально-личностные особенности подростков с ожирением и неблагоприятные условия в семье способствуют искаженному развитию их самосознания.

В обозначенный период онтогенеза происходит не только коренная перестройка ранее сложившихся психологических структур, но и возникают совершенно новые образования, закладываются основы сознательного поведения подростка, вырисовывается общая направленность в формировании нравственных представлений и социальных установок (Перлз Ф.С.) [3].

В этот период подросток учится подавлять свои импульсивные действия, осмысливать свои конформные и негативные реакции на предлагаемые ситуации, отстаивать свое право на самостоятельность выбора возможного поведения.

Поскольку большую часть времени подросток проводит в школе, то правильно будет считать, что в её стенах создаются условия для развития, формирования его личности. Эти условия формируют значимые взрослые и, в большей степени, сверстники (Крайг Г.) [4].

Но при всей ориентации на утверждение себя в группе сверстников, подростки отличаются крайним конформизмом в этой группе, поскольку один зависит от всех, стремится к сверстникам и часто готов к выполнению того, на что его подталкивает данная социальная группа – создает чувство «Мы», которое поддерживает подростка и укрепляет его внутренние позиции. Также именно эта группа может оттолкнуть подростка, в результате чего он либо замкнется в себе, либо появиться агрессивная, враждебная реакция на окружающий мир.

Главная особенность этого возраста – личная нестабильность, поскольку в подростке борются противоположные черты и устремления, определяя противоречивость его характера и поведения; настроение колеблется между невероятным оптимизмом и мрачным пессимизмом. Подростки стремятся к «взрослым типам» поведения, впитывая образцы и эталоны «взрослости», подравнивая их под себя.

Подростку хочется, чтобы окружающие относились к нему как к взрослому человеку и не встречая подобного отношения к себе, результатом становится трудновоспитуемость, протест. Стремясь к взрослости и самостоятельности, подростки очень часто отталкивают от себя людей, пытаясь оградить некоторые сферы своей жизни от вмешательства со стороны взрослых (Кондратьев, М.Ю.) [5].

Решающее значение в этом возрастном периоде приобретает стремление найти свое место в обществе, пытаясь постоянно испробовать то, чего он может добиться – отсюда часто негативное противопоставление себя другим (подросток оскорбляет окружающих людей только потому, что хочет испытать, испробовать собственную независимость). Как результат: усложняются отношения подростка со взрослыми и сверстниками, наблюдается тенденция выделяться среди окружающих, утвердить свое «Я», не быть «заурядным».

Главная трудность заключается в обретении внутренней уверенности в себе, своей личности, самосознания и самоуважения, которые и делают человека способным поступать самостоятельно. Недостающая еще уверенность в себе заставляет подростка всеми средствами подчеркивать свою взрослость во внешнем плане и, одновременно, рождает повышенную чувствительность к ее недооценке, что и вызывает грубость, агрессивность, враждебность, повышенный критицизм и игнорирование советов и требований со стороны взрослых (родителей, учителей).

Естественно, все эти изменения являются дополнительными источниками стресса для подростка, принуждая его преодолевать стрессовые ситуации, при этом используя свои психологические ресурсы по их преодолению.

Особую актуальность на современном этапе развития общества приобретают психолого-педагогических исследований, посвященных изучению стресса и способам преодоления стрессовых ситуаций, что обусловлено увеличением стрессогенных факторов. К стрессогенным факторам, в первую очередь относятся, экономическая, социальная, политическая нестабильность, постоянно увеличивающиеся техногенные и экологические угрозы, при этом действие факторов постоянно усиливается информационными потоками. Все это, несомненно, оказывает психотравмирующее воздействие на личность, вызывая эмоциональное напряжение, состояние стресса, дискомфорта, посттравматическое

поведение. Рассмотрим психолого-педагогические подходы, несколько поразному отражающие проблему изучения стресса.

**Список литературы:**

1. Формирование личности в онтогенезе / Под ред. И.В. Дубровиной. – М.: Меж. пед. академия, 1994. – 192 с
2. Формирование личности в онтогенезе / Под ред. И.В. Дубровиной. – М.: Меж. пед. академия, 1994. – 192 с
3. Перлз, Ф.С. Эго, голод и агрессия / Ф.С. Перлз. – М.: Академия. – 2000. – С. 17–18.
4. Крайг, Г. Психология развития / Г. Крайг, Д. Бокум. – СПб.: Питер, 2008. – 940 с.
5. Кондратьев, М.Ю. Типологические особенности психосоциального развития подростков / М.Ю. Кондратьев // Вопросы псих. – 1997. – №3. – С. 69–78.

---

**ЎСМИРЛИК ДАВРИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН  
ЖАЛАРЁНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ**

*Содиқова Муаттар  
Чилонзор тумани Болаларни ижтимоий психологик  
қўллаб-қувватлаш маркази методист пихологи*

Ўтиш ёшини турли олимлар турлича чегаралайдилар. Айримлар 10-14 ёшни бошланиш ёши, 14-18 ўрта, 18-20 ни ўтиш ёшининг якуни деб ҳисоблайдилар. Замонавий тиббиёт эса организмнинг анатомик-физиологик ўзгаришларининг 7 ёшдан бошланишини ўрганиб чиқдилар. Шунга кўра, тақвим бўйича эмас, айнан организмдаги жинсий ўзгаришларига қараб ўтиш ёшини белгилаш лозим деб ҳисоблайдилар. Организмнинг физиологик ўзгаришининг тезлашуви натижасида бу ёшда бола ўзида ҳаяжон, кўтаринки кайфиятда уйғониш ва баъзан ўз-ўзини ерга уриш ҳиссини сезади. Бу даврда бола ўзига нисбатан қўпроқ диққат-эътиборни талаб қиласди. У ўзини катта одам деб ҳисоблайди ва шахсига нисбатан катталардек муносабатни талаб қиласди. Лекин мактабда, коллеж ёки лицейда ва уйда унинг мавқеи аввалгидек қолаверади. Натижада болада ўсмир ёши инқирози бошланади. Ўсмилик ёши инқирози эмансиپация, тенгдошлар билан гурухлашиш ва хобби реакцияларини келтириб чиқаради. Эмансиپация реакцияси ҳолатида бола

кattалар назоратидан чиқиши ва мустақилликка эришишни хоҳлади, унда ўзининг "мен"и пайдо бўлади. Катталар томонидан ўтказилмоқчи бўлган кичкина таъқиб ҳам боланинг хулқининг бузилишига сабаб бўлиши мумкин. Тенгдошлар билан гуруҳлашиш болада ўзаро ҳаракат, жамоа тартибига бўйсимиш, хурматга эга бўлиш ва ўз хоҳишидаги мавқега эга бўлиш қобилиятларини шакллайди. Болада ўз-ўзини баҳолаш хусусияти ўсади. У тенгдошларининг фикрларини катталарнинг танқидига нисбатан кўпроқ қадрлайди. Хобби – бирор нарса билан шуғулланиш жуда катта аҳамиятга эга. Унинг шарофати билан болада қизиқишлар ва индивидуал қобилиятлар шаклланади. Хоббининг турлари: интеллектуал-эстетик, яъни мусика, расм, тарих, техника; бирор нарса йифиш; эксцентрик, яъни диққат марказда туриш учун экстравагант кийимларга қизиқиш кўринишида бўлиши мумкин. Ўсмирларнинг қизиқишларини билиш, улар ва катталар орасидаги ўзаро тушунишларни яхшилайди. Ўсмир психологиясида пайдо бўладиган янги ҳиссиёт бу – ўз-ўзини англашдир. Ўз-ўзини англаш, ўсмир ёшининг асосий якунидир. Бу пайтда инсон ўзининг янги "мен"ини очади, кучли ва кучсиз тарафларини ўрганишга ҳаракат қиласи. Ўзини бошқа одамлар билан солиштира бошлайди, ўзига нисбатан қизиқиш уйғонади, ўзига мос дўст қидиради. Қоидага кўра ўсмирда ўқитувчи ёки ота-онага нисбатан жамоанинг болага берган баҳоси кўпроқ аҳамиятга эгадир. Бу ёшда болада ташкилотчилик, ишбилармонлик ва бошқа шахсий қобилиятларини шакллантиришга яхшигина шароит яралади. В.Сухомлинский асосий шахс хусусиятларини қўйидагича таърифлайди.

1. Бир томондан жоҳилликка бўйсунмаслик, уни эмоционал қабул қилмасликнинг иккинчи томондан ҳаётдаги қийин ҳолатларда ҳал қила олмаслик қобилияти билан уйғунлашади.
2. Ўсмир яхши бўлишни хоҳлади, идеалга интилади, лекин уни тўғри тарбиялашлари ёқмайди.
3. Ўсмир шахс бўлишни хоҳлади. Қандайдир қаҳрамонлик, романтик, ноодатий нарсаларни қилишни истайди. Жараёнга талабнинг борлиги ва ўзида ишонч ҳосил қилиш хоҳишининг мавжудлигига қарамай, ўсмир ҳали бунга қандай эришишни билмайди.
4. Ўсмирда хоҳишининг бойлиги ва кучнинг чегараланганилиги қарама-қарши қўйилган. Қизиқишларнинг турли-туманлиги ва доимий эмаслиги мана шундан келиб чиқади. Ўсмир ўзининг қобилияти эмаслигини билиб қолишдан қўрқади. У ўзини жуда яхши кўради ва ортида ёрдамга муҳтожлиги яширинган. Кўргазмали ишончлилик ва қатъият ортига яшириниши мумкин.
5. Ўсмирда романтик ҳиссиёт ва дағал қиликлар уйғунлашган. Гўзалликдан завқланади ва унга сурункали муносабатда бўлади. Лекин ўз ҳиссиётларидан уялади. Бу туйгуларни ёш болаларга хос деб ҳисоблайди. У уни ўта ҳиссиётли деб

хисоблашларидан қўрқади ва дағаллик ортига беркинади. Жисмоний кучнинг қуиилиб келиши уни фаолиятга бошлайди. Ўсмирлар билан ишлаганда уларнинг ёш ва шахсий хусусиятларини, бу ёшнинг асосий психологик янгиланишини инобатга олиш зарур. Бу ёшда болада жуда катта психологик ўзгаришлар юзага келади ва биз буни кўриб чиқамиз. Биринчи галда бу ёшдаги болаларда уятчанлик ва тезда ҳафа бўлиш кузатилади. У арзимаган нарсалардан ҳам ҳафа бўлади ва бунга катта аҳамият беради. У ўз ташқи кўринишидан уялади, ҳаракатлари буқчайган ҳолатга келади. Чунки, у ҳали ўз танасини илгаригидек бошқара олмайди. Шунга ўхшаб ўсмир ўз ҳиссиётларини ҳам жиловлай олмайди. У ўзини катта одам деб хисоблайди ва атрофдагилардан ҳам шунга яраша муносабатни талаб қиласди. Эркинликни талаб қилиш уларда қўрқув уйготади. Деярли барча ўсмирлар ота-онаси уларнинг эркинлигини сиқиб қўйганлигидан шикоят қиласдилар. Ўсаётган бола ўз ҳақ-хукуқини талаб қилиши табиийдир, лекин ота-она унинг ҳар бир талабини бажаришга мажбур эмас. Ўсмирлар устидан раҳбарлик қилиш зарур. Кўпинча уларнинг баъзилари ота-оналари улар билан қатъиятлироқ бўлишини хоҳлашади. Болани тўғри йўлда уни ўқитаётган қоидалар эмас, соғлом тарбия ва унга бўлган ишонч ушлаб туради. Ўсмирга эса қоида ҳам, ота-онасининг ҳаётдаги бўшлиқларни тўлдирадиган бу қоидаларни ўргатиш учун унга бераётган эътибори ҳам керак. Ота-она билан бўладиган келишмовчиликлар ўсмир ўзини катта ҳис қилиб, ота-онасининг ўрнини эгалламоқчи бўлганлиги оқибатида юзага келади. Албатта, ота-онага бу ёқмайди. Ота-она ва фарзанд ўртасида келишмовчиликлар пайдо бўлади. баъзида бу ота ва қиз, она ва ўғил ўртасидаги зиддиятлар ҳам бўлиши мумкин. Отага қиз, онага эса ўғил бола яқинроқ бўлади, дейишади. Лекин, вақт ўтган сари, яъни балоғат ёшида бола буни унута бошлайди. Чунки, оиладан ташқаридаги бошқа одамларга ўз ҳис-туйғуларини йўналтирган бўлади. У ота-онага бўлган муносабатини йўқотишга ҳаракат қила бошлайди. Агар уйда ўсмир ёшини ҳисобга олиб, бола билан ўзаро дўстона, юмшоқ муомалада бўлинса, шароитга қараб фарзандининг хоҳиш истакларини инобатга олиб иш кўрилса, фарзандга шахс сифатида қаралса, у буни сезади ва яхши йўлдан юришга ҳаракат қиласди. Акс ҳолда ўсмир кўчадан ўзига бошқа машғулот топади ва ёмон йўлга юриб кетиш эҳтимоли катта бўлади. Бизнинг менталитетимизда, айниқса, қиз болани фақат турмушга чиқишига тайёрлаймиз. Оқибатда қизларимиз ҳам айни ўқиб, оила қурадиган пайтда турмушга чиқиши ва оилали бўлишни ўйлай бошлайдилар. Бизнинг аждодларимиз фарзандларини миллий қадриятларимизга асосланиб тарбия қилганлар ва натижада улар орасидан кўпгина буюк инсонлар этишиб чиққанлиги сир эмас. Ўсмирлик даврини қийин давр деймизу, лекин мана шу оралиқнинг пайдо бўлиши ва секин ўтишига ўзимиз сабабчи бўлиб қолаётганимизни сезмаймиз. Биз фарзандларимизга озгина вақт ажратиб, уларнинг

кўнглига йўл топа олсақ, эртага жамиятимизга фойдаси тегадиган инсонларни тарбиялаб, камолга етказамиз.

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR XOTIRASI XUSUSIYATLARI**

*Ròziyeva Gulnogor Shuhrat qizi  
Buxoro tuman 29-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda yoshlarni yuksak bilim va salohiyatli qilib tarbiyalash dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Maqolada talim jarayonining asosi bolgan bilish jarayonlaridan biri xotira psixologiyasi va uning yosh davrlarida rivojlanish omillari yoritiladi.

**Kalit so`zlar:** xotira, esda saqlash, individ, operativ xotira

Hozirgi davr talabi ma`naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo`lib, bu muammo shaxsning bilish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma`naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi ta`lim jarayonida namoyon bo`ladi. Ta`limning sifatli tashkil qilinishi o`quvchilarning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira jarayoniga bog`liq bo`ladi. Shunday ekan, o`quvchilarning esda saqlash, esda olib qolish, qayta esga tushirish jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira mavzusi yosh davrlari psixologiyasi, umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya yuridik psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlarida o`rganilgan hamda ko`pgina tadqiqotlar o`tkazilgan. Yosh davrlari psixologiyasida xotira masalasi inson shakllanib, turli yosh davrlariga qadam qo`yishi bilan xotira jarayoni ham shakllanib rivojlanib borishi xususida ma`lumotlar olishimiz mumkin. Umumiyligi darsliklari orqali xotira haqida tushuncha, xotira turlari xotira jarayoni haqidagi nazariyalar haqida ko`pgina ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Pedagogik psixologiya fanida xotira jarayonining pedagogik jarayondagi ahamiyati, o`qituvchi hamda o`quvchi, talabalar xotira jarayoni va buning ta`lim jarayoniga ta`siri hususiyatlari o`rganilgan.

Tibbiyot psixologiyasi fanida xotiraning nerv fiziologik asoslari, xotira buzilishlari va korreksiya qilish usullari haqida ma`lumotlar mavjud. Eksperimental psixologiyada xotira bo`yicha o`tkazilishi mumkin bo`lgan turli yosh davrlari bilan bog`liq holda metodikalar majmuyi mavjud.

Man bir necha yildirki, psixologiya fanida insondagi xotira masalasiga to`xtalanimizda turfa qarashlar hamda psixolog olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr

mulohazalarga guvoh bo`lamiz. Ularning har qaysisi o`z nuqta`i nazarlaridan kelib chiqqan holda inson xotirasini mustahkamlash, undagi faollikni orttirish hajmini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar haqida taklif hamda tavsiyalarni keltirib o`tmoqdalar. Demak, bundan ko`rinadiki, ushbu mavzuda qancha gapirilsa eskirmaydi. Chunki insoniyat tirik ekan, albatta uning eslab qolish qobiliyati bir-biridan qiziq savollarni keltirib chiqaraveradi.

Shu o`rinda bugungi kun kishilaridagi xotiraning qay darajada mustahkam ekanligi va buning sabablari nimalarga bog`liq ekanligi haqida to`xtalib o`tsak. Biz aksariyat hollarda tevarak atrofdagi sezgilarimiz yordami bilan idrok qilgan narsalarni o`zimizga kerak bo`lgan vaziyatlarda esga ololmay, ba`zan xafa yoki ba`zan jig`ibiyron bo`lamiz va o`zimiz istamagan holda afsus esimdan chiqib qolibdi degan jumlalarni aytamiz. Biroq unutmasligimiz lozimki, kundalik hayotimizdagi tajribalar shuni ko`rsatadiki, eslab qolgan narsalarning hammasi ham esimizga to`laligicha tushavermaydi. Ularning bir qismi unutiladi va aynan mana shu unutib qoldirish ham xotiraga oid xodisadir.

Inson xotirasining qonuniyatlarini o`rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Ma`lumki insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma`lum bir sharoitda qayta namoyon bo`luvchi izlar qoldiradi. Xotira bu biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirga va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Har kuni yanggi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g`oyaviy yo`nalishi kata o`rin egallaydi. Ko`pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta`riflanadi: “Individning o`z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyincchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi”

Psixologiya fanida xotira muammosiga turlicha yondashuvlar mayjud bo`lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyanı har xil mezonlar bilan o`lchashda o`z ifodasini topadi. Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog`liq tadqiqotlarda markaziy o`rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari uch yo`nalishda o`rganilgan. Bular: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik. Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog`liq bo`lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi.

Rus psixologiyasida xotira jarayoni bo`yicha o`tkazilgan tadqiqotlarda eydetik obrazlarning namoyon bo`lishi shaklida o`rganilgan. Jumladan A.R.Luriya tomonidan eydedik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta`riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo`lib, subyektlarning oldiga qo`yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta`siri ostida o`zgartirish mumkin.

Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo`lib oliy ruhiy jarayon bo`lgan xotirani tajriba metodi negizida

tekshirga va keng ko`lamda turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo`nalishini ishlab chiqdi.

Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o`z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan bиргаликда xotiraning yuksak shakllarini ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko`rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko`ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergen.

A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o`rganganlar. Shuningdek ular o`qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o`quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turl tasavvurlar orasidagi bog`liqlik esda olib qoligan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog`liqdir. A.N.Leontev tadqiqot ishlarida kata yoshdagilarning ma`nosiz bo`g`inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esad saqlab qolishi ta`kidlagan. Kata yoshdagilar ma`nosiz bo`g`inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog`lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma`no kasb etadi. Shuningdek ma`no anglatmaydigan materialni o`zlashtirish jarayoni tez ko`chadi, mahsul dorroq bo`ladi. Ma`nosiz materialni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar oldida bilish jarayonlaridan biri bo`lmish xotiraning kuchli bo`lishi va ko`laming kengligi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Xotira jarayoni ham nazariy ham amaliy jihatdan o`rganilishda davom etayotgan muhim ijtimoiy psixologik muammo sifatida tadqiq etiladi. Bola xotirasining rivojlanishi uning yosh davrlari bilan bog`liq holda ijtimoiy muhit, ota-onalar nazorati va e`tibori natijasida, atrofidagi do`stlari hamda o`qituvchilarini ta`sirida olingan ma`lumotlar esda saqlash jarayonida mukammallahib boradi. Hozirgi kunda olimlar bolalarda uzoq muddatli xotira qaysi yoshdan boshlab ishlay boshlashini aniq aytib berishga qiynaladilar. Xotirada ikkinchi darajali nasa yoki voqealar eslab qolinmaydi. Eslab qoligan narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Hozirgi kunda o`qitish muassasalarida berilgan materialni yaxshi eslab qolish ustida ko`plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki yaxshi esda olib qoligan materialni tushunish oson bo`ladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbanova Z. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya// Toshkent, 2014;
2. Ibdullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi // Toshkent Iqtisod-Moliya, 2008;
3. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014.

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

*Ergasheva Zebuniso Xasanxonovna  
Farg’ona davlat universiteti  
Psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bo‘lajak o‘qituvchilarning psixologik xususiyatlarini amaliy taxlil qilish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi ushbu maqolada yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** insonparvar, intizomlilik, oqko‘ngillilik, adolatlilik, murosasizlik, do‘stlik, o‘rtoqlik, halollik, rostgo‘ylik, ahloqiy poklik, kamtarlik.

Mustaqillik tufayli yurtimizda hozirgi kunda o‘zimizga xos, o‘zimizga mos, buyuk tariximizga, milliy ma’naviy, tarixiy, madaniy qadriyatlarimizga, insonparvar an’analariimizga asoslangan va jahon andozalariga, bugungi kun talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi. Mustahkam ildizga asoslangan milliy modelimiz ta’lim-tarbiya sohasida yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bu imkoniyatlar ayniqsa, o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularga o‘qituvchi ijodkorligi, mustaqil fikrlashga imkoniyat tug‘diruvchi muhitni yaratish, milliy qadriyatlarimizdan foydalanish va boshqalar kiradi. Tarixiy, ijtimoiy taraqqiyot tajribasi shu narsani isbotlaydiki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qurilma o‘zgarganda, bu o‘zgarishlar eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishni, uning mohiyati va mazmunini o‘zgartirishni talab qiladi.

O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirish borasidagi faol harakatning boshlanganligi, Prezidentimizning har bir nutqi, asarlarida yoshlar muammolariga alohida o‘rin berilishi mustaqil O‘zbekiston fuqarolari shaxsini shakllantirish, shaxs tuzilmasida ma’naviyat komponentlarining o‘rni qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Zero, bozor munosabatlariga o‘tishda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’naviy tanazzulning oldini olish, ehtimoli mavjud bo‘lgan bo‘shliqning o‘rnini sog‘lom g‘oyalar, ilmiy asoslangan bilimlar, tushunchalar va dunyoqarash bilan to‘ldirish barkamol inson shaxsini shakllantirishdagi muhim vazifadir.

O‘qituvchilik kasbi eng faxrli, eng ahamiyatli kasblardan biridir. Avvalo, o‘qituvchi jamiyatning munosib kishilarini tayyorlashni o‘z pedagogik faoliyatining asosiy maqsadi deb biladi. Bu kasbning iftixori shundaki, o‘qituvchi tarbiyalab o‘stirgan nihollarning hosili, qanchadan-qancha avlodlarni bahramand qiladi. Ta’lim-tarbiyaning

muvaffaqiyatli olib borilishi o‘qituvchining dunyoqarashiga, shaxsiy fazilatiga, bolalarni sevishiga, pedagogiklik mahorati va tayyorgarligiga bog‘liqdir.

Mustaqil yo‘ldan katta odim tashlab ketayotgan O‘zbekiston jumhurriyatida hozirgi vaqtida o‘qituvchilar rolini oshirish maqsadida bir muncha arzugilik ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. CHunki, ta’lim sistemasini rivojlantirmay turib, yangi hayot qurish mumkin emas. Respublikamiz Prezidentining xalq ta’limi, o‘qituvchilarga taalluqli farmonlari yosh avlodning mustaqil hayotga yo‘llovchi turmushini yaxshilashda va moddiy manfaatlarini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

O‘qituvchi shaxsi xususiyatlarining muhim tomonini uning ma’naviy va siyosiy e’tiqodi, dunyoqarashi tashkil qiladi. O‘qituvchi yoshlarda Vatanga, xalqiga, ona-yurtiga, o‘lkasiga muhabbat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, rostgo‘ylik, ahloqiy poklik, kamtarlik, xato va kamchiliklarga nisbatan murosasizlik, do‘slik, o‘rtoqlik, qardoshlarga birdamlik kabi yuksak ahloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Bu ahloqiy fazilatlar yoshlarni ichki ehtiyoji bo‘lib qolishi uchun kurashadi.

Ustoz bo‘lish uchun, avvalo, kishi o‘z ishining mazmun va mohiyatini bilishi, uni shogirdlar bilan o‘rtoqlashish, ish mohiyatini yoshlarga bildirish, ichki va shaxslararo munosabatlarda intizomlilik, oqko‘ngillilik, adolatlilik kabi qator sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Ustoz – bilimdon, o‘z uslubiga, texnikasi, stiliga, taktikasiga ega bo‘lgan shaxs sifatida, ushbu sifatlarni shogirdlariga o‘tkaza olish, «ta’sirlantirish» mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi mutaxassislarini tayyorlash va o‘qituvchi qanday fazilatlarga ega bo‘lishi haqidagi muammo qadim zamonlardan boshlaboq mutafakkirlarning diqqatini jalg qilib kelgan.

SHarqdagi kalom ilmining asoschilaridan biri Imom Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy (870-946) hazratlari ma’naviyat olamida alohida o‘rin egallaydi. Muallif yoshlar ruhiyatida kuchli e’tiqod va tafakkurni shakllantirish uchun majburlash vositasi bilan emas, balki ularning qalbini, ruhiyatini kashf qilish orqali muqaddas e’tiqodni ularda yuzaga keltirish g‘oyasini ilgari surdi. Uningcha, odam bolasi zulmpesha bo‘lib tug‘ilmaydi, noto‘g‘ri shaxslararo munosabatlar, muhit uni zulmpeshaga aylantirishi mumkin. SHunday ekan, qo‘lingizdan kelsa odam bolasiga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsating<sup>28</sup>, deydi alloma. U bu bilan bola – voyaga etgan inson munosabati uyg‘unligiga ishora qiladi.

Pedagogik faoliyatning ijtimoiy psixologik jihatini tashkil qilish, har qanday faoliyatni, shu jumladan, o‘quv faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarini o‘rganish psixolog olimlarning diqqat markazidagi muammolardan biri sanaladi.

<sup>28</sup> Зиёдов III. Абу Мансур ал-Мотрудий ва унинг мероси. - Т.: 2000.

## Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари

B.F.Lomov faoliyatni tahlil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan sxemasini ko‘rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsning boshqa shaxslar bilan hamkorligi boshqacha qurilishi zarurligini ta’kidlab o’tadi. YAKKA shaxs faoliyatining psixologik tahlili faoliyat sub’ektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavhumlashtiradi. Lekin bu mavhumlashtirish nihoyatda muhimligidan qat’i nazar, o‘rganilayotgan hodisalarни bir tomonlama yoritish imkonini beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda, asosiy e’tibor o‘zaro munosabatning rivojlanishini o‘rganishga qaratiladi, o‘qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

YUqoridagi fikrlarga qaramay o‘zlashtirishning turli bosqichlarida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarining turlicha hamkorligi qanday uyushtirilishi masalasi hal bo‘lgan emas. Binobarin, o‘qituvchida o‘quv faoliyatini hamkorlik asosida tashkil qilish ko‘nikmalari yo‘qligi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Biz o‘z tadqiqotlarimizda talaba yoshlarning bo‘lajak pedagoglik faoliyatida muhim rol o‘ynovchi kommunikativ ko‘nikmalarini amaliy psixologik tahlil qilishga harakat qildik. Talaba yoshlarda o‘tkazgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ ko‘nikmalarini o‘rganish natijalari

1-jadval.

Sifatlar	Yigitlar				Qizlar			
	Past ko‘rsatkich		Yuqori ko‘rsatkich		Past ko‘rsatkich		Yuqori ko‘rsatkich	
Muloqotga moyillik A-8,5 me’yor	10	40%	15	60%	4	16%	21	84%
Emotsional barqarorlik S-7,5 me’yor	6	24%	19	76%	12	48%	13	52%
Hurkmronlikka intilish E-5,5 me’yor	3	12%	22	88%	7	28%	18	72%
Onglilik, ongsizlik S-7,5 me’yor	2	8%	23	92%	3	12%	22	88%
Ijtimoiy mardlik N-7,65 me’yor	4	16%	21	84%	9	36%	16	64%
Ishonuvchanlik U- 4,5 me’yor	18	72%	7	28%	20	80%	5	20%
Ishonch, ishonchsizlik O- 6,5 me’yor	24	96%	1	4%	19	76%	6	24%
Tobelik, mustaqillik O-5,75 me’yor	5	20%	20	80%	7	28%	18	72%

O‘z-o‘zini nazorat qilish O- 6,5 me’yor	3	12%	22	88%	6	24%	19	76%
Qo‘zg‘aluvchanlik zo‘riqish	va 11	44%	14	56%	17	68%	8	32%

Muloqotga moyillik darajasi bo‘yicha respondentlarning bergan javoblarini tahlil qiladigan bo‘lsak, talaba yigitlardan ko‘ra qizlarning ochiq ko‘ngililigi, o‘zini erkin tutishi, yorqin emotsionalligi, odamlarga diqqat-e’tiborligi bilan ajralib turishligi aniq bo‘ldi (84 foiz).

Emotsional etuklik, kuchli iroda, hayotga realistik qarash, xotirjamlik, kayfiyatning barqarorligi kabilar talaba yigitlarda kuchliroq namoyon bo‘ldi (76 foiz). Hissiy holatidagi o‘zgaruvchanlik, egiluvchanlik, hayajonlanish, noxushlik holati bilan bog‘liq ko‘rinishlar 48 foiz qizlarda mavjudligi aniqlandi.

Hurkmronlikka intilish bilan bog‘liq davogarlik yigitlarda 88 foizni tashkil qildi. Ular o‘ziga ishonadi, fikrlashi mustaqil, qattiq qo‘l, lekin rahbarlarga odatda bo‘ysunmaydi. Qizlar orasida ham deyarli har doim hurkmronlikni yaxshi ko‘radigan, o‘z qonunlarini o‘zgartiradigan hamda mustaqil fikrlaydigan talabalarning mavjudligi jadvaldagagi raqamlardan ko‘rinib turibdi.

Har ikkala jins vakillarida ham majburiyatni his qilish, o‘ziga talabchanlik, tirishqoqlik yuqori bo‘lib, ular javobgarlikni o‘z bo‘ynilariga oladi, ko‘p narsalarni rejalashtiradi va vaqtini bekorga o‘tkazmaydi.

Ijtimoiy mardlik ko‘rsatkichlari qizlarga nisbatan yigitlarda ustun bo‘ldi (84 foiz). Talaba yigitlar mard, to‘la erkin, ijtimoiy botir, uddaburon ekanliklarini qayd etishdi. Bunday sifatlar 64 foiz qizlarda ham mavud. Lekin talaba qizlarning 36 foizi uyatchan o‘ziga ishonmaydi, o‘zini doimo chetga oladi, odatda o‘zidan ko‘ngli to‘lmasligini his qiladi. Ular ko‘pchilik bilan aloqada bo‘lishni, atrofida bo‘layotgan hodisalarga aralashishni ma’qul ko‘rmaydi.

Ishonuvchanlik darajalari talaba yigitlar va qizlarda bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlarni berdi. Ularning aksariyati rashk va hasad qilishdan ozod, quvnoq, ziddiyatlarga intilmaydi, boshqalar haqida ko‘proq qayg‘uradi, guruhlarda yaxshi ishlaydi.

Talabalar o‘rtasida mustaqil, o‘zidan ko‘ngli to‘q, o‘zining shaxsiy qarorlarini tavsiya qiladigan, o‘z yo‘lini tutishga moyil yigit-qizlar mavjudligi ularning o‘qituvchilik faoliyatini mustaqil, ijodiy izlanishlar asosida yurita olish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Aksariyat talaba yoshlar o‘zini yuqori darajada nazorat qiladi. Ularda umumiy xulq va o‘zining irodaviy hissiyotlarini kuchli nazorat qilish tendensiyasi mavjud.

## Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари

Yigitlarda zo'riqish, me'yordan ortiq faollik, sabrsizlik 56 foizni ko'rsatdi. Qizlarda esa qoniqish hissi bilan bog'liq bo'lgan holda zo'riqish susaygan. Lekin ba'zi bir vaziyatlarda haddan tashqari o'zidan qoniqish dangasalikka olib keladi.

Bo'lajak o'qituvchining mukammal pedagog darajasiga ko'tarilishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshadi va o'qituvchi shaxsining ba'zi bir xususiyatlari: pedagogik kuzatuvchanlik, xotiraning hozir javobligi, mustaqil va ijodiy fikr yuritish uslubi, nutqining aniqligi, to'g'riliqi va ifodaliligi diqqatning yuksak darajada rivojlangan xususiyatlari, maqsadga intiluvchanlik, o'z maqsadi samaradorligini oldindan ko'ra bilish va boshqalar shakllanadi.

Hozirgi mustaqillikka erishgan davrimizda har bir ziyoli kishilarimizning mustaqil fikri bo'lishi kerak. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilar mustaqil fikrli, kelajakka ishonch bilan qaraydigan va o'z fanining bilimdoni bo'lishi kerak. Ana shundagina mustaqil O'zbekistonimiz gurkirab yashnaydi, chunki davlatimiz kelajagi hozirgi yosh avlodning sof dunyoqarashi, har bir fanni chuqur o'zlashtirishi, yangi-yangi kashfiyotlar qilishi, yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochishi bilan bog'liqdir. Bularning barcha-barchasining bunyodga kelishi zaminida o'qituvchilarning aktiv mehnati yotadi.

Biz o'z tadqiqotlarimiz davomida pedagoglik faoliyatini olib borish bilan bir vaqtida oliy o'quv yurtida taxesil olayotgan talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini ham o'rgandik. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Pedagog-o'qituvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini o'rganish natijalari  
2-jadval

Sifatlar	Pedagog-o'qituvchilar (erkak)				Pedagog-o'qituvchilar (ayol)			
	Past ko'rsatkich		Yuqori ko'rsatkich		Past ko'rsatkich		Yuqori ko'rsatkich	
Muloqotga moyillik A-8,5 me'yor	4	16%	21	84%	1	4%	24	96%
Emotsional barqarorlik S-7,5 me'yor	2	8%	23	92%	6	24%	19	76%
Hurkmronlikka intilish E-5,5 me'yor	5	20%	20	80%	8	32%	17	68%
Onglilik, ongsizlik S-7,5 me'yor	-	-	25	100%	2	8%	23	92%
Ijtimoiy mardlik N-7,65 me'yor	1	4%	24	96%	7	28%	18	72%
Ishonuvchanlik U- 4,5 me'yor	19	76%	6	24%	22	88%	3	12%

## Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари

Ishonch, ishonchsizlik O- 6,5 me'yor	22	88%	3	12%	20	80%	5	20%
Tobelik, mustaqillik O-5,75 me'yor	8	32%	17	68%	9	36%	16	64%
O‘z-o‘zini nazorat qilish O- 6,5 me'yor	1	4%	24	96%	3	12%	22	88%
Qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish	3	12%	22	88%	8	32%	17	68%

Jadvaldagagi raqamlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagog-o‘qituvchilar faoliyatida tajriba muhim rol o‘ynaydi. CHunki test savollari bo‘yicha belgilagan javoblarining natijalari bo‘lajak o‘qituvchilar javoblaridan ancha yuqori chiqdi. Ayol o‘qituvchilarning muloqotga moyilligi eng yuqori ko‘rsatkichni berdi (96 foiz). Emotsional barqarorlik darajasi esa erkak o‘qituvchilarda 92 foizda namoyon bo‘ldi. Har ikkala jins vakillarida ham o‘ziga talabchanlik, majburiyatni his qilish, tirishqoqlik, javobgarlikni o‘z bo‘yniga olish kabilalar yuqori ko‘rsatkichlarni berdi. Erkaklar xususiyatining asosiy tomoni hisoblangan ijtimoiy mardlik o‘qituvchilarning 96 foizida mavjud ekan. Ayol o‘qituvchilarning 88 foizida umumiyl xulq va o‘zining irodaviy hissiyotlarini kuchli nazorat qilish tendensiyasi mavjud.

O‘qituvchilik kasbi eng faxrli, eng ahamiyatli kasblardan biridir. O‘qituvchi jamiyatning munosib kishilarini tayyorlashni o‘z pedagogik faoliyatining asosiy maqsadi deb biladi.

Hozirgi kun o‘qituvchisi avvalo ijodkor bo‘lishi, mashg‘ulotga ijodiy yondashmog‘i lozim.

Mustaqil yo‘ldan katta odim tashlab ketayotgan O‘zbekiston jumhurriyatida hozirgi vaqtida o‘qituvchilar rolini oshirish maqsadida bir muncha arzugilik ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. CHunki, ta’lim sistemasini rivojlantirmay turib, yangi hayot qurish mumkin emas. O‘qituvchi shaxsi xususiyatlarining muhim tomonini uning ma’naviyat va siyosiy e’tiqodi, dunyoqarashi tashkil qiladi. O‘qituvchi yoshlarda Vatanga, xalqiga, ona-yurtiga, o‘lkasiga, muhabbat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, rostgo‘ylik, axloqiy poklik, kamtarlik, xato va kamchiliklarga nisbatan murosasizlik, do‘slik, o‘rtoqlik, qardoshlarga birdamlik kabi yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Bu axloqiy fazilatlar yoshlarni ichki ehtiyoji bo‘lib qolishi uchun kurashadi.

O‘qituvchilarning yuqori ijtimoiy ongliligi ularni o‘quvchilar orasida obro‘ va hurmatini oshiradi. Bu obro‘ o‘quvchilarning o‘qish faoliyatlarining va o‘zlashtirishlarining yaxshilanishini ta’ominlaydigan eng muhim omillardan biridir.

O‘qituvchi o‘quvchilarning ichki dunyosini, turmushini bilishi, yaxshi psixolog bo‘lishi, o‘quvchini qiziqtira olishi, o‘quv materialalarini tushuntira olishi, bolalarga ijobjiy

tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, o'quvchilar jamoasini mehnatini tashkil etib, ularga rahbarlik qila olish kerak. U shundagina qobiliyatli o'qituvchi hisoblanadi.

O'qituvchi o'z mehnatini ijobiy mehnatga aylantirganida, pedagoglik faoliyatining amaliy tomonlarini, nazariyasini astoydil o'rganib ish tutganida, boshqalarning tajribasidan foydalanib, o'zi ham ijod qilib, tashabbus ko'rsatib faoliyat olib borsa o'zining chinakam ishchanlik qobiliyatini ko'rsatgan bo'ladi.

Agar o'qituvchi o'z ishidan qanoat hosil qilmasa, ishi unga shodlik keltirmassa, inson bolasini tarbiyalash uning hayotiy maqsadi bo'lmasa, u bu kasbni qanchalik to'g'ri, tanlaganligi haqida o'ylab ko'rishi kerak. Bu masala o'z sifatlari, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay bilishga yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika va psixologiya sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladi.

Xullas, hozirgi juda katta siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar jarayoni yuz berayotgan davrda ta'lim-tarbiyaning, qolaversa o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadi iymonli, e'tiqodli, komil insonni tarbiyalashdan iborat.

### **ҚАДИМГИ ШАРҚДА ПСИХОЛОГИК ҚАРАШЛАРНИНГ ПАЙДО БҮЛИШИ**

*Хамроева Умида Сайфиллоевна  
Бухоро вилояти Бухоро тумани 19-мактаб психологи*

Эрамизгача бир неча минг йиллар олдин Шарқда Миср, Ҳиндистон, Хитой каби буюк цивилизациялар пайдо бўлди ва айнан шу ерларда бошланган ғоялар тараққиёти, ҳозирги замон илмий тизимининг шаклланишига олиб келди. Айнан шу мамлакатларда жоннинг ўлмаслиги, вужудни ташлаб хоҳлаган томонга йўл олиши ҳақидаги дастлабки тасаввурлар вужудга келди. Даставвал вужудга келган рух ҳақидаги тасаввурлардан бири тирик вужуд ташки муҳитга боғлиқдир, жоннинг фаолияти эса ўз навбатида вужуднинг ҳаёти билан боғлиқ деган тасаввурлар эди. Эрамизгача IV минг йилликнинг охирида Мисрда яратилган "Мемфис теологияси ёдгорликлари"да психик фаолият механизmlари қўйидагича тасвирланади: бутун дунёнинг яратувчиси худо Птах одамлар нимани ўйлашмасин ва нимани сўзлашмасин, уларнинг юраклари ва тилларини У идора қиласи. Лекин У бундай бошқаришни вужуддаги органлар тизими орқали амалга оширади. Сезги органларининг аҳамияти шуки, "Худолар қўзнинг кўришини, қулоқнинг

эшитишини, буруннинг нафас олишини юракка хабар юборишлари учун яратишган". Юрак эса онгнинг ҳар қандай турини пайдо қиласди. Бошқача айтганда, айнан шу даврдан бошлаб онгли фаолиятнинг маркази юрак деган дастлабки тасаввурлар пайдо бўла бошлади.

Одамларнинг билиш фаолияти марказини аниқлаш учун юқори даражадаги эмпирик тадқиқотлар керак бўлган. Шу билан бирга "Ёдгорликлар"да сўз хақида айтилган фикрлар ҳам диққатга сазовордир. Маълумки, қадимда сўз буюмнинг эгизаги сифатида тасаввур қилинган, сўзга эга бўлиш, буюмга эга бўлиш билан тенглаштирилган, сўзнинг илохий қудрати борлиги ҳақида тасаввурлар мавжуд бўлган. Лекин "Ёдгорликлар"да "тил - юрак ўйлаган нарсани такрорлайди" дейилади. Бундан шундай мазмун чиқадики, тил сўз орқали юракка хабар беради, юракнинг ўйлаган нарсасини такрорлайди. Бундай сабабий боғланиш "периферик-марказ" тушунчасини аслида организмнинг ички тузилиши билангина изоҳлайди. Изоҳлашнинг ушбу шакли эса қадимги Шарқ медицинаси ютуқлари билан боғлиқдир. Сўзнинг илохий қудрати ҳақидаги фикрлар кейинчалик турли диний тасаввурлар доирасида янада кенгайди. Масалан, насронийларнинг муқаддас китоби "Инжил", мусулмонларнинг муқаддас китоби "Қуръони Карим"нинг Тарик сурасининг 13-оятида буни кўришимиз мумкин. "Шак-шубҳасиз у (Қуръон ҳақ билан ботилни) ажратувчи сўздир" дейилади. Ҳеч кимга сир эмаски, ижтимоий муҳитнинг шаклланаётган инсон шахсига таъсири, таълим-тарбия тизими ҳам асосан сўз ёрдамида амалга оширилади. Ҳамма қадимги Шарқ мамлакатларида, кейинчалик қадимги Грецияда ҳам фаолиятнинг асоси сифатида қон айланиши ва ундаги ҳаво таркиби алоҳида эътибор берилган. Қадимги Миср медицинасида одам жон ато қилувчи пневмадан қувват оловчи жонзорот деб таърифланади. Хитой медицинасининг манбаи ҳисобланадиган "Ички аъзолар ҳақида" деб номланувчи китобда айтиладики, вужуднинг ҳокими мутлақи юрак бўлиб, ҳаёт фаолиятини, шунингдек психик фаолиятни ҳам таъминловчи қувват ҳавосимон бирикма ЦИ ҳисобланади. ЦИ инсонга ўйлаш қобилиятини ва ҳиссиётни ато қиласди. Ўйлаш юрак функцияси, ҳиссиёт эса жигарда жойлашгандир. Ҳинд ва Хитой табиблари темпераментни учта асосга кўра фарқлаганлар: ҳавосимон бирикма (пневма ёки ЦИ), сафро ва шиллик модда. Хитой медицинасида шунга кўра учта типдаги одамларни ажратишган: 1. Сафро ёки қони кўп одамлар - кучли ва йўлбарсдек жасур. 2. ЦИ кўп одамлар-харакатчан, тез йиглаб, тез куладиган ўзини тута олмайдиган, хулқ чегараси бўйича маймунга ўхшайдиган. 3. Шиллик моддаси кўп одамлар - кам ҳаракатли, журъатсиз. Ҳиндистон ва Хитойда фалсафий йўналишлар эрамизгача биринчи минг йилликнинг ўрталарида пайдо бўла бошлаган.

Ҳиндистон учун фалсафий фикрларнинг асоси сифатида Ведалар хизмат қиласган. Ведаларда жон муаммоси биринчи навбатда ахлоқ нуқтаи-назаридан муҳокама

қилинади. Инсоннинг ўз-ўзини камолотга етказиб, тўғри хулқ орқали комилликка етишиши жон муаммосининг асосий мағзини ташкил қиласди. Жоннинг қўчиши ҳақида Ведаларда атрофлича фикр юритилади. Хиндистонда Жайнизм ва Буддизм каби диний таълимотлар шу йўсинда шаклланган. Жайнизм вужудни жон эрксизлигининг манбай деб билса, Буддизм жонни алоҳида мавжудлик деб тан олмайди. Уларнинг таълимотига кўра психик ҳолат бу бир-бирини таъкорламайдиган дақиқалар оқими, бир-бирини алмаштирувчи ҳолатлардан иборатдир. Кейинчалик пайдо бўлган Санкхая, Веданта, Йога, Миманса, Вайшешика каби фалсафий мактабларда ҳам жонни ўрганиш асосан метафизик - ахлоқий масалаларга боғланади. Веданта таълимоти бўйича "мен"- алоҳида интуитив онгдир, унда обьект ва субъект йўқ, у чексиз фазовий онг, дунёнинг асосидир. Йога мактаби эса илоҳиёт билан бевосита мулоқотда бўлиш учун психик фаолиятнинг ҳамма шаклларидан фойдаланиш керак деб таълим беради. Йога ички психик актларни ва вужуд функцияси (вужуднинг фазодаги ҳолати, нафас ва бошқаларни) бошқаришни ўз ичига оловчи усувлар тизимини ишлаб чиқди. Психик фаолиятни талқин қилишдаги ахлоқий йўналиш Хитой фалсафий мактаблари: даосизм асосчиси Лао-Цзи ва конфуцийчилик асосчиси Конфуций (эрамизгача 451-479 й.) мактабларида ҳам яққол кўринади.

Даосизм инсон ўз хулқ-атворини дао постулатлари асосида кўриши керак деб таълим берса, конфуцийчилик - урф-одат, анъана, ахлоқий тушунчаларга эътибор беради. Конфуций биринчи марта инсон психологиясидаги туғма ва ўзлаштирилган хусусиятлар муаммосини кўтарди. Унинг фикрича билим ва психик сифатлар туғма бўлади. Инсон ўз табиатига кўра меҳр-шафқатли бўлади, уни ташқи муҳит бузади. Демак муҳитнинг заарли таъсирини йўқотиш учун инсон фикрини жамлаши, ўз-ўзини такомиллаштириши керак. Шу фикрни Конфуцийнинг издоши Мин-Цзи (эрамизгача 372-289 й.) ҳам ҳимоя қилган. Лекин кейинчалик бошқа шу йўналиш вакили Сун-Цзи (эрамизгача 298-238 й.) камтарлик меҳр-шафқатлилик қаби ижобий ахлоқий сифатларнинг туғмалигини рад этиб, инсон ўз табиатига кўра шафқатсиз, фақат тарбиягина уни меҳр-шафқатли қила олади дейди. Унинг фикрича, агар инсон табиатан хушфеъл бўлса, унда тарбиянинг нима кераги бор? Сун Цзи инсон характеристери кулол лойдан ясаган кўзага ўхшайди, деб таъкидлаган. Ахлоқий масалалардан ташқари Хинд ва Хитой фалсафий таълимотларида билиш фаолияти ҳақида ҳам эътиборга сазовор фикрлар шаклланган. Хинд фалсафий адабиётида идрокнинг ноаниқ ва аниқ турлари ажратилади. Биринчиси предметнинг органга бевосита тегиши натижасида юзага келадиган сенсор-идрок бўлса, иккинчиси сўзда ифодаланган, бўлакларга бўлинган идрокдир.

Буддистлар аниқ идрок ақл таъсири билан бузилганлиги, субстанция, тур категорияларига амалий мақсад кўзлаб киритилганлиги туфайли ҳам энди идрок

бўлмай қолади, деб ҳисоблашган. Ҳинд психологик таълимотларида идрок иллюзияси, галлюцинациялар, туш кўриш, шунингдек юқори сезувчи идрок масалалари алоҳида ўрин эгаллаган. Миманса мактабининг вакили Бхатта таълимотича, образ реаллиги ва иллюзияси ташки объект билан сезги органи ўртасидаги муносабатлар характеридан келиб чиқади. Агар муносабат бузилса иллюзия пайдо бўлади. Бузилиш периферик (сезги органида) бўлса иллюзия марказий бўлса галлюцинация пайдо бўлади. Туш эса онг остидаги хотираларнинг жонланишидир.

Қадим замонлардан бери турли маданиятлар ўртасида ғоялар айирбошлиш мавжуд бўлган, шунинг учун у ёки бу илмий тасаввур айнан қайси ҳалқ томонидан яратилганини аниқ тасаввур этиш қийин. Психологик ғоялар тараққиёти қонуниятлари Шарқда ҳам, Ғарбда ҳам бир ҳил. Ҳамма ерда илмий тасаввурларнинг туғилиши ва эволюцияси организмни табиатнинг бир бўлаги сифатида, тажриба йўли билан ўрганишдан бошланган. Ҳамма ерда бу тасаввурлар ғоявий қурашнинг қийин босқичларини босиб ўтган.

Идеализм (фр. *idealisme*) – идеализм: фалсафанинг бош масаласи – онгнинг борлиққа муносабати масаласида материализмга қарама-қарши ўлароқ онг, рух бирламчи, моддий дунё, борлиқ эса иккиламчи, онг сезги, тасаввур ва тушунчаларнинг маҳсулидир деб даъво қилувчи ғайри илмий фалсафий оқим. Идеалистлар материалистларга қарама-қарши ўлароқ, психика тан билан яширин йўсинда бирлашган, инсон ўлгач, танани ташлаб «нариги дунёга», ғоялар дунёсига кетиб, у ерда абадий яшайдиган моддий бўлмаган қандайдир илоҳий субстанция ёки моҳиятнинг намоён бўлишидир деб тушунадилар.

Материализм (лат. *materialis* – моддий) фалсафасидаги икки асосий оқимдан бири, яъни идеализмга қарама-қарши ўлароқ, бирдан бир илмий, тарихан прогрессив дунёқарашдир. Фалсафа тафаккурнинг борлиққа муносабати ҳақидаги бош масаласини ҳал қилишда материализм дунё ўз табиатига қўра моддийдир, материя, табиат, борлиқ, инсон онгидан ташқари унга боғлиқ бўлмаган ҳолда мавжуддир, материя бирламчи ҳамда сезгиларнинг манбаидир, онг эса иккиламчи, ҳосила нарсадир, дунёни ва унинг қонуниятларини тўлиқ билиш мумкин, деб таълим беради.

Материализм фалсафий оқим сифатида эрамиздан бир қанча асрлар аввал қадимги Ҳиндистон, Хитой ва Гречияда пайдо бўлган.

Эрамиздан аввалги бир неча минг йиллар илгари Шарқда қадим цивилизациялар – Миср, Ҳиндистон, Хитой цивилизацияси таркиб топган. Улардаги ғоялар асосида замонавий фанлар ривожланади.

Милоддан аввалги бир неча минг йилликнинг ўрталарида Ҳиндистон ва Хитойда 2-минг йилликда пайдо бўлган «Веда» матнларига асосланади.

Ведаларнинг якуни сифатида кейинчалик эр.ав 1-минг йиллиқда Упанишадалар пайдо бўлган. Уларда рух муаммоси қўпроқ этник муаммо сифатида шахсни етукликка эришишининг нуқтаи назаридан таҳлил қилинди ва қабул қилинган умумий ғоялар, яъни рухнинг учеб юриши унинг абадийлиги ушбу манбаларда ўз аксини топган. Шу асосда эр.аввалги 3-асрда жайнизм ва буддизм дини таълимотининг мазмуни шаклланди ҳамда рухий ҳодисаларнинг тана билан бўлган муносабатига доир ўз қарашларини ифода этди. Жайнизмда тана рух эркинлигини сабабчиси деб таърифланган бўлса, буддизмда умуман рухни алоҳидалигини инкор этган. Кейинчалик пайдо бўлган Санья Веданта, Йога, Миманса фалсафа мактаблари ҳам рухни ўрганишга метафизик этик томондан ёндашдилар. Ведантада Упанишадаги идеалистик ғоялар илгари сурилди. Уларда Атаман ва Брахман ҳақида фикр юритилди. Бу фикрга кўра рух доим тананинг интилишлари ва ҳиссий кечинмалари ортида яширинган бўлади. Қатъий интизом орқали рух булардан халос бўлиб, абадий Брахман даражасига етади. Йога таълимотида эса ҳақиқий юксакликка эришиш учун психик фаолиятга тўскенилик қилаётган томонларни бартараф қилиш керак бўлади дейилади. Бунинг учун йогалар маҳсус 8 оламни: аввал тана ҳаракатларини (нафас олиш гавда ҳаракатлари, кейин психик актлар) диққат тафаккурини бошқариш услубларини ишлаб чиқсан. Йогалар томонидан ишлаб чиқилган сезги чегараларида нарсаларни идрок этиш, кўриш, галлюцинация, идрок иллюзияси ҳиндларнинг психологик таълимотида катта ўрин эгаллаган.

Психик ҳаёт давомида ўтиш даврлари муаммоси Гарбий Европа файласуфларини қўпроқ қизиқтирган. Ҳеч кимни ҳиндлар каби «мен» муаммоси бунчалик кўп ўйлантиргмаган. Масалан, Лаката маълумотида умуман «мен» муаммоси инкор қилинади. Улар шунга асосланадики, сезги аъзоларимиз бизга «мен» ҳақида ҳеч нарсани маълум қилмайди. Хулоса чиқариш йўли билан олинган маълумотлар эса нотўғри бўлиши ҳам мумкин.

Хитойдаги материалистик оқимнинг йирик намоёндаси Ван Чун эди. У ўзининг машҳур «Танқидий мулоҳазалар» номли асарида табиатшунослик ва медицинанинг ўша даврдаги ютуқлари асосида диний теологик ғояларни танқид қиласди. Табиат қонунлари инсон рухиятини билишда бирдан бир усул эканлигини хитойлик мутафаккир Фань Чжен ҳам ўз даврида илгари сурган. У рухнинг абадий эмаслиги, аксинча моддий тананинг функцияси бўлгани учун ажралмаслиги ва у билан бирга йўқолиши ҳақида ўз трактида ёзган. «Тана – деб ёзади у, – рухнинг материяси, рух тананинг функциясидир. Материя учун рух пичоқдек ўткирдир, ўткирлик бу пичоқ эмас. Пичоқ мавжуд бўлмай ўткирлик бўлиши мумкин эмас. Худди шундай равишда тана ўлиб рух қолиши мумкин эмас» – деб таъкидлайди

Фань Чжен. Шу билан бирга у рух фақат маълум тарзда тузилган материяга хос эканлигини айтиб ўтган.

Маълумки, эр.ав. 4-5 асрларда ишлаб чиқариш кучларининг ривожланиши жамиятнинг табақаланиши ва қулдорлик давлатларининг пайдо бўлишига олиб келди. Бу давлатларда рухнинг абадийлигини, у танани тарк этиб бемалол харакатланиб юриши мумкинлигини таъкидловчи диний идеология хукмрон эди. Шу билан бирга бизгача этиб келган манбаларда нафақат диний балки табиий билимларнинг асослари ҳам таърифланган. Нарса ва ҳодисаларни теологик, мифологик жиҳатдан тушунтиришга ҳаракат қилувчи тасаввурлар аста-секин рационализацияга учраб янги тушунчалар билан алмаша бошлади. Худо ҳали ҳам олий хукмрон бўлиб ҳисобланса-да, одам ҳаётига ўtkазиладиган таъсири ҳақидаги карашлар аввалгидан ўзгариб борган.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Али Ибн Сино. «Тиб қонунлари асари». Тошкент – 1992 й.
2. Фозиев Э.Ф. «Тафаккур психологияси» Тошкент – Ўқитувчи – 1990й.
3. Фозиев Э.Ф. Психология (Ёш даврлари психологияси). Т. 2002.
4. Фозиев Э.Ф. Тафаккур психологияси. Т., 1990.
5. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. Т., 2010.
6. Фозиев Э.Ф. Хотира исихологияси. Т., 1994.
7. Давлетшин М.Г. «Психология тарихи» дастур. Т.-1996 й.

## DINIY ONG SHAKLLANISH ASOSLARI

*Baxromova Hurzoda Rashid qizi  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada oilada diniy ong shakllanishining pedagogik-psixologik asoslari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar.** diniy ong, diniy psixologiya, diniy kechinma, diniy hissiyot, diniy mafkura, dogmatika, apoletika, diniy norma.

Jahonda axborotlarning globallashuvi sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlodning turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgani, bu holat ularning ijtimoiy faollashuviga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani jiddiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Globallshuv jarayonidan tashqari, bolaning salomatligidagi o'zgarishlar,

nosog'lom oilaviy muhit, bolaning ijtimoiylashuviga tayyor emasligi ham bolalarning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmoqda

Mamlakatimizda mustaqil fikr egalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotgan hozirgi kunda qator ta'limiy muammolar qatorida bolalarga to'g'ri tanlangan metodlar vositasida va ishonchli manbaalar asosida diniy tushuncha berish diniy ong asoslarini shakllantirish har jihatdan tadqiq etilmoqda. "Harakatlar strategiyasi"da "Jismonan sog'lom,ruhan va aqlan rivojlangan,mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ..." kabi vazifalar qat'iy belgilab berilganligi ham bu yo'nalishdagi tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni oshiradi.

So'nggi yillarda yurtimizda diniy bilim berish katta sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda diniy bilim berish sohasiini qo'llab-quvvatlash, sohaga malakali mutaxassislarni jalb etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloq qilish, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-avgustda qabul qilingan "Din sohasidagi ma'naviy -ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtemoiy ko'mak va imtiyozlar berishto'g'risida"gi 364-qarori qabul qilingan. Bundan tashqari, 2008-yili Samarqand viloyatida Imom Buxoriy markazi ochildi. Markaz yurtimizda yetishib chiqqan buyuk allomalar merosini har tomonlamateran o'rganish, keng targ'ib etish, Imom Buxoriy mmerosi va hadis ilmiini o'rganish borasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, diniy hodimlarning bilim va tajribasi, kasb mahoratini oshirish kabi yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda.[1].

Diniy ong insonni ijtimoiy borliq bilan hamohang bo'lishini ta'minlab turuvchi ijtimoiy ongning bir shakli hisoblanadi.Diniy ong diniy bilimlar asosida shakllaniib,diniy xulq namunalari va me'yorlari, diniy urf-odatlar, diniy faoliyat doirasida bajariladigan harakatlarda moddiylashadi. Diniy ongning tabiatini bilish(o'rganish)murakkab hisoblanib,murakkablik nafaqat uning tuzilishi yoki vazifasiga taalluqlidir. Balki, diniy ongning o'zini mavjudligiga ham bog'liq bo'lib ,boz ustiga uni talqin etishda bir qator ta'limotlar ham mavjuddir [2].

Diniy ongning asosiy elementlaridan biri diniy tuyg'udir.Aynan shu tuyg'u insonni boshqaruvchi richag vazifasini ham bajaradi. Insonda diniy tuyg'uning mavjyudligi Yaratgan zotga ishonch tuyg'ulari mavjudligi bevosita uniung bilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Diniy ong darajasi shakllangan insonning tafakkur , diqqat, jarayonlari ham boshqa e'tiqodsiz shaxs bilish jarayonlaridan birmuncha farq qiladi.

Diniy ong ijtimoiy ongning shunday shakliki, u tabiiiy va ijtimoiy borliqning ilohiylashtirilgan, hayoliy in'ikosidir. U kishilarining tabiat va jamiyat hodisalariga, o'zlariga va o'zaro bir-birlariga munosabatlarini ilohiy kuchlarga bog'lab, ularning irodasi, karami, saxovati yoki qaxri, g'azabi, nafrati, jazosi, sifatida ifodalaydi. Diniy ong: diniy tushunchalar, qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, qadriyatlar, e'tiqodlardan iborat

bo'ladi. Diniy ongning dastlabki elementi- diniy tuyg'udir. Kishilarning diniy tasavvurlari diniy g'oyalari bilan qo'shib, ma'lum diniy yo'naliш, diniy ma'no va ahamiyat kasb etgan ruhiy kechinma diniy tuyg'u deyiladi.

Dinning tarkibiy qismlari qatorida diniy ong ustuvor ahamiyatga ega ,chunki diniy marosim va diniy tashkilot kishilar ongida va jamiyatda diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va saqlanib qolishiga ko'makalashadi. Diniy ong insonning ijtimoiy psixologik jarayonlari bilan bog'liq murakkab hodisa.Diniy ongning paydo bo'lishi insonda yuz beruvchi psixik jarayonlar,psixki holatlar bilan borliqqa bo'lган ichki,subyektiv qarashlari asosida yuz beradi.Shu jihatdan din insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida faoliyati davomida orttirilgan ma'daniyatdir. F.Abdurahmonov va Z.Abdurahmonovalar diniy ong elementlariga: diniy psixologiya, diniy kechinma, diniy hissiyot, muhabbat, qo'rqinch, shodlik hamda diniy mafkura; dogmatika; apologetika; diniy normalarni kiritgan.[3].

Ma'lumki, diniy ong-bu,dindor kishining ongi bo'lib,diniy ishonch va faoliyat mustahkamligining muhim omilidir. Diniy ong diniy faoliyat bilan uzviy bog'langan Psixologiya va pedagogikada ham ong va faoliyat birligi tamoyilidan kelib chiqb yondashadigan bo'lsak, diniy ong diniy faoliyat birligi sifatida o'rganishimiz mumkin.Diniy faoliyatga dindorlarning diniy majburiyatlarini bajarish, diniy marosimlarni amalga oshirish ularda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lган faoliyatları kiradi. Diniy ong diniy munosabatlar bilan ham uzviy aloqadorlikda. Bu munosabatlarga dindorlarning o'zaro munosabatlari, diniy tashkilotlar bilan dindorlar o'rtasidagi munosabatlar va boshqalar kiradi. Diniy ongning shakllanishi va rivojlnishida diniy dasturlarning ishlab chiqarilishi,shuningdek turli diniy bayramlarning o'tkazilishi katta ahamiyat kasb etadi.Din o'zining tantanali bayramlari,marosimlari bilan kishilar ko'nglida ko'tarinki kayfiyat,xursandchilik sabr -toqat,qanoatlilik,vijdon b,burch poklik va shu kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi,ma'naviy kamol toptiradi.[4].

Ong darajasining yuqoriligi e'tiqod o'rtasidagii roda va ishonchning tafakkur bilan bog'liq ehtiyojmandligini belgilaydi.Bu esa oila,mahalla, tarbiya maskanlari orqali yoshlarga singdiriladi hamda ularning o'zaro uyg'unligini talab etadi.Shuningdek o'zbek xalqining ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylashva mustahkamlash,jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish ,o'zbek milliy mentalitetiga mutlaqo yot bo'lган va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirishni taqazo etadi.

Har qanday diniy ongning negizida diniy e'tiqod yotadi. Diniy e'tiqod ilohiy kuchlarga ishonuvchilar ongida bo'lган diniy tasavvurlar, obrazalar majmuasidir. Diniy e'tiqod diniy ongning asosiy elementi sifatida diniy aqidalarga, yo'l-yo'riqva ko'rsatmalarga shak-shubhasiz iъthonish hamda ularga amal qilishdir[5].

Xulosa qilib aytganda, diniy ongning qay darajada shakllanishi turli xil omillarga chambars bog'liq. Masalan oila a'zolarimizning bu masala bo'yicha qarashlari. Har bir bolada diniy ong vujdga kelishining ilk bosqichlari oilada boshlanadi. Yoshlarning ongida sof diniy ta'llimot g'yoalarini shakllantirish hozirgi davrning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi. Diniy ongning qay darajada to'g'ri shakllantirilshi bevosita uning hayoti faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazib boradi.

### Adabiyotlar

- 1.O'zbekistonda davlat va din munosabatlari.-Toshkent:.2014.-B.29
- 2.Din psixologiyasida diniy ongning genezesi va trnsformatsiyasi muammosi,ilmiy to'plam.-Toshkent:.2020.-B.228-229.
- 3.B.Valiyev [va boshq]Din psixologiyasi:o'quv qo'llanma. Toshkent:Movarounnahr,2014.-312 b.
- 4.Din psixologiyasida diniy ongning genezesi va trnsformatsiyasi muammosi,ilmiy to'plam.-Toshkent:.2020.-B.255-256.
- 5.Din psixologiyasida diniy ongning genezesi va trnsformatsiyasi muammosi,ilmiy to'plam.-Toshkent:.2020.-B.73.

## БОЛА ТАРБИЯСИДА МУСИҚАНИНГ РОЛИ

Ачилова Қумринисо Шухратовна  
Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 10-сонли ДМТТ  
музиқа раҳбари

Музиқа болаларнинг эстетик идрокини шакллантирувчи восита сифатида. Болаларни шахс сифатида тарбиялаш учун таълим, жисмоний ва онгли тарбия уйғунликда олиб борилиши керак. Бу мақсадга эришиш учун болаларда тўғри ташкиллаштирилган мусиқий машғулотлар ташкил этилади. Эстетик тарбия мактабгача ёшдаги болаларда гўзалликни тушуниш, уни ҳис қилиш, яхши ва ёмонни, бадиий санъат турларини фарқлай олиш ва уларга ижодкорона ёндашига йўналтирилгандир. Эстетик тарбиянинг энг қўзга кўринган омилларидан бири – музиқадир. Бу мақсадларга эришиш учун мактабгача ёшдаги болаларнинг умумий мусиқийлигини ривожлантириш керак. Болаларнинг умумий мусиқийлигига нималар асос бўлади: музиқа боланинг эстетик тарбия омили сифатида унга гўзалликни қабул қилиш, тушуниш қобилиятларини

ривожлантириш. Бу масалаларни ҳал этиш учун умумий мусиқийликни ривожлантириш зарурдир. Мусиқий омиллар З тамойилга бўлинади:

1. Мусиқанинг характеристи, кайфиятини ҳис этиш, мусиқага эмоционал муносабат билдириш ( мусиқанинг ифодавийлиги ва тасвирийлиги). Болада мусиқани тинглаганда унинг характеристига мос кайфиятда бўлишига эришиш керак.

2. Энг ёрқин мусиқий образли асарни тинглаш, таққослаш ва баҳо бериш. Бунда мусиқа ифода воситалари, мусиқий асбоблар тембрлари, эшитиш маданияти талаб этилади. Масалан, чолғу асбобларнинг юқори ва паст тембрлари (скрипка – алт, контрабас – виолончел ва бошқа чолғу асбоблар)

3. Мусиқага ижодкорлик муносабатини билдириш. Ҳар бир бола бирор мусиқий асарни эшитиб ўзича бадиий тасаввур қиласи ва қўшиқда, ўйинларда, рақс элементлари билан ҳиссий муносабат билдириши мумкин. Бу болаларда ижрочиликнинг илк намойишлари, яъни илк уруглари бўлиши мумкин.

а) Мусиқа – болаларнинг ақлий фаолиятининг фаоллаштирувчи омилдир.  
б) Мусиқа – ахлоқий омил бўлиб, маънавиятнинг ажралмас қисмини таркиб топтиради. Мусиқадан анъаналарга ҳурмат, Ватанни севиш ва бошқа тарбиявий ахлоқий фазилатларни тарбиялайди.

в) Мусиқа – жисмоний тарбия омили ҳамdir.

Мусиқа болаларнинг ҳис – туйгуларига бевосита таъсир қилиши орқали уларнинг маънавий қиёфасини шакллантиради. Мусиқа санъатининг таъсир кучи бошқа – таъкид ва уқтиришларга нисбатан кучлироқ бўлади. Болаларни ҳар хил эмоционал – образли мазмундаги асарлар билан танишиштиради эканмиз, биз беихтиёр уларни ҳиссиётларига таъсир қиласи ва уларни кечинмалар оламига олиб кирамиз. Болани мусиқавий асарларни идрок этиш тўғрисидаги масалага тўхтаймиз. Идрок санъати ўзидан кийин психологик фаолиятни намоён қиласи, қайсики, интеллектуал, билиш, эмоционал моментларни бирлаштиради. Мусиқа санъати асарларини тушуниш масаласи ўзидан ўзи келиб чиқиши мумкин эмас. Уни ўргатиш керак. Мусиқа асарларини идрок этиш ҳиссиётидан бошланади. Мусиқа асарларини идрок этиш эмоционал жонқуярликни вужудга келтиради. Боланинг бу ҳолатида унга таниш мазмун ва қувонч-идрок асосида эмоқияларнинг пайдо бўлишидир. Болаларда асарни тушуниб қабул қилиш қобилиятини тарбиялаш зарур. Мусиқани идрок этиш илк болалардан шаклланади. Тўпланган эмоционал мусиқавий таасуротлар қўшиқ айтишга, мусиқа асбобларини чалишга, бадиий халқ қўшиқлаини айтишга олиб келади.

Ҳиссиёт, эшитиш, идрокнинг ривожланиши асосида болаларда мусиқавий таасуротлар тўплана бошлайди. 7 ёшли бола мусиқанинг мазмунига қараб қайгуради ва фикр юритади. Биз бола олдига мусиқани идрок этишнинг пайида бўлиши вазифасини қўямиз. Кейин эса ташқи таъсир этиш орқали мусиқавий

таасуротларни йиғиндиси вазифасини. Эстетик идрок – бу 2 асосий компонентлар йиғиндисидир: эмоқионаллик ва тушунарлилик. Лекин бунга яна ҳаёл ва ҳаракат моменти – ритм ҳам қўшилади. Кейин мактабгача ёшдаги болалар таниш мусиқани биладилар, марш, пляска, алла мусиқаларни ажратадилар, мусиқанинг сокин ва қувноқ ҳарактерини ажратадилар, лекин уни ёш хусусиятлари кучига кўра сўз орқали ифодалай олмайдилар. 4-5 ёшда болалар образларни деталлаштирадилар, мусиқанинг контраст ҳарактерларини қисман ажратадилар, мусиқа асарларининг ифодалилиги шакл ва воситаларини тушунадилар. Педагогнинг саволи ва талабига сўз орқали жавоб қайтарадилар. 6-7 ёшли болалар қуйидаги терминлар орқали: кириш, куплет, бирга айтиш бўлим, темп ва бошқалар, дифференциялаштиришлари ва умумлаштиришлари мумкин. Улар мусиқа асарларининг ифодалилиги характер ва воситаларини тушунадилар ва ўйин образларига қарашади.

Шундай қилиб мусиқа идрокини тарбиялаш қуйидагича боради:

1. Мусиқа материалини ажратиб олиш.
2. Тарбия ва таълим методларини тизимилаштириш.
3. Ишнинг турли босқичларидан фойдаланиш.
4. Мусиқа асарларининг турли-туман тематикларидан фойдаланиш (ижтимоий, табиат, меҳнат, болалар турмуши, эртаклар).
5. Мусиқа асарининг образлар сони ва шаклсига қараб аста-секин мураккаблашиб бориши.

Мусиқани эмоқионал учун унинг товуш материалини қабул қилишни билиш зарур, уни эшитиш, ифференциялашни билиш керак. Бу малака болалар билан мусиқа асарларини (оддийларини) анализ қилиш, улар диққатини мусиқа ифодалилига воситаларига қаратиш йўли билан ривожлантирилади. Мусиқа асарларини анализ қилиш орқали бола мусиқани ўзига хос тилини ажрата бошлайди – мусиқанинг ҳарактеридаги дунёдаги образлар билан боғлиқлик улар эмоқионал кайфиятини (лирика, бардамлик, тантанаворлик ва бошқалар).

Педагог болаларда актив фаолиятни вужудга келтириш учун образли ва шеърий сўз орқали ашула, ўйин, эшитиш учун пьеса сюjetини ёритади, болада пайдо бўладиган ҳаёлни қўзгайди, образларни чақиради, уни сюжет асосида фикрлаш ҳаракати мусиқа асарини программасига жалб қиласди. Шундай йўналишдан кейин мусиқани идрок этиш болада эмоқионал тушунарли бўлади. Сўз орқали натижани ифодалаш ва асарга баҳо бериш мусиқа раҳбарининг моҳир раҳбарлиги остида аста – секин бадиий – мусиқавий дидни пайдо қиласди.

Мусиқа машғулотлари болаларнинг умумий маданиятига ҳам таъсир қилмай қолмайди. Ҳар хил фаолиятлар билан шуғулланиш (мусиқа тинглаш, қўшиқ айтиш, мусиқий – ритмик ҳаракатлар бажариш, болалар мусиқий чолғуларида ижро этиш) болалардан диққатни, уюшқоқликни, зукколикни талаб қиласди. Бу фаолиятлар

давомида болаларда иродавийлик шаклланиб, тортиночоқлик йўқола боради. Шу тарзда мусиқий фаолиятлар болалар шахсининг маънавий – маданий сифатларини шакллантириш учун керакли бўлган шарт – шароитларни таъминлайдиган ва уларнинг умумий маданий савиясига асос солади.

---

## **TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR PSIXODIAGNOSTIKASI VA ULAR BILAN ISHLASH**

*Rizoqulov Xusrav Muhiddinovich  
Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 45-maktab psixologi*

Barchagamizga ma'lumki, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishslash azaldan eng dolzARB muammolardan biri bo'lib kelgan. Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan, u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tiborni qaratishimiz lozimdir. Sobiq Ittifoq davrida shaxs xulq-atvoriga irsiy omillar va uning tabiiy xususiyatlarini ta'sir qilishi haqidagi qarashlar inkor etilar edi. Biroq N.P.Dubinin, V.P.Efroimson, N.S.Kanstonistov, B.F.Sergeev va boshqa genetiklarning bildirishicha, shaxsning genetik xususiyatlari, undagi ba'zi tug'ma kasalliklar va xususiyatlar ham shaxs xulq-atvorining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etilishini e'tirof etganlar. Ko'pchilikning fikriga qaraganda oxirgi paytlarda tarbiyasi og'ir bolalar bilan bog'liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular sonining keskin oshganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni, hozirgi vaqtida axborot oqimining yuqoriligi (uzluksiz televizor ko'rish, komp'yuterdagи har xil o'yinlar epizodlariga taqlid qilish, Internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirishi) yoki kattalarning e'tiboridan chetda bo'lishi, oiladagi krizis va hokazolar. Bu omillarni inkor etmagan holda, mazkur muammoning tub sabablarini bolaning psixik taraqqiyotidan qidirish lozim. Hech kimga sir emaski, bugungi kun bolalari o'zlarining yigirma yil oldingi tengdoshlaridan farq qilishadi. Hozirgi yoshlar tez ta'sirlanuvchan, musaqillikka moyilligi yuqoriligi va shu bilan birga nisbatan befarq, o'z vaqtlarini mazmunli ijtimoiy foydali faoliyatga sarflagilari kelmaydi. Vaholanki inson tabitan o'ziga xos oson va ko'ngilochar mashg'ulotlarga moyil bo'ladi. Inson xulq-atvori tarkibining aksariyati tabiiy instinktlari tazyiqi ostida bo'lishini inobatga olinishi kerak. Ushbu tazyiqlarni to'g'ri muvofiqlashtirish insondan irodaviylikni talab qiladi. Bu holatni zamonaviy texnikaning

rivojlanganligi ta'siri deb ham izohlash mumkindir. Ko'pchilik hollarda bolalardagi bu o'zgarishlarga e'tiborsizlik va befarqlik ularning xulq-atvorida salbiy og'ishlarining boshlang'ich sababi va asosi bo'lishi mumkin. Amerikalik amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik xizmat doirasida bolani tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarni oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish zarurligi ta'kidlanadi. Buning uchun bolani o'zini o'zgartirishga tayyorlash, ya'ni:

-tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslikka;

-turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish lozim. Demak, olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin ekan. Shu o'rinda psixologiya faniga murojaat etib, inson psixikasida ongning tarkib topishi xususida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Ma'lumki, inson ongingin yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglashidir. Uning o'zini anglashi o'z navbatida shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Inson o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta'sir etuvchi sub'ektdir. Insonning idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun ob'ektdir. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, insonning o'zini anglashi sub'ektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi. Inson ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini, o'z xuquq va burchini, nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini adekvat baholashi o'zini anglashiga kiradi. Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil - inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda, inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida tizimli beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqkiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqkiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy

muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangig ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Ma'lumki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi, deb izohlanadi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz. Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning biologik va ijtimoiy omillariga bog'liq ekan. Demak, bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida ham bevosita o'ziga xos yuqoridagi ikki omilning o'rni bor. Bolaning xulq-atvori ko'pincha o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, qiziqishlari, ideallari va e'tiqodlari majmuida yaqqol namoyon bo'ladi. Xulq-atvordagi o'zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir. Shunday qilib, boladagi salbiy illatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

- birinchi o'rinda, har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim.
- ikkinchi o'rinda, bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.
- uchinchi o'rinda, tarbiyasi og'ir bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G. T. Yadgarova va boshqalar. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash. O'quv qo'llanma. Toshkent- 2007.
2. Байярд Р.Т., Байярд Д. Ваш беспокойный подросток. М.: "Просвещение", 2005
3. Ziyonet.uz

## **O'QUVCHILARNING AQL-ZAKOVATI VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV**

*Imamova Raxima Xaydarovna  
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 43-maktab psixologi*

Psixologiya fanida aqliy taraqqiyot, aql, intellekt muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo`lib, ularning mohiyati jihatidan bir kategoriyaning har xil mezonlar bilan o`lchashda o`z ifodasini topadi. Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko`p jihatdan uning intellektual potensiali va shaxs taraqqiyoti bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potensiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg`or bo`ladi. Vatanimiz kelajagi, islohotlarning taqdiri va ularning natijalari, xalqimizning bilim darjasи davr talabiga va taraqqiyotiga qanchalik mosligiga, qanday mutaxassislar etkazib berib, o`rnimizni egallashlariga bog`liqdir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati ta'lif tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratayapti. Shunga ko`ra, yuqori malakali xodimlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko`tarilmoqda. Uzluksiz ta'limning faoliyat ko`rsatish tamoyillaridan biri, ta'limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzidir.

Intellektual – so`zining lug`aviy ma'nosi aqliy jihatdan yetuklik, fahm-farosat, aql-idrok, zakovat, zukko, ya'ni zakovatli inson bo`lish demakdir. Aqliy taraqqiyotning nazariy va metodologik mohiyatini ochish uchun quyidagi tomonlarga alohida e'tibor qilamiz.

- 1) jahon psixologiyasi fanida aqliy taraqqiyotning o`rganilishi;
- 2) sobiq sovet psixologlari tadqiqotlarida aqliy taraqqiyot muammosi;
- 3) mamlakatimiz psixologlari tadqiqotlarida aqliy taraqqiyot masalasi;

Aqliy taraqqiyot juda ko`p psixologlarni qiziqtiradigan muhim masala bo`lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu muammo ustida juda qiziqarli tadqiqotlar olib borilgan bo`lsada, biroq unga har xil yo`nalishdan turib yondashilgan. Shularni nazarda tutib, bu to`g`rida umumiy nuqtai nazar, umumiy mezon yuzasidan mulohaza yuritish mumkin emas. Shuningdek, aqliy taraqqiyotning tarkibiy qismlari bo`yicha ham xuddi shu fikrlarni bildirish o`rinlidir. Insonning aqliy taraqqiyotini o`rganish muammosi qadimgi davrlardanoq juda ko`p soha bilimdonlarining e'tiborini tortgan. Hatto, antik davr faylasuflari ham bu muammoga jiddiy yondashganlar.

Antik davrning Platon va Aristotel kabi faylasuflari “aql” odam ruhining oliv, o`ziga xos bo`lagi bo`lib, olamni bilishning eng ma’qul yo`li deb hisoblashadi. Intellektning mohiyatini tushuntirishda fan olamida ikki xil yondashuv vujudga kelgan:

1. Birinchi guruh vakillarining qarashlaricha, intellektual xususiyatlar odamga tabiiy ravishda – nasliy yo`l bilan ota-onalari tomonidan beriladi. Odam onasidan aqli yoki aqli zaif bo`lib tug`ilgan bo`ladi;

2. Ikkinci guruh namoyandalari esa intellektni bola idrokining tezligi va tashqi qo`zg`atuvchilarga nisbatan bo`lgan munosabatidir – deb tushuntirganlar.

“Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat – ma'rifatli insonning ikki qanotidir” Shunday ekan, insonning aqliy taraqqiyotini o`rganish uchun kechiktirib bo`lmaydigan amaliy ishlar olib borish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning XIX asr oxirlariga kelib, psixologiya fanida intellektni o`rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. Fransuz psixologi A.Bine intellektni tadqiq qilish bo`yicha dastlabki qadamni qo`ydi. T.Simon bilan birgalikda bolalar intellektining rivojlanish darajasini tadqiq qiluvchi testlarni ishlab chiqdi. XX asr boshlariga kelib, intellektni tadqiq qilish haqidagi A.Bine, T.Simonlardan keyin bir qator boshqa ko`rinishdagi testlar tizimi hamda mazkur mualliflar testlarining modifikatsiyalari vujudga keldi. Ular ichida amerikalik psixolog L.Termen tomonidan ishlab chiqilgan modifikatsiya alohida ahamiyatga ega. U o`z ishlarida F.Galtonning aqliy qobiliyatni genetik jihatdan shartlanganlik haqidagi nazariyasiga ko`proq murojaat qildi.

Ularning metodi aqliy taraqqiyotning mezoni rolini o`ynashga imkoniyat yaratib beruvchi turkumlash ustida fikr yuritishni taqozo qiladi. Rus psixologi P.P.Blonskiy ta'limning bola aqliy taraqqiyotidagi roliga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun o`quvchilarning aqliy rivojlanishi to`g`ridan-to`g`ri maktab dasturi mazmuniga bog`liqligini ta'kidlaydi. “Bilimlar tafakkurni yanada umumiylar mavhum qilish bilan bir qatorda uni yanada yaqqollashtiradi. Bu esa tafakkurni yanada intizomli, yanada xatolardan saqlanadigan qiladi” deb tushuntiradi. Ta`limda tafakkurning bir vaqtning o`zida ikki yo`nalishga qarab, ya`ni mavhumdan yanada mavhumroqqa, yaqqoldan yanada yaqqolroq holatga o`sib o`tishini ko`rsatib o`tadi. Intellekt muammosini yoritishga Amerika psixologlari ham jiddiy ravishda yondashishgan.

Biroq bu muammoni hal etishda ular boshqacharoq yo`l tutishadi, ya`ni asosan intellektning quyidagilarga bog`liqligi ta'kidlanadi:

- a) yoshga;
- b) jinsga, dunyoga kelish tartibiga;
- v) etnos, millat, elatlarga;
- g) oilaning ijtimoiy-iqtisodiy statusiga;
- d) ota-onalarning ma'lumotliligidagi.

Ta`lim-tarbiya tizimini tubdan o`zgartirish va barkamol insonni shakllantirish, ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Hayotga ziyrak ko`z bilan qaraydigan, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biridir. Shuning uchun biz boshlang`ich sinf o`quvchilarini mustaqil fikrlovchi, aqliy jihatdan kamol toptirish lozimligini o`rganishga ahamiyat qaratamiz.

Ta`limga psixologik tayyoragarlik deganda bolaning ob`yektiv va sub`yektiv jihatdan maktab talabiga, ta`limiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta`limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokinning o`tkirligi, ravshanligi, sog`ligi , aniqligi, o`zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yorqinligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Lekin bolalarining hammasi bir xil emasligi sababli ular orasida muhim farqlar vujudga keladi. Ba`zi bola mакtabga butun vujudi bilan talpinadi.

O`qishga qancha qolganini uzlucksiz sanaydi. O`quv ashyolarini oldinroq tayyorlab qo`yishga harakat qiladi. Boshqa bir bola esa mакtabdan qat`iy voz kechishgacha borib yetadi. O`qishga salbiy munosabat ko`pincha kattalarning qo`rquitishlari oqibatida vujudga keladi. Shuningdek, aka va opalarning mакtabdagи qiyin kechinma va vaziyatlar to`g`risidagi gaplari, uyda bolalarni ko`proq dars tayyorlashga majbur qilish ham o`qishga salbiy munosabat uyg`otadi. O`qishga nisbatan salbiy munosabatdagи bolalar ta`lim muhitiga kirishga qiynaladilar.

Amaliy faoliyatni shakllantitishga qaratilgan ishlar butun jahon miqiyosida har bir sohada keng qamrovli olib borilmoqda. Aynan, shu jarayonga tayyoragarlikni bolalik davridan boshlab psixologik bilimlar asosida olib borilsa barkamol avlod tarbiyasiga samarali ta`sir etish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa ta`lim jarayonida aqliy taraqqiyotni aniqlashga qaratilgan maxsus usullar yordamida amalga oshiriladi.

Bola mакtabostonasiga qadam qo`yishi bilan yangi hayot faoliyatiga, yangi muhit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham tevarak atrofdagi narsalarga ham munosabat o`zgaradi. Endi u “o`quvchi” degan sharaflı nomga ega, uning muayyan vazifalari va o`quvchilik burchi bor. Bola o`z hayotida yangi davr boshlanganini anglaydi. O`qish ma`suliyati uning xattiharakatlariga, yurish-turishiga, xulq-atvoriga katta ta`sir ko`rsatadi.

### Adabiyotlar ro`yxati

1. Asqarova M, Qodirova G'. “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish” T.: “O`qituvchi” 2001 y
2. Jo`raev S, Qodirov F. “Kichkintoylar nutqini o`stirish” T.: 2005 y
3. Ivanov P, Zufarova M. “Umumiy psixologiya” T.: 2008 y

## **ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БОЛА ХУЛҚ-АТВОРНИНГ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИРИ**

*Жураев Хайдаржон Одилбайевич  
Наманган давлат университети Психология йўналишида  
Магистратура биринчи босқич талабаси*

Бугунги кунда жамиятимизда ёшларга булаётган етибор жудда хам йуқори бўлиб бормоқда лекин аксарият ёшларимиз хулқ атворида қуполлик ва жизакиллик агрессив харакатлар намойон бўлмоқда. Бундай агрессив хулқ атвор шакилангунча бўлган даврга етибор бериб ўрганилса оиласидан мухитга бориб тақалади. Соғлом оила мухитида соғлом авлодлар тарбияланиб, камол топади. Маълумки, дунёга келган гўдакнинг ижтимоий-лашуви, даставвал, оиласидан амалга ошади. Айнан шу масканда бола ижтимоий мухитга мослашиб, ижтимоий меъёрлар ва қадрият-ларни ўзлаштиради. Шулар асосида ижтимоий ҳаётга кириб боради. Фарзанд оиласидан камол топар экан, у оила аъзоларининг ўзаро муносабатларидан доимо ибрат олади. Шулар заминида у бошқа кишиларнинг хулқ-атвори, хатти-харакатларини ўрганиб, фарқлай бошлайди ва улар билан муносабатга киришиш, мулоқотда бўлишнинг усул ҳамда шаклларини ўрганиб боради.

Айнан оила бағрида бола бошланғич ижтимоийлашувни олади. Оила аъзоларининг муносабатлари мисолида у бошқалар билан мулоқот қилишга ўрганади, хулқ-атвори ва муносабатлар турларини тушуниб боради, бутунчалар унинг ўсмирлик ва балоғат йилларида сақланиб қолади. Ота-онанинг фарзандининг нотўғри хатти-харакатига нисбатан реакцияси, ота-оналар ўртасидаги муносабатлар хусусияти, оиласидаги уйғунлик ёки келишмов-чилик даражаси, қондош ака-ука ва опа-сингиллар ўртасидаги муносабатлар хусусияти оиласидан ундан ташқарида боланинг агрессив хулқ-атворини белгилаб берувчи, унинг балоғат йилларида атрофидагиларга нисбатан муносабатларига таъсир кўрсатувчи омиллардир.

Афсуски, айрим оилаларда ўз ота-онасининг меҳр-оқибатидан бебаҳра ўсаётган болалар ҳам йўқ эмас. Бундай оилаларда ота-она билан фарзанд ўртасидаги муносабатларининг ижобий психологик эмаслиги ачинарли ҳолдир, албатта. Аксарият ота-оналар ўз фарзандлари тарбиясига ғамхўрлик, меҳрибонлик, сабр-тоқат, меҳр каби хислатлар билан ёндашиш ўрнига, куч, айниқса, жисмоний жазо усули билан таъсир ўтказадилар. Ўз навбатида, бу каби хатти-харакатлар болаларда агрессив хулқ-атворнинг шаклланишига замин

бўлади.

Бугунги кунда агрессив болалар сонининг ортиб бораётганлиги психологияда долзарб муаммо саналмоқда. Болаларда агрессив хатти ҳаракатларнинг пайдо бўлиши мураккаб, кўп қиррали жараён бўлиб, унга кўпгина омиллар ўз таъсирини ўтказади. Агрессив хатти-ҳаракатлар оила, тенгдошлар грухи, оммавий ахборот воситалари таъсирида пайдо бўлади.

Бола агрессив хатти-ҳаракат турларини қуидаги уч асосий манбадан «озиқланиб тўплайди»:

1) носоғлом оила муҳити. Бундай оилаларда ота-она билан фарзанд ўртасидаги муносабатнинг ижобий психологик муҳитда эмаслиги, фарзандлар ўртасидаги келишмовчиликлар, оиладаги можаролар, низолар, оилавий ҳамфирликнинг мавжуд эмаслиги болаларда агрессив хулқ-атворнинг шаклланишига имкон яратади. Болалардаги агрессивликнинг намоён бўлиши оилавий муҳитнинг таъсир даражасига боғлиқdir;

2) тенгдошлар грухи. Болалар оиладан ташқарида, тенгкур-лари билан бўлган муносабатда ҳам агрессив хатти-ҳаракатларни ўзларига сингдирадилар. Аксарият ҳолларда, болалар тенгдош дўстларининг хатти-ҳаракатларини қузатиб, ўзларини агрессив бошқаришга уринадилар. Ҳаддан ташқари агрессив болалар ўз тенгдошлари сафидан сиқиб чиқарилади. Бундай болалар ўзларини хўрлангандек ҳис қилиб, ўзлари каби агрессив болалар грухидан жой топишга уринадилар. Бу эса муаммо устига муаммо туғдирмай қолмайди;

3) оммавий ахборот воситалари. У бугунги кунда болаларга таъсир этаётган энг кучли куролдир. Бу борада интернетнинг таъсири кучайиб бормоқда. Болалар интернет алоқалари орқали ўз табиатларига тўғри келмайдиган маълумотлар билан ҳам таниш-моқдалар. Шунингдек, телевидениеда намойиш этилаётган турли жангари фильмлар, кўрсатувлар ҳам болаларда агрессив хусусият-ларнинг шаклланишига таъсир қилмоқда. Бир қатор психологларнинг таъкидларича, оиладаги муҳит, ота-она ва ота-она билан бола ўртасидаги муносабат, оилавий ҳамжиҳатлик ёки аксинча, келиша олмаслик, опа-сингиллар, ака-укалар билан яқинлик даражаси, фарзанди томонидан қилинган нотўғри, янглиш хатти-ҳаракатларга нисбатан ота-онанинг реакцияси – оилада шаклланиши мумкин бўлган агрессив хатти-ҳаракатларнинг омиллари ҳисобланади. Шундай екан оилада Ота -она ўз фарзандига бўлган муносабатини туғри тушуниши кераклиги оила даврасида болалар ёнида турли хил конфликт холатларини олдини олиш кераклигига етибор бериш ва бунинг таъсири орқали болада агресив хулқ атвон шакиланиши мумкунлигини етибор қаратиш лозим. Хар қандай шароитда ҳам оилада фарзандга бор меҳрини бериш ва унинг учун вақт ажиратиб фарзандининг дардини ешитиб унга енг яқин

дўйстлардек муносабат ўрнатиш лозимлигини Ота – оналар унутмасликлари лозим.

## **ХАРБИЙ ХИЗМАТЧИ ОИЛАСИДА ЭР-ХОТИН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Ф. Имомқурова*

*ЖСПИ “Умумий психология” кафедраси ўқитувчиси*

Оилавий турмуш билан жамият тараққиётининг доимий муштараклиги туфайли жамият тараққиётининг барча даврларида ҳам оилавий муаммолар унинг илфор вакиллари дикқат-эътиборида бўлган. Оилавий ҳаёт жамият тараққиёти ва фарзандларнинг камолоти учун шу қадар муҳимки, шу боис уни бирор сония ҳам эътибордан четда қолдириб бўлмайди. Оилада эр ва хотин муносабатлари вақт ўтиши билан оқилона ҳамкорлик ва дўстлик, қон-қариндошлиқ муносабатларига айланиб боради. Кўпчилик никоҳларни баҳтли ҳам, баҳтсиз ҳам деб аташ мушкул, чунки уларда эр-хотинларнинг бир-бирларини секин-аста тарбиялаб боришлари ва тақдир тақозоси билан бора-бора муносабатлар чуқурлашиб, тушуниш ҳисси ва дўстона муносабатлар сайқаллашиб боради. Ўзбек оиласининг ҳаёти, ундаги ўзаро муносабатлар, унинг урф-одатлари, анъаналари ва қадриятлари, турмуш тарзи, маданияти, тарбиявий муҳити ва меҳнат шарт-шароитлари жиддий илмий муаммолар сифатида XX асрнинг 70-йилларидан эътиборан ўрганила бошланди. Оилавий ҳаёт психологияси, оила-никоҳ муносабатлари, оиладаги ўзаро муносабатлар, ундаги зиддиятлар, ажралишлар ва унинг оқибатлари кейинги йилларда психология фанининг кенг тадқиқот обьектига айланиб бормоқда. Бу соҳада психолог олимлардан Ф.Б.Шоумаров, Е.А.Моршинина, Э.Ғозиев, В.М.Каримова, М.Г.Давлетшин, Н.А.Софинов, С.А.Охунжонова, А.Шожалилов, Т.М.Адизова, Э.Усмонов, Х.Каримов, Ш.Ш.Жўраева, Р.С.Самаров, О.Шамиева, Н.Салаева, Ф.Р.Рўзиқулов, М.Файзиева ва бошқалар олиб бораётган илмий тадқиқот ишлари диққатга сазовордир.

Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 2-моддасида, “Оила- вий муносабатларда аёл ва эркакнинг тенг хуқуқлилиги Оилавий муносабатларни тартибга солиш эркак ва аёлнинг ихтиёрий равишда никоҳланиб тузган иттифоки, эр ва хотининг шахсий ҳамда мулкий хуқуклари тенглиги, ички оилавий масалаларнинг ўзаро келишув йўли билан ҳал қилиниши, оилада болалар тарбияси,

уларнинг фаровон ҳаёт кечириши ва камолоти ҳақида ғамхўрлик қилиш, вояга етмаган ва меҳнатга лаёқатсиз оила аъзоларининг ҳукуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш устуворлиги тамойиллари асосида амалга оширилади”<sup>29</sup>.

Оила муаммоларини ўрганиш тарихига назар солар эканмиз, дастлаб XIX аср ўрталари ва асосан иккинчи ярмидан бошлаб илк бор маҳсус илмий тадқиқот предмети сифатида ўрганила бошлангани қайд этилади. Бу тадқиқот ишларига дастлаб демограф, тарихчи, иқтисодчи, файласуф, социолог ва педагоглар киришган. Илк бор оилани маҳсус тадқиқот обьекти сифатида мунтазам тадқиқ этишни америкалик олимлар Р.О.Блуд ва Д.Вулфлар бошладилар. Улар ўз тадқиқотларида оилавий муносабатлар характеристига таъсир қилувчи ва уни муваффақиятсизликка олиб келиши мумкин бўлган сабаблар, омиллар ҳақида маълумотлар берган, бу борада кўплаб илмий холосаларни илгари сурган. Ҳозирги вақтда оилавий муносабатлар, эр-хотин муносабатлари, фарзандлар ўртасидаги муносабатлар юзлаб олимлар томондан ўрганилиб келинмоқда.

Ижтимоий-психологик тадқиқотларда оила умумий ижтимоий қонуниятлар нуқтаи назаридан эмас, балки уларнинг ҳар бирида кузатиладиган динамик ўзгаришлар, кичик групҳ сифатидаги оиланинг ўзига хос хусусиятлари, унда кечаётган жараёнлар нуқтаи назаридан ўрганилади. Эр-хотин муносабатларини ўрганишда бундай ёндашиш бевосита тадқиқот ўтказилаётган вақтда оиладаги ички муносабатлар ҳолати ҳақида аниқроқ диагностик маълумотлар олиш, уларда кечаётган жараёнларни нисбатан узокроқ вақт давомида узлуксиз кузатиш имконини беради.

Рус олими А.Г. Харчевнинг китобларида бу икки тушунчани фарқловчи жихатлар аник белгиланган. Ҳусусан, унинг талқинида “никоҳ - эрқак ва аёл ўртасидаги тарихан ўзгарувчан ўзаро муносабатларни билдириб, шу оркали жамият уларнинг жинсий хаётларини тартибга солади, ўзаро эр-хотинлик муносабатларини хамда фарзандлари билан шаклланадиган муносабатларни, бу борадаги ҳукуқ ва мажбуриятларни белгилайди”<sup>30</sup>. Оила эса никоҳга нисбатан мураккаброқ табиатли муносабатларни ифодалайди, чунки у нафакат эр ва хотинларнинг ўзаро муносабатларини, балки уларнинг фарзандлари, кариндош-уруглар, иккалалари учун якин бўлган инсонлар муносабатларини хам қамраб олади.

Психологиянинг инсонпарвар вакиллари оилавий муносабатларга катта эътибор бериб, эр-хотиннинг шахсий етуклиги, шунингдек юқори мотивларини амалга ошириш истакларини ўрганиб боришади. А.Маслоу, Р.Май, К.Роджерс, В.Франкл, Э.Фромм<sup>31</sup> ва бошқа муаллифлар турмуш ўртоқлар ўртасидаги

<sup>29</sup> Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг I-бўлим. Умумий қоидалар I- боб. Асосий қоидалар.

<sup>30</sup> Иванов П.И., Зуфарова М. «Умумий психология». – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2010.

<sup>31</sup> Абдурахмонов Ф.Р. Абдурахмонова З.Э. Педагогика. Психология. ўқувқўлланма. Тошкент. 2005

муносабатларнинг барқарорлиги уларнинг шахсиятининг етуклиги билан боғлиқ эканликларини таъкидлашади. Тадқиқотчи К.Витакер эр-хотиннинг яхлит муносабатларини шакллантиришда уларнинг мослашиши ва шахсий етуклика бўлган эҳтиёжларни таъкидлайди. Мослашиш, маъсулиятлик ва мустақил бўлиш қобилиятни ижтимоий кўрсаткич сифатида ўз тадқиқотларида талқин этган<sup>32</sup>.

Маълумотларга кўра, “Психология фанида ҳарбий хизматчилар оиласининг ижтимоий-психологик муҳитини ўрганиш муаммосига катта эътибор қаратилмоқда. Ушбу муаммо А.Эвченко, А.Кочубей, А.Смирнова, С.Солоев, Ю.Финенко, А.Шавлова нашрларида акс эттирилган. Н.Н.Лактинова, И.А.Липский, Л.В.Матвейчук, И.В. Образцов, Л.В.Певен, А.Шишканов<sup>33</sup> тадқиқотлари ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзоларининг ижтимоий ҳимоясини ўрганишга бағишлиланган<sup>34</sup>. Бу ишларда оилавий-маиший муносабатлар, ёш офицерлар ва сержантларнинг оиласини шакллантириш ва мустаҳкамлаш, никоҳдан мамнунлик омиллари, ҳарбий хизматчиларнинг оиласарини ижтимоий ҳимоя қилиш ва ҳаётни қўллаб-қувватлаш технологияларини яратиш, ҳарбий хизматчиларнинг турмуш муносабатлари, ҳарбий кадрлар турмуш муносабати ва уларнинг оила аъзоларини замонавий ижтимоий шароитларга мослаштириш билан боғлиқ масалаларни ўрганиш муҳим ўрин тутади. Шундай қилиб, ҳозирги вақтда ҳарбий хизматчилар оиласининг психологик тадқиқотлар фақат номзодлик диссертацияга бағишлиланган: А.Семикин “Зобитнинг оиласини мустаҳкамлашнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари”(1990); А.Н. Харитонов “Зобитлар психоанализ методологиясининг психологик қийинчиликларини ҳал қилиш” (1996); шунингдек, китобларда, журналларда ва тўпламларда юздан ортиқ турли мақоллар чоп этилган<sup>35</sup>.

Г.Ниёзметова эр-хотин муносабатлари оилавий турмуш стажига боғлиқ равиша ўзгариб бориши үзига хос ижтимоий-психологик характерга эга эканлигини ўзбек оиласари мисолида ўрганиб, ўзбек оиласарида эр-хотин муносабатларининг шаклланиши ва намоён бўлиш динамикаси оила-никоҳ муносабатларидаги этник анъаналарини акс эттирувчи үзига хос психологик хусусиятлар билан боғлиқлигини кўрсатиб беради. Бу хусусиятлар турли муддат турмуш стажига эга бўлган эр-хотинларда ўзаро муносабатларнинг ўзгариб бориши кўринишида эр-хотинларнинг жинси, ёши билан боғлиқ ҳолатда динамик

<sup>32</sup> Файзиева М.Х., Жабборов А.М.- Оилавий муносабатлар психологияси. Т.; Янги авлод асри. 2007 й.-1446.

<sup>33</sup> Климов Е.А «Психология». – Спб., 2000 г.-93с.

<sup>34</sup> Мухамеджанова В.Ф. –Социально-психологические особенности супружеских взаимоотношений в моно и полигамических семьях.- Автореф.дисс.канд.-Психол.,наук: М.19.00.13.2006г.

<sup>35</sup> Власова Т.В. Семейные отношения военнослужащих как объект психологического исследования // Психологические проблемы современной российской семьи. Материалы Всероссийской научной конференции. - Ч.1. - М., 2003. - С. 15-27

тарзда намоён бўлади<sup>36</sup>. Ўзбекистон психолог олимлари томонидан олиб борилган юқоридаги қатор илмий тадқиқотларда оиласий турмуш масалалари, оила-никоҳ муаммоларининг жуда кўп жиҳатлари ўрганилган бўлса-да, лекин оила ва жамият тараққиётининг абадийлиги ҳамда миллий маданий камолотнинг бутунлигини таъминловчи муҳим механизм «Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштириш»нинг ижтимоий-психологик механизмларини ўрганиш масаласи тадқиқотлар вазифалари қаторига кирмаган. Юртимиз психологлари томонидан оила ва никоҳ муносабатлари, оиласий турмушнинг турли жабҳаларига хос муаммолар муайян даражада ўрганилаётган бўлса-да, лекин оиласий турмушга хос баъзи муаммолар ҳали ҳам долзарблигича қолмоқда. Мазкур муаммолар ўзбек миллий-маданий муҳити шарт-шароитлари таъсирида оила барқарорлигига шахслараро муносабатлар таъсирининг ижтимоий психологик хусусиятлаи ҳисобланади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, эркак ҳарбий хизматчилар учун ота-она-бала муносабатларида отанинг ўрни муҳим. Улар ўз уйларини ва оиласини психологик дам олиш ва барқарорлаштиришни таъминловчи муҳит сифатида, "рухий бошпана" сифатида қабул қилишади. Улар кўпинча маънавий ва ҳиссий қўллаб-қувватлаш ва қадрлашга эҳтиёжлари бўлади. Оилада ўзаро ҳурмат, тушуниш кўрсаткичларида аёллар 20 %ни, эркаклар 24 %, эр-хотиннинг эмоционал тушуниш хусусиятларида аёллар 36%, эркакларда 28 % кўрсаткич, оила обрў-эътиборлиги хусусиятларида аёлларда 40 %, эркакларда 48 % ни кўрсатди. Эркак ҳарбий хизматчилар учун ота-она-бала муносабатларида отанинг ўрни муҳимлигини кўрсатди. Улар ўз уйларини ва оиласини психологик дам олиш ва барқарорлаштиришни таъминловчи муҳит сифатида, "психологик бошпана" сифатида қабул қилишади - улар 89 маънавий ва ҳиссий қўллаб-қувватлаш, тасдиқлаш ва шунинг учун уни қадрлашлари мумкин. Ва, албатта, ҳарбий хизматчи учун ўз касбхунарларини амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга. Бироқ, ҳарбий хизматчиларнинг хотинлари учун бу ҳолат кўпроқ аҳамиятли.

<sup>36</sup> Ниёзметова Г. Ўзбек оилаларида эр-хотинлик муносабатлари динамикасининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психолог. фан. номз. ...дис. автореф. – Т.: ТДПУ, 2010. –24-б.

## **KORRUPSIYA – JAMIYAT TANAZZULI POYDEVORI**

*Abdijamilova Charos Sherzod qizi  
QarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistri*

Korrupsiyaviy jinoyatlar davlat iqtisodiyotiga jiddiy ziyon yetkazishi bilan birga halol mehnat bilan kun kechirayotgan kishilarga ham ma'naviy zarar keltiradi. Xizmat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir etilayotgan bunday ijtimoiy xavfli qilmishlarning latent (yashirin) jinoyatchiligidcha qolishi, bu jinoyatlarning ko'plab sodir etilishiga dalda bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ushbu toifa jinoyatchilik ishtirokchilariga va unga qarshi kurashishi kerak bo'lган davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan kishilarda nafrat va salbiy fikrlar paydo bo'lishiga olib keladi. Odatda har qanday korrupsiyaviy jinoyatchilik yangi bir qonunbuzarlik sodir etilishiga ko'priq vazifasini o'taydi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, huquq-tartibot idoralari xodimlarining o'zlari tomonidan ham ko'plab sodir etilishi va murakkabligidir.

Korrupsiyaviy jinoyatchilikning asosiy turi bu poraxo'rlikdir. Poraxo'rlik ikki yoki undan ortiq shaxsning pora olishi, pora berish bilan bog'liq bo'lган g'ayrihuquqiy konfedensial bitimi deb ta'rif berishimiz mumkin. Bitimdan pora oluvchi ham pora beruvchi ham manfaatdor, lekin bu manfaatdorlikdan uchinchi shaxslar, jamiyat va davlat zarar ko'radi. Davlat xalq irodasini ifoda etib pora olish, pora berish, pora olish berishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og'dirish, tovlamachilik bilan haq berishni talab qilishni va boshqa yigirmadan ortiq korrupsiyaviy qilmishlarni jinoyat deb e'tirof etib Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jazo belgilab qo'ygandir.

Poraxo'rlik illati muqaddas dinimizda ham qattiq qoralangan bo'lib, Alloh taolo aytadi: "Mol-dunyolaringizni oralariningizda nohaq-harom yo'llar bilan yemangiz! (Ya'ni, bir-biringizning haqqingizni yemang!) Va (gunoh qilayotganingizni bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini gunoh-harom yo'llar bilan yeish uchun (mollarizni pora qilib) hokimlarga uzatmang!" (Baqara surasi, 188).

Ya'ni boshqalarning haqqini sizlarga o'zlashtirib berishlari uchun hokimlarga pora bermanglar.

Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadilar: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: "Birorta hukmda pora beruvchini ham pora oluvchini ham Alloh la'natlasin" (Tabaroniy rivoyati).

Ulamolar aytganlarki: "Pora beruvchining maqsadi musulmonga ozor yetkazish yoki haqi bo'lмаган narsani qo'lga kiritish bo'lsa, u mal'undir. Bordiyu, o'zining haqqini

qo'lga kiritishi yoki o'zidan zulmni daf qilish uchun pora bersa, u mal'un bo'lmaydi. Hokim esa biror bir haqni bekor qiladimi yoki zulmni daf qiladimi farqi yo'q, uning pora olishi haromdir. O'rtasidagi kishi esa pora beruvchi kabi maqsadiga qarab baholanadi. Agar niyati yaxshi bo'lsa, mal'un bo'lmaydi. Bordi-yu niyati yomon bo'lsa u mal'undir".

Ibn Mas'ud roziyallohu anhu aytganlar: " Hukmdagi pora kufrdir. Odamlar orasidagi esa haromdir" (Tabaroniy rivoyati).

Abu Umoma Bohiliy roziyallohu anhu aytadilar: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim bir birodari uchun vositachilik qilsa-yu buning evaziga unga hadya berganda hadyani qabul qilsa, batahqiq, u sudxo'rlikning katta eshiklaridan biriga yaqinlashibdi", dedilar" (Abu Dovud rivoyati).

Abu Mas'ud roziyallohu anhu aytadilar: "Birodarlaringizning hojatini bilib, uni ravo qilsang-u, (buning evaziga) senga hadya berganda, qabul qilsang, bu ishing haromdir".

Masruq (rahmatullohi alayh) Ibn Ziyod bilan gaplashib, uni zulmdan qaytardilar. Shunda zulmdan xalos bo'lgan kishi u zotga xizmatkor hadya qilgan edi, qabul etmadilar va: "Ibn Mas'udning: "Kimki musulmondan zulmni daf etsa-yu, buning evaziga unga oz yoki ko'p narsa bersa u narsa haromdir", dedilar. Shunda bir kishi: "Ey Abu Abdurahmon, faqat hukmdagi porani harom deb o'ylardik", degan edi, u zot roziyallohu anhu: "U kufrdir", deya javob bergandilar", dedilar.

Imom Abu Amr Avzo'iy (rahmatullohi alayh) Bayrutda yashayotgan chog'larida huzurlariga bir nasroniy keldi-da: "Ba'labayka (shahrining) hokimi menga zulm qildi. Unga bir maktub yozib bersangiz", deb bir ko'za asal uzatdi. Avzo'iy (rahmatullohi alayh): "Xohlasang asalni qaytarib, maktub yozib beraman, xohlasang asalni olaman", dedilar. So'ngra hokimga: "Bu nasroniyning yer solig'ini kamaytir", deb maktub yozib berdilar. U asal bilan maktubni olib, hokimga uchrashdi va unga maktubni berdi. Imomning sharofati sababli hokim undan o'ttiz dirhamni olib tashladi.

Ichki ishlar va prokuratura xodimlari zimmasiga bu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoyatini isbotlab odil sudlovga topshirish vazifasi yuklatilgan. Tergov va sudlov amaliyatiga nazar tashlar ekanmiz bu toifa jinoyatlarning juda kam ochilayotganligining guvohi bo'lasiz albatta bunga sabab korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklatilgan idoralarning nazoratni susaytirib yuborganligi, mas'uliyatlarini unutayotganliklaridir. "Achchiqni achchiq kesadi" qabilida ish yuritishib poraxo'rlikka qarshi pora olish bilan kurashayotgan rahbarlar ham yo'q emas.

Sodir etilayotgan korrupsiyaviy jinoyatlarning aksariyati oshna-og'aynigarchilik, qarindosh-urug'chilik (proteksionizm) bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Bunday jinoyatlarni ochish o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi. Xalq esa bunday jinoyatlardan bexabar qolmaydi. Lekin buni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yetkazishga nimadir to'sqinlik qiladi. Kishilar yozuvchi, "sotqin" degan nomni olishni o'zlariga or

bilishadi. Insonlarning psixologiyasida bunday tushunchalar yillar davomida shakllanib qolgan. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi idoralarning ma'lum bir hududda, muayyan bir organ (tashkilot)ning faoliyati xususida sotsial so'rovlari o'tkazishi, ulardan anonim xatlar qabul qilinishi va aniq bir shaxsga berilgan xalqning bahosini tekshirib ko'rish maqsadida nazorat o'tkazish imkoniyatlarini yaratish korrupsiyaviy jinoyatlarni ochishning samarador vositasi hisoblanadi.

Korrupsiyaning eng yomon oqibatlaridan biri xalqning davlatga va mansabdar shaxslarga ishonchi susayadi, jamiyatda huquqiy nigelizmning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

### QUM TERAPIYASI PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA.

*Yuldashev Ixtiyor Baxtiyorovich  
Qo'qon Pedagogika Instituti amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Tayanch so'zlar:** qum, psixologik yordam, terapeutik, dramaturgiya, artterapiya, gestaltterapiya, ertak terapiyasi, rivoyat psixoterapiyasi

Qum yotardi, qum zerikdi, ehtimol yuz ming yil. U dahshatli yolg'iz edi va yomon edi. Momaqaldiroq qo'shiqlari quvonchdan emas edi, bulutlar yomg'iri quvonchdan emas edi. U jaziramada sog'inib, ayozda sog'inib - butun dunyo qum edi zerikarli. Va shuning uchun u yana yuz ming yil davomida umidsizlikni saqlagan bo'lar edi, lekin u bizga ozgina yorug'lik keltirdi va bundan buyon qum qutisida zerikmaydi, "- V. Bredixin. 30 yil oldin, harbiy chegara shaharchasining hovlisida bir qiz o'ynagan. U qum, sabzavot bog'lari va maydonlaridan, ko'priklar va qal'alardan tunnellar va uylar qurdi. Ushbu qumli qishloqlarning aholisi Snake, Mickey Mouse, Kanguru va ularning do'stlari edi. Vaqt hayoliy olamlarni yaratadigan ushbu hayajonli o'yin ortidan tezda o'tib ketdi. Shunchalik tezki, qiz atrofga nazar tashladi va u endi hovlida emas, balki shinam idorada va katta qum qutisida emas, balki ko'k tomonlari kichkinagini kichkintoyda o'ynayotganini va boshqa odamlar va ular u bilan bu qum qutisida o'ynayotganini payqashdi. bolalar. Shuncha yillar oldin men insonning ichki dunyosiga qumlar bo'yab sayohat qilishni boshladim. Dastlab bu shaxsiy yolg'izlik va yangi hissiy taassurotlarni izlash edi, endi bu qum terapiyasi usullari orqali turli yoshdagi odamlarga psixologik yordam ko'rsatish sohasidagi professional qiziqish.

Qum terapiyasiga jiddiy ehtiros 2002 yilda Lenore Shtaynvardtning "Jungian qum psixoterapiyasi" kitobini sotib olish bilan boshlandi. Biroz vaqt o'tgach, men o'zimning birinchi mijozim qum kompozitsiyasini Sankt-Peterburgdan hikoya terapevti D.B. bilan seminarda yaratdim. Kudzilova. Keyin, 2006 yilda ushbu kompozitsiya men uchun juda ko'p fikrlarga oydinlik kiritdi: huquqbuzarliklarni qanday kechirish kerak, qayerda va qanday yo'l bilan "borishni", o'z resurslarimni qanday ishlatalishni. Xulosa haqli ravishda paydo bo'ldi: agar u ishlagan va mening hayot sifatimni yaxshilagan bo'lsa, ehtimol bu boshqa odamlarga yordam beradi.

Men qum terapiyasining paydo bo'lishi va shakllanishining tarixiy va nazariy jihatlariga to'xtamayman. Shuni ta'kidlash kerakki, buning ortida psixoanalizda Jungian tendentsiyasining asoschisi Karl-Gustav Yung turadi, u hamkasbi shveytsariyalik psixoanalit Doru Kalffni ushbu usulni ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlagan.

Xo'sh, nima uchun men integral terapiya bilan qum terapiyasiga murojaat qildim? Bizning postsoviet hududidagi mijozimiz va zamonaviy Qozog'iston mijozsi o'z hayotining muammoli daqiqalarini hal qilishga tayyor va hayotining sifatini yaxshilashga tayyor, ammo, afsuski, u uzoq yillar davomida psixoterapiya bilan shug'ullanishga tayyor emas, chunki bu chuqur tahliliy yungian yondashuvi. Ushbu tashkiliy muammoni hal qilishda: ishning sifati va psixologik yordam vaqtini qanday birlashtirish kerakligi, integratsiyalashgan yondashuv yordam beradi, bu esa mijozga e'tiborini qaratgan psixologga o'zining barcha malakalarini o'zi egallagan mutaxassisliklar bo'yicha ishlatalishga imkon beradi. Mening qum terapiyasining integratsiyasi imkoniyatlari haqidagi izlanishlarim va sinovlarim Barbara Labovitz Boik va Anna Gudvin tomonidan "Qum bilan o'ynash terapiyasi: turli yo'nalishdagi psixoterapevtlar uchun bosqichma-bosqich qo'llanma" kitobida tasdiqlangan, Sandplay "qo'shimcha terapiya vazifasini bajaradi va turli yo'nalishdagi terapevtlar foydalanishi mumkin bo'lgan qumtepani" beradi. Shuningdek, men qum terapiyasini amaliy psixologiyaning boshqa sohalari bilan integratsiyalashning ilmiy imkoniyatlarini psixologiya fanlari doktori, professor V.V.Kozlovnning asarlaridan topdim, u "... insoniyat ilmining kelajagi integral psixoterapiyada. Bu nafaqat ma'naviy inson mavjudligini o'lchash, shuningdek, inson mavjudligining odatiyligi bilan mutanosib va uning jamiyatdagi hayot muammolariga mos ravishda moslashtirilgan." Zamonaviy psixologik fan va amaliyotning ushbu ustalari kasblarga yordam berishda psixolog, psixoterapeut va boshqa mutaxassislarning imkoniyatlarini kengaytiradigan integral usulni qo'llashni tanlaganimni tasdiqladilar.

Tadqiqotchi sifatida o'zim ustida ko'plab psixotexnologiyalarni boshdan kechirgan holda, men qum terapiyasini analistik psixologiyaga (faol xayol, arxetipler nazariyasi, jamoaviy ongsiz, o'z-o'zini anglash printsiplari, individualizatsiya) yoki psixoanalizga asoslangan ko'plab texnologiyalar bilan birlashtirish mumkinligini angladim. Terapevtik, psixo-tuzatuvchi rejimdagи qum terapiyasi mijozning o'zini anglashini

"jabrlanuvchi" pozitsiyasidan "ijodkor" pozitsiyasigacha o‘zgartiradi, shaxslar ichidagi resurslarni faollashtirish orqali o‘zini hayotining "yaratuvchisi" sifatida his qilishga imkon beradi.

Qum terapiyasi, mening integratsiyalashgan tajribamdan kelib chiqqan holda, ko‘pgina psixotexnologiyalar bilan samarali birlashtirilgan, masalan, ramziy dramaturgiya, artterapiya, gestaltterapiya, ertak terapiyasi, rivoyat psixoterapiyasi va boshqalar. boshqalar va shuningdek, pedagogik va logopedik, defektologik texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda yuqori mahsuldorlikka ega; har qanday mijoz bilan ishlaydi; qisqa muddatli rejimda foydalanish mumkin; psixika uchun ekologik toza; diagnostika uchun imkoniyat beradi; ham yangi boshlagan mutaxassis, ham ilg‘or mutaxassis foydalanishi mumkin; sizga hissiy muammolar va psixosomatikani ishlab chiqish, kasbga yo‘naltirish va kelajak rejalarini to‘g‘risida mulohaza yuritish imkonini beradi; bolalar, ota-onalar va boshqa muhim shaxslar bilan xulq-atvor naqshlarini o‘ynash, shikastlanishdan keyingi stress kasalliklari, yo‘qotishlar va inqirozlarga yordam berish, shaxslararo chuqur ziddiyatlarni hal qilishga yordam beradi.

Bolalar uchun qum terapiyasining maqsadlari: bolaning aqliy rivojlanishi (nozik vosita mahorati, fikrlash, nutq, tasavvur), uning muammoli xatti-harakatlarini to‘g‘rilash (yomon itoatkorlik, tengdoshlarining uyatchanligi, aldash) stressni engillashtirish, salbiy hissiyotlarni ishlab chiqish (qo‘rqish bolalar bog‘chasi, mакtab, og‘zaki yoki jismoniy tajovuz)

Qum terapiyasida yosh cheklovleri yo‘q. Bu kattalarga ham mos keladi. Ong osti qum qutisi haqiqatini qabul qiladi. Siz o‘zingizni yaxshiroq tushunasiz. Muammolarni hal qilish uchun resurslar paydo bo‘lmoqda.

Qum qum terapiyasi uchun asosiy materialdir. Tabiatning o‘zi buni bizga berdi!

Qum plastik va egiluvchan. Uning yordami bilan bola eng dahshatli orzularini qum maydonida amalga oshirishi mumkin. Bu bola barmoqlarining sezgirligini rag‘batlantiradi, uning xayolotini uyg‘otadi, u o‘z dunyoning yaratuvchisiga aylanadi. Qum terapiyasining maqsadlari - o‘z-o‘zini hurmat qilishni rivojlantiring va o‘zingizga bo‘lgan ishonchni qozoning. Kognitiv aqliy jarayonlarning rivojlanishi. O‘zingizning harakatlariningiz va ishlaringizda ko‘proq mas’uliyatli bo‘ling. O‘zini qabul qilish uchun ko‘proq imkoniyatlarni ishlab chiqish. O‘zingizga ko‘proq ishoning. Boshqarish tuyg‘usini o‘zlashtiring. Dam olish san’atini o‘rganish. Texnik jihatdan qanday ko‘rinishga ega bo‘lsa, hamma narsa juda sodda ko‘rinishga ega: stol ustti stakan, pastdan chiroq bilan yoritilgan. Videokamera stol ustiga o‘rnatilgan bo‘lib, u real vaqtida katta ekranda rassom tomonidan chizilgan qum rasmlarini namoyish etadi. Va keyin sehr paydo bo‘ladi ... Qum bilan rasm chizish usuli bolalarga quyidagilarga imkon beradi: O‘zlaridan xabardor bo‘lishga va o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishga o‘rganing. Shaxsiyatni tuzatishda rivojlanishni yaxshilang. O‘zingizning shaxsiy qadr-qimmatningizni kuchaytiring.

O‘zingizni boshqarish, bashorat qilish tuyg‘usini rivojlantiring. Resurslarni oching va ularni hayotiy vosita qiling. Faoliyatdagi motivatsiyani oshiring. Ichki va shaxslararo nizolar, qiyin vaziyatlar orqali ishslash, qaror qabul qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013
- 2.Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU, 2017
- 3.Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. T., 2006
- 4.Rasulov A.I. Psixodiagnostika.-T.: Mumtoz so‘z, 2010

---

## **БОЛАЛАР ПСИХОЛОГИЯСИНИ ЎРГАНУВЧИ МЕТОДЛАР**

*Бекбергенова Сахибжамал Усенхановна  
Каракалпакстан Республикасы Хожели тумани 16МТТ психологи*

Ҳар бир фаннинг ўз предметига қараб бир қанча ўрганиш ва текшириш методлари бўлади. Метод лотинча — methodas сўзидан олинган бўлиб, маълум бир фаннинг предметини текшириш, ўрганиш ва тушунтириб бериш усулларининг ёки воситаларининг йифиндисидир.

Болалар психологияси умумий психологиянинг маҳсус соҳаси бўлгани туфайли, у ўз предметини ўрганишда умумий психологиянинг деярли ҳамма методларидан фойдаланади. Лекин умумий психологиянинг методларидан болаларнинг асосий фаолиятларига мослаштириб қўлланилади.

Умумий психологиянинг методлари - кузатиш, эксперимент, сухбат, фаолият маҳсулини ўрганиш кундалик ва биографик материалларни ўрганиш, социометрик метод, тест ва шу каби методлардир.

Болаларнинг бутун ақлий, яъни психик тараққиётлари уларнинг турли-туман фаолиятларида содир бўлади. Ана шунинг учун болалар психологияси юқоридаги методларни болаларнинг асосий фаолиятларига мослаштириб қўллайди.

Кузатиш методи. Болалар психологиясида субъектив кузатиш методидан деярли фойдаланилмайди. Болалар психологиясининг асосий методларидан бири - объектив, яъни болаларни ташқаридан кузатиб ўрганиш методидир. Тарбиячи ёки текширувчи психолог болаларнинг турли хил фаолиятларини табиий шароитда тизимли тарзида кузатилади. Бунда болаларнинг хулқ-атворлари, хатти-харакатларига доир характерли моментларни қайд килиб боради. Ҳар кандай

кузатишнинг аниқ мақсади бўлиши керак. Бошқачароқ қилиб айтганда, тарбиячи болаларнинг хулқ-атвори ёки хатти-ҳаракатларига доир нималарни кузатмокчи эканини олдиндан аниқлаб олиши керак. Масалан, болалар диққатининг барқарорлигини ёки тафаккур жараёнлари билан боғлиқ бўлган анализ қила олиш қобилияtlарини кузатишни олдиндан бошлаб олиш мумкин.

Шуни эсдан чиқармаслик керакки, кузатиш табиий шароитда олиб борилар экан, болалар ўзларининг кузатилаётганликларини мутлақо билмасликлари керак. Кузатишни болалар ўрганган тарбиячининг ўзи кузатгани маъқул. Агар кузатишни болалар кўзи олдида бегона одам ўtkazsa, болаларнинг хаттиҳаракатидаги табиийлик бузилади. Уларнинг хулқ-атворлари ва хаттиҳаракатларини бегона киши кузатишига тўғри келса, у вақтда яширин кузатиш методларидан фойдаланиш лозим. Бунда кузатувчи болаларга кўринмайдиган жойдан туриб кузатади. Болалар психологиясида кузатиш методидан фойдаланилганда, болаларнинг турли ўйин фаолиятлари, дидактик машғулотлари ва қуриш-ясанг ҳамда ижодий машғулотларида хилма-хил психик жараёнларининг намоён бўлиши ва қанча давом этиши каби жараёнларни қайд қилиш мумкин. Бундан турли ёшдаги болаларни бир-бирига таққослаб, улардаги психик жараёнларнинг тараққиёти ўрганилади.

Кузатиш методи - узлуксиз ва бу фаолиятни танлаб вақти-вақти билан ўрганилганда уларнинг барча феъл-атворлари ва хатти-ҳаракатлари кундалик фаолиятлари давомида умумий ҳолда ўрганилади. Узлуксиз кузатиш бир неча кун ёки бир неча ой давомида давом этгандан сўнг тўпланган маълумотлар таҳлил қилиниб, болага психологик характеристика бериш мумкин бўлади. Вақти-вақти билан танлаб кузатилганда боланинг барча хулқ-атвори ва ҳарактерлари эмас, балки фақат маълум ҳаракатлари, яъни диққати ёки хотираси, ё бўлмаса, унинг нутқи билан боғлиқ бўлган томонлари ўрганилади.

Болалар психологиясида кенг қўлланадиган иккинчи метод – эксперимент методидир. Эксперимент методи - кузатиш методига нисбатан фаол метод ҳисобланади. Агар кузатиш методида у ёки бу психик жараённи қайд қилиш учун психолог шу психик жараённинг қачон ва қандай шароитда пайдо бўлишини пойлаб юрса, эксперимент методи эса мутлақо бунинг аксидир. Эксперимент методида у ёки бу психик жараён юзага келадиган шароитни текширувчи психологнинг, яъни экспериментаторнинг ўзи ташкил қиласи. Бунда экспериментатор ўрганаётган психик жараёнларни болаларда бир неча марта юзага келтириб ўрганади. Биз умумий психологиядан биламизки, эксперимент методи 2 хил бўлади: лаборатория эксперименти ва табиий эксперимент. Болалар психологиясида экспериментнинг ҳар иккала туридан кенг фойдаланилади. Бирок, бу методлардан болалар психологиясида фойдаланишнинг ўзига хос томони

шундаки, мактабгача тарбия ёшидаги болалар лаборатория шароитида ўтказиладиган тажрибалар билан табиий шароитда ўтказиладиган тажрибанинг унчалик фарқига бормайдилар. Ҳар иккала ҳолда ҳам тажрибалар вазифа тарзида эмас, балки ўйин тарзида ўтказилса натижа яхши чиқади. Масалан: кичик ва ўрта гурух ёшидаги болаларга бири иккинчисидан бир оз узунроқ бўлган таёқча кўрсатилиб, улардан қайси бири узунроқ эканлигини сўралса, болалар ҳеч эътибор бермай, тасодифан биттасини кўрсатаверадилар. Агар бундай фарқлаш уларнинг ўйинларига айлантирилса, болалар дарҳол эътибор билан қарайдилар.

Кузатиш ва эксперимент асосий методлар хисобланади, лекин булардан ташқари бир қатор ёрдамчи методлар ҳам мавжуд. Масалан: фаолият маҳсулотларини ўрганиш методи, социометрик ва тест методлари. Фаолият маҳсулотларини ўрганиш методи ҳақида гап борар экан, шуни айтиш керакки, болалар ҳам жуда катта одамлар сингари доим маълум фаолият билан машғул бўладилар. Катта одамлар бошқа одамлар учун керак бўладиган ижтимоий фойдали нарсалар ишлаб чиқариш фаолияти билан банд бўлсалар, болалар ўз фаолиятларида деярли ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланмайдилар.

Боғча ёшидан болаларнинг фаолиятлари - ўйин, расм чизиш, пластилин ёки лойдан бирор нарса ясаш, аппликация, қуриш-ясаш ва шу кабилардан иборат бўлиши мумкин. Болалар одатда, катта кишиларнинг топшириқ ва таклифлари билан маълум фаолиятга киришадилар. Айрим ҳоллардагина болаларнинг ўзлари мустақил равища у ёки бу фаолиятни бажарадилар. Ҳар икки холатда ҳам болалар фаолияти маълум натижага эга бўлади. Кўпинча болалар фаолиятининг маҳсулоти улар чизган расмларга, лой ёки пластилиндан ясалган нарсага қараб ўрганилади. Кўпинча болаларнинг чизган расмларида улар идрокининг хусусиятлари ва онгига юзага келаётган турли тасаввурлар ҳамда атрофларида нарса ва ҳодисаларга бўлган муносабатларида ўз ифодасини топади. Ана шу жиҳатдан болаларнинг чизган расмларидан фаолият маҳсулотини ўрганиш сифатида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Турли ёшдаги болаларнинг ишлаган расмларини анализ қилиш орқали уларнинг айни пайтдаги эҳтиёжларини, майл-истаклари, қизиқишлиари, қобилияти ва лаёқатларини ўрганиш мумкин. Шу сабабли, бу методдан ҳам болалар психологиясида кенг фойдаланилади.

Сўраш – сұхбат методидан болалар психологиясида анча чекланган ҳолда фойдаланилади. Бу методни боғча ёшидаги болаларга нисбатан деярли қўллаб бўлмайди, чунки бу ёшдаги болаларда турмуш тажрибаси жуда оз, тафаккурлари ҳали яхши ривожланмаган бўлади. Шу сабабли кичик ёшдаги болалар катталарнинг берган саволларига ўйламай-нетмай жавоб қайтараверадилар. Сўраш методидан фойдаланилганда одатда жуда содда ишланган айиқчалар, узоқ ва яқин

қилиб ишланган уйлар ва дараҳтлар ва х.к. Болалардан қайси айиқ катта, қайси айиқча кичик ёки қайси уй узоқ, қайси уй яқин деб сўралади.

Болалар психологиясида сўнгги йилларда қўллана бошлаган методлардан бири, тест методидир. Тест сўзи инглизча сўз бўлиб, у ўлчаш деган маънони билдиради. Тест методи орқали болаларнинг умумий ақлий тараққиёт даражалари ва айrim психик жараёнларнинг (тафакур, хаёл, хотира каби) қанчалик ривожланганлик даражаси аниқлаб, таққосланади. Тест методи ёрдамида болаларнинг ўз ёшлирига нисбатан нормал тараққий этганликлари ёки орқада қолганликларини ҳам аниқлаш мумкин. Масалан, тест методидан болаларга топшириладиган вазифалари бир неча вариантда бўлиб, улар кучлари етган вариантдаги вазифаларни бажарадилар. Ҳар бир бажариладиган вазифага балл системасида баҳо қўйиб борилади. Вазифалардан қанчаси бажарилганлиги ва тўплаган балига қараб, болаларнинг ўртача тараққиёти белгилаб берилади.

## ЖИНОЯТ МОТИВЛАРИ ШАКЛЛАНГАН ЎСМИРЛАР ХУЛҚ-АТВОРИНИ ЭМПИРИК ТАДҚИҚ ЭТИШ ТАҲЛИЛЛАРИ

*Проф. Жабборов Азим Мейлиқулович (Қарии ДУ),  
доц. Қодиров Обид Сафарович (СамДУ)*

Жиноят мотивлари шаклланган ўсмирларда ижтимоий-психологик мослашувни баҳолаш ва девиант хулқ-авторни тарбиялаш учун зарурий шарт-шароитларни аниқлаш мақсадида ҳам тадқиқотлар олиб бордик. Тадқиқотларимизда кузатилганидек, девиант (оғиш, қочиши, бузилиш) хулқ-автор меъёрий ҳаракатларга нисбатан ўзгарган ва оғишга хос барқарор ҳаракатлар шаклланганлиги билан ифодаланади. Бундай ўсмирлар ҳар хил нормалардан қочиши, уларда ўзига ёки жамиятга ҳақиқий зарар етказиш истагининг пайдо бўлиши ва бошқа одамлар билан муносабатларининг ўзига хослиги (мос келмаслиги) билан фарқланиб туради. Улар жамиятга ёки ўз муносабатларида кечайтган жараённинг бузилишига нисбатан ўзини-ўзи англаш ва ўзини идрок қилишда ҳам ноадекват ҳаракатларга эга бўладилар.

Девиант хулқ муаммоси назарий таҳлилиниң кўрсатишича, хулқ бузилишларининг асосини ижтимоий ва психологик дезадаптацияга олиб келувчи «оғиш»лар ташкил этади. Ҳозирда кўпгина ривожланган мамлакатларда турли ёш

даврларига хос хулқ оғишларининг психопрофилактикаси ва коррекциясига доир қатор тадқиқотлар олиб борилаётганлигини кузатамиз.

Девиант хулқ-авторли ўсминаларнинг ижтимоий-психологик мослашувчанлиги, алоҳида психологик хусусиятлари, шахсий хусусиятлари, атрофидаги одамлар билан муносабатлари тўлақонли ривожланаётган инсонларнинг (ўсминаларнинг) ижтимоий-психологик мослашувидан кескин фарқ қиласи. Унинг сабабий асослари, пайдо бўлиши ва девиант ҳаракатларнинг ривожланиши, ёки ўсмирда турли хил хатти-ҳаракатларнинг (агрессия, кашандалик, суицид, фанатизм, ўғирлик ва шунга ўхшаш) пайдо бўлиши, айнан шундай шахсни тузатиш ва тарбиялашга, уларни мураккаб атроф-муҳитга мослашишини таъминлашдек муҳим тарбиявий-психологик чораларни кўришни тақозо этади.

Биз олиб бораётган тадқиқотлар таҳлилларига таяниб, хулқ-авторида салбий ўзгаришлар бўлган ўсминаларни ижтимоий-психологик мослашувчанлигини таъминлашга доир муаммоларни ечиш мақсадида С. Роджерс ва Р. Даймондлар томонидан ишлаб чиқилган ва Т.Снегирев томонидан мослаштирилган “ижтимоий-психологик мослашув диагностикаси” усули (СПА ёки ўзбекча ИПМ ўлчови)дан фойдаландик. Методикадаги мослашувчанлик йўналишлари изчиликни англатадиган ижтимоий атроф-муҳит ва шахсий тенденцияларни ифодалайдиган ҳамда ўз-ўзини ва атроф-муҳитни реал баҳолашга имконият яратувчи шахсий хусусиятлар, шахсий фаолият, мослашувчанлик, ижтимоий қобилиятларни ўз ичига олади.

Шкала 101та саволлардан иборат бўлиб, улардан 36 таси ижтимоий ва психологик мослашувни ифодаловчи шахс мезонларига жавоб беради. Шахснинг ижтимоий ва психологик мослашуви - бу шахснинг ўз-ўзини ҳурмат қилиш ҳисси, ҳақиқий амалиётга очиқлик, ўзининг муаммоларини тушуниш ва уларни бартараф этиш истаги ва бошқалардан иборат. Методикадаги 37 та саволда (баён қилинган) мослаша олмаслик мезонлари акс этган (ўзини ва бошқаларни қабул қила олмаслик, ўзларининг тажрибасини тушиниш учун ҳимоя чораларининг мавжудлиги, ақлий жараёнларнинг мослашувчанлиги яъни психиканинг мослашувчанлигидир ва бошқалар), 28 та савол (баён қилинган) мослаша олмаслик мезонларига нейтрал ("ёлғон шкаласи" ни ҳам ўз ичига олади).

Биз методика моҳияти ва унда белгиланган меъёрларга таяниб, ижтимоий психологик мослашувчанликнинг қуидаги 6 та ажralmas кўрсаткичлар билан ифодаланишини аниқладик: 1. "Мослашувчанлик"; 2. "Ўзини қабул қилиш"; 3. "Бошқаларни қабул қилиш"; 4. "Ижобий ҳиссиётлар"; 5. "Ички ҳис-туйғулар" ("Ичкарилик"); 6. "Хукумронликка интилиш".

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

Белгиланган меъёрга кўра уларнинг ҳар бири алоҳида формула билан ҳисобланди. Уларнинг психологик тавсифи алоҳида тартибда регламентга мувофиқ амалга оширилди, ўсмирлар учун (катталарга нисбатан) алоҳида ҳисоблаб чиқилишига амал қилдик.

Сўровномадаги саволлар ўсмирларнинг ўз ҳаёт йўли, яшаш тарзи, тажрибалари, фикрлари, одатлари, хатти-харакатлари ва йўналганлигини чукурроқ ўрганишни ўз ичига олганлиги билан характерлидир. Уларнинг йўналганлиги ва хулқ-атвори ифодаси ҳар доим уларнинг турмуш тарзи, тарбиявий мухит ва тарбияланганлик даражаси ҳамда ҳаёт йўллари билан ўзаро боғлиқликда ҳукум суриши кузатилди.

Анкета маълумотларидан мослашувчанликнинг умумий кўрсаткичи сифатида қуйидагиларни аниқлаб олиш мумкин – мослаша олмаслик, унинг алоҳида мезонлари (ўзини қабул қилиш – ўзини қабул қила олмаслик, ҳиссий роҳатланиш - безовталиқ, ички назоратни сусайиши - ташқи назорат қилиш, ҳукмронлик - устунлик, муаммолардан қочиш ва бошқ.).

**1-жадвал**

**Тажриба гурухларида олиб борилган тадқиқот натижалари қуйидаги кўрсаткичларда намоён бўлди (n=101).**

№	Интеграл кўрсаткичлар	Меъёр кўрсаткичлари	Эмпирик кўрсаткичлар	Даражалар
1.	«Мослашувчанлик»-А	68-170	53,8	Паст
2.	«Ўзини қабул қилиш»-С	18-40	68,9	Юқори
3.	«Бошқаларни қабул қилиш»-Л	13-32	30,2	Меъёрида
4.	«Ижобий ҳиссиётлар»-Э	14-35	54,4	Юқори
5.	«Ички ҳис-туйғулар»-И (Ичкарилик)	22-55	60,1	Юқори
6.	«Ҳукмронлик истаги»-Д	8-20	32,1	Юқори

Тадқиқот натижаларидан шу нарса маълум бўлди, хулқ-атворида жиноят мотивлари шаклланган ўсмирларда ижтимоий-психологик мослашувчанлик - «Мослашувчанлик»-А белгиланган маъёrlарга кўра паст даражада (53,8) намоён бўлганлиги кузатилди. Ўзини-ўзи ҳурмат қилиш ҳисси - «Ўзини қабул қилиш»-С мотивацион йўналганлигини амалга оширишда тортинмаслик, ўзининг муаммоларини тушиниш ва бартараф қилиш истаги юқори даражада ифодаланганлиги кузатилди (68,9). «Бошқаларни қабул қилиш»-Л кўрсаткичидан бошқаларни қабул қила олмаслик, ўзларининг йўналганлигини тушиниш учун ҳимоя чораларининг мавжудлиги, ақлий жараёнлари, яъни ўсмир психикасининг

ўзи маъқуллаётган йўналганликка мослашувчанлиги кузатилди (30,2). Шунингдек, уларда «Ижобий ҳиссиётлар»-Э юқори даражада (54,4) ифодалангани, яъни, уларда ҳиссий роҳатланиш билан бир қаторда бироз хавотирланиш ҳолатлари ҳам ифодаланди. «Ички ҳис-туйғулар» (Ичкарилик)-И ҳам ўсмирларда юқори даражада (60,1) ифодаланиши кузатилди. Уларда ички ҳис-туйғуларнинг нисбатан кучли намоён бўлиши уларнинг йўналганлиги ва муносабатларида ички назоратнинг кучайиши ва ташқи назоратнинг сусайиши билан ифодаланади. Натижада ўсмирлар хулқ-авторида намоён бўлган юқоридаги кўрсаткичларнинг таъсири билан уларда «Хукмронлик истаги»-Д меъёрий кўрсаткичларга нисбатан юқори (32,1) кўрсаткичда намоён бўлиши аниқланди. Улар ўзаро муносабатлари ва йўналганлигига бошқалардан устун бўлишни, тенгдошлари орасида таъсир доирасини кенгайтириб боришни, бошқа бирорларнинг уларни маъқуллаши ва қўллаб-қувватлашини истайдилар. Фаолияти ва йўналганлигига юзага келадиган муаммолардан қочадилар ёки четлаб ўтишни маъқул кўрадилар. Улар ўз истак ва мақсадларига тўғрилийка ёки белгиланган меъёрларга амал қилиш орқали эришишдан қочадилар. Улар жамиятда амал қилаётган муҳим қадриятлар ва тарбиявий хулқ-автор меъёрларига амал қилишлари учун уларда зарур сифат ва фазилатлар ҳали етарлича шаклланмаганлигини ифодалайди.

Шунингдек биз, Б.Басснинг “Шахс йўналганлигига ташхис қўйиш” методикаси бўйича ҳам тажриба гурухидаги ўсмирларни ўрганиб чиқдик.

Анкета 27 пункт-мулоҳазадан иборат бўлиб, ҳар битта пунктнинг уч вариант жавоби шахснинг уч йўналишига мос келади. Анкетага жавоб берувчи (респондент)нинг фикрига ёки ҳақиқатга яқин бўлган бир жавобни ва унинг фикрига ва ҳақиқатдан узоқроқ бўлган яна битта жавобни танлаш керак. “Кўпроқ” жавоби- 2 балл, “озроқ” жавоби – 0, қолгани -1 балл тўплайди.

27 пункт бўйича йиғилган балларнинг йиғиндиси ҳар бир йўналиш бўйича ажратиб олинди. Бу услуб ёрдамида қуидаги йўналишлар аниқланади:

1. Ўзига йўналганлик (Мен) - одамлар ва иш бўйича қониқиши шунингдек, рағбатлантириш, мавқеи ва ютуқларига нисбатан агрессивлик, ҳукумронлик, рақобатга мойиллик, баджаҳиллик, хавотирланиш, интровертлик.

2. Мулоқотга йўналганлик бўйича турли вазиятда одамлар билан мулоқотни қувватлаш, қўшма фаолиятни йўналтиришга интилиш, кўпроқ аниқ топшириқларни бажариш ёки одамларга самимий (чин дилдан) ёрдам бериш, сидқидилдан гурухга боғланиш билан боғлиқ туйғуларни амалга оширадиган муносабат шакллариdir.

3. Ишга йўналганлик – иш билан боғлиқ муаммоларни ечишдаги қизиқиши, ишни иложи борича яхши бажариш, иш билан боғлиқ ҳамкорликни йўналтириш,

умум мақсадни амалга ошишига фойдали бўладиган шахсий фикрни ҳимоя қиласидиган қобилият.

Биз тадқиқот олиб борган тажриба гуруҳларида ўзига йўналганлик юқори кўрсаткичда ифодаланди. Уларда мулоқотга йўналганлик ўртача даражада ва меҳнатга йўналганлик ўртачага нисбатан қисман пастроқ даражада ифодаланганилиги кузатилди.

Тарбиявий жараёнларда ўсмир-ёшларнинг ўзига йўналганлигига нисбатан мулоқотга йўналганлиги ва меҳнатга йўналганлиги нисбатан юқори даражада ифодаланиши зарур эди. Бу ҳолат ўсмир-ёшлар билан олиб бориладиган ўқувтарбия жараёнларида уларга нисбатан анча эътиборли бўлишни, ўқитувчи, ўсмирнинг ота-онаси ва жамоатчилик фаоллари мунтазам ҳамкорликда ишлашини тақозо этади.

Олиб бораётган тадқиқотларимиз янада ишончли ва асосли бўлиши учун Т.М.Ахенбах сўровномасидан ҳам фойдаландик. Сўровнома болалар хулқини ўзгариши ва унга таъсир этувчи омилларни аниқлаб беради. Ундан эксперт сифатидаги мутахассислар ота-оналар, педагоглар ёки ўспирин болалар билан ишлашда кенг фойдаланиш мумкин. Методнинг асосий мақсади болалар хулқидаги ўзгаришларни кузатишдан иборат.

Тадқиқот натижаларига кўра, хулқ-авторида жиноят мотивлари шаклланётган ва жиной хатти-харакатларга мойил ўсмирларда (тажриба гуруҳидагилар) тенгдош ўсмирларга нисбатан (назорат гуруҳидагилар) қуидаги хусусиятлар: ёпиқлик (Witholnave), соматик муаммолар (somatization), хавотир (Anxiety depression), ижтимоийлашувнинг бузилганлиги (socilition), фикрлаш йўналишининг ўзгарганлиги (Thoghproblem), диққат-эътиборга хос муаммолар (atersionproblem), дедиктив хулқ (яъни одамларга ва жамиятга зарап келтирувчи хулқ), агрессия (agression) ўсмир хулқ-авторига хос белгиланган меъёрларга нисбатан яққолроқ намоён бўлганлиги кузатилди.

Ўсмир ёшларда ўзига муносабатнинг ижобий ўзгаришига таъсир этадиган ижтимоий-психологик ва миллий-маданий характердаги омиллар ҳақида тўхталсак, бунга-ўзига назорат ва танқидий муносабатда бўлишни, ўзининг шахсий фазилатларини чукур англашни, ёши улувлар, ўқимишли- зиёли кишиларни ҳурматлашни, камтарлик, бағрикенглик, одоблилик, камгаплик, катталарга итоаткорлик ва бошқа фазилатларни айтиш мумкин. Бироқ, ўсмирларнинг яшаш тарзи ва кундалик фаолияти белгиланган меъёрлар асосида тўғри ташкил этилмас экан уларда жиноят мотивлари шаклланishiiga хос имкониятлар юзага келаверади. Чунки, юқорида айтилган миллий-психологик ва ижтимоий-маданий омиллар ўспирилар психикасини шакллантириб, унинг ўзига муносабатида бевосита акс этади.

## **Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари**

Бугунги кунда жамиятимизда қарор топган ўзаро муносабатлар тизими, барқарор миллий-маданий мухит, миллий-психологик хусусиятлар ва унинг замонавий ўкув-тарбия тизими ҳамда ахборот манбалари, шу каби бошқа мухим омиллар ўсмир ёшларда ижобий хулқ-атвор шаклланишига таъсир этиб, унинг “Мен” концепцияси барқарор шаклланишини таъминлайди.

## МУНДАРИЖА

Мирқосимова Марғуба	Ёшларни яратувчи шахс сифатида шакллантиришнинг психологик омиллари	4
Зебо Касимова, Шоҳруҳ Шодибоев	Қобилият ва этика раҳбар шахсининг компетенцияси сифатида. Таҳлил ва талқин.	8
Muxamedova Dilbar, Nuriddinov Bunyod	Kreativlik imkoniyati ijtimoiy – psixologik muammo sifatida	12
Алимов Хўжагелди	Тасаввуф таълимоти ва амалиёти бўйича олиб борилган замонавий психологик тадқиқотлар таҳлили	15
Ақрамов Мирмуҳсин	Экологик онг хусусиятларининг инсон - табиат муносабатларидағи ифодаси	20
Азамат Назаров	Раҳбарнинг шахсий компетентли омилиниң бошқарув қарорларини қабул қилишга таъсирининг ижтимоий-психологик таҳлили	25
Жаббор Алишер	Когнитив ёндашувда диний маълумотларни тушуниш хусусиятларининг психологик жиҳатлари	29
Расурова Феруза, Эшонхужаева Висола	Осведомлённость общества об инклюзивном образование как фактор ранней социализации детей с особыми образовательными потребностями	31
Diyora Abdug‘aniyeva	Talabalarda din omilining coping-strategiyani amalga oshirishdagi ta’siri	35
Yuldosheva Gavhar	Shaxsda diniy ong shakllanishida diniy e’tiqodning o‘rni	38
Л.И.Тойирова Сожида Шукурова	Эгизакларни мактаб ҳаётига жалб қилишининг ижтимоий психологик хусусиятлари	41
Toyirova Shaxlo	Maktab yoshidagi egizaklarning o’qishdagi kamchiliklarni korrektsiyalash yo’llari	44
Jasur Yo’ldashev	Kasbiy stressni yuzaga kelishidagi Ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar	48
Maratov Temur	Shaxs diniy identifikasiyasining ijtimoiy-psixologik tasnifi	53
Baxtiyorova Muhlisa	Boshqaruv jarayonida kasbiy motivatsiya va uning tuzilishi	55
Sayfullayeva Marjona	Oiladagi ijtimoiy-psixalogik muhitning jamiyatda tutgan o‘rni	61
Мухиддинова Феруза	Формирование психофизической готовности студентов узбекского государственного университета физической культуры и спорта средствами индивидуального-игровых видов спорта	64
Н.А.Ғайибова, Зумрад Садирова	Оилада она ва фарзанд муносабатларининг психологик асослари	67
Азамат Назаров, Нодирбек Иброҳимов	Бошқарув жараёнида персонал билан ишлашнинг ижтимоий-психологик таҳлили	70
Нилуфар Расурова, Шахзода Ҳакимова	Ёшларда репродуктив онг ва оиласа қадриятли муносабатни тарбиялашнинг психологик-педагогик жиҳатлари таҳлили	74
Тойирова Шахло, Абдуллаева Заринабону	Тилларни ўрганишда психолингвистика соҳасининг ўзига хос қонуниятлари	78
Payzimurotova Laziza	Yoshlar tarbiyasida oilaning o’rni	82
Ergasheva Muhlisa	Oilada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashning psixologik muammolari	87
Азамат Назаров, Ойшахон Холматова	Корхонада персонал хизматини ташкиллаштиришнинг ижтимоий-психологик асослари	92
Мирмуҳсин Ақрамов, Нурсултон Райимов	Фаолият жараёнида шахсада масъулият ҳиссининг шаклланиши	96

## Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари

Рахимова Дилдора	Касб-хунар танлаш методикалари	101
Жабборов Жамшид	Маънавий эҳтиёжлар тизимини ўрганиш долзарб муаммо сифатида	104
Mamajonova Madina	Yoshlar ma’naviyatini tarbiyalashdagi asosiy omillar	107
Жалолова Зебинисо	Одобли бола тарбияси	111
Утаева Жулдыз	Фарзанд тарбиясида онанинг ўрни	114
Шарипова Зарифа	Бола тарбиясидаги энг муҳим мезонлар	116
Ширинова Нафиса	Болалар ва ёшларнинг оиласидаги тарбияси	118
Setimova Saida	Ona tili darslarida nutq o’stirish usullari	120
Yaxshimbekova Sayyora, Mirzayeva Sayyora	O’smirlar xulqi bilan stressli vaziyatlar o’rtasida munosabatlarni emperik o’rganish	123
Shorustamboyeva Shahnoza	Psixologik xizmatda psixologik muammolari mavjud bo‘lgan o’quvchilar bilan olib boriladigan ishlar	127
Dovidova Gulnoz	O’smirlarda kuzatiladigan suitsid sabablari va uni bartaraf etish ususllari	130
Хашимова Зарофат	Оиласидаги конфликтларнинг фарзандларга психологияк таъсири	134
Umarova Xusnora	Kichik mакtab yoshidagi o’quvchilarda shaxslararo munosabatlarining o’ziga xosligi	137
Жабборов Жамшид	Иқтисодий билимларга бўлган эҳтиёжлар таснифи	141
Xasanova Nazira	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish	144
Bazarbay Qalmenov	Balalar döretilwshiligin rawajlandiriwda milliy muzikaniň áhmiyeti	147
To’rayev Mardonjon	Yuqumli kasallikkular, koronavirusni kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish	152
Абсалиева Зарифа	Мактабгача ёшдаги аутизмга чалинган болаларда тасвирий фаолият тури орқали майдада моторикани ривожлантириш	156
O’roqova Zebo	Maktabbacha ta’lim sohasi pedagoglarining raqamli savodxonligini oshirish	159
Kazaxbaeva Dilbar	Ta’lim jarayonida o’quvchilar bilish faolligini boshqarishning psixologik xususiyatlari	162
Tosheva Mohinur	Yoshlarda stressogen vaziyatlarda psixologik chidamlilikni oshirish imkoniyatlari.	164
Umarova Sitorabonu, Egamnazarov Murod	Shaxslararo muloqotda nizolar va ularning paydo boliш ehtimoli	168
Toshniyozova Aziza	Maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda maktabgacha ta’lim va ota-onada hamkorligi	170
Xolova Shaxriya	MTT yoshdagagi bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishning zamонавиyy texnologiyalari	173
Ёдгорова Насиба	Бола тарбиясида ота-онанинг ўрни ва вазифаси	176
Бобомуродова Зарифа	Оила — маънавиятимиз таянчи	179
Baxramova Qanoatxon	Bugungi ta’lim va tarbiya jarayoniga psixologik muhitning ta’siri	181
Юнусов Равшан	“Педагогика ва психология” таълим йўналиши бакалаврларини бўлажак касбий фаолиятга тайёрлаш механизмлари	184
Базарова Шахноза, Шодмонов Давронбек	Кичик мактаб ёшидаги болаларнинг психологик ривожланишини таҳлил қилиш	187
Алимарданова Шахло	Из истории морфонологии	192
Oqmizayeva Baxtigul	Umumiy o’ta ta’lim maktablarida o’quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik xizmat samaradorligini oshirish muammolari va yechimlari	196
Мухиддинова Феруза	Формирование психофизической готовности студентов узбекского государственного университета физической	199

## Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари

	культуры и спорта средствами индивидуального-игровых видов спорта	
Махсудова Мўтабар	Оилада хуқуқий маданият ва тиббий саводхонликни шакллантиришнинг психологик омиллари	202
Алибоева Дилдора	Бошқарув маданияти ва унинг бошқариш қобилиятларини ривожлантиришдаги ўрни	205
Дехкамбаева Зилола	Психолого-педагогический аспект преодоления стрессовых ситуаций в подростковом возрасте	208
Содикова Муаттар	Ўсмирлик даврида ўқувчиларда юзага келадиган жаларёнлар ва уларнинг ечимлари	211
Röziyeva Gulnogor	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasi xususiyatlari	214
Ergasheva Zebuniso	Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish	217
Хамроева Умида	Қадимги шарқда психологик қарашларнинг пайдо бўлиши	223
Baxromova Hurzoda	Diniy ong shakllanish asoslari	228
Ачилова Кумринисо	Бола тарбиясида мусиқанинг роли	231
Rizoqulov Xusrav	Tarbiyasi og'ir o'quvchilar psixodiagnostikasi va ular bilan ishslash	234
Imamova Raxima	O'quvchilarning aql-zakovati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik-psixologik yondashuv	237
Жураев Хайдаржон	Оиласидан муносабатларнинг бола хулқ-атворнинг шаклланишига таъсири	240
И момкулова Фотима	Харбий хизматчи оиласида эр-хотин муносабатларининг ижтимоий психологик хусусиятлари	242
Abdijamilova Charos	Korrupsiya – jamiyat tanazzuli poydevori	245
Yuldashev Ixtiyor	Qum terapiyasi psixologiyaning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida	248
Бекбергенова Салихжамал	Болалар психологиясини ўрганувчи методлар	251
Жабборов Азим, Кодиров Обид	Жиноят мотивлари шаклланган ўсмирлар хулқ-атворини эмпирик тадқиқ этиш таҳлиллари	254
<b>МУНДАРИЖА</b>		260

